



ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2020



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2020-yil, noyabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2020

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2020, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Negmatovich – iqtisod fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisod fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Choriyev Abdushukur Choriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Azim Meyliqulovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Sunnatova Ra'no Izzatovna, psixologiya fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Morogin Vladimir Grigoryevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Xakassiya davlat universiteti, Rossiya)

Belobrikina Olga Alfonsasovna, psixologiya fanlari nomzodi, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Ne'matovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qosimov Fayzullo Muhammedovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jumayev Ulug'bek Sattorovich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

2020, специальный выпуск

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решения ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по **педагогике** и **психологии**.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Чориев Абдушукур Чориевич, доктор педагогических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Кахҳаров Сиддик Кахҳарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Баратов Шариф Рамазанович, доктор психологических наук, профессор

Джаббаров Азим Мейликулович, доктор психологических наук, профессор

Суннатов Рано Иззатовна, доктор психологических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Морогин Владимир Григорьевич, доктор психологических наук, профессор (Абакан, Россия)

Белобрыкина Ольга Альфонсасовна, кандидат психологических наук, профессор (Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Ахмедова Шоира Негматовна, доктор филологических наук, профессор

Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Хаитов Шадман Ахмадович, доктор исторических наук, профессор

Тураев Халим Хаджиевич, доктор исторических наук, профессор

Мирзаев Шавкат Мустакимович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Бутабоев Мухаммаджон Гуйчиевич, доктор экономических наук, профессор

Буриев Сулаймон Буриевич, доктор биологических наук, профессор

Олимов Ширинбай Шарапович, доктор педагогических наук, профессор

Кахҳаров Отабек Сиддикович, доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент

Касимов Файзулло Мухаммедович, кандидат педагогических наук, доцент

Жумаев Улугбек Саттарович, кандидат психологических наук, доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

2020, special release

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Ph.D. of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov. **Deputy Editor:** Ph.D. of Economics, Prof.

Bakhtiyor N. Navruz-zade. **Editor:** Ph.D. of Pedagogy, Prof. Alijon R. Khamraev

Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Abdurashid Ch. Choriev

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakiyeva (Bulgaria)

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova

Ph.D. of Psychology, Prof. Sharif R. Baratov

Ph.D. of Psychology, Prof. Azim M. Jabbarov

Ph.D. of Psychology, Prof. Rano I. Sunnatova

Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir G. Morogin (Abakan, Russia)

Ph.D. of Psychology Sciences, Prof. Olga A. Belobrikina (Novosibirsk, Russia)

Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraine)

Ph.D. of Technical sciences, Prof. Shavkat M. Mirzaev

Ph.D. of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov

Ph.D. of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Ph.D. of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Ph.D. of Philology, Prof. Shoirra N. Akhmedova,

Ph.D. of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Ph.D. of Historical Sciences, Prof. Shadman A. Khaitov

Ph.D. of Historical Sciences, Prof. Halim H. Turaev

Ph.D. of Economics, Prof. Nasir M. Mahmudov

Ph.D. of Economics, Prof. Mukhammadjon T. Butaboev

Ph.D. of Biological Science, Prof. Sulaymon B. Buriev

Ph.D. of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Ph.D. doctor of philosophy in economics Otabek S. Kahhorov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Fayzullo M. Kasimov

Ph.D. of Psychology Sciences, Prof. Ulugbek. S. Jumaev

МУНДАРИЖА

Обиджон ХАМИДОВ. Бошланғич таълимда ўқитиш самарадорлигини оширишнинг устувор вазибалари.....	7
Қахрамон ТЎХСАНОВ. Бошланғич синфларда мустақил ишлар орқали ўқувчилар нутқи ва тафаккурини ривожлантиришнинг назарий ва амалий асослари.....	9
Алижон ҲАМРОЕВ. Бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштиришнинг методик таъминоти.....	12
G‘ulom SAYFULLAYEV. Luiza ALIMOVA. Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarida tabiatda “suv” mavzusini o‘tish.....	17
Нигора АДIZОВА. Қизиқмачоқларнинг асосий образлар олами.....	22
Fayzullo QOSIMOV, Firdavs QOSIMOV. Boshlang‘Ich sinf o‘quvchilarini sodda masalalar bilan tanishtirish metodikasi	26
Rustambek QO‘LDOSHEV. Birinchi sinf chapaqay o‘quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni	32
Gulchehra CHO‘LLIYEVA. Nutq ohangi xususida	36
Mardon YARASHOV. Boshlang‘Ich sinf matematika ta‘limini ijodiy tashkil etishda ta‘lim tamoyillarining o‘rni	39
Shabnam YUSUFZODA. O‘quvchi mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari	44
Hamro RAHMATOV. Boshlang‘ich sinflar matematika darslarida tipik masalalar yechishga o‘rgatish texnologiyasi.....	47
Mavluda QOSIMOVA, Asror QOSIMOV. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini proporsional bog‘lanishga doir masalalarni yechishga o‘rgatish metodikasi	50
Nodirabegim RAJABOVA. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklaridagi misollar yechish jarayonida o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan ayrim xatolar va ularni bartaraf etish	54
Shabnam YUSUFZODA. Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish o‘quv jarayoni sifatini oshirish asosi sifatida	59
Gavhar SAIDOVA. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan zamonaviy dars shakllari	63
Yulduz NUROVA. O‘zbek xalq paremalogiyasida toponim va antroponim maqollarining etnolingvistik ifodalanish xususiyatlari	68
Zilola ABDIYEVA. Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi bolalarning fazoviy tasavvurini shakllantirishda uzviylikni ta‘minlash	71
Saodat QODIROVA. “Zarbulmasal” asarining janriy xususiyatlari	74
Dilora SIDIQOVA. Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta‘lim va loyihalash texnologiyasi.....	80
Umida TOG‘AYEVA. Boshlang‘Ich sinf ona tili darslarida predmetlararo integratsion yondashuv	83
Malika XAYDAROVA. Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlari	87
Yulduz PO‘LOTOVA. Boshlang‘Ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni takomillashtirish xususiyatlari va tamoyillari.....	89
Нодира АДIZОВА. Бухоро туман топонимиясининг мавзуий-номинатив таснифи	95
Мухтор РЎЗИЕВ. Дидактик ходисалар тизимиға замонавий ёндашув	99
Шоира ҚУРБОНОВА. Таълим жараёнида замонавий педагогик технология турларининг кўлланиши	102
Меҳринисо ҲАКИМОВА. Мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлаш устида ишлаш.	105
Ирода РАЖАБОВА. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя	109
Малика ХАЙДАРОВА. Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этиш йўллари.....	115
Hamro RAHMATOV, Ixtiyor AXROROV. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga didaktik o‘yinlar .	118

Мохинур САИДОВА. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг моҳияти, усуллари ва шакллантириладиган компетентлик	123
Махфуза САДУЛЛАЕВА. Пословицы и афоризмы в баснях как фактор развития национальной культуры (на примере басни “Калила и Димна” Индии).....	128
Машхура ЮЛДАШЕВА. Развитие толерантности в истории Восточной культуры	132
Махбуба SHARIPOVA. O‘lmas an’ana va marosimlar-ma’naviyatimizning nodir hazinasi	135
Машхура ЮЛДАШЕВА. Шарқ маданияти тарихида бағрикенгликни ривожлантириш	139
Лайло ОЧИЛОВА, Н. РАЗЗОҚОВА. Компьютер технологияларидан бошланғич синфлардаги математика дарсларида фойдаланиш	144
Моҳира ТУРДИЕВА. Педагогик-психологик ҳамда ихтисослик фанлари интеграциясини таъминлаш масалалари.....	147

Обиджон ХАМИДОВ
Бухоро давлат университети ректори

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

Жаҳонда бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштиришнинг креатив механизмлари амалиётга татбиқ этилган. Халқаро ташкилотлар ва ривожланган давлатлар лингводидактика ва нутқий фаолиятни ривожлантириш, она тили дарсларида контрастив лингвистика, компетент ёндашувни фаоллаштиришга аҳамият қаратиб келмоқда. ЮНЕСКО томонидан 2030 йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида “сифатли таълим ижодий тафаккурни ва билимни рағбатлантиради, саводхонлик ва ҳисоб малакалари асосларини, шунингдек, таҳлил қилиш, муаммоларни ҳал қилиш, фикрлаш ҳамда бошқа шахсларо ва ижтимоий муносабат кўникмаларини юқори даражада эгаллаш” [1]га алоҳида эътибор берилмоқда. Халқаро миқёсда она тили таълимининг сифатини ошириш, ижодий фикрлаш, танқидий тафаккур, ўзини-ўзи баҳолаш, ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштиришга алоҳида эътибор берилмоқда.

Дунёда бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий фаолиятини ташкил этиш, кичик мактаб ёшидан ўқувчилар шахсини ривожлантириш, уларнинг қобилияти, ахлоқий ва эстетик ҳиссиётларини тарбиялаш, ўқишга қизиқиши, хоҳиш ва истагини, ўзи ва ўз атрофини ўраб олган оламга ҳиссий муносабатни шакллантиришга қаратилган ўқув тузилмаларини ишлаб чиқиш, ўқувчининг интеллектуал қобилиятини рўёбга чиқаришга кўмаклашувчи педагогик технологияларга қаратилган илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Ҳозирги давр методикасининг ижодий фаолиятга йўналтирилган концептуал илмий изланишлар предметини бошланғич синф ўқувчиларида ижодийликнинг ёрқинлашуви, ихтирочиликка қизиқиши, эртак, ҳикоя, кўшиқ, мусиқанинг образли мазмунини тезда идрок этиши, ижодий имкониятларини назарда тутган тадқиқотлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатимизда таълим тизимини янги сифат босқичига олиб чиқишдаги ислохотлар бошланғич таълимдан бошлаб ўқувчиларнинг фан асослари бўйича билим ўзлаштиришга эҳтиёжини, асосий миллий ва умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилатларни, меҳнат кўникмаларини, ижодий фикрлаш ва атроф-муҳитга онгли муносабатини шакллантиришга зарур шарт-шароитларни яратиш, бошланғич синф ўқувчилари ижодий фаолиятини ташкил этишнинг педагогик ёндашувларини такомиллаштириш заруратини юзага келтирмоқда. Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида “ўқитиш усулларини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этиш, кичик ёшдан ўқувчиларда ўқишга соғлом, кучли ва таъсирчан мотивацияни шакллантириш [2]” каби муҳим вазифалар белгиланган. Умумий ўрта таълим соҳасини тубдан ислох қилиш, халқаро баҳолаш дастурлари асосида ўқувчиларда ўқиш, саводхонликни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бугунги кунда умумий ўрта таълим мактабларида она тили таълимининг сифати ва самарадорлигига алоҳида эътибор берилмоқда. Ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш, ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мақсадга йўналтирилган тадқиқотларга алоҳида ўрин ажратилмоқда. Бундай ёндашув она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштиришни назарда тутди.

Бунга эса она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш ҳамда ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро мулоқотига асосланган таълим жараёнини ташкил этиш, назорат қилиш ва бошқариш стратегияларини такомиллаштириш орқали эришиш мумкин.

Республикамизда таълим жараёнларини янги сифат босқичига олиб чиқишдаги ислохотлар бошланғич таълимдан бошлаб ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштиришга эҳтиёжини, миллий ва умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилатларни ривожлантиришнинг меъёрий асослар ишлаб чиқилди ва моддий техника базаси такомиллаштирилди. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси [2]”да “Жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содик, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш” масаласига устуворлик берилган. Натижада она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш стратегияларини такомиллаштиришнинг методик имкониятлари янада кенгайди.

Адабиётлар

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

Қаҳрамон ТЎХСАНОВ

Бухоро давлат университети
мактабгача ва бошланғич таълим факультети
декани, филология фанлари номзоди, доцент

БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА МУСТАҚИЛ ИШЛАР ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАР НУТҚИ ВА ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

Мақолада таълим тизимининг дунё амалиётида ўқитиш методикасини индивидуаллаштириши ва компетенциявий ёндашувлар интеграцияси асосида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишга таълим сифатини таъминлашнинг етакчи омили сифатида қаралади. Хусусан, лингвистик компетенцияларни шакллантириши ва ривожлантириши технологияларини, тил таълимини тизимли тарзда ташкил этишнинг методологик асослари юзасидан олиб борилаётган илмий изланишлар нутқ ва тафаккурни ривожлантириши самарадорлигини оширишнинг, шунингдек, интерфаол таълимни медиатеchnологиялар воситасида ташкил этишнинг дидактик таъминотини такомиллаштиришида муҳим аҳамият касб этмоқда.

Калит сўзлар: таълим, мустақил фикрлаш, технология, илгор тажриба, инновация, касбий маҳорат, баркамол шахс

В статье рассматривается индивидуализация методики преподавания системы образования в мировой практике и внедрение современных информационно-коммуникационных технологий на основе интеграции компетентностных подходов в качестве ведущего фактора обеспечения качества образования. В частности, научные исследования, проводимые по технологиям формирования и развития лингвистических компетенций, методологическим основам системной организации языкового образования, играют важную роль в повышении эффективности развития речи и мышления, а также в совершенствовании дидактического обеспечения организации интерактивного образования посредством медиатеchnologies.

Ключевые слова: образование, независимое мышление, технологии, передовой опыт, инновации, профессиональное мастерство, гармоничный человек

The article considers the individualization of teaching methods of the education system in the world practice and the introduction of modern information and communication technologies based on the integration of competence-based approaches as a leading factor in ensuring the quality of education. In particular, research conducted on technologies for the formation and development of linguistic competencies, methodological foundations of the system organization of language education, play an important role in improving the effectiveness of speech and thinking development, as well as in improving the didactic support for the organization of interactive education through media technologies.

Keywords: education, independent thinking, technologies, best practices, innovations, professional skills, harmonious person

Жаҳон миқёсида давлат ва жамият тараққийотининг ҳаракатлантирувчи кучи сифатида қаралаётган таълим мазмунида тил ва тафаккур уйғунлигига эришишнинг инновацион технологиялари орқали таълим самарадорлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айниқса, Япония, Германия, АҚШ, Россия Федерацияси, Канада каби дунёнинг ривожланган мамлакатларининг илмий марказлари ва олий таълим муассасаларида лингвистик компетенцияларнинг назарий ва амалий масалалари етакчи ўринда туради. “Инновацион педагогик технологиялар воситасида ўқитишни тубдан яхшилаш” муаммоси БМТнинг таълим, фан ва маданият масалаларига доир Битимида ҳам долзарб вазифа сифатида белгиланган [1].

Республикамиз таълим муассасаларида ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш, атрофдаги воқеликка онгли муносабатда бўлиш, дахлдорлик ва ижтимоий фаоллик каби сифатларини, нутқ ва тафаккурини ривожлантириш, юксак маънавиятли баркамол шахсни камол топтириш соғлом авлодни вояга етказишнинг муҳим омили сифатида бошланғич таълим тизимидан бошлаб илгор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини кенг миқёсда қўллаш заруратини юзага келтирди. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”да белгилаб берилган “мустақил фикрлайдиган, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга, Ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш”[2] вазифаси шахснинг интеллектуал салоҳиятини шакллантиришга, жамиятнинг ижтимоий, сиёсий, маданий, маърифий ҳаётида фаол ва

муваффақиятли иштирокини таъминлашга замин яратади. Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш йўлини давом эттириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрларни тайёрлаш, илмий ва инновацион ютуқларни амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш қайд қилинган мазкур фармон бошланғич таълим тизимида ҳам ўқитиш сифатини такомиллаштиришни тақозо этади.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунида ҳам таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари сифатида “таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги; давлат таълим стандартлари доирасида таълим олиш” қайд этилган бўлса-да, кузатишлар бошланғич таълим она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқ ва тафаккурини ривожлантириш бўйича сўз ва иборалар устида ишлашнинг мазмуни ва шаклларида узвийлик ва узлуксизлик таъминланмаганлиги, лексик-грамматик машқлар бир тизим сифатида мукамаллик касб этмаганлигини кўрсатди. Бу ҳол “Она тили” дарсликларининг савол-топшириқларида ҳам, методик қўлланмаларда ҳам, ўқитувчилар фаолиятида ҳам аён бўлиб қолди. Она тилидан дидактик материаллар ўта даражада кам ва уларнинг борларини ҳам мазмунан талаб даражасида яратилган деб бўлмайди. Ўқитиш усулларининг тўғри белгилаб олинмаслиги, она тили ўқитишда дарсликдаги машқ шартларинигина бажариш, унинг ҳам нутқ ўстириш, мантиқий тафаккур кўникмаларини ривожлантириш бўйича талаб даражасида бажарилмаслиги ўқувчиларнинг тилни амалий ўзлаштиришларига салбий таъсир этмоқда. Бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий савиясининг пастлиги, боз устига дарсларга алоҳида тайёргарлик кўрилмаслиги туфайли она тили ўқитиш даражаси жаҳон стандарти талабларига жавоб беролмаслигидан кўз юмиб бўлмайди. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да “таълим олувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг ва маърифий ишларнинг самарали шакллари ҳамда услубларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш” [3] вазифалари аниқ-равшан белгилаб берилганлигига ҳамда бошланғич таълим узлуксиз таълимнинг кейинги босқичлари учун мустаҳкам замин яратишига қарамадан, тил таълимида тафаккурни ривожлантирувчи ақлий фаолиятнинг анализ-синтез, таққослаш, аниқлаш, умумлаштириш, далиллаш ва хулосалаш каби усулларига эътиборсизлик тил ва тафаккур уйғунлигига эришишнинг оғрикли нуқталаридандир. Холбуки, ўқувчилар мазкур усуллар ёрдамида ифодаланаётган нутқни гапларга, гапларни сўзларга, сўзларни бўғин ва товушларга ажратади, бу элементлардан сўз ҳақида бир бутун тасаввурга эга бўлади.

Кузатишлар бошланғич синфларнинг она тили дарсликларига киритиладиган машқ материалларини куйидаги мезонлар асосида танлаш ижобий натижалар беришини кўрсатди:

- машқ материалларининг боғланишли матн характерида бўлиши;
- ўрганилаётган тил билимини ўзлаштиришни таъминлаши ва мустаҳкамлаши;
- ўқувчилар ҳаёти билан боғлиқ ва ёшига мос бўлиши;
- давр тараққиётини ўзида акс эттириши;
- таълимнинг шу босқичида ўқитиладиган фанлар билан боғланиши.

Муаммо юзасидан олиб борилган кузатишлар ўқитувчиларнинг дарс режаси ва конспектларида машқ шартларини бажаришдан нарига ўтилмаётганлиги, маъноси изоҳланадиган сўзлар изоҳи акс этмаётганлиги, савол-топшириқларда сўзларнинг маъно қирралари устида ишлашга эътибор берилмаётганлигини кўрсатди.

Тажриба-синов ишларига жалб қилинган мактаб ўқитувчиларининг айрим сўзлар маъносини “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”дан фойдаланмаган ҳолда изоҳлаб, хатога йўл қўйиши, машқ матнлари юзасидан берилган топшириқлар ўқувчиларни мустақил фикрлашга йўналтирмаслиги, мавжуд машқ матнлари асосида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш имкониятидан унумли фойдалана олмаслиги, сўзнинг шахс камолотидаги ўрни ҳамда нутқ ва тафаккурни ривожлантириш устида ишлаш усуллари ва йўналишларини яхши билмаслиги маълум бўлди.

Бизнингча, бошланғич таълимда ўқувчиларга лексикология юзасидан элементар тарзда назарий билимлар мазмуни белгилаб берилмаганлиги юқоридаги каби камчиликларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда.

Она тили ва ўқиш китоби дарсликларидаги шеър, топишмоқ, мақол, тез айтиш, қўшиқларни, насрий асарлардан парчаларни ёдлатиш, она тили дарсларида ёддан ёзув диктанти олиш, ўқиш дарсларида ифодали ёд айттириш каби лексик машқлар ўқувчиларнинг ўқиш кўникмаларини такомиллаштиришга, сўзга муносабатини фаоллаштиришга ёрдам беради, луғатини бойитади, нутқ ва тафаккурини ривожлантиришга сезиларли таъсир кўрсатади.

Дастурда берилган таълим мазмуни ҳамда ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларига қўйилган талаблардан келиб чиқиб, 1-2-синфларда нарса ва шахсларнинг ўзига хос хилма-хил белгилари бўлиши, нарсалар ранги, мазаси, шакли, ҳиди, ҳажми, хусусиятларига кўра фарқланишига доир машқлар ва ўқув топшириқлари нутқ ўстиришда алоҳида ўрин тутади.

Биринчи синфдан бошлаб ўқувчиларни мантикий машқлар воситасида ақлий фаолиятга йўллаш уларни кузатувчанликка ўргатади, тил таълимини онгли ўзлаштиришга, нарса ва ҳодисалар орасидаги ички боғланишларни англашга ёрдам беради.

Бошланғич синф она тили дарсларини кузатишимиз натижасида шу нарса аён бўлдики, мантикий машқлар узвийлик ва узлуксизлик асосида ташкил қилинмаяпти ҳамда тегишли даражада ривожлантириб борилмаяпти. Мантикий машқларни устида ишлашдан олдин, ўқитувчи дарсликдаги ўқув материалларининг мавзуси ва мақсадини белгилаши, кўргазмаларни тайёрлаши ҳамда таҳлил усулини аниқлаб олиши лозим. Кузатишларга қараганда, 1-4-синфларнинг она тили дарсларида ташкил этиладиган мантикий фикрлашга доир машқлар шакл ва мазмун жиҳатидан савод ўргатиш билан боғлиқ машқлардан фарқ қилмайди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Давлат таълим стандартида “она тили таълими олдида қўйилган ижтимоий буюртма ўқувчи шахсини фикрлашга, ўзгалар фикрини англаш ва фикр маҳсулини ёзма шаклда саводли баён қила олишга, яъни коммуникатив саводхонликни ривожлантиришга” ўргатишдан иборат деб кўрсатилган. Шундан келиб чиққан ҳолда она тили таълими “олдида ижтимоий жиҳатдан мукамал шаклланган, мустақил фикрлай оладиган, нутқ ва мулоқот маданияти ривожланган саводхон шахсни камол топтириш мақсади қўйилган” [4]лиги алоҳида қайд этилган.

Адабиётлар

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004. –Б. 19-62.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. –Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжати, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”.//Баркамол авлод -- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: “Шарқ”, 1997. -64б.
4. Бошланғич таълим бўйича янги таҳрирдаги Давлат таълим стандарти.-Т: “Бошланғич таълим” 2005, 5- сон.

Алижон ҲАМРОЕВ

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси мудири, педагогика
фанлари доктори, доцент

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШНИНГ МЕТОДИК ТАЪМИНОТИ

Мақолада бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш мураккаб тизим бўлиб, лойиҳалаш мақсада мувофиқ фаолият, фаолият воситаси, фаолият предмети хусусида фикр юритилади. Ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш жараёнининг дастлабки элементи лойиҳалаш фаолиятидир. Лойиҳалашга оид фаолият – ўқув предметини ўқитиш услубиятини яхши биладиган ўқитувчи, дастурчи, психолог, дизайнер ва бошқаларнинг фаолиятидан иборат бўлиб, ўқитувчи ўзи дарс берадиган ўқув предмети мазмуни, хусусиятларини ҳисобга олиб таълим мақсади, воситаси, натижаларини белгилайди.

Калит сўзлар: ижодий фаолият, лойиҳалаш, мустақил иш, дидактик лойиҳа, дарс, ўқув материали.

В статье рассматривается проектирование творческой деятельности учащихся начальных классов в образовании родного языка, а также целенаправленная деятельность, средства деятельности, предмет деятельности. Первым элементом процесса проектирования творческой деятельности учащихся является проектная деятельность. Проектная деятельность – это деятельность учителя, программиста, психолога, дизайнера и т. д., который хорошо разбирается в методике преподавания предмета, определяет цели, средства, результаты обучения с учетом содержания, особенностей учебного предмета, который преподает сам педагог.

Ключевые слова: творческая деятельность, проектирование, самостоятельная работа, дидактический проект, урок, учебный материал.

The article deals with the design of creative activity of primary school students in the education of their native language, as well as purposeful activities, means of activity, subject of activity. The first element of the process of designing students' creative activities is project activity. Project activity is the activity of a teacher, programmer, psychologist, designer, etc., who is well versed in the methodology of teaching the subject, determines the goals, means, and results of training, taking into account the content and features of the subject taught by the teacher himself.

Keywords: creative activity, design, independent work, didactic project, lesson, educational material.

Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш жараёнида ўқитувчи турли дидактик назария, қарашлардан келиб чиқиб, лойиҳалаш предмети - маълумот мазмунига педагогик ишлов беради. “Маълумот мазмунига педагогик ишлов бериш йўли билан таълимнинг кенг қамровли, қатта, универсал лойиҳалари концепция, дастур, дарслик шаклида тайёрланади. Қатта, универсал дидактик лойиҳаларни амалга оширишда иккиламчи лойиҳалар - дарс ишланмалари, режалари, конспектлари сифатида ишлаб чиқилади” [1, 5].

Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш ўзаро боғлиқ 3 босқичда амалга ошади: 1-босқич - лойиҳанинг идеал лойиҳасини онгда яратиш; 2-босқич - лойиҳани яратиш; 3-босқич - она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш жараёнига татбиқ этиш.

Биринчи босқични амалга ошириш учун фан ўқитувчиси ўқувчиларнинг назарий билим, амалий кўникма ва малакаларига қўйиладиган талабларни, ўқув материални ўрганиш мақсадларини, лойиҳанинг дидактик мақсадларини аниқлайди ва уларни инобатга олган ҳолда ўқув материалга педагогик ишлов беради. Бу босқич фан ўқитувчиси томонидан педагогик сценарий ёзиш билан якунланади.

2-босқичда фан ўқитувчиси тузиб берган педагогик сценарий асосида лойиҳа яратилади.

3-босқич асосан, фан ўқитувчисининг фаолиятидан иборат бўлиб, ўқитувчи тайёр лойиҳа асосида дарсларни ташкил этади.

Дидактик лойиҳани бажариш эса икки босқичда амалга оширилади: лойиҳани тайёрлаш босқичи; лойиҳани амалга ошириш босқичи [2]. Лойиҳани амалга ошириш босқичида ўқитувчи томонидан ўқувчиларнинг қуйидаги ўқув ишлари ташкил этилади:

- дарснинг мақсади, вазифалари, ўқувчилар бажарадиган муаммо, топшириқларни уларга етказиш, қилинадиган ишлар бўйича кўрсатмалар бериш;

- ўқувчиларни фаол мустақил фаолиятга йўллаш, ўқувчилар диққатини мавзуга қаратиш, кизиқишларини ошириш, янги муаммоларни ечишга эҳтиёж ва ўқишга ҳавас уйғотиш;

- жорий ўқув ишларининг натижасини назорат қилиш таълим жараёнининг ажралмас қисми саналади. Таълим натижалари дастурда кўзда тутилган савол, топшириқ, муаммо, машқ, тест топшириқлари воситасида назорат қилинади.

Тайёрланган лойиҳа педагогик ишланма бўлиб, унда у ёки бу мавзу бўйича ахборотларни қабул қилиш, унга ишлов бериш, билимлар асосида кўникмаларни шакллантириш, кўникмаларни такомиллаштириб малака даражасига кўтариш, мавзунини тўлиқ ўзлаштириш масалалари тўлиқ қамраб олинади. Бундан кўринадики, лойиҳада:

-таълим жараёнининг акт, бўғин, босқич, даврлари ҳисобга олинади;

-ўқитиш меҳнатининг ўзига хос хусусиятлари қайд этилади;

-ўқувчиларнинг ўқув материални идрок этиш, уларни билиш, тушуниш, татбиқ қилиш, таҳлил қилиш ва қайта бирлаштириш, баҳолашга оид хатти-ҳаракатлари назарда тутилади;

-таълим натижалари, ўзлаштиришнинг қуйи даражасидан юқори даражасига кўтарилиш омиллари, машқлар тизими, тестлар тўплами кўзда тутилади. Ўқувчи ва ўқув материалнинг ўзаро таъсири ўқувчи фаолиятига кўра таҳлил қилиниб, бу таъсирнинг жараёний хусусиятлари тавсифланди. Энди ўзаро таъсир ўқув материалга кўра ўрганилади. Шу йўл билан ўзаро таъсирга воситавий тавсиф беришга ҳаракат қиламиз. Ўзаро таъсирга олдин ўқувчи, кейин ўқув материали жиҳатидан тавсиф бериш йўли билан унинг моҳиятини англашимиз осонлашади [3].

Ўзаро таъсир яхлит тизим бўлиб, ўзига оид мақсад, восита, натижага эга. Олдинги босқичда амалга оширилган мақсад, кейинги босқичда янги билимларни эгаллаш, янги-янги муаммо, топшириқларни бажариш воситасига айланади. Зеро, "ижодий билишнинг асосий белгиларидан бири, инсоннинг ўз ихтиёридаги билимларни янги билимлар билан бойитиш шарт сифатида ишлатишдир" [4, 53].

Бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштиришни амалга ошириш босқичлари ўқувчилар томонидан ҳал этиладиган вазифалар, ўқувчилар фаолияти, ўқитувчи фаолияти, ўқитиш шакллари ва усулларида ташкил топади.

Лойиҳалаш фаолияти:

1. Қидирув-изланиш ва муаммони таҳлил қилиш:

- лойиҳа мавзусини танлаш;

- лойиҳани режалаштириш;

-дарс босқичи бўйича тадбирлар;

- йиғиш, ўрганиш;

-ахборотни қайта ишлаш ва таҳлил;

-лойиҳа мавзуси ҳақида маълумот;

- муаммони муҳокама қилиш (ўқитувчи ва тенгдошлари билан);

- вазифалар берилди;

- маълумотларни такомиллаштириш ва таҳлил қилиш;

- қўйилган мақсадлар ва ҳаракат режасини танлаш;

- изланиш олиб бориш;

- ўқувчилар рағбатлантирилади;

- иштирокчилар учун муаммо ўртага ташланади ва ўқитувчи унинг муҳокамасини ташкил этади, лойиҳа мақсадларини тушунтиради;

- назорат қилади, маслаҳат беради;

- муаммо атрофида суҳбат ташкил этилади;

- ҳикоя;

- маслаҳат;

- мустақил иш;

- экскурсия.

2. Лойиҳа ечимни излаш:

- ўқувчилар томонидан таклиф этилган вариантларини ўрганиш;

- муаммони ечиш учун муқобил вариантларни танлаш;

- иктисодий самарадорлик (фанлараро ёки мавзулараро интеграция);

- асосий ечимни танлаш;

- ахборот билан ишлаш;

- синтез ва анализ бажариш ва ғояларни баҳолаш;
- график ишлар бажарилади;
- муаммога дахлдор таклифларни муҳокама қилинади;
- ечимларни танлашда ёрдам беради;
- маслаҳат;
- ўқитувчи томонидан тавсиялар берилади;

- суҳбатлашиш;

- мунозара;

- “brainstorming”;
- морфологик таҳлил;
- ТРИЗ;
- ролли ўйин;
- мустақил иш.

3. Дарс давомида ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятини амалга ошириш режасини тайёрланади ва лойиҳа амалга оширилади:

- дарсга керакли жиҳозларни танлаш;
- режалаштирилган вазифаларни бажариш;
- жорий сифат назорати;
- ўз-ўзини назорат қилиш мақсадида машқлар тайёрланади;
- ўқувчилар фаолиятини ташкил этилади ва мувофиқлаштирилади;
- янги тушунчалар билан таништирилади;
- ўқув материаллари тайёрланади;
- суҳбатлашиш;
- машқ қилиш;
- мустақил иш;
- амалий ишлар

4. Якуний баҳолаш босқичи:

- жараён таҳлили
- натижалар ижроси;
- ўз-ўзини таҳлил қилиш;
- натижаларни баҳолаш;
- муаммо бўйича ҳимоя ташкил этилади;
- ўқувчиларнинг муаммо атрофидаги баҳс-мунозарасида қатнашади;
- дарс жараёнида ролли ўйин ташкил этилади;
- симуляция ва фаоллик ўйини [4].

Ўқув лойиҳасининг босқичлари:

1. Лойиҳага кириш мавзу: муаммоли баён, гуруҳни шакллантириш.

2. Лойиҳа режасини муҳокама қилиш: ижодий ном танлаш, режани яқка тартибда ва гуруҳларда муҳокама қилиш, мумкин бўлган ахборот манбаларини муҳокама қилиш.


3. Ўқувчининг мустақил фаолияти, изланиш материални умумлаштириш.

4. Лойиҳа бўйича таклифлар.

5. Лойиҳани ҳимоя қилиш.

Ўзаро таъсир яхлит тизим сифатида уч ҳолатга эга: бошланғич, ўрта, охири. Юқоридаги уч ҳолатга кўра бола онгида қатор ходисалар амал қилади: муаммо ёки топшириқни англаш; тушуниш ва ечимларни қабул қилиш; муаммо ёки топшириқни бажариш. Ҳар бир натижага энг камида икки хил восита орқали эришилади: муаммо ёки топшириқни англаш, предметлар (сўз) билан мулоқот қилиш (1) ва билимлар, фаолият усуллари, ҳаётий тажрибани фаоллаштириш (2); ечимларни қабул қилиш, нарсалар билан қилинган мулоқотга кўра олинган ахборот (1) ва билишнинг психологик имкониятлари – хотира, тафаккур, ақлий фаолият усуллари ишлатиш (2); бажариш, шу ходисага оид онгдаги тушунчаларни ишлатиш (1) ва мантикий усуллар – таққослаш, танлаш, индукция ёки дедукция. Ўқувчи ва ўқув материалининг уч ҳолатида уч хил натижага эришилади: 1) англаш; бу жараёнда билишнинг физиологик имкониятлари ва уларга оид воситалар иштирок этади; 2) ечимни қабул қилиш; муаммоларни бажаришнинг бу ҳолатида билишнинг психологик имкониятлари ва уларга оид воситалар иштирок этади; 3) бажариш; кейинги ҳолатда билишнинг мантикий механизмлари ва уларга оид воситалар қатнашади. Бинобарин, ўқув материалларини, уларнинг турли

шакллари - муаммо, топшириқларни бажариш уч хил асосга - физиологик, психологик, логик механизмларга, уларга оид восита ҳамда натижаларга эга.



2.1.6-расм. Ўқув лойиҳасининг босқичлари

Бошланғич ҳолат - янги билим, янги фаолият усуллари эгаллаш учун олдин ўзлаштирилган билим, малака, ижодий фаолият тажрибаси, шаклланган муносабатларни фаоллаштириш. Шундай ўқув ҳолати берилган бўлсин: 9 та икки бўғинли сўз берилган. (олма, анор, амма, беҳи, хола, китоб, узум, ота, бола). Бўғинларига кўра шу сўзларни қандай қилиб икки гуруҳга ажратиб ёзиш мумкин?

Топшириқ. **2-синф** ўқувчиларига мўлжаллаб тузилган [1]. Сўзларнинг барчаси икки бўғинли бўлиб, улар от сўз туркумига оид. Топшириқни юқоридаги ҳолатда ҳатто синфнинг илғор ўқувчилари ҳам бажара олмади. Болалар очик (охири унли билан тугаган) ва ёпиқ (охири ундош билан тугаган) бўғинлар тўғрисида билимга эга бўлишса-да, олдин ўзлаштирилган билимларни берилган топшириқни бажаришга татбиқ эта олмади. Юқоридаги топшириқда янги фаолият усули ҳам мавжуд: сўзларни бўғинларнинг очик – ёпиқлигига қараб гуруҳларга ажратиб ёзиш. Топшириқнинг бажарилишини осонлантириш, олдин ўрганилган билимларни фаоллаштириш, янги фаолият усулини болаларнинг қайд қилишларини таъминлаш мақсадида қуйидагича нутқий инструкция (НИ) дан фойдаландик.

1- НИ: 9 та 2 бўғинли сўз берилган (олма, анор, амма, беҳи, хола, китоб, узум, ота, бола). Олдин биринчи бўғини ёпиқ, иккинчи бўғини очик бўлган сўзларни, сўнгра иккала бўғини ҳам очик бўлган сўзларни, энг охирида биринчи бўғини очик, иккинчи бўғини ёпиқ бўлган сўзларни уч гуруҳга ажратиб ёзинг.

Келтирилган НИ га кўра болаларнинг аксарияти топшириқни бажара олди: болалар берилган ўқув ҳолатида бўғинга оид билимларини фаоллаштириб, топшириқларнинг ечилишига татбиқ қилишди, очиқ ва ёпиқ бўғинларга кўра сўзларни гуруҳларга ажратиш усули билан танишишди. Топшириқни бажара олмаган ўқувчиларга НИ нинг навбатдаги шакли тавсия қилинди.

2-НИ: 9та сўз берилган (олма, анор, амма, беҳи, хола, китоб, узум, ота, бола). Шу сўзларни намунадагидек уч қаторга ажратиб ёзинг.

1-қатор

2-қатор

3-қатор хол-ва бо-бо қа-лам.

3-НИ. Келтирилган топшириқни бажаришнинг энг осон кўриниши. Болалар берилган намуна асосида билимларни фаоллаштириб, янгича фаолият усулини - бўғинлар тўғрисидаги билимларга кўра сўзларни гуруҳларга ажратиб ёзишди.

Ўзаро таъсирнинг ўрта ҳолати – ўқувчи ва ўқув материалнинг бир-бирига таъсири жараёнидир. Икки нукта ўртасидаги кесма чизиқда кўп нуқталар ётганидек, фаолиятнинг ўқув материали билан тўқнашуви ва уни ўзлаштириб олгунча бўлган даврда, ўқувчи онгида жуда кўп ўзаро дахлдор жараёнлар амал қилади. Жараён – тафаккурнинг ўрганиш объекти, айна ҳолда ўқув материалига дуч келишдир. Тафаккур жараёнларининг ранг-баранглиги, ижодий фаолиятнинг самарали амал қилиши таълим вариантларининг хилма-хиллигини тақозо қилади. Очиқ ва ёпиқ бўғинларга оид билимлар бўйича нутқий инструкциялардан фойдаланиб ижодий характерга эга бўлган қуйидаги вариантларни қўллаш мумкин.

4-НИ. Берилган сўзлар орасидан очиқ бўғин билан бошланиб ёпиқ бўғин билан тугаган икки бўғинли сўзларни ёзинг.

5-НИ. Берилган сўзлар орасидан ёпиқ бўғин билан бошланиб очиқ бўғин билан тугаган икки бўғинли сўзларни ёзинг.

6-НИ. Иккита очиқ бўғиндан иборат икки бўғинли сўзларни ёзинг.

Келтирилган олти вариантда ҳам муаммоларни бажариш воситаси очиқ ва ёпиқ бўғинларга оид билимлар, усули эса берилган сўзлар орасидан ўқитувчи айтган топшириққа мос келадиган сўзларни ажратиб ёзиш. Аммо болалар учун ҳар бир вариант асосида янги ўқув ҳолати ётади. Бинобарин, уларнинг барчаси ижодий характердаги муаммолардир. Ўқувчи ўқув материалдан олинган ахборотни таҳлил этиш, янги билим ва фаолият усулларини олдин ўрганилган билим, малакалар билан таққослаш, билимларни янги-янги шароитларда синаб кўриш йўллари билан ўқув материални ўзлаштиради.

Охирги ҳолат – ўзаро таъсир воситасида эришилган натижа. Таълим жараёнида эришилган натижа кейинчалик янги муаммолар, топшириқларни бажариш воситаси ролида иштирок этади. Юқоридаги олти нутқий инструкция бўйича интеллектуал топшириқларни бажарган ўқувчиларга янада мураккаб, қийин ўқув топшириғи бериш мумкин.

Топшириқ. Матнни ўқиб, икки бўғинли отлардан 9 тасини топинг. Ўзингиз топган сўзлар орасидан очиқ бўғин билан бошланиб, ёпиқ бўғин билан тугаган отларни биринчи устунга, ёпиқ бўғин билан бошланиб, очиқ бўғин билан тугаган отларни иккинчи устунга, икки очиқ бўғиндан иборат сўзларни учинчи устунга ёзинг.

Агар болалар топшириқни асл ҳолида бажара олмаса, уч хил нутқий инструкциядан фойдаланамиз. Мисол учун биринчи нутқий инструкцияни келтирамиз: ўзингиз топган отлар орасидан очиқ бўғин билан бошланиб, ёпиқ бўғин билан тугаган отларнинг учтасини ёзинг. Бу кўринишдаги муаммоларни ҳал қилишда олдин эришилган натижа янги натижани қўлга киритиш воситаси сифатида иштирок этади. Ўқувчи ва ўқув материалнинг ўзаро таъсири натижасида болаларда шаклланган шахсий сифатлар икки хил иш бажаради: фаолият кўрсатиш шарт; янги-янги мақсадларга эришиш воситаси.

Она тили дарслигида берилган мавзуларни қиёслаб ўргатиш орқали муаммоли вазият яратиш, чунончи, ўрганилаётган ҳар бир мавзу ўқувчилардан товушлар, сўзлар ва гапларни қиёслашни шу асосда умумлашмалар ҳосил қилишни талаб этади. Бу ҳам ўз-ўзидан равшанки, муаммоли вазиятни юзага келтиради. Ўқувчиларда “Нима учун?” деган саволга жавоб излашга эҳтиёж туғилади. Масалан: “унли ва ундош товушлар” мавзуси ўрганилаётганда ўқувчи аввал унли ва ундош товушларни тўғри номлашни, кейин қиёслашни, унли ва ундошлар иштирокида сўзлар, сўзлардан эса гаплар ҳосил қилишни, уларнинг бир-биридан фарқларини аниқлашни талаб этади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бошланғич таълим жараёнида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш учун турли шарт-шароитларларни яратиш муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун таълим талабларини аниқлаш ва шу талаблар асосида унинг устувор қўналишларини изланувчи таълим, муаммоли вазиятлар яратиш ва таълимга технологик ёндашув асосида ташкил этилиши ўқувчилар ижодий фаолиятини ташкил этишнинг самарадорлигига замин тайёрлайди.

G‘ulom SAYFULLAYEV

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrası dotsenti, biologiya
fanlari nomzodi

Luiza ALIMOVA

Buxoro davlat universiteti
biologiya kafedrası o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINIF TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA TABIATDA “SUV” MAVZUSINI O‘TISH

Maqolada boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarida o‘tiladigan “Suv hayot manbai” (2- sinf) “Yer usti va yer osti suvlari”, “Suv hayot manbai” (3-sinf), Suv havzalari (4- sinf) mavzularini o‘tish metodlari, hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari foydalanishi uchun qimmatli ilmiy nazariy materiallar keltirilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda o‘z o‘lkasi suv havzalarini o‘rganish va suvni muhofaza qilish muhim o‘rin tutishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: metod, uslub, suv havzalari, ekskursiya, gidrologiya, daryo, ariq, kanal, irmoq, kotlovina, quyi oqim, delta, GES

В этой статье проводится научные данные и методика провидение темы поверхностные и подземные воды Узбекистана. Вода-источник жизни (2- класс), поверхностные и подземные воды, река и озёра (3-класс). Водоёмы (4-класс).

Ключевые слова: Метод, стиль, Водохранилища, экскурсия, гидрология, река, арык, канал, ручей, Котловина, низовья, дельта, ГЭС.

This article provides scientific data and methodology for the topic of surface and groundwater in Uzbekistan. Water is the source of life (class 2), surface and ground waters, rivers and lakes (class 3). Reservoirs (grade 4).

Key words: method, style, Reservoirs, excursion, hydrology, river, ditch, canal, stream, Hollow, lower reaches, delta, GES.

O‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani boshlang‘ich sinflarda amalga oshirishda tabiatshunoslik fani muhim rol o‘ynaydi. Bu predmetdagi mavzularni o‘rganish kichik yoshdagi o‘quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitadi, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga imkon beradi. Shuning uchun ham pedagogika oliy o‘quv yurtlarining talabalari, ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogik o‘quv predmeti sifatida tabiatshunoslikni o‘qitish fanining ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo‘lishlari kerak [1].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun eng muhimi ta‘lim-tarbiya tizimini tushunib olish, tabiatshunoslikni o‘qitish asoslarini, uning uchun xos bo‘lgan shakl, metod va uslublarni o‘quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o‘rganib olishdir. Shuningdek, o‘z o‘lkasining tabiati va qishloq xo‘jaligi xususiyatlarini yaxshi bilishi, o‘quvchilar bilan ish olib borishda o‘lkashunoslik materiallaridan muntazam ravishda foydalanib borishi zarur [2].

Tabiatshunoslikning dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyati shundan iboratki, avvalo hayotning paydo bo‘lishi va rivojlanishining moddiy asoslarini ochib beradi. Shu sababli ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida tabiatshunoslik darslari uchun material mazmunini tanlash vazifasi turadi. Maktab bolalariga ilmiy-texnika taraqqiyoti, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, suv havzalari, daryolar, kanallar, ko‘llar, suv omborlari, suvni muhofaza qilish, hamda o‘lkamiz daryo va ko‘llari iqtisodiy-ekologik samaradorligini oshirish to‘g‘risida hikoya qilish muhimdir. Tabiatshunoslik asoslarini o‘rganishni ishlab chiqarishni ijtimoiy-foydali mehnat bilan bog‘lash katta ahamiyat kasb etadi.

“Suv” mavzusi bilan tanishgan o‘quvchilar tabiatda suv, suvning uch holati, tabiatda suvning aylanishi, suvni asrab-avaylash, ehtiyot qilish, suvni ifloslanishdan muhofaza qilish haqidagi bilimlarga ega bo‘lishadi [3]. Bolalar O‘zbekistonning eng katta daryolari, ularning hosil bo‘lishi, quyilishi, boshlanishi, o‘zani to‘g‘risida dastlabki bilimlarni oladilar. Ular tabiatdagi suv bilan mahalliy suv havzalariga ekskursiyaga borganlarida tanishadilar.

“O‘lkamiz suv havzalari” mavzusi orqali esa o‘quvchilar yerda suv, buloq, daryo va uning qismlari, suv havzalari sohilining tabiati, ularning o‘simliklari va hayvonot dunyosi, suv havzalarini muhofaza qilish

haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishadi [4]. Amaliy darslarda esa xarita va globuslarda daryolar tasvirlanishini taqqoslash, daryo tuzilishini chizish, o'z viloyatlar xaritalaridan qanday daryolar, suv omborlari borligini aniqlash kabi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

O'zbekiston suvliklari gidrologik xususiyatlari jihatidan berk havza hisoblanadi. Chunki O'zbekistonning katta daryolari okeanlar bilan tutashmagan ichki havzaga - Orol dengiziga quyiladi. Kichik daryolari esa tekislikka chiqishi bilanoq ko'plab sug'orishga sarflanishi, yerga shimilishi va bug'lanishi tufayli tugab qoladi.

O'zbekiston daryolarining ikkinchi xususiyati tog'lardan boshlanishidir. Tekisliklar qismida daryolar juda siyrak bo'lib, har kv.km yerga 20 m uzunlikdagi daryo tarmog'i to'g'ri keladi.

Shunday qilib, O'zbekiston hududining 30 % ini ishg'ol qilgan adirlar va tog'lar suv yig'iladigan joy bo'lib, daryolarni to'yintirib tursa, aksincha, hududning 70% ini egallab yotgan tekisliklar yig'ilgan suvlarni turli yo'llar bilan sarflab turadigan joy hisoblanadi.

O'zbekiston daryolarining rejimi to'g'ri tushunish uchun avvalo ularning nimalardan suv olishligini bilish zarur. O'zbekistonning baland tog'laridan boshlanuvchi daryolari qor va muzliklarning erishidan vujudga kelgan suvdan to'yinadi. Shu sababli, respublikamizning eng baland tog'laridan boshlanuvchi Isfayramsoy, So'x, Isfara va boshqa daryolarda muzlarning erishidan vujudga kelgan suv yillik oqimining 25-30% ini tashkil etadi. Uncha baland bo'lmagan tog'lardan boshlanuvchi Sherobodaryo, G'uzordaryo, Ohangaron va boshqalarning suv ta'minotida yomg'ir suvi yillik oqimining 10-15 % ini tashkil qiladi.

O'zbekistondagi ba'zi daryolarni, chunonchi Ohangaron, G'uzordaryo, Zominsuv, Kalas hamda Sherobodaryo va boshqalarni to'yintirib turishda yer osti suvi yillik miqdorining 10-15 % ini va undan ortig'ini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo daryolarini to'yinish jihatidan V. L. Shults quyidagi to'rtta tipga bo'ladi:

1. Muzlik-qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
2. Qor-muzlik suvlaridan to'yinadigan daryolar.
3. Qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
4. Qor-yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar.

Tog'larning eng baland (4500 m dan yuqori) qismidan boshlanuvchi daryolar asosan muzlik va qorlarning erishidan suv oladi. Bunday tipga Amudaryo, Zarafshon, Isfayramsoy, So'x, Isfara kiradi. Bu tipdagi daryolarning to'yinishiga muzlik suvlarining miqdori yillik oqimining 25-30 % ini tashkil etadi. Muzlik-qor suvlaridan to'yinadigan daryolarning suvi u yildan bu yilga kam o'zgaradi va to'lin suv eng kech, ya'ni iyul-avgust oylariga to'g'ri keladi. Chunki bu davrlarda tog'larning baland qismidagi muzlik va qorlar ko'plab eriydi. Iyul-avgust oylarida yillik oqim miqdorining 30,2-50,3 % i o'tadi. Suvning eng kamaygav davri dekabr-mart oylariga to'g'ri keladi.

Ikkinchi tipdagi daryolarga O'zbekiston tog'larining dengiz sathidan 3400-1500 m baland qismlaridan boshlanadigan Sirdaryo, Chirchiq, Surxondaryo kiradi. Bu daryolarning suvi may-iyun oylarida qor ko'plab eriganda juda ko'payib ketadi va yillik oqimining 30-40 % ini tashkil etadi. Bunday daryolarda muzlik suvlarining hissasi ancha kam bo'lib, yillik oqimining 15 % iga teng.

Uchinchi xil daryolar doimiy qor chizig'idan pastda bo'lgan yerlardan boshlanadi. Bularga Qashqadaryo, G'uzordaryo, Ohangaron, G'ovasoy, Sangzor daryolari kiradi; ularning to'lin suv davri qorlar ko'plab eriy boshlagan mart-may oylariga to'g'ri keladi, bu davrda yillik suv miqdorining 60 % igacha oqib o'tadi. Avgust-sentabr oylarida suvi ozayib qoladi.

Nihoyat to'rtinchi tip daryolar 2000 m dan pastda joylashgan yerlardan boshlanib, ko'proq yomg'irlardan suv oladi. Shu tufayli suvi erta bahorda, mart-aprel oylarida juda ko'payadi, yillik oqimining 80% i shu orqali o'tadi; yozning ikkinchi qismida esa suvi juda ozayib, ba'zi soylarning suvi esa qurib qoladi. Bu tipdagi daryolarga Zominsuv, Sherobodaryo, Tusindaryo va juda ko'p soylar kiradi. Bunday daryolarga oqim u yildan - bu yilga va yil davomida eng ko'p o'zgarib turadi.

O'zbekiston daryolari tog'li qismida tez oqib juda katta yemirilishlarini bajaradi - har yili bir necha million tonnalab har xil oziqlarni tekislik qismiga olib kelib yotqizadi. Shu sababli O'zbekiston daryolari ancha loyqa bo'lib, V. L. Shultsning ma'lumotiga ko'ra, o'rta hisobda har bir kubometr daryo suvida 1000 dan 5000 g gacha loyqa bor.

O'zbekistonda 656 daryo va daryochalar bor. Ularning har birining uzunligi 10-50 km bo'lganlari 598 ta (91,2 %) 50-150 km bo'lganlari 36 ta (6,0 %) 150 km dan uzunlari 11 ta (2,8).

O'zbekiston daryolari ichida eng muhimlari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Surxondaryo, Qashqadaryo, Ohangaron, Sangzor, Isfayramsoy, So'x, Isfara, Sherobodaryo va boshqalardir.

Amudaryo - Markaziy Osiyoning eng katta daryosi bo'lib, uning faqat o'rta va quyi oqimi O'zbekiston hududidan o'tadi. Amudaryo o'zining yuqori oqimida Vaxjir nomi bilan atalib, Afg'oniston hududidagi Hindiqush tog'larining 4900 m balandligida joylashgan Vrevskiy muzligidan boshlanadi, so'ngra Vaxjir

daryosi, Tojikistondagi Pomir irmog'ini qo'shib olgach, Panj nomini oladi. Panj daryosi esa Vaxsh daryosi bilan qo'shilgandan so'ng Amudaryo deb nom oladi. Amudaryo o'ngdan Kofirnixon, Surxondaryo, Sherobodaryo, chapdan esa Qunduz irmoqlarini qo'shib oladi.

Amudaryoning uzunligi Vrevskiy muzligidan Orol dengizigacha 2540 km bo'lib, shu masofada o'zani 4840 m pasayadi. Daryo yuqori qismida tog' xarakterli bo'lib, tor va chuqur o'zanda tez hamda sharsharalar hosil qilib oladi.

Tekisliklar qismida sekin oqadi va Sherobodaryoni istisno qilganda, Orol dengizigacha bironta irmoq qabul qilmay, suvi ko'plab sug'orishga, bug'lanishga, shimilishga sarflanadi. Amudaryo Karki yonida bir yilda sekundiga o'rtacha 2000 kubometr suv o'tkazsa, Nukusga yetgach, bu miqdor 1140 kubometr tushib qoladi Demak, daryoning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Karki yonida 63 kub km, Nukus yonida 36 kub km.

Amudaryo suvi odatda ikki marta ko'payadi. Birinchi suv ko'payishi mart-may oylariga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda tog'larning pastki qismidagi qorlar eriydi va bahorgi yomg'ir suvlaridan ko'payadi. Ikkinchi asosiy suv ko'payish davri ayni yoz oylariga to'g'ri keladi. Bu vaqtda tog'larning baland qismidagi doimiy qor va muzliklar eriydi. Amudaryoning maksimal suv sarfi ham yozga, iyun oyiga to'g'ri kelib, Karki yonida sekundiga 9060 kubometr, Nukus yonida esa esa 6930 kubometr suv o'tkazgan. Daryoning suvi qishda ozayib, minimal suv sarfi sekundiga 600 kubometr tushib qoladi.

Amudaryo O'zbekiston va Turkmaniston hududida sekin oqsa ham, lekin o'zanini tez-tez o'zgartirib turadi, ya'ni tentirab oqadi. Bu hodisani mahalliy xalq degish deb ataydi. Daryo qirg'og'ini sutkasiga bir necha metr lab yuvadi. Buni quyidagi misoldan yaxshi bilish mumkin. 1925-yili Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasining sobiq poytaxti To'rtko'l Amudaryodan 8 km uzoqda edi. 1950-yilga kelganda esa daryo shaharning yarmini yuvib ketdi, so'ngra poytaxt Nukusga ko'chirildi.

Amudaryo tog'li qismida tez oqib ostini, tekislik qismida esa yonini ko'p yuvib ketishi tufayli suvi loyqa bo'lib, ko'p oqiziq oqizadi. Daryoning o'rtacha ko'p yillik loyqaligi Karki yonida har kubometr suvda 3-4 kg bo'lsa, Nukus yaqinida 2,17 kg tashkil etadi. Ikkinchi xil qilib aytganda, Nukus yonida yillik o'rtacha oqiziqning miqdori 128 mln. tonnani tashkil etadi. Bu oqiziqning bir qismi Amudaryo deltasida yotqiziladi.

Sirdaryo. O'zbekiston xalq xo'jaligida juda muhim o'rin egallaydi va Markaziy Tyanshandagi Oqshiyrak tog'ida joylashgan Petrov muzligidan Norin nomi bilan boshlanadi. Norin daryosi Farg'ona vodiysidagi Baliqchi qishlog'ida Qoradaryo bilan qo'shib, Sirdaryo nomini oladi. Qoradaryo Farg'ona tizmasidagi Uchsa'id va Qo'lin muzliklaridan boshlanadi. Sirdaryoning uzunligi Norin bilan birga 2982 km, havzasining maydoni 463 ming kv.km

Farg'ona vodiysida Sirdaryoning bironta ham doimiy irmog'i yo'q, lekin suvi sug'orishga sarf bo'lib, Sirdaryoga yetib kelmaydigan Pochchaota, Kosonsoy, G'ovasoy, Chodak kabi o'ng irmoqlari, Isfayramsoy, Shohimardon, So'x, Isfara Xo'jabaqirgan, Oqsuv kabi chap irmoqlari mavjud, Sirdaryo Farg'ona vodiysidan chiqqach, o'ng tomondan Ohangaron, Chirchiq, Kelis va Aris kabi irmoqlarni qo'shib oladi.

Sirdaryo tekislik qismida suvini katta Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Markaziy Farg'ona, Janubiy Farg'ona, Janubiy Mirzachol, Dalvarzin kabi magistral kanallar va juda ko'p sug'orish shoxobchalari orqali sug'orishga sarflaydi. Hozir Sirdaryo suvi bilan 2,5 min. gektar atrofida yer sug'orilmoqda.

Sirdaryo baland tog'lardagi qor va muzlik suvlaridan to'yinganliklari uchun ancha sersuv bo'lib, to'lin suv davri yozga, qishloq xo'jaligi ekinlarining suvga bo'lgan talabi oshgan davrga, iyun-avgust oylariga to'g'ri keladi. Bu davrda sekundiga 1262 kubometr suv o'tkazadi. Uning suvi qishda juda ham ozayib ketadi, yanvarda sekundiga 336 kubometr suv oqadi, o'rtacha suv sarfi esa sekundiga 589 kubometrdir.

Sirdaryoning bir yillik suv miqdori 38 kub km botib, shundan 1973-yili 9,0 km, 1975-yili esa faqat 0,62 kub km qismi Orol dengiziga quyilgan. Qolgani sug'orishga, yerga shimilishiga va bug'lanishiga sarflangan. Sirdaryo ancha loyqa.

Chirchiq daryosi. Sirdaryoning eng katta va eng sersuv o'ng irmog'i bo'lib, G'arbiy Tyanshan tog' sistemasidagi doimiy qor va muzliklardan Chotqol va Piskom nomi bilan boshlanadi. Bu ikki daryo Chorvoqqa qo'shib, Chirchiq nomini oladi va 174 km masofada oqib Chinoz yonida Sirdaryoga quyiladi. Chirchiq daryosi Chorvoq kotlovinasidan chiqqandan so'ng o'ng tomondan Ugom va chap tomondan Oqsoqota kabi katta irmoqlarni qabul qiladi. Suv ko'paygan vaqtlarda Chirchiq daryosiga quyilib, yoz faslida sug'orishga sarflanishi tufayli qurib qoladigan soylar bor. Ularning eng muhimlari o'ng tomondan, Qizilsuv, Avliyosuv, Qoraqiyasoy, Oqtoshsoy, Sho'robsoy, Tovoqsoy, Ozodboshsoy, chap tomondan G'alavasoy, Qoraqulsoy, Parkentsoy, Bosh qizilsoy va boshqalar.

Chirchiq qormuzlik suvlaridan to'yinadi. Shu sababli, uning suvi mart-iyun oylarida ko'payadi, bu davrda yillik oqimning 53% i o'tadi. Eng kam suv sarfi qishga dekabr-fevral oylariga to'g'ri keladi. Maksimal suv sarfi iyun oylarida bo'lib, ba'zan sekundiga 490 kubometr suv oqadi.

Chirchiq daryosining o'rtacha loyqaligi tog'li qismida har bir kubometr suvda 260 g bo'lsa, quyi qismida 520 g.

Zarafshon daryosi. Zarafshon daryosi yuqori oqimida Mastchohdaryo nomi bilan Ko'ksuvtog' tugunida joylashgan Zarafshon muzligidan boshlanadi. U chapdan kelib qo'shilgan Fondaryo bilan birlashgan Zarafshon nomini oladi.

Zarafshon daryosining uzunligi Zarafshon muzligidan Qorako'lgacha 781 km, havzasining maydoni esa 43 ming kv.km.

Zarafshon daryosi tog'li qismida 200 dan ortiq irmoqlariga ega bo'lib, eng kattalari Fondaryo, Qishtudaryo va Mohiyondaryodir. Daryoning Panjakent shahridan g'arbga bo'lgan qismi O'zbekistonda bo'lib, to oxirgacha birona ham doimiy irmoqqa ega emas. Lekin Zarafshon sug'orish natijasida suvi yetib kelmaydigan vaqtli 120 ga yaqin irmoqlari bor. Ularning eng muhimlari Urgutsoy, Omonqotonsoy, Ohaklisoy (chapdan), Tusunsoy, Kattasoy, Oqtepasoy, Ingichkasoy va b (o'ngdan).

Zarafshon daryosi Samarqand shahridan 8 km o'tkach, daryo Oqdaryo va Qoradaryo deb ikkiga bo'linib, Xatirchida yana birlashadi. Ular orasida uzunligi 100 km, eni 10-15 km, maydoni 1200 kv.km bo'lgan Miyonkol oroli vujudga kelgan. Zarafshon daryosi quyi qismida Qorako'ldaryo nomi bilan ham yuritiladi va qadim u Amudaryoga 20 km yetmay qumlar orasida kichik-kichik ko'llarga quyilib qurib qolar edi (bu yerda 40 ta ko'l bor).

Zarafshon muzliqor suvlaridan to'yinadi. Shu sababli suvi iyul-sentabr oylarida ko'payadi, bu davrda yillik oqimning 55% i o'tadi. Qishda esa suvi juda ozayib qoladi, oktabr-fevral oylarida yillik oqimning faqat 14 % i oqadi, xolos.

Zarafshon daryosi yillik o'rtacha suv sarfi Panjakent shahri yonida sekundiga 165 kubometr, maksimal suv sarfi iyulda sekundiga 930 kubometr, minimal suv sarfi esa yanvarda sekundiga 30 kubometrغا teng.

Zarafshon daryosining o'rtacha suv sarfi quyi qismida sekundiga 13 kubometrغا tushub qoladi. Chunki uning suvi Darg'om, Narpoy Shahrud, Vobkent daryo kabi katta-kichik ariqlar, kanal orqali ko'plab sug'orishga sarflanadi

Zarafshon daryosi ancha loyqa bo'lib, yiliga 4310 ming tonna har xil oqiziq oqizadi. Daryo tekislik qismida sekin oqqanligi sababli ba'zi yillari 2 sutka, ba'zi yillari 2,5 oygacha muzlaydi.

Surxondaryo Hisor tog' tizmasining qor va muzliklaridan boshlangan To'palangdaryo bilan Qoratog'daryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryoning uzunligi 196 km bo'lib, o'ng tomondan Sangardak va Xo'jaipok kabi yirik va Boysunsoy, Oqqopchig'oy, Toshko'prik kabi kichik soylarni qabul qiladi.

Surxondaryo Hisor tog'laridagi qorlarning erishidan ko'proq suv olganligi sababli eng ko'p suvi iyul-sentabr oylariga to'g'ri keladi.

Surxondaryo (Manguzar qishlog'i yonida) umumiy yillik suv sarfining 65,2% i mart-iyun oylarida, 12,8 % i iyul-sentabrda, 22% i esa oktabr-fevral oylarida oqadi. Yillik o'rtacha oqimi esa sekundiga 68,2 kubometrغا teng. Maksimal suv sarfi (Manguzar qishlog'ida) aprelda sekundiga 700 kubometrغا, minimal suv sarfi esa sentabrda sekundiga 0,1 kubometrغا teng. Surxondaryoning suvi sug'orishga sarflanishi tufayli ozayib qoladi, yozda Amudaryoga juda kam suv quyadi.

Sheroboddaryo Amudaryoning oxirgi o'ng qirg'og'i bo'lib, Boysuntog' va Qo'hitang tog'larining sharqiy yonbag'ridan boshlanadigan Irg'oli va Qizilsoyning qo'shilishidan vujudga keladi. Uzunligi 186 km bo'lib, o'rtacha suv sarfi tog'dan chiqqanda sekundiga 7,5 kubometr. Uning eng ko'p suvi may oyiga, eng kami yozga to'g'ri keladi.

Qashqadaryo Hisor tizmasining Tog'toy dovoni yaqinida 3000 m balandlikdan boshlanib, 310 km masofada oqadi va Muborakka 10 km yetmasdan, Qarshi cho'lida qurib qoladi. Qashqadaryo tog'li qismida Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo, Yakkabog'daryo, G'uzordaryo kabi irmoqlarni qo'shib olib, tekislikka chiqqach, suvi sug'orishga butunlay sarflanib, qurib qoladi.

Qashqadaryo qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Shu sababli uning o'rtacha yillik suv sarfi Varg'anza qishlog'i yonida sekundiga 11,7 kubometr bo'lsa, shuning 64% ini mart-iyun oylarida, 11,7% i iyul-sentabrda, 24,3% i esa oktabr-fevralda oqadi. Maksimal suv sarfi mart oyida bo'lib, sekundiga 98 kubometrغا, minimal sarfi esa oktabr oyida bo'lib, sekundiga 0,60 kubometrغا teng.

Daryolarning ahamiyati va suvini toza saqlash. Iqlimi quruq, sug'orib dehqonchilik qilishga asoslangan respublikamiz uchun daryolarning sug'orishdagi ahamiyati juda katta. Hozir respublikada daryo suvlari bilan 4,0 mln gektar yer sug'orilmoqda. Shundan 2 mln. gektarga yaqini Sirdaryo havzasiga kiruvchi daryolarning suvi bilan, qolgani esa Amudaryo, Qashqadaryo hamda Zarafshon havzalarining suvlari bilan sug'orilmoqda. Respublikamizda daryo suvlaridan to'g'ri foydalanish uchun umumiy uzunligi 3 ming km keladigan sug'orish kanallari qurilgan: Ularning eng muhimlari Farg'ona vodiysidagi katta farg'ona, Shimoliy va Janubiy Farg'ona, Markaziy Farg'ona, Mirzacholdagi Qirov, Janubiy Mirzacho'1, Chirchiq

daryosidagi Boʻzsuv, Qorasuv, Shimoliy Toshkent, Zarafshon vodiysidagi Dargʻom, Narpay, Shohrud, Vobkent- daryo, Eski Anhor, Amu-Buxoro, Amu-Qorakol, Qarshi magistral kanali, Amudaryoning quyi qismidagi Toshsoqa, Qizketgan va boshqa kanallaridir.

Oʻzbekiston daryolarining energetik ahamiyati ham katta boʻlib, umumiy potensial gidroenergoresursi 8,76 min. Kvt qismi Chirchiq, 0,7 min. Kvt qismi Zarafshon, 0,4 min. Kvt. qismi Sirdaryo daryolariga, qolganlari respublikamizning boshqa daryolariga toʻgʻri keladi.

Respublika daryolari gidroresurslaridan bir qancha GESlar qurilib foydalanilmoqda. Masalan, Chirchiq daryosida 19 ta GES (eng muhimlari Chorvoq, Boʻzsuv, Qodriya GESlari), Sirdaryoda esa Farhod GES qurilgan.

Oʻzbekiston daryolarining yana zavod fabrikalar, shahar va qishloq aholisining suvga boʻlgan ehtiyojini qondirishda, qisman boʻlsada, kema qatnovida va baliq ovlashda ham ahamiyati bor.

Oʻzbekiston xalq xoʻjaligida daryo suvini toza saqlashga alohida eʼtibor berish zarur. Soʻnggi vaqtlarda sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilanishi tufayli kollektor drenaj suvlarining koʻpayishi, zavod-fabrikadan, kommunal xoʻjalikdan chiqindi iflos suv miqdorini ortishi va ularning daryolarga oqizilishi tufayli daryo suvining tabiiy holati buzilib, ifloslanib undagi organik hayotga ham salbiy taʼsir etmoqda. Daryo suvlarining ifloslanishi yashil suv oʻtlarining, baliqlarning kamayib ketishiga, sugʻoriladigan yerlardagi ekinlarning normal oʻsishiga va kishilarning sogʻligʻiga taʼsir etmoqda. Hatto sanoatlashgan joylardan oqib oʻtadigan Chirchiq daryosi suvlari juda ham ifloslanib, qayta tozalanmasdan turib, ichishga yaroqsiz boʻlib bormoqda. Chunki unga Chirchiq, Toshkent, Yangiyoʻl shaharlaridagi zavod-fabrikalardan, shahar kommunal xoʻjaligidan juda koʻp iflos chiqindilar tashlanmoqda. Faqat Chirchiq kimyo kombinati Chirchiq daryosiga yiliga 150 ming kubometr chamasida iflos suv oqizadi. Daryo suv resurslarining toza saqlanishining ahamiyatiga hukumatimiz katta eʼtibor berib, suv toʻgʻrisida, tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida qator qonunlar chiqardi [5]. Bu qonunlarga binoan suv resurslarini toza saqlashga alohida eʼtibor berilib, chiqindi iflos suvlarni daryo va kanallarga oqizish man etiladi yoki ular zararsizlantirib oqiziladi. Kishi hayoti uchun zarur bolgan suv resurslarni toza saqlash bugungi kunda umumxalq ishi boʻlib qoldi. Suvni toza saqlash, uni avaylab asrash, tejamkorlik masalalari, tomchilab sugʻorishga oʻtish va bu ishlarni amalga oshirishni boshlangʻich sinflardan boshlash oʻquvchilar ongiga singdirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Barotov P. va boshqalar. Yer bilimi va oʻlkashunoslik. –Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2012.
2. Barotov P. Oʻzbekiston tabiiy geografiyasi. Pedagogika institutlarning talabalari uchun oʻquv qoʻllanma. - T.: “Oʻqituvchi”, 1996.
3. Bahromov A. Tabiatshunoslik. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Choʻlpon”, 2014.
4. Bahromov A. Tabiatshunoslik. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 4-sinf uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2011.
5. Nuriddinova M. Tabiatshunoslik oʻqitish metodikasi. –Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2005.

Нигора АДIZОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси катта ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича
фалсафа доктори (Phd)

ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРНИНГ АСОСИЙ ОБРАЗЛАР ОЛАМИ

Мақолада қизиқмачоқ ўйини орқали гавдаланадиган асосий образлар ҳақида ҳамда ушбу образлар бола онгига таъсири ҳақида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: қизиқмачоқ, мотив, образ, кўшиқ, таносиб, эпизод, сюжет, афсона, эртак, миф, алданмачоқ, талмех, достон

В статье изложены основные образы, которые воплощаются в игре девочка-игрушка, а также идеи о влиянии этих образов на сознание ребенка.

Ключевые слова: интерес, мотив, образ, песня, танос, эпизод, сюжет, миф, сказка, миф, обманка, талмуд, эпос

The article gives an idea of the main characters that are ravaged by the game of the little girl, as well as their impact on the child's consciousness.

Keywords: curiosity, motivation, image, song, recognition, episode, plot, afsona, fairy tale, myth, delusion, talmex, saga

Кириш: Дунё фольклоршунослигида болалар тарбияси, уларнинг бадиий тафаккури ва эстетик дидини ўстириш мақсадида яратилган халқ оғзаки ижодига алоқадор жанрларнинг юзага келиш жараёни ҳамда тарихий ва поэтик тадрижий ривожини акс эттирувчи манбаларни тўplash, нашр қилиш ва тадқиқ этишга алоҳида эътибор қаратдик. Натижада ўзбек фольклоршунослигида ҳам халқ оғзаки ижоди анъаналарининг талқинларини бадиий тафаккур қонуниятлари тадрижи нуқтаи назаридан тадқиқ этиш имконини берди.

Қизиқмачоқларнинг бадиияти бошқа эркаловчи кўшиқлар бадииятидан бирмунча мукамаллиги билан ажралиб туради. Шунинг учун улар болаларни эстетик тарбиялашда муҳим ўрин тутди. Уларда болаларга яқин ва тушунарли анъанавий образлар қўлланиши кузатилади.

Қизиқмачоқларда, асосан, бир воқелик иккинчисига уланиб бориб, фикрий занжирли боғланишни ҳосил қилади. Шунингдек, уларда образдан-образга, фикрдан-фикрга кўчиб бориш кузатилади.

Қизиқмачоқлар гарчи болалар учун яратилган эса-да, уларда бола образидан ташқари катталар образи ҳам алоҳида ўрин тутди. Шунингдек, қизиқмачоқларда инсонлар, ҳайвонлар, нарса-ҳодисалар образи ифодаланганлиги кузатилади. Шунинг учун қизиқмачоқларнинг образлар олами ранг-баранглик касб этади.

Янга қизиқмачоқларда энг кўп учрайдиган образлардан биридир. Уларда янга образи кўпинча танқид қилиниши кузатилади. Айниқса, қўлидан иш келмайдиган, нўноқ, калтафаҳм янгалар қош этилади:

Остонанинг оқ тоши,
Янгамнинг қалам қоши.
Янгамсан-о, янгамсан,
Кийим бичар билмайсан,
Кийимингни кўтариб,
Хон олдида бормайсан.

Қизлар то турмушга чиққунига қадар рўзғор ишларини, айниқса, таом тайёрлаш, бичиш-тикиш юмушларини ўрганиб олмоқлари лозим. Акс ҳолда улар борган жойида ана шундай маломатга қолиб юришади.

Апишдию, апишди,
Янгамнинг оши пишди.
Акамга кўйган ошни
Ҳакка чўкилаб қочди.
Ҳаккани кува-кува,
Йўлдан бир ойнак топдим,
Ойнакни сувга бердим,
Сув менга балиқ берди,

Балиқни баққолга бердим,
Баққол менга тариқ берди.
Тариқни товукқа бердим,
Товук менга тухум берди.
Тухумни ўтга кўмдим,
Пақ этди-ю, шақ этди,
Ёрилди-кетди.

Ушбу кизикмачокда янганинг эҳтиётсизлиги, эрига қўйган овқатни ҳақканинг чўкилаб, увол қилиши айтилмоқда.

Фольклоршунос А.Мусақулов “ўзбек халқ лирикасидаги янга маълум даражада шомонликка ишонч изларини ифода этувчи бадиий образдир” деб ёзади [5]. Демак, шунинг учун кизикмачокда янганинг душмани сифатида ҳақка талқин қилинмоқда. Чунки ҳақка (қарға) кўпинча ёвузлик тимсоли сифатида акс эттирилади. Янга (шомон) эса ёвузликка қарши курашувчидир. Шу сабабли ҳақка ёвузлик тимсоли сифатида ўз душмани бўлган янга (шомон)ни доимо таъқиб этиб, унга озор етказиш пайида бўлади. Кўпинча унинг ўзига эмас, яқинларига зарар етказиб туради. Шу ишонч ва тасаввур кизикмачокда ҳақканинг янга томонидан эрига қўйилган овқатни еб кетиши мисолида талқин этилмоқда. Қолаверса, кизикмачокнинг кейинги сатрларида келтирилган тимсоллар ҳам бевосита шомонлик предметлари эканлиги билан эътиборни тортади. Маълумки, ойна, сув, балиқ, тарик, товук ва унинг тухуми шомонлар томонидан энг кўп қўлланадиган буюмлардир. Шунинг учун улар янга образи асосида қурилган кизикмачокда таносиб санъати кўринишида қатор келтирилатганлиги бежиз эмас.

А.Мусақулов: “шомонлик, шомон поэзияси туркий халқлар оғзаки ижодида лирик тур шаклланиши ва ривожиди муҳим тарихий асослардан бири бўлган”, – дейди [6,80]. Дарҳақиқат, хоҳ болалар, хоҳ катталар учун яратилган оғзаки лирик намуналар бўлсин, уларда бевосита шомонлик рудиментларининг бадиий ифодасини кузатиш мумкин. Жумладан, бу болалар фольклоридидаги кизикмачокларга ҳам тегишлидир. Агар юқоридаги кизикмачок билан “Дунёда йўқ хунар” деб номланадиган ўзбек халқ эртаги сюжети қиёсланса, уларда ўзига хос мазмуний яқинлик ва ўхшаш образлар борлиги сезилади. Жумладан, бу эртақда бир подшонинг кизи турмушга фақат дунёда йўқ хунарни биладиган одамга чиқаман, деб шарт қўяди. Бу шартни ночорлик туфайли онаси томонидан бир жодугарга емиш сифатида сотиб юборилган бир йигитгина бажара олади. Негаки, бу йигитга жодугарнинг кизи раҳм қилиб, унга ўз қавми хийлаларидан ҳам кўпроқ нарсаларни ўргатади. Йигит шундан фойдаланиб, жодугардан қочиш учун каптарга айланади. Жодугар эса уни тутиш учун қарчиғай тусига қиради. Йигит гулга айланса, қарчиғай кўринишидаги жодугар хушовоз ҳофизга айланади. Йигит тарикқа айланса, жодугар товукқа эврилади. Шунда йигит зудлик билан шақалга айланиб, товук кўринишидаги жодугарни еб қўяди ва яна ўз ҳолига қайтади [2].

Кўриняптики, кизикмачокда ҳам, эртақда ҳам қуш (ҳақка ёки қарчиғай), тарик, товук образлари кетма-кетликда бир хилда ифода этилмоқда.

Кизикмачокларнинг бир тури бўлган алданмачокларда ҳам янга образи кенг учрайди:

Алдатдим-о, алдатдим,	Қамчини сувга урдим,
Чакка халта ялатдим.	Сув манга балиқ берди.
Деворчадан ошириб,	Балиқни едим, қочдим,
Чанғалоққа яширдим.	Чилдиртепадан ошдим.
Ҳақка чўкилаб кетди.	Чилдиртепанинг тоши –
Ҳаккани қува-қува	Янгамнинг қалам қоши.
Йўлимдан ҳасса топдим.	Янгам ясаниб чиқди,
Ҳассани бекка бердим,	Акам кўтариб қочди.
Бек менга қамчи берди.	

Маълумки, ҳасса ёки қамчи ҳам шомонларнинг, авлиёларнинг асосий ритуал предметларидан биридир. Ҳасса кўпинча илоҳий кудрат рамзини ифодаласа, қамчи шомоннинг асосий таянчи, иш қуроли ҳисобланади.

Баъзи кизикмачокларда янга образи қадим левират одати асосида ифода этилганлиги кузатилади:

Ҳақингдан-о, ҳақингдан,	Ошпичокнинг кири йўқ,
Ола сақар отингдан.	Ғапимизнинг сири йўқ.
Этиги келтир кияйлик,	Акамда жон қолмабди,
Чин гумбазга етайлик.	Янгамда сон қолмабди.
Чин гумбази чўлийди,	Жон акамни ўқитдик,
Янгам сувни ялийди.	Янгам зулфин тўқитдик.
Янгам – ямоқ, мен – чапоқ,	Бобом келди, хув деди,
Ўртамизда ошпичоқ.	Бир пиёла сув деди[1].

Левират одатига кўра, агар оилада ака бевақт вафот этса, унинг болалари хор бўлмасин деб, янгани қайнисига никоҳлаб берганлар [6]. Қизикмачокда “жонсиз ака”, “зулфи тўқилган янга”, воқеаларга кекса киши, яъни бобонинг келиб қўшилиши, воқеликнинг “бир пиёла сув” билан тугаши тушунчаларида, айнан шу одатга ишора борлигини сезиш қийин эмас.

Қизикмачоқларда **оқсоқол бува** образи ҳам кўп учрайди:

Гул тердим даста-даста,
 Этаккинамга солдим.
 Этаккинам гули бор,
 Учар-учар қуши бор.
 Учар-учар қушлари
 Учиб кетди ҳавога,
 Қайтиб тушди дарёга.
 Дарё суви қуриди,
 Балиқлари чуриди.
 – Дарё сувин ким қуритди?
 – Оқсоқол бува қуритди.
 – Балиқларни ким чуритди?
 – Оқсоқол бува чуритди.
 Оқ соқол бува ичидан

Бир лаган тилла тушди.

Оқсоқол бува мироб тимсолини ифодалаб келган. Қизикмачоқда сувни сотиб, шахсий бойлик кетидан қувган оқсоқол – мироб шахсига киноя қилинмоқда. Унинг қуш мисоли учарлиги, ғаламислиги, худбинлиги фош этилмоқда.

Айрим қизикмачоқларда **мифологик макон ҳамда мифологик образлар** тилга олингани кузатилади:

Эрам бокқа кирайлик.
 Эрам боғда пари бор,
 Гулнор опа, нари бор.
 Пари сени кўрмасин,
 Кўриб ошиқ бўлмасин.
 Ошиқ бўлса майлига,
 Мажнун бўлсин Лайлига.
 Тоғ бошига гулхан қур,
 Атрофида ўйнаб юр.

Афсона ва эртақларда Эрам боғи – париларнинг макони сифатида талқин этилади. Пари образи Марказий Осиё халқлари мифологиясида алоҳида ўрин тутаяди. Жумладан, ўзбек халқ афсона, эртақ ҳамда дoston матнларида ҳам бу образ кўп учрайди. Ўзбек фольклорига пари образи генезиси ва поэтикаси О.Қаюмов томонидан номзодлик иши сифатида алоҳида махсус тадқиқ қилинган [9].

Маълумки, “Гўрўғли” туркуми дostonларида Гулнор исмли пари номи тилга олинади. У Гўрўғлининг хотинларидан бири бўлиб, туркумдаги дostonлар қаторида “Гулнор пари” номи алоҳида дoston ҳам яратилган. Халқимиз орасида қизига яхши ниятлар билан шу исмни қўйганлар ҳам бор. Аммо аслида халқ париларга кўрқув билан муносабатда бўлади. Шунинг учун шеърда ҳам Гулнор исмли қизга “нари бор, пари сени кўрмасин ва ошиқ бўлмасин” дея мурожаат қилинаётир. Чунки кишилар париларни инсонга ё ёрдам беради, ё зарар етказади, деб ишонади. Халқ эпик асарларида кўпинча пари гўзал қиз кўринишида намоён бўлиб, инсон персонажга ошиқ бўлиб қолиши тасвирланади. Агар инсон у ҳақда бошқаларга гапирмоқчи бўлса, пари уни қаттиқ жазолайди. Демак, ана шундай қарашлар болалар учун яратилган қизикмачоқлар мазмунига ҳам сингдирилганини кўрсатади.

Ушбу матнда яна афсонавий ошиқ-маъшуқлар Лайли ва Мажнун номига ҳам ишора қилиниб, талмеҳ яратилганлигининг гувоҳи бўлиш мумкин. Бу билан инсон ва пари ошиқлигидан кўра инсоннинг инсон билан ошиқлиги афзаллиги таъкидланиши кўзда тутилган.

Қизикмачоқларнинг образлар олами бой ва ранг-барангдир. Уларда бола образидан ташқари катталар образи ҳам алоҳида ўрин тутаяди. Айниқса, янга қизикмачоқларда энг кўп учрайдиган образлардан биридир. Уларда янга образи кўпинча танқид қилинади. Ҳаққа (қарға) янганинг доимий душмани сифатида талқин қилинади. Бунда ҳаққа ёвузлик, янга эса шомон – ёвузликка қарши қурашувчи тимсолида келтирилади. Баъзи қизикмачоқларда янга образи қадим левират одати асосида ифода этилган.

Қизикмачоқларнинг образлари қаторида инсонлар (янга, ака, оқсоқол бува, момо, бола, қиз, чўпон, дехқон, хон, банги, Ҳасан-Ҳусан, Шоди ялоқи, сингари), жонзотлар (туя, бўри, эшак, қўй, эчки, улоқ, ит, мушук, бузоқ, кўзичоқ, куён, бит, балиқ каби), қуш ва паррандалар (қарға, қарға, лайлак, бедана, хўроз, товук, жўжа), осмон ёриткичлари (куёш, ой, юлдузлар), табиат ҳодисалари

(шамол, қор, ёмғир, булут, туман), нарса-ҳодисалар (қамчи, қилич, пичоқ, ўчоқ, тухум, пиёла, бешик, мунчоқ каби), дарахт, ўсимлик ва мевалар (тол, жийда, қизил олма, қизил гул), мифологик макон (Эрам боғи, Олатоғ), мифологик образлар (пари, Ажина, Ялмоғиз) ва ҳоказоларнинг образи алоҳида ўрин тутади ва улар ўзига хос бадиий-эстетик вазифа бажариб келади.

Адабиётлар

1. Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар: Охунжон Сафаров ва Камол Очилов. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 1984. –46-57 б.
2. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1994. – Б.109-113.
3. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: “Фан”, 2001. –136б.
4. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: “Алишер Навоий”, 2008. –Б.10, 45-65,108.
5. Мусақулоа А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Т., 1995. – Б.21.
6. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: “Фан”, 2010.
7. Ўзбек халқ эртаклари. Тузувчи Ш. Турдимов. – Т.: ЎзКП МК нашриёти, 1990. – Б.202-207.
8. Ўраева Д. Болалар фольклорининг жозибали дунёси / Охунжон Сафаров. Ижодий портрет. – Т.: “Мухаррир”, 2010. – Б.52.
9. Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Т., 1999. – Б.25.
10. Ғозибоев Т., Собиров А. Наманган халқ оғзаки бадиий ижоди намуналари. – Наманган, 1993. – Б.54.

Fayzullo QOSIMOV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedra dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Firdavs QOSIMOV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedra o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

Mazkur maqolada boshlang'ich sinfdagi sodda masalalar va bu turdagi masalalarni yechishni o'quvchilarga o'rgatish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sodda masala, metodika, to'rt amal, tarkibli masala, ko'rgazma, elementar, qisim, darslik, orttirish.

В данной статье изложены простые задачи в начальных классах и способы обучения учащихся решению таких задач.

Ключевые слова: простая задача, методика, четыре действия, содержательная задача, выставка, элементарная, предмет, учебник, приобретение

This article describes the simple issues in the elementary school and ways to teach students how to solve these types of problems.

Keywords: simple issue, methodology, four apply, content issue, visualization, elementary, section, textbook, win.

Kishilarning kundalik hayotida eng ko'p ishlatadigan tushunchalardan biri bu masala tushunchasidir. Qaysi sohani olmaylik, u xoh ishlab chiqarishmi, yoki fan hamda ta'lim-tarbiya sohasimi bari masala tushunchasiga bog'lanadi. Hatto bola maktabga bormasdan masala to'g'risida tushunchaga ega bo'lmagan holda sodda hayotiy masalalarga duch keladi va uni obrazli-ko'rgazmalar vositasida yechadi.

Bola maktabdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. O'quvchilarning qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchiga eng sodda masala orqali murojaat qiladi. Masalan: "Sening to'rtta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo'ldi?", "Senda beshta yong'oq bor edi, sen bitta yong'oqni ukangga berding. Senda nechta yong'oq qoldi?"

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar yechish bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Eng asosiylaridan yana biri masalalar yechish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalarni puxta o'rganadi. Matematika tili rivojlanadi. Qisqasi, masala bu nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi muhim zvenodir.

"M a t e m a t i k m a s a l a" o' z i n i m a?

Matematik masala -ixcham hikoya bo'lib, unda ba'zi kattaliklarning qiymatlari kiritilgan bo'lib, ularga bog'liq va masala shartida ular bilan ma'lum munosabatlar orqali bog'langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqa ta'rifni ham ishlatashadi. "Masala - bu so'zlar bilan ifodalangan savol bo'lib, uning javobi arifmetik amallar yordamida olinishi mumkin". Bu ta'rif faqat arifmetik masalalarga taaluqlidir.

Masala quyidagi tarkibiy elementlarga ajraladi :

a. *Masalaning sharti* - syujetning so'zlar bayoni bo'lib, unda son qiymatlari masala tarkibiga kiruvchi kattaliklar orasidagi funksional bog'lanish oshkor (sonlar yordamida) holda yoki oshkormas shaklda (so'zlar yordamida) ko'rsatilgan bo'ladi;

b. *Masalaning savoli* - bunda bir yoki bir necha kattalikning noma'lum qiymatlarini bilish taklif qilinadi.

Shunday qilib, har qanday arifmetik masalada noma'lum son va berilgan sonlardan iborat elementlar albatta bo'lishi kerak.

Demak, istalgan arifmetik masala uch komponentdan iborat bo'lar ekan.

a) masalaning matni, b) masaladagi sonli ma'lumotlar, v) masalaning savoli.

Bu uchchala komponent oldida ma'lumotlarning ham yotadi.

A. *Masalaning matni*: qisqa, ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

B. *Sonli ma'lumotlari*: hayotiy, taraqqiyot dinamikamizni ochib beruvchi mantiqan to'g'ri tanlangan, imkoniyat chegarasidan chiqmagan bo'lishi kerak.

V. Matn oxirida so'roq gap tariqasida yozilgan aniq savol bo'lishi kerak.

Shart va savol - masalaning asosiy elementlaridir.

Matnli masalalarning asosiy xususiyati shundaki, ularda izlanayotgan sonni topish uchun berilgan sonlar ustida qanday amallarni bajarish kerakligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmaydi. Shu sababli masala matnida berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi biror bilvosita ko'rgazmalar bo'lishi va bu bog'lanish kerakli arifmetik amallarni tanlash va ular tartibini aniqlashi kerak.

Masalaning to'la yechimi shartning tahlilidan; amallarning bajarilishi tartibini ko'rsatuvchi rejadan; kattalikni u yoki bu qiymati qanday amal bilan topilishi va nega shu amal bilan topilishini tushuntirishdan; arifmetik amallarni bajarish va javobdan iborat bo'ladi.

Masalaning to'la yozma yozilishi juda katta joyni egallaydi va tez yozish ko'nikmasini bo'sh egallagan bolaning ancha vaqtini oladi, shu sababli I-IV sinflarda masala qisqa shartini yozish va bu shartga ko'ra masalani muhokama qilish hamda masala yechimini topish ham qo'llaniladi. Ammo boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni masala yechimiga beriladigan to'la og'zaki tushuntirishni qo'llashga o'rgatish kerak.

Beriladigan masalalar vaqt bo'yicha ham, bolaning aqliy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ham muhim o'rin egallaydi.

Bilimlarni tekshirishda masala o'quvchi tafakurining rivojlanishi haqida fikr yuritish, kerakli amallarni to'g'ri tanlash, hisoblash ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Matematik masalalar soddada va tarkibli masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan mumkin bo'lgan masalalar sodda masalalar deyiladi. Bir necha sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal yordamida yechiladigan masalalar tarkibli masalalar deyiladi.

Har qanday sodda masalaga doir ikkita teskari masala tuzish mumkin. Masalan, "Hovlida beshta qiz o'ynayotgan edi. Ularning ikkitasi uyga ketdi. Hovlida necha qiz qoldi?" masalaga ikkita teskari masala tuzish mumkin. 1) "Hovlida bir necha qiz o'ynayotgan edi. Ikkita qiz uyiga ketganidan keyin hovlida uchta qiz qoldi. Oldin hovlida necha qiz o'ynayotgan edi?"

2) "Hovlida beshta qiz o'ynayotgan edi. Bir necha qiz uyiga ketganidan keyin hovlida uchta qiz qoldi. Necha qiz uyiga ketgan?"

Sodda masalalar orasidan bilvosita ifodalangan masalalar ajratiladi. Masalan, quyidagi masala shunday masalalar jumlasiga kiradi: "Stol ustida yettita qalam bor. Bular qutidagi qalamlardan to'rtta ortiq. Qutida nechta qalam bor?" Bu masala shartida "ortiq" deyilgan, masala esa ayirish bilan yechiladi ($7-4=3$).

Sodda masalalarning asosiy turlarini quyidagicha taqsimlash boshlang'ich maktabda qo'llanish uchun qulay:

1. Arifmetik amallar mazmunini ochishga doir masalalar: yig'indini, qoldiqni bir xil qo'shiluvchilar yig'indisi (ko'paytma)ni topishga, mazmuniga ko'ra bo'lishga va teng qismlarga bo'lishga doir masalalar.

2. Amalning noma'lum hadlarini (qo'shiluvchi, kamayuvchi, ayiruvchi, ko'paytuvchi, bo'linuvchi, bo'luvchi) topishga doir masalalar.

3. Bir necha birlik (yoki bir necha marta) "ortiq", yoki "kam" munosabati bilan bog'liq masalalar: sonni bir necha birlik (yoki bir necha marta) orttirish (yoki kamaytirish)ga doir bevosita (yoki bilvosita) ifodalangan masalalar, sonlarni ayirmali (yoki karrali) taqqoslashga doir masalalar.

4. Kattaliklarning proporsional bog'lanishlariga doir masalalar.

Hamma turdagi sodda masalalar o'quvchi uchun quyidagi maqsadlarga kerak bo'ladi.

1. Matematik masalaning tarkibi: uning sharti, berilganlari, savollari, izlanayotgan miqdori, yechimi, savoli, javobi, amallari, shuningdek ortiq, kam, qancha bo'lsa, shuncha, teng va hokazo atamallari bilan tanishish.

2. Bolalarda masala savoliga javob berish uchun bajarish kerak bo'ladigan, amallarni tanlashga ongli munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

3. Shartga kirgan kattaliklar orasidagi elementlar funksional munosabatlarni birinchi marta ko'rish, amallar hadlari orasidagi bog'lanishni tushunish.

4. Har xil matematik mashqlarni hayot bilan bog'lash, bu bolalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ko'nikmalarni egallash jarayonini jonlantiradi.

5. Sodda masala matnini o'zgartirish ustida ishlash o'quvchiga ko'proq abstrakt matematik tushunchalarni egallash imkonini beradi.

6. O'quvchini har xil tarkibli masalalarni yechishga tayyorlash.

7. Bola ongiga matematika asoslarini joylash, uning bilim doirasini kengaytirish, tafakkurini rivojlantirish va tartibga solish, iroda va talabchanlikni tarbiyalash.

Bolalarni sodda masalalar bilan tanishtirish.

Bolalar eng oldin tanishadigan dastlabki masalalar, tabiiyki bolalar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalar shunday masalalar jumlasiga kiradi. Bunday masalalarni yechish bilan tanishtirishni parallel olib borish maqsadga muvofiq. Bunday masalalarga quyidagilar kiradi:

1. Malika 2 ta qo'g'irchoq va 1 ta koptok rasmini chizdi. Malika nechta o'yinchoq rasmini chizgan?
2. Shuxrat jo'yakdan 5 ta pomidor uzdi. Tushlikda 3 ta pomidorni yeyishdi. Nechta pomidor qoldi?
3. Stol ustida 5 ta katak va shuncha bir chiziqli daftar bor. Stol ustida hammasi bo'lib nechta daftar bor?

Bu kabi masalalar bilan o'quvchilar tanishar ekan, dastlab masala tushunchasi, masala matni tushunchasi, masalada berilganlar va masala savoli tushunchalari mazmun va mohiyatini bilib olishadi. Bunday turdagi masalalarni yechishda amallarni ongli tanlash ko'nikmasi o'quvchida shakllanishi har bir o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi zarur. Bu turdagi masalalar bilan tanishtirish davrida bolalarda masala matnini o'qish malakasi yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli ko'rgazmali-obrazli vositalardan ko'proq foydalanish kerak bo'ladi. Texnika vositalari, qo'lda tayyorlangan harakatli ko'rgazmalar shular jumlasidandir. Yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalar bilan tanishtirishda dastlab to'la ko'rsatmalilikdan foydalanish maqsadga muvofiq. Yuqoridagi 1-masala bo'yicha o'qituvchi bolalarga masalani o'qib berar ekan, Malika 2ta qo'g'irchoq rasmini chizdi, degan jumlaning aytib 2 ta qo'g'irchoq rasmini doskaga ilib qo'yadi. So'ngra 1 ta koptok rasmini chizdi jumlagacha mos 1 ta koptok rasmini qo'g'irchoqlar rasmi yoniga qo'yadi. Masala savolini o'qib, Malika nechta o'yinchoq rasmi chizganini o'quvchilardan so'raydi. Dastlab o'quvchilar masala javobini 2ga 1ni qo'shish orqali topmay, doskaga ilingan o'yinchoqlar sonini sanash orqali topishadi. O'qituvchi masala yechimini amalni ongli to'g'ri tanlab, masalada berilgan sonlar ustida arifmetik amallarni to'g'ri bajarishga o'rgatmog'i kerak. Fikrimizni quyidagi masala bilan oydinlashtiramiz.

Masala. Nodir 4 ta qo'ziqorin terdi. Sobir esa 3 ta qo'ziqorin terdi. Nodir va Sobir birga nechta qo'ziqorin terishdi ?

Ushbu masalani shartli ko'rgazmalilikdan foydalanib o'quvchilar bilan muhokama qilib bajariladi. Masala matni o'quvchilarga o'qilgach o'qituvchi sinf jamoasi bilan quyidagi savol javoblari o'tkazishi mumkin

- Masalada nima haqida gap boryapti? (Bolalarning qo'ziqorin terishi haqida gap boryapti)
- Kimlar qo'ziqorin terishgan ekan? (Nodir va Sobir)
- Nodir nechta qo'ziqorin tergan ekan? (4 ta)

O'qituvchi 4ta qo'ziqorin rasmi tasvirlangan kartochkani bolalarga ko'rsatib, sanab convert ichiga soladi. Yana savol berishni davom ettiradi.

- Sobir nechta qo'ziqorin tergan? ? (3 ta)

O'qituvchi 3 ta qo'ziqorin rasmi tasvirlangan kortochkani o'quvchilarga sanattirib ularni ham konvert ichiga soladi. O'quvchilarga savol berishni davom ettiradi.

-Masala savoli bizdan nimani topishni talab qiladi? (Nodir va Sobir birga nechta qo'ziqorin terishganini)

Bu holatda o'quvchi masala yechimini predmetlar sanog'i orqali topa olmaydi. Ongli tarzda qo'shish amalini tanlab, 4ga 3ni qo'shishi kerak bo'ladi.

Sodda masalalarning qiyinligi bo'yicha 2-tur bu sonni bir necha birlik orttirish yoki kamaytirishga doir masalalar:

- 1.Obidda 7 ta, Anvarda esa undan 3 ta ortiq kitob bor. Anvarda nechta kitob bor?
- 2.Ozoda 5 ta ertak, Go'zal esa undan 2 ta kam ertak o'qidi. Go'zal nechta ertak o'qigan?

Sodda masalalarning navbatdagi qiyinroq turi noma'lum qo'shiluvchini topishga doir. Masalan: "Taqsimchada 6 ta nok va bir nechta olma bor. Mevalarning hammasi 9 ta. Taqsimchada nechta olma bor?"

Shundan keyin sonlarni ayirmali taqqoslashga doir va "Nechta ortiq?" va "Nechta kam?" savoli ikki xil masala keladi. Masalan: "Olimda 5 ta Obidda esa 3 ta o'yinchoq bor. Olimning o'yinchoqlari Obidning o'yinchoqlaridan nechta ortiq?" Shu shartning o'zida ikkinchi savolni bunday ifodalash mumkin: "Obidning o'yinchoqlardan Olimning o'yinchoqlaridan nechta kam?"

Shundan keyin o'quvchilar noma'lum kamayuvchi va noma'lum ayiriluvchini topishga doir masalalarni yechish bilan tanishtiriladi. Bu xil masalalar ismsiz sonlar va syujetli holda beriladi: "Noma'lum sondan olti ayirildi va to'rt hosil bo'ldi. Noma'lum son nimaga teng?"

Keyin syujetli masalalar yechiladi: “O‘tloqda o‘n ikkita g‘oz o‘tlab yurgan edi. Bir nechta g‘oz daraxtlar orasiga kirib ketgandan keyin o‘tloqda oltita g‘oz qoldi. Nechta g‘oz daraxtlar orasiga kirib ketgan?”

Shundan keyin bolalar bir nechta bir xil qo‘shiluvchilarning yig‘indisini topishga doir masalalarni qo‘shish, ko‘paytirish bilan yechishga o‘tadilar: “Oshxonada har birida uch litrdan to‘rt banka meva sharbati bor. Bu bankalarda necha litr sharbat bor?”

So‘ng mazmuniga ko‘ra bo‘lish, teng qismlarga bo‘lishga doir masalalar bilan tanishadilar: “Buvida 10 ta sabzi bor edi. U sabzilarni beshtadan qilib bog‘ladi necha bog‘ sabzi hosil bo‘ldi?”- degan masala mazmuniga ko‘ra bo‘lish bilan “O‘n ikkita qalamni uchta o‘quvchiga barovardan bo‘lib berishdi. Har qaysi o‘quvchi nechtdan qalam oldi?” -degan masala teng qismlarga bo‘lish bilan yechiladi. Qiyinligi bo‘yicha masalalarning navbatdagi gruppasi noma‘lum ko‘paytuvchini topishga doir, undan keyin noma‘lum bo‘linuvchi va bo‘luvchini toptshga doir masalalardan iborat. Qiyinligi bo‘yicha masalalarning navbatdagi gruppasi noma‘lum ko‘paytuvchini topishga doir, undan keyin noma‘lum bo‘linuvchi va bo‘luvchini topishga doir masalalardan iborat.

Shundan keyin bolalar karrali taqqoslashga doir masalalar bilan tanishadilar: “Gulzor ustida 8 ta ninachi va 2 ta kapalak uchib yuribdi. Ninachilar kapalaklardan necha marta ko‘p? Kapalakalar ninachilardan necha marta kam?”.

Shundan keyin 2-sinf o‘quvchilari soni bir nechta marta orttirish va kamaytirishga doir sodda masalalar yechish bilan tanishadilar.

Sonning ulushini va ulushiga ko‘ra sonning o‘zini topishga doir masalalar bilan 3-sinf o‘quvchilari sonlarni karrali taqqoslashlarini o‘rgangandan keyin tanishadilar. Ulushlariga doir eng elementar masalalar olib qaraladi: “Kitob 60 betli. “Bola kitobning 1/3 qismini o‘qidi. Bola necha bet o‘qigan?”

So‘ng o‘quvchilar vaqtga doir sodda masalalar yechish bilan tanishadilar: “Bola uyidan soat 8:30 da yo‘lga chiqdi va soat 8:50 da maktabga yetib keldi. Bola yo‘lga necha minut sarflaganini soat modeli yordamida toping”.

Bolalarni sodda masalalar bilan tanishtirishning dastlabki bosqichida o‘qituvchi oldida bir qancha murakkab muammolar paydo bo‘ladi:

1. Bolalar ongiga masala bilan bog‘liq bo‘lgan aniq tushunchalarga doir ikkilamchi signallar kirishi va mustahkamlanishi kerak.

2. O‘quvchilarda masalada berilgan sonlarni va izlanayotgan sonni ko‘ra olish malakasini hosil qilish.

3. Amallar va ularning hadlarini ongli tushunishga o‘rgatish. Bolalar 5 ichida sanashning ba‘zi malakalarini egallab olganlaridan keyin, uni o‘rganishni davom ettirish bilan birga masalalar va ularni yechish bilan tanishtirish ishini olib borish kerak. O‘qituvchi stoldan chap qo‘liga 2 ta daftar oladi va “Chap qo‘limda 2 ta daftar bor”-deydi, so‘ngra o‘ng qo‘liga yana 2 ta daftar oladi va “O‘ng qo‘limda 2 ta daftar bor. Ikkala qo‘limda nechta daftar bor?” -deydi.

Bolalar harakatli masalalarni yechishni o‘zlashtirib olganlaridan va shunday masalalardan birini yechib bo‘lganlaridan keyin o‘qituvchi bunday deyishi mumkin: “Biz sizlar bilan masala yechdik, endi yana bitta masala yechamiz. Tinglang, men masalani o‘qib beraman”-masala shartini o‘qiydi, bolalar esa uni eshitadi.

O‘qituvchi “Shart, amal, masala, savol yechilishi, javobi” tushunchalari ta‘rifini bermaydi. Bularni bolalar o‘zlari amaliy ravishda o‘zlashtiradilar.

Navbatdagi darslarning birida o‘quvchilar berilgan va izlayotgan son bilan tanishadilar.

Ma‘lumki, har qanday matntli masalani yechish jarayoni bir nechta bosqichdan iborat:

1. Masalani o‘zlashtirish va uning dastlabki tahlili.
2. Yechimni izlash, yechim rejasini tuzish.
3. Yechishni bajarish va masala savoliga javob berish.
4. Yechimni tekshirish va zarur bo‘lsa, uni to‘g‘rilash. Masala savoliga javobni uzil-kesil ifodalash.

Birinchi bosqichda o‘quvchining asosiy vazifasi masala nima haqda?

Masalada nima ma‘lum? Nimani topish kerak?

Bu bosqichning bajarilishi uchun quyidagi usullar ajrailadi:

1. Masalada tavsiflangan hayotiy vaziyatni tasavvur qilish.
2. Masala matnini ma‘noli qismlarga bo‘lish.
3. Masala matnini qayta ifodalash.
4. Masalada tavsiflangan vaziyatni: a) real predmetlar b) predmet modellar v) rasm yoki chizma shaklidagi grafik modellar yordamida tasvirlash.

Sodda masala qisqa yozuvining shakli har xil bo‘lishi mumkin. Qanday shaklni tanlash masala tarkibi va mazmuniga bog‘liq. Yozuv shaklini tanlab, berilganlarni va izlanayotganlarni shunday joylashtirish

kerakki, ular orasidagi bog'lanishlar tushunarli bo'lib ko'rinib tursin. Masalan yuqorida tahlil qilingan masalani ustun shaklida yozish qo'lay, bu holda yozuv matematik mazmunini yorqin ifodalaydi, berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanish yorqin ko'rinib turadi.

“Parpi 4 ta, Malik esa 5 ta baliqcha tutdi. Bolalar hammasi bo'lib nechta baliqcha tutishdi?” Masalasida qisqa yozuvni bir satrga joylashtirish va berilganlarni katta qavs bilan birlashtirish qo'lay Qavs va uning ostidagi so'roq belgisi bu holda berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

Birinchi sinfdan boshlab shartli belgilardan foydalaniladi. Masalan, “Naimaning 4 ta qo'g'irchoq'i bor. Lolaning qo'g'irchoqlari ham shuncha. Naima bilan Lolaning qo'g'irchoqlari birgalikda nechta?” masalasiga doir rasmda Naimaning qo'g'irchoqlarini qizil doirachalar bilan, Lolaning qo'g'irchoqlarini ko'k rangli doirachalar bilan belgilanadi.

Bolalar masalani to'g'ri yechish uchun amal tanlashda qanday yordam berish kerak? Avvalo masalani tahlil qilish kerak, tahlil haqida biz yuqorida gapirgan edik. Bolalarni masalada aytilgan konkret vaziyatni tasavvur qilishga, berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni tushunishga o'rgatib bo'lganidan keyin o'qituvchi oddiy nabor polotnosidan foydalanishi mumkin, uning alohida cho'ntaklariga bir xil predmetlarning mos sonlarini qo'yish kerak bo'ladi.

Masala matnida shartda berilganlarga mos keluvchi ayrim ma'noli qismlarni ajratish masalani qisqacha to'g'ri yozish va arifmetik amallarni to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Konkret misol qaraymiz. Oldindan doskaga yozib qo'yilgan ushbu “Donxo'rakda yettita qushcha bor edi. Yana bir nechta qushcha uchib keldi. Hammasi bo'lib donxo'rakda o'nta qushcha qo'ndi. Donxo'rakda nechta qushcha uchib keldi?” Masalani o'qib, o'quvchilar o'qituvchi boshchiligida birinchi ma'lumot haqida nima aytilgan bo'lsa hammasini ajratishadi, ya'ni masalaning birinchi ma'noli qismini aniqlaydilar va uni vertikal chiziq bilan ajratib qo'yadilar, shundan keyin sharning 2-3 ma'noli qismlarini ajratadilar. Masalan ma'noli qismlarga bunday bo'linganday bo'ladi: “Donxo'rakda yettita qushcha bor edi. Yana bir nechta qushcha uchib keldi. Hammasi bo'lib donxo'rakda o'nta qushcha qo'ndi. Donxo'rakda nechta qushcha uchib keldi?”

Shundan keyin bolalar ajratilgan har bir qismda eng muhim so'zlar va sonlarni ajratadilar. O'quvchilar ushbularni ta'kidlaydilar: “qushcha bor”. “Bir nechta qushcha uchib ketdi”. “Hammasi o'nta qushcha bo'ldi” “Nechta uchib keldi?” Shundan keyin masalani qisqa yozish bolalarga qiyinchilik qilmaydi:

Bor edi-7ta qush

Uchib keldi-?

Hammasi-10 ta qush

Masalaning qisqa yozuvi va qilingan tahlil o'quvchilarning amalni to'g'ri tanlashlariga yordam beradi. Ular nechta qushcha uchib kelganini bilish uchun o'ndan yettini ayirish lozimligini fahmlaydilar:

$$10 - 7 = 3$$

Bolalarga muvofiqiyatli ta'lim berishda mustaqil ravishda sodda masalalar tuzish malakasi katta ahamiyatga ega. Tarkibli masalalarni yechishda o'quvchilarning sodda masalalar tuzish va ularni ketma-ket qatorini mustaqil tuzishlariga to'g'ri keladi.

Agar o'quvchi sodda masalalar tuzish malakasiga ega bo'lsa, u holda bunday o'quvchilar tarkibli masala yechishga o'rgatish oson. Sodda masalalarni yechishda bolalarni ularga doir har xil savollarni uylab topishga va savollarga doir mos ma'lumotlarni tanlashga majbur qilinishing sababi mana shunda.

Ko'paytirish va bo'lishga doir masalalar.

Dasturga muvofiq qo'shish va ayirishga doir hamda ko'paytirish va bo'lishga doir sodda masalalar bir-biridan vaqt bo'yicha ajratilgan. Ko'paytirish va bo'lish ikkinchi o'quv yiliga o'tkazilgan.

Ikkinchi sinfdan o'quvchilar ko'paytirish va bo'lish bilan tanishishni bir nechta bir xil qo'shiluvchini qo'shishga doir masalalarni yechishdan boshlaydilar. O'qituvchi daftarda 1 sm ga ikkita sig'sa, 6 smga nechta katak sig'ishini topishni taklif qiladi. Bolalar buni hisoblab, yechimni yig'indi shaklida yozadi:

$$2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 12$$

So'ng o'qituvchi buni qisqaroq amal-ko'paytirish bilan almashtirish mumkinligini tushuntirib, bunday yozishadi:

$$2 \bullet 6 = 12$$

Bolalar ko'paytirish, mazmuniga ko'ra bo'lish hamda qismlarga bo'lish bilan tanishganlaridan keyin ularning sodda masalalar bilan ishlash sohasi ancha kengayadi.

Ko'paytirish va bo'lishga doir sodda masalalar bolalar bilan amalda yechiladi. Bolalar o'z stollarida qo'yidagidek topshiriqlarni bajarishadi:

O'nta kvadrat oling: ularni ikkitadan qilib yoying. Necha marta ikkitadan kvadrat hosil bo'ladi? Bu masalani o'zma qanday yechish mamkin?

$$(10: 2 = 5)$$

Keyingi darslarda bolalar bilan bir xil syujetli, ammo ma'lumotlari almashtirib qo'yilgan ikkita masala qaraladi. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasini uzil-kesil chiqarishga biroz keyinroq misol va masalalar yechishda ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirishdan ko'paytma o'zgarimasligi aniqlanishiga doir bir qator kuzatishlar o'tkazgandan keyingina murojaat qilish kerak.

Shundan keyin o'qituvchi bo'lishga doir bir xil sonli ikkita masalani yechishni taklif qiladi, bu masalalarning biri mazmuniga ko'ra bo'lishga ikkinchisi esa teng qismlarga bo'lishga doir bo'ladi.

Keyinroq bolalarni har xil turdagi bog'lanishlar bilan tanishtirishga kirishadilar. Proportsional bog'lanishga doir sodda masalalar ustida ishlashni tashkil qilishda eng oddiy bolalarga masalada berilgan vaziyatni ravshan tasavvur qilishda hamda o'z oldilariga "Javobda u katta son oladimi yoki kichik son oladimi?" Savolni qo'yishga yordam beradigan usullardan foydalanish ma'qul. quyidagi usullarni shunday usullar jumlasiga kiritish mumkin:

1. Masalani ko'rsatmali interpretatsiyalash;

2. O'ylangan masalani amaliy yechish;

3. Berilganlardan birini o'zgartirish, so'ngra bu ma'lumotning o'zgarishiga bog'liq ravishda masala javobining qanday o'zgarishini tahlil qilish;

4. Taqqoslashni aniqlash;

Masalan, "Buvimning 12 sabzisi bor edi. Buvim ularni 3 tadan qilib bog'ladi. Nechta bog'lam hosil bo'ldi?"

Oldin masala "O'ylanaladi". Stoldan 12 ta sabzini eng bo'sh o'quvchi chiqib amalda bajaradi va mustaqil javob beradi- 4 bog'lam. Daftarda sabzilar cho'p orqali tasvirlanadi va ularni bog'lam qilishini o'qituvchi ko'rsatib beradi:

$12 : 3 = 4$ (bog'lam)

So'ng cho'plarni 4, 2 tadan qilib bog'lash aytiladi:

$12 : 4 = 3$ (bog'lam)

$12 : 2 = 6$ (bog'lam)

Xulosa chiqariladi: "qaysi holda ko'p bog'lam hosil bo'ldi? (oxirgi holda) Nega? (Bunda bir bog'lamdagi sabzilar eng kam). Demak, har bir bog'lamda sabzi qancha kam bo'lsa, bog'lamlar shuncha kam bo'ladi va aksincha.

Shunday qilib, proportsional bog'lanishga doir masalalarni yechishda bolalarda masalada qaralayotgan kattaliklar orasida o'rnatilishi mumkin bo'lgan bog'lanishlar xarakteri aniq tasavvurlar shakllangan bo'lishi zarur. Bu ish keyinchalik tarkibli masalalarni yechishda qilinadigan ishlarga asos bo'lishi kerak.

Adabiyotlar

1. Matematikani o'qitishda mantiqiy savodxonlik bo'yicha yagona ta'lim yo'nalishi bo'yicha Matematikani o'qitishda davomiylik. - M.: "Ta'lim", 1978. - S. 24-36.

2. Берков В.Ф. Логика: задачи, упражнения, практикум – Минск: "ТетраСистемс", 1998.

3. Мельникова Т.В. Математика. Развитие логического мышления. – Волгоград: "Учитель," 2009.

Rustambek QO'LDOSHEV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

BIRINCHI SINIF CHAPAQAY O'QUVCHILARINING MAKTABGA MOSLASHISHI, MAKTABGA MOSLASHISHI DAVRIDAGI PEDAGOGIK YORDAMNING MAZMUNI

Ushbu maqolada chapaqay boshlang'ich sinf o'quvchilariga yozishni o'rgatishdagi muammolarni aniqlash va ularni qanday hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Ushbu topshiriqlardan foydalanish chapaqay o'quvchilarga maktabning birinchi kunlaridanoq tezda aniqlash va moslashishga yordam beradi. Maktabga moslashish deganda biz chapaqay bola bilan maktabning o'zaro aloqadorlik jarayonini tushunamiz, buning natijasida ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari, uning mazmuni va o'qitish va tarbiyalash texnologiyalarining xususiyatlariga optimal muvofiqligi, bolaning moyilligi, qiziqishlari, bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: vazifa, moslashish, maktab, chapaqay, o'naqay, yozish, o'rganish.

В данной статье даны инструкции по выявлению и решению проблем при обучении письму учеников начальных классов в левшах. Использование этих заданий поможет левшам быстро идентифицировать и приспособлять учеников с первых дней учебы. Под адаптацией к школе мы понимаем процесс взаимодействия школы с Левшиным ребенком, в результате которого определяются формы организации образовательного процесса, его содержание и оптимальная совместимость с особенностями учебно-воспитательных технологий, склонность, интересы, знания, умения и навыки ребенка.

Ключевые слова: задание, адаптация, школа, левша, унакай, писать, учиться.

This article provides instructions on how to identify and address the problems in teaching writing to chapaqai elementary school students. The use of these assignments will help chapaqai students to identify and adapt quickly from the first days of school. When we say adaptation to school, we understand the process of school interaction with the child, as a result of which the forms of Organization of the educational process, its content and optimal compatibility with the characteristics of teaching and educational technology, the child's predisposition, interests, knowledge, abilities and skills are determined.

Key words: task, adaptation, school, chapaqay, onaqay, write, learn.

“Adaptatsiya” - bu turli xil bilim sohalari tadqiqotchilari tomonidan ko'rib chiqilgan fanlararo tushunchadir. “Adaptatsiya” atamasi lotincha adaptatio - moslashish so'zidan kelib chiqqan. Ehtimol, shuning uchun ham ko'plab mualliflar buni tarjima qilish orqali aniqlaydilar va atrof-muhit sharoitlariga moslashish deb ataydilar, “moslashish” tushunchasining mavjud ta'riflarini tahlil qilish ularni umumiy xususiyatlarga ko'ra guruhlashga imkon beradi: tarjima orqali ta'rif, bu asosan tavnologiya; moslashishni jarayon, hodisa, natija, belgi (belgilar tizimi) sifatida aniqlash.

Y.A. Urmantsev, umumiy nazariya doirasida adaptatsiya va adaptogenez haqida o'qitish tizimini ishlab chiqish uchun mavjud adaptatsiya ta'riflarini tahlil qildi va ularning odatdagi kamchiliklarini ta'kidladi. Tavnologiya:

- ushbu holat tufayli kelib chiqsa, ularda muhim belgilar ko'rsatmalarining yo'qligi;
- ularning qamrab olinishi, qoida tariqasida, mavjud bo'lganlarning ko'p sonli qatoridan bir yoki kam hollarda bir nechta moslashish sinflarini qamrab oladi;
- umuman moslashish ta'rifining yetishmasligi;
- uni o'rganishning mumkin bo'lgan usullari to'g'risida uslubiy ko'rsatmalarining yetishmasligi.

Y.A. Urmantsev tomonidan berilgan moslashuvning umumiy ta'rifini qabul qilish va qo'llab-quvvatlash obyekt va uning yashash muhitining xususiyatlariga mos yoki mos keladigan, ushbu muhitda o'z maqsadlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan, omillarning haqiqiy va mumkin bo'lgan harakatlariga javoban yaratilgan va yaratilgan xususiyatlar tizimi sifatida, biz shunga qaramay ba'zi tushuntirishlarni kiritamiz. Tadqiqotlarimiz davomida, boshlang'ich sinflarda maktabning birinchi yillarida chapaqay o'quvchilarning ta'limga moslashishini o'rganamiz, bu ijtimoiy moslashuv bilan umumiy aloqalar bilan bog'liq. Ijtimoiy moslashuv, umuman moslashish sifatida, uning maqsadi, inson birligi va ijtimoiy muhitni amalga oshirishda shaxs va atrof-muhitning dialektik birligi. Bir tomondan, insonning o'ziga xos tabiati shakllanmoqda, boshqa tomondan, bu muhit o'zgarishi. Ijtimoiy moslashishni tavsiflab, shuni ta'kidlash kerakki, biologik va ijtimoiy mexanizmlar o'rtasida uzviylik mavjud. Biologik, organik - shaxsiy; “Tabiiy”, “mutlaq”, shartsiz - shartli. Bu psixologiyaning tegishli materialidir, shu bilan biologik va ijtimoiy o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi.

Ijtimoiy moslashish muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan (G.A. Ball; V.B. Orlov; E. Erikson). Keng talqin bilan (J. Piaget, G. Ball) moslashish qarama-qarshi yo'naltirilgan joylashish va assimilyatsiya jarayonlarining birligi sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, turar joy organizmning yoki subyektning ishlashini atrof-muhit xususiyatlariga mos ravishda o'zgartirishni ta'minlaydi, ular organizm tuzilishi yoki subyektning xulq-atvor uslubiga muvofiq qayta ishlanadi. Akkomodatsiya va assimilyatsiya jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo muayyan holatlarda ulardan biri yetakchi rol o'ynashi mumkin.

A.Ball adaptatsiyani o'rganishda "individual - atrof-muhit" tizimining ko'p qatlamli tarkibiy qismlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi, chunki obyektiv namoyon bo'lishdagi bir xil voqealar boshqacha talqin qilinishi mumkin. Subyekt o'z maqsadlarini amalga oshirishni o'ziga xos assimilyatsiya turi, ya'ni subyektning atrof-muhit bilan muvozanatini ta'minlaydigan moslashish jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Shaxs tomonidan unga tashqaridan taklif qilingan vazifalarni qabul qilish va hal qilish turar joyning namoyon bo'lishi, ya'ni atrof-muhitga moslashish sifatida talqin qilinishi mumkin. Ammo agar topshiriq shaxs tomonidan qabul qilinsa, uning vazifasiga aylangan bo'lsa, unda uni echishga qaratilgan harakatlar assimilyatsiya namoyon bo'lishi sifatida namoyon bo'ladi. G.A.Balling ta'kidlashicha, agar biz turar joy haqida gapiradigan bo'lsak, ya'ni moslashish tor ma'noda ko'rib chiqilsa, unda "atrof-muhitga moslashish" iborasini ishlatish mumkin, ammo moslashish keng ma'noda "atrof-muhitga moslashish"dan foydalanish kerak. E. Erikson o'ta og'ir holatlarda shaxsiyatni assimilyatsiya qilish, shaxsni yo'qotish xavfi haqida ogohlantirdi. Bu mumkin bo'lgan variantlardan biri, ijtimoiy moslashuv natijalari. Tadqiqotlarimiz davomida maktabning birinchi yillarida chapaqay o'quvchilarning ta'limga moslashishini o'rganamiz, bu ijtimoiy moslashuv bilan umumiy aloqalar bilan bog'liq. Ijtimoiy moslashuv, umuman moslashish sifatida, uning maqsadi, inson birligi va ijtimoiy muhitni amalga oshirishda shaxs va atrof-muhitning dialektik birligi. Bir tomondan, insonning o'ziga xos tabiati shakllanmoqda, boshqa tomondan, bu muhit o'zgarishi. Ijtimoiy moslashishni tavsiflab, shuni ta'kidlash kerakki, biologik va ijtimoiy mexanizmlar o'rtasida uzviylik mavjud.

Biz o'quvchining moslashishini, bir tomondan, tashqi muhitni (boshlang'ich sinflarda o'qitish va tarbiyalash shart-sharoitlarini) uning shaxsiy imkoniyatlariga moslashish uchun faol ravishda assimilyatsiya qilish jarayoni, boshqa tomondan maktabning ta'lim muhitini o'quvchining xususiyatlariga moslashtirish. Ijtimoiy va aqliy moslashuvlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Aqliy moslashish deganda shaxsning (uning faoliyati davomida) va atrof-muhitning psixik xususiyatlari, holatlari va jarayonlarining mosligini o'rnatish jarayoni tushuniladi.

A.V.Morozov ta'kidlaganidek, bu jarayon "shaxsga favqulotda ehtiyojlarni qondirish va ular bilan bog'liq muhim maqsadlarni amalga oshirish, shu bilan birga insonning maksimal faoliyati, uning xulq-atvori va atrof-muhit talablari bajarilishini ta'minlashga imkon beradi".

Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, moslashish darhol sodir bo'lmaydi, lekin asta-sekin, ma'lum bosqichlardan o'tadi.

O'zaro aloqada bo'lgan tomonlarning har birida barcha darajalarda o'zgartirishlar va o'zgarishlar amalga oshirilishi uchun vaqt talab etiladi. Moslashuvning har bir bosqichi boshqa vaqt oralig'ida o'zini namoyon qilishi mumkin. Tez paydo bo'ladigan qisqa muddatli moslashish reaksiyalari evolyutsion-deterministik moslashuvlar bilan ta'minlanadi.

Uzoq muddatli moslashishni amalga oshirish uchun tayyor mexanizmlar mavjud emas; ular asta-sekinlik bilan deterministik old shartlar asosida shakllanadi. Maktab ta'limi sharoitida moslashish jarayonlari nafaqat fiziologik, balki ijtimoiy-psixologik darajalarda ham sodir bo'ladi.

Birinchi kunlardan oq maktab bola oldiga uning oldingi tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo intellektual va jismoniy kuchni maksimal darajada safarbar qilishni talab qiladigan bir qator vazifalarni qo'yadi. Bolaga yangi omillar majmuasi ta'sir qiladi: sinf xonasi, o'qituvchi shaxsiyati, hayot rejimi va mazmunidagi o'zgarishlar, jismoniy faoliyatni odatdagidan uzoq muddat cheklash va hokozo. Ular orasida maktab yo'q qila olmaydiganlari bor: ta'limning boshlanishida bolaning sog'lig'i va rivojlanishining boshlang'ich darajasi, bu asosan biologik va ijtimoiy tarix omillari, ijtimoiy tekislikdagi moslashuvchan qobiliyatlarni tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Biroq, har bir bolani o'qitish boshlanishining optimal yoshi, mashg'ulotning sanitariya-gigiena va moddiy-texnik shartlari, sinfda va uzaytirilgan kun guruhidagi ish soatlari, vaziyatdagi vaziyat kabi omillarni tartibga solish mumkin. Oila umumiy o'quv yuklamasining qiymati, ishtirokchilarning o'quv jarayoniga o'zaro aralashish darajasi (M.M Bezrukix, S. Efimova va boshqalar). Maktabning bevosita vazifalariga o'qituvchilar tomonidan stressli taktikani qo'llash, o'quv jarayonining intensivligi, o'qitish texnologiyalari bilan o'quvchining yoshi va funktsional imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik va boshqalar kabi noqulay omillarni yo'q qilish kiradi. Maktabga moslashish deganda biz chapaqay bola bilan maktabning o'zaro aloqadorlik jarayonini tushunamiz, buning natijasida ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari, uning mazmuni va o'qitish va tarbiyalash texnologiyalarining

xususiyatlariga optimal muvofiqligi, bolaning moyilligi, qiziqishlari, bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari aniqlanadi.

Ushbu o'zaro ta'sirning natijasi - bu bolaning tajribasini boyitish va maktab tomonidan o'quv jarayonini yetarlicha o'zgartirib, o'quvchining individual xususiyatlariga va ta'lim qobiliyatlariga tezda javob berish qobiliyatini egallash. Adaptatsiya - bu bir-biriga nisbatan harakat: bir tomondan, o'quvchi maktabga, uning ta'lim jarayoniga moslashishi, o'qituvchilar uchun ta'lim dasturlarining talablari va boshqalar, boshqa tomondan, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan maktab - bola, uning xususiyatlariga, uning shaxsiyatiga.

M.M.Bezrukning ta'kidlashicha bolaning maktabga moslashishining eng qiyin davri maktabga borishning dastlabki 6-8 haftaligi deyarli barcha bolalar, chapaqay yoki o'naqayliklaridan qat'i nazar, bu davrda qo'l motoriklarini charchashi hayajon yoki aksincha, sustlik, charchoq shikoyati, ishtahani pasayishi kuzatiladi. Bolalar ish bilan shug'ullanish qiyin, tezda chalg'iydilar va ko'pincha charchoq va bosh og'rig'idan shikoyat qiladilar. Ushbu davr sog'lom, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bolalar uchun maktabga eng oson. Uyg'unishi qiyin bo'lganlar orasida, odatda, ko'pincha og'ir kasal bo'lib, turli xil surunkali kasalliklarga chalingan, ayniqsa asab-ruhiy sohasi buzilgan bolalar. Bolaning umumiy zaifligi, har qanday kasallik, ham o'tkir, ham surunkali, funksional etilishning kechikishi va boshqa xavf omillari, markaziy asab tizimining holatini yomonlashishi, ish qobiliyatini pasayishi, charchoqni kuchayishiga va maktabdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Moslashuvning birinchi bosqichida chapaqay birinchi sinf o'quvchilari yozish, o'qish va hisoblashda o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmasligi mumkin. Ammo u charchashi mumkin, ba'zi shikoyatlar paydo bo'ladi. Gap nimada ekanligini aniqlash kerak. Ehtimol, charchoq tez sur'atlarda yoki ish hajmida va maktabda va uyda mantiqsiz ishlab chiqilgan tartib tufayli yuzaga keladi.

Keyingi davr, qisqa muddat - bu nisbatan barqaror ish qobiliyati davri, so'ngra tobora kuchayib boradigan charchoq va ish qobiliyatining pasayishi davri boshlanadi, bu ikkinchi chorakning oxiriga to'g'ri keladi - bu taxminan 15-dekabrda ko'p vaqt. Yil boshida hatto maktabda jiddiy muammolarga duch kelmagan bolalarning aqliy faoliyati keskin pasaygan. Ular ilgari ular uchun qiyin bo'lmagan vazifalarni uddalashni to'xtatadilar, o'qituvchilar va ota-onalarga ko'z yoshlari, injiqliklari, qaysarligi, yomon uyqusi, ishtahasi va to'satdan kayfiyatining o'zgarishi bilan ifodalangan bolalarning e'tiborsizligi, chalg'itishi, ruhiy holatining yomonlashishini qayd etadilar. Dam olish kunlari, agar bola yaxshi dam olgan bo'lsa, o'sib borayotgan taranglik va charchoqni taxminan fevral oyining o'rtalariga qadar yengillashtiradi. Fevral-o'qishning birinchi yilidagi eng qiyin oy. Bu vaqtga kelib charchoq allaqachon yig'ilib qolgan, bolalar ozgina harakat qilishadi, ular havoda unchalik ko'p chiqmaydilar, vitaminlar va ultrabinafsha nurlanish ta'sirining etishmasligi, mashg'ulot yuklari, o'quv faoliyati tezligi va intensivligi keskin oshib boradi, bu esa yomonlashuv bilan birga keladi umumiy holat, ishlashning pasayishi, diqqatni jamlashda qiyinchilik va tez charchash. Ko'pincha arziyas harakatlar tufayli kayfiyatning yomonlashishi, ko'z yoshlari va tajovuzkorlik, yoki aksincha, beparvolik, sustlik, hech narsa qilishni istamaslik mavjud.

Ko'pgina maktab muammolari yuqori funksional stress va og'ir haddan tashqari yukdan kelib chiqadigan charchoq bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun, birinchi navbatda, ortiqcha yukni, kuchlanishni olib tashlash kerak. Haddan tashqari yuklanish nafaqat ishlashga, balki doimiy bo'lsa, rivojlanish va sog'likka salbiy ta'sir qiladi.

Chapaqay birinchi sinf o'quvchilarida moslashish davrining tugashi haqida faqat to'rtinchi chorakda gapirish mumkin, chunki birinchi sinf o'quvchilarining moslashuvi dastlabki 3-5 haftalik mashg'ulotlar yoki birinchi chorak bilan cheklanmaydi. Odatda, birinchi sinf o'quvchilari uchun moslashish davri etti oydan sakkiz oygacha davom etadi. Biz uning nisbiy to'liqligini nazarda tutamiz, chunki moslashish jarayoni hech qachon tugamaydi, chunki "organizm-muhit" tizimi dinamik muvozanat holatida.

Maktabga kirishda bolaning o'tmishdagi tajribasi yangi sharoitda hayot va ishlash uchun yetarli emas bo'lib chiqadi. Ushbu shartlarning talablariga muvofiq o'zingizni yoki atrof-muhitni yoki ikkalasini birgalikda o'zgartirishga ehtiyoj bor. Shunga o'xshash holat har bir birinchi sinf o'quvchisi uchun uchraydi, lekin uni maktabga birinchi marta kelgan Chapaqay bola juda qattiq his qiladi, bu erda hamma narsa o'naqay bolalarga qaratilgan - o'quv qo'llanmalari, metodik materiallar, o'quv qurollari va hokozolar. Chapaqay o'quvchilar uchun yangi sharoitlarga moslashishda yordam berish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasidir.

Adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. -Toshkent, 2017.
2. Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich LEFT-HANDED CHILDREN AND THE LEARNING PROCESS EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). 2020.

3. Avezmurodovich O. R. (2020). Difficulties in learning to write and read left-handed children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), 40-45.
4. Rustambek QO'LDOSHEV. Чапақай болаларни мактабга қандай тайyorlash kerak? *Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal*. -Buxoro 2020-yil, 3-son 145-147 b.
5. Azimov Y., Hamroyev A. Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Ma'ruza matnlari). -Buxoro, 2003, -52 bet.
6. Lomteva T.A. Psychological characteristics of left-handed children, or School problems of left-handers
7. R.A.Qo'ldoshev. Кўмаки педагогӣ ба кўдакони чапдаст дар соли якуми хониш.-GlobeEdit, 2020.
8. Y.Y.Azimov, R.A.Qo'ldoshev. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qo'llanma). GlobeEdit, 2020.
9. Безруких М.М. Леворукий ребенок в школе и дома. – М.: “Вентана-граф”, 2006.
10. Bezrukikh M.M. Learning difficulties in primary school. Reasons, diagnostics, comprehensive assistance. М.: “Eksmo”, 2009.

Gulchehra CHO'LLIYEVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

NUTQ OHANGI XUSUSIDA

Maqolada intonologiya sohasi va uning obyekti bo'lmish ohang haqida fikr yuritilgan bo'lib, ohangning nutqning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi, o'zida nutq maqsadini aks ettirishdek asosiy vazifasi bilan yuqori o'rinda turishi misollar vositasida isbotlab berilgan. Shuningdek, intonologiya va nutq ohangi borasida jahon hamda o'zbek tilshunosligi doirasida amalga oshirilgan ishlar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ohang, intonatsiya, temp, tembr, urg'u, nutq, diskurs, kommunikant.

В статье обсуждается область интонологии и ее предмет - интонация, и на примерах доказывається, что интонация является неотъемлемой частью речи, основной функцией которой является отражение цели речи. Он также рассказал о проделанной работе в области интонологии и интонации речи в области мирового и узбекского языкознания.

Ключевые слова: мелодия, интонация, темп, тембр, ударение, речь, дискурс, коммуникант.

The article discusses the field of intonology and its subject - intonation, and with examples it is proved that intonation is an integral part of speech, the main function of which is to reflect the purpose of speech. He also spoke about the work done in the field of intonology and speech intonation in the field of world and uzbek linguistics.

Key words: melody, intonation, tempo, timbre, stress, speech, discourse, communicant.

Zamonaviy tilshunoslikda til hodisalarini nutq vaziyatidan kelib chiqib tahlil qilish ommalashgan. Chunki nutq murakkab va ko'p o'lchamli o'ziga xosliklarga ega. Til birliklari nutqda turli vazifalarni bajarishga xoslanadi. Kommunikantlarning "axborot berish" yoki "axborot olish" umumiy maqsadi natijasida yuzaga kelgan nutqda shu "nutq maqsadi"ning to'g'ri anglanishi uchun yordam beradigan vositalar qatorida ohang, ya'ni nutq intonatsiyasi turadi.

Intonatsiya so'zlovchining nutq mazmuniga bo'lgan munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Mashhur rus qo'shiqchisi F.A. Shalyapinning obrazli aytishicha, "Intonatsiya - fikrni go'yo temir yo'l poyezdini ko'tarib turgandek ushlab turadi". Intonatsiya tufayli nutqning fonetik bo'linishida hosil bo'lgan birliklar (faza, takt, bo'g'in va tovushlar) bir qatorida bir-birlari bilan ulanadi. Nazariy ahamiyatidan tashqari, intonatsiya chet tillarning namunali talaffuziga o'rgatishda amaliy jihatdan ham juda zarur hisoblanadi [1].

Har qanday nutq harakatdir, bu harakat esa, albatta, ma'lum intonatsiya bilan qo'shib, qorishib yuzaga keladi: nutqning toni, sur'ati, pauzalari, tonning balandligi va kuchi gapning mazmuni va emotsionalligi talablaridan kelib chiqqan holda o'zgarib, tovlanib turadi. Intonatsiyasiz gap ham bo'lmaydi: har bir gapning o'ziga xos intonatsiyasi borligi ham shundan [4]. Masalan, "Buvim keldilar" gapini so'roq, undov yoki xabar ohangida aytish natijasida nutq maqsadini o'zgartirib yuborish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Yoki "Osmon" so'zini "Osmon..." (tugallanmagan ohang, ya'ni fikrning davomi borligi), "Osmon". (xabar ohangi), "Osmon!" (cheksiz his-hayajon, rohatlanish), "Osmon?" (so'roq ohangi) tarzida o'qish nutqning mohiyatini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Demak, ohang "nutq maqsadi"ning to'g'ri tushunilishi uchun asosiy noverbal vosita hisoblanadi.

Intonatsiya lotincha "intonatio" so'zidan kelib chiqqan ("intono, intonare" – "baland ovoz bilan talaffuz qilish"). Intonatsiya – bu nutqning bir-biriga bog'liq ritmik va ohangdor tarkibiy qismlarining majmui [5]. Amerikalik olim Kington ta'kidlaganidek, "intonatsiya – bu nutqiy jarayonning joni". Tilshunoslikda intonatsiyani tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi soha intonologiya hisoblanadi. Olimlar nutq ohangining urg'u, melodika, temp va tembr kabi intonatsion vositalariga to'xtalishadi. Bu vositalardan temp, tembr va urg'u nutq egasining asosiy holati, his-hayajoni va kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladi. O'z maqsadiga ko'ra nutq tempi turlicha bo'lishi mumkin: sekin, o'rta, tez. Nutq tempini o'zgartirish so'zlovchining hissiy holatiga bog'liqdir. Unga ko'proq rol bajarayotgan aktyorlar amal qilishadi. Chunki ular o'zlari ijro qilayotgan aktyorning holatini shu orqali ifodalab bera oladilar [7].

Intonatsiyaning nutq jarayonidagi roli maxsus monografiya tarzida tilshunos olim I.A.Kanter tomonidan o'rganilgan. Olimning "Системный анализ речевой интонации" monografiyasida nutqiy intonatsiyaning fonostilistik tahliliga bag'ishlangan. Rus olimlaridan V.A.Artyomov, I.A.Stezorova, M.A.Burak, E.Benvinist kabi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Moskva fonologiya maktabi vakillaridan biri bo'lgan Aleksandr Aleksandrovich Reformatskiy fonologik tizimda intonatsiyaning o'rnini yoritishga katta hissa qo'shgan olimlardandir. U o'zining "Пролегомены к изучению интонации" nomli asarida intonatsiyaning grammatik (gapga aloqador) va

fonetik (frazaga aloqador) aspektlari borligini aytadi. A.M.Peshkovskiy esa “Интонация и грамматика” maqolasida grammatik nazariyani qurish uchun jumlaning intonatsion tuzilishini o’rganish zarurligini ta’kidlagan edi.

O’zbek tilshunoslikda intonatsiya fonetika sathining tarkibiy qismi, nutqning unsuri sifatida qarab kelingan va nutqiy jarayonda til birliklarini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi; gapning darak, so’roq yoki buyruq mazmunini belgilab beruvchi; gapning davomiyligi yoki tugaganligi kabi ma’nolarni ifodalovchi vosita sifatida tadqiq qilingan. Bugungi kun tilshunosligida esa til unsurlarini real nutqiy jarayon nuqtayi nazaridan, ya’ni pragmatlingvistik aspektda tahlil qilish natijasida intonatsiyaga ham nafaqat ma’lum bir grammatik mazmuni beruvchi vosita, balki nutqiy vaziyatda suhbatga kirishuvchi kommunikantlarning emotsional, ruhiy, psixologik holati kabi xususiyatlari haqida ham ma’lumot beruvchi noverbal vosita sifatida qaralmoqda.

Intonatsiyaga nutqiy jarayon nuqtayi nazaridan qarash uning vazifasini kommunikant nutqi ifodasining butun ma’nolarni tashkil qilish va keyingi jumla bilan mantiqiy bog’lash usuli sifatida ko’rib chiqadi. Intonatsiya nutqning axborot xususiyatini ochib beradi, gaplarning o’zaro bog’liqligini o’zida aks ettiradi. Intonatsiyaga berilgan tavsif yuqoridagi vazifasidan kelib chiqib tahlil qilganda jumalarni mantiqiy ketma-ketlik jihatidan bog’lab, ma’no ifodalovchi, ikkinchidan grammatik vosita va uchunchidan nutqiy hodisa sifatida qarash imkonini beradi. H.Jamolxonov intonatsiyaning til va nutqdagi rolini quyidagicha belgilaydi:

- gapning intonatsion tugalligini ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi;
- gapning ifoda maqsadiga va emotsionallikka ko’ra turlarini farqlashda ishtirok etadi;
- sintaktik aloqalarni ifodalovchi muhim fonetik vosita sanaladi [4].

Intonatsiyaning barcha vazifalari birgalikda “harakatdagi nutq” deb ataladigan og’zaki nutq diskursiyasining boy xususiyatini ifoda etishga yordam beradi.

Kompyuter texnologiyalari rivojlangan “innovatsiya asri”da insonlar orasida aloqa vositasi, uzoqni yaqin qiluvchi vositalar sifatida ham telefon va undagi turli muloqot dasturlari (masalan, telegram, IMO kabi) faol xizmatda. Odamlar xabar yuborish uchun “sms” xizmatidan foydalanishadi, uning imkoniyatlari va qulayliklari bugungi kun kishisi uchun yangilik emas. Shu narsa qiziqki, “sms” xabarlarida so’zlar fikrimizni, ya’ni nutqimizdan ko’zlangan maqsadni to’la aks ettira olmasligi sababli “smile” (inglizcha - “kulgi”)lardan foydalanamiz. Ular nutq egasining asosiy “axboroti”dan tashqari uning shaxsiy fikri, nutq ro’y berayotgan jarayondagi kayfiyati, yoshi, millati kabi rang-barang qo’shimcha ma’nolarni anglatadi. Demak, alifbodagi harflar, lug’atimizdagi so’zlar “nutq maqsadi”ni to’la tushuntirishda “ojizlik qiladi”. Og’zaki nutqda esa aynan shu “smile”lar bajargan vazifani nutq ohangi ifodalab bera oladi. Masalan, asardan olingan quyidagi parchaga e’tibor beraylik: “- *Salqin tushib qoldi, - dedi oyim o’ychan ohangda. – Bolalarning egnida yo’q, boshida yo’q. Ayniqsa, kichkinalarga qiyin*”[3]. Asar muallifi “o’ychan ohang” deb ayolning chorasizligini, oila ustuni – eriga xayrixohligini aks ettirgan. Bu jumla ohangining o’zgarishi nutqiy vaziyatni ham butunlay boshqa tomonga o’zgartirib yuborishga sabab bo’lishi mumkin edi. (Masalan, jahl, bepisandlik, tahdid va h.k.).

Jahon tilshunosligida yakka tartibdagi intonatsion tadqiqotlar uncha uzoq bo’lmagan – XX asrning 50-yillarida, tilshunoslik sohasidagi ulkan yutuqlar va ko’plab dunyo tillarini o’rganish natijasida olingan bir qancha eksperimental ma’lumotlarning to’planishi tufayli boshlandi. Fonetik tahlilning zamonaviy aniq usullarining qo’llanilishi hayratlanarli natijalarga olib keldi, bu esa intonologiyani o’ziga xos tadqiqot obyekti va o’ziga xos tahlil usuliga ega bo’lgan tilshunoslikning mustaqil bo’limi deb e’lon qilish imkonini berdi. Intonatsiya turli tomonlardan o’rganila boshlandi: tilshunoslik, paralingvistik, sotsiologik, didaktik, estetik va boshqalar.

O’zbek tilshunosligida nutq intonatsiyasi doirasida ko’proq badiiy nutq ohangiga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Masalan, tilshunos Anvar Haydarov intonatsiyaning badiiy nutqdagi uslubiy xususiyatlarini o’z tadqiqotida aks ettirgan bo’lsa, umuman nutq ohangining stilistik xususiyatlari haqida Ergash Qilichev “O’zbek tilining praktik stilistikasi” kitobida batafsil tahlil qilgan.

Intonatsiya universal lingvistik vositadir, barcha tillar o’z intonatsiyasiga ega, ammo uning shakli va vazifasi muqarrar ravishda vaziyat nuqtayi nazaridan farqlanadi.

Bugungi kunda ingliz tili ohangining Britaniya va Amerika shevasi o’rtasidagi farqni o’rganishdan boshlangan tadqiqotlar ozarbayjon tili ohangi, italyan tili ohangi, turk tili ohangi kabi ko’plab qiziqarli ilmiy yangiliklarning kashf qilinishiga zamin yaratdi. Ta’kidlash joizki, o’zbek nutqi ohangi shu paytgacha tadqiqot obyekti sifatida olinmagan.

Badiiy asar muallifi o’z qahramonining fe’l-atvori, millati, e’tiqodi, jamiyatdagi o’rni kabi xususiyatlari haqida so’zlar vositasida o’quvchiga ma’lumot beradi. Shu ma’lumotlarini dalillash, o’quvchiga asar g’oyasini singdirish maqsadida qahramon nutqi ohangini ham keltirib o’tadi. O’tkir Hoshimov o’zining “Dunyoning ishlari” qissasida onasiga bog’liq xotiralarni bayon qilar ekan, uning fe’l-atvorni nutqi ohangini berish vositasida ifodalashga harakat qiladi.

1. *Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyig'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi. - Sovuq yegani yo'q, - dedi sekin. - Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan.*

2. *Tolqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo'lak lavlagini puflab-puflab yer ekan.*

-Qiluvdim, - dedi u sekin.

3. *...Tomosha ko'rish uchun sekin mo'raladim.*

- Nima bo'ldi o'zi, ovsinjon. – dedi onam sekingina.

4. *...-Men bir xayrli yumush qiluvdim, - dedi oyim osoyishta ohangda. – Odilxo'ja deganni taniysizmi? Ayollari chevar ekan. Muborak chevar.*

5. *... -Unaqa demang, ovsinjon. – oyim osoyishta ohangda yupatadi. – Kelingiz yomon bolamas, qaysi kuni ko'chada ko'rib qoldim. Og'zidan bol tomib sizni maqtadi[3].*

Keltirilgan parchalardan asarning bosh qahramoni ONAning birovgacha ozor berishdan hayiqadigan, gaplarini ham o'ylab gapiradigan, yumshoq tabiatli, sodda inson ekanligini anglash mumkin.

Yoki shu asarning qahramonlaridan biri Ermon buvani muallif “dunyodagi ikkita beozor odamning bittasi” deya ta'riflab, nutqi ohangini keltirish orqali o'quvchiga u haqida to'laroq ma'lumot berishga urinadi:

1. *-Assalomu aleykum, buvajon.*

- Vaalekum assalom, mulla bo'ling, tasadduq, - deydi Ermon buva salmoqlab. Baribir uning ovozi salmoqli chiqmaydi: xotinlarnikidek ingichka, ammo nihoyatda mehribon.

2. *...Oxirida Ermon buva dasturxonga fotiha o'qiydi:*

- Yaratgan ne'matingga shukur! – deydi ingichka ovozda. – Ilohi omin.

3. *Ermon buva sokin bosh chayqadi.*

-Unaqa demang, poshsha qizim, - dedi ingichka ovoz bilan. – Gunoh bo'ladi. Paxta jannatdan chiqqan, tasadduq [3].

Shu asarda urush dahshati tufayli bir oyda ham o'g'lidan, ham eridan ayrilgan, hayotning beshafqat sinovi oldida o'z jizaligini ko'rsatmaslik va shu bilan alamini yashirish uchun o'zini erkaklardek tanti tutadigan, asrab olgan o'g'liga ham otalik, ham onalik qilayotgan Zebi xolaning nutqi ohangi ham uning fe'l atvorini isbotlashga xizmat qiladi.

...Bir kun maktabga komissiya kelib qoldi... Sinf jim-jit. Shu payt deraza sharaqlab ochildi-da, Zebi xolaning yo'g'on ovozi eshitildi: - Vali, ma, non![3]

Zebi xolaning yog'on ovozi uning xarakteriga mos tarzda berilgani qahramonga berilgan ta'rifni isbotlagandek bo'ladi.

Asarning “Bozor” deb nomlangan qismida mol bozoridagi dallol tasviri beriladi. Uning ham nutqida kasbiga xos nutq ohangi o'z ifodasini topadi.

...-Savob ham kerak-da odamga, yanga! – Dallol oyimning qo'liqo'yib yubormay shang'illadi. – Dunyoga kelib, nima karomat ko'rsatdik?! Ko'prik soldikmi, machit qurdikmi...

Yoki:

...-Bu zotli mol, akam aylanay! Onasi har yili ikkitadan tug'adi, - dedi dallol shang'illab. – Kuniga bir chirpitdan sut beradi. Suti sigirnikidan ham yog'li[3].

Dallolning suhbat jarayonida shang'illashi uning kasbi taqozosi kelib chiqadigan nutq ohangini bildiradi.

Asar mutolaasiga kirishgan o'quvchi qahramonlar xarakteri, yashash tarzi, yurish turishi haqida ma'lumot olish bilan birga, o'zini ular bilan muloqotda bo'lgandek, yuzma-yuz ko'rishgandek his qilaveradi. Shu tarzda muallif asar syujeti orqali aytmoqchi bo'lgan g'oyani kitobxoniga “yuqtiradi”.

O'zbek tilshunosligida intonologiya sohasi hali chuqur o'rganilmagan soha bo'lib, turli tadqiqotlar ustida ishlashni talab qiladi. Ohang nutqning ajralmas komponenti bo'lib, o'zida nutqqa kirishayotgan shaxsning aytayotgan axborotiga qo'shimcha tarzda o'zi haqida rang-barang ma'lumotlarni, hatto tilning milliy o'ziga xosligini aks ettira oladigan na til va na nutq birligi hisoblanmaydigan alohida vosita sanaladi.

Adabiyotlar

1. Abduzohur Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. 178 bet, 22-bet.
 2. Haydarov A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDU ilmiy axborotnomasi. 2006. 69-72-b.
 3. Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. Қисса. – Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2018. 206 б.
 4. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – T.: “Fan”, 2009. 224 b.
 5. Кантер Л.А. Системный анализ речевой интонации. – М., 1978, 92-114-b.
 6. Mirtojibev M. Tovushlardagi ma'no. – T.: “O'zbekiston”, 1982, 24-b.
 7. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т.: “Ўқитувчи”, 1985. 104 б.
- O'zME. Birinchi jild. – T., 2000.

Mardon YARASHOVBuxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA
TA'LIM TAMOYILLARINING O'RNI**

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarning matematika ta'limi jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning nazariy metodik asoslari ishlab chiqilishida ta'lim tamoyillarining o'rni beqiyos ekanligi, ta'lim jarayonida ta'lim tamoyillaridan foydalanish o'quvchiga topshiriqni yaxshi tushunish hamda to'liq va to'g'ri bajarish imkonini berishi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, ijod, ijodiy fikrlash, ta'lim, subyekt, muammoli ta'lim, obyekt, faollik, onglilik, ko'rgazmalilik, sababiyat, interfaol, topshiriq, tafakkur, tadqiqot, to'garak, metod, didaktik o'yin.

В данной статье говорилось о том, что роль образовательных принципов в разработке теоретических методических основ обучения математическому мышлению учащихся в процессе математического образования начальных классов неопределима, использование принципов образования в учебном процессе позволяет учащимся хорошо понимать задачу и выполнять ее полностью и правильно.

Ключи слова: мышление, творчество, творческий рассуждение, проблемный обучение, объект, активность, умственность, наглядность, причинность, интерактив, задание, мышление, исследование, кружок, метод дидактическая игра.

In this article, it is stated that the role of the principles of education in the development of the theoretical methodological basis for teaching students creative thinking in the process of mathematics education of primary classes is incomparable, the use of the principles of education in the process of Education allows the student to better understand the

Key words: mentality, creativity, creative thinking, education, subject, enigmatic education, object, activeness, with cards, cause, interactive, task, imagination, research, clubs, method, didactic games.

Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida shunday ta'kidladilar: "Hukumatning tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining hurmatli domlalarimiz va professor o'qituvchilarimizning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta'lim berish ularning jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1].

An'anaviy ta'lim nazariyasi va pedagogik amaliyot o'qituvchi faoliyati xususiyatlarini o'rganish, umumlashtirish asosida yaratilgan. Unda o'qituvchi ta'lim jarayonining subyekt, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi shu jarayonning predmeti sifatida qaraladi. Ta'limni shu yo'sinda tasavvur qilish, shu tasavvurlarga ko'ra uni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning akt, zveno, bosqichlarida o'quvchining maqomi - uning ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi ekanligi ma'lum darajada inkor etiladi.

Qo'yilgan muammo to'g'risida fikr yuritish, o'ylash sharqning buyuk allomasi Xoja Bahovuddin Muhammad Naqshbandiyning o'rgatishni - ustoz faoliyatini qo'lga chaqmoqtosh berishga, o'rganishni - shogird faoliyatini yorug'lik hosil qilishga muqoyasa qilib aytgan fikrlarini beixtiyor esimizga tushiradi: "Talqini zikr" - zikr aytishni o'rgatish bironing qo'lga chaqmoq tosh berish bilan barobar. Ro'shnolik hosil bo'lishi uchun uni amalda ishga solish tolibga bog'liq.

O'quvchida sodir bo'ladigan shaxsiy sifatlar - shaxsiy sha'n, prinsipiiallik, o'zligini tanish, onglilik, mustaqillik, bilimdonlik, topqirlik, ijodkorlik ko'p jihatdan bolaning o'ziga, uning faolligiga ham bog'liq. Binobarin, didaktik hodisalar nuqul o'qituvchi faoliyati xususiyatlari zaminida emas, aksincha, teskari muammolar qo'yish yo'li bilan bola faoliyati xususiyatlari asosida ham bayon qilinmog'i lozim. Negaki, ta'lim ikki subyekt faoliyatining o'zaro kirishuvidan shakllanadi.

O'quvchiga ta'limning o'qituvchi bilan teng huquqli subyekt sifatida qarash, didaktika sohasidagi ayrim g'oyalarni taftish etish, milliy ruh, an'analarimizga mos kelmaydigan ba'zi g'oyalarni chegaralash imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, hozirgi ta'lim nazariyasida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning bosh talabi sanaladi. Agar o'quvchiga o'qituvchi bilan teng huquqli subyekt shaklida qaraydigan bo'lsak, unda koordinatsiya o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish va nazorat

etishning yetakchi talabi ekanligini e'tirof etishga to'g'ri keladi, o'quvchining o'qituvchi bilan hamkorlikda ta'limni qurishi, amalga oshirishi ham tan olinadi. Shuningdek, hozirgi ta'lim nazariyasiga o'rnatilgan qolgan g'oyalardan biri ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning umumiylik to'g'risidagi fikrdir. Yoshlari teng, bilimlari, ishlash sur'ati, mustaqillik darajasi, fikrlashi, tayyorgarligi har xil bo'lgan o'quvchilarga bir xil darslik, sur'at, hatto bir xil qolipda dars o'tish o'zlashtirishning umumiylik g'oyasiga asoslangan. Aslida o'zlashtirish individualdir. O'qituvchi qanchalik mohir pedagog bo'lmasin, bolalar ma'lumot mazmunini o'z ehtiyoj, qobiliyatlari darajasida turli miqdorda o'zlashtiradilar.

Bola birinchi sinfga o'qishga kelgan kundan boshlab ijtimoiy tajribani o'zlashtira boshlaydi. Boshlang'ich ta'lim sintetik faoliyatga asoslangan bo'lib, uning amal qilishida bolalar dunyoqarash (barcha o'quv predmetlariga oid bilimlar), axloq, badiiy-estetik, kasbiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyat asoslarini egallab olishadi. Yuqori sinflarga ko'tarilgan sayin bu faoliyat asoslarini o'rgatish analitik xarakterga ega bo'la boshlaydi. Qishloq xo'jalik, sanoat, adabiyot, san'at xodimlarini tayyorlash jarayonini ko'z oldingizga keltiring. Agar boshlang'ich sinflarda bola faoliyatining barcha turlari boshlang'ich ma'lumot atrofida jamlansa, turli kasblarni o'rganishda (mas., chorvachilik, tabiblik, o'qituvchilik va sh.k.) shu kasbga oid bilimlar atrofida faoliyatning boshqa ko'rinishlari to'planadi. Yanada ommabop qilib aytganda, bolalar boshlang'ich ma'lumot xususiyatlaridan kelib chiqib, faoliyatning turli xillarini egallashsa, kasb tanlash va shu kasbga bolalarni moyillashtirish jarayonlarida tanlangan kasbga bog'langan holda axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy faoliyatlar yanada rivojlaniriladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish sintetik xarakterda bo'lishi lozim. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilari taraqqiyotiga ham to'g'ri keladi. Negaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida narsa-hodisalarni yaxlit tasavvur qilish layoqatlari rivojlangan. Analizga o'rgatish maktabga kelgandan keyin boshlanadi. Boshlang'ich ta'limning tiplari ham nihoyatda ko'p: verbal ta'lim; individual ta'lim; topshiriqli ta'lim; muammoli ta'lim; differensial ta'lim va h.k. Ularning elementlarini o'zaro qo'shib, ta'limning binar, trinar ko'rinishlarini shakllantirish mumkin. Bularning barchasida o'quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash imkoniyatlari mavjud. Shunday bo'lgach, o'qish faoliyatining subyektlik sifati ta'lim tiplarining barchasi bilan ham daxldor.

O'quvchilar masalalar yechishga zarur malakalarni egallashlari uchun turli hayotiy berilgan va izlanayotganlar orasidagi ma'lum bog'lanishlarni tushungan holda topishga o'rgatish kerak. Masalalar yechish malakasini hosil qilishda masalani tahlil qilishning umumiy metodini o'quvchilar qanday egallab olganliklari va bolalar o'zlari mustaqil masala yechimini topishlariga yordam beradigan vositalarni qanday o'zlashtirganliklari muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar masala shartini bir vaqtda analiz qilib qisqa yozish, yechish rejasini tuzish, yechimini tegishli og'zaki yoki yozma tushuntirishlar bilan yozish, yechimning to'g'riligini tekshirishdan iborat [2].

O'qishga ijodiy faoliyat subyektlik sifatida qarash bolalar ijodkorligiga oid qator prinsiplarni ajratish imkoniyatini beradi.

Mustaqillik. Ta'limda bolalarning faolligi - subyektligi mustaqillik orqali belgilanadi. Mustaqillik tufayli o'quvchi ta'limning faol subyektiga aylanadi. Ta'limdagi mustaqillik tashqaridan ichkariga yo'nalgan harakat sifatida tasavvur etilsa, ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlash ma'nosini anglatadi. Mustaqillik bu ma'noda ta'lim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Agar mustaqillikni ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etsak, unda mustaqillik ijodiy faoliyat tamoyili sifatida ajratiladi. "Birinchi holatda tashqaridan - o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan mustaqillik, ikkinchi holatda bolalarning o'z intilishlari, harakatlari evaziga ularda shakllangan shaxsiy sifat - mustaqillik ko'zda tutiladi". Mustaqillik shaxsiy sifat belgilaridan biri shaklida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish yo'li bilan rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini ijodiy tashkil etishda ushbu tamoyil muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir tashkil etiladigan ish bir tomondan o'qituvchining ijodiy mahoratiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy faoliyatlariga bog'liq bo'ladi. Har bir ijodiy mazmundagi o'quv topshiriqlarining bajarilishi zamirida bolalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasi shakllanganligini taqozo etadi. Masalan: 4-sinf o'quvchilarga quyidagi topshiriqni havola etish mumkin.

Turli raqamlardan tuzilgan eng kichik olti xonali sonni yozing.


Ushbu mashqni o'quvchi bajarar ekan dastlab o'quvchi eng kichik olti xonali son 100000 deb fikrlaydi. Son turli raqamlardan tuzilganligini inobatga olib shu sonni yozishga kirishadi. O'quvchilar orasida bu sonni 123456 deb yozadiganlar ham topiladi. Bu tamoyilga asoslangan o'quvchi fikr yuritisa 102345 sonini yozadi. Darhaqiqat turli raqamlardan tuzilgan eng kichik olti xonali son 102345.

Undan tashqari masala yechish jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish ko'nikmalari shakllansagina masala yechimini topishda qiynalmaydi. Masalan: 3-sinf matematika darligi 144-betdagi 4-masalani qaraymiz. **Masala:** *Ekin maydoni 8 ta teng bo'laklarga bo'lindi. Ikkita bo'lakka*

kashnich, uchtasiga rediska ekildi. Kashnichga ajratilgan maydon kattami yoki rediskagami? Chizma chizing. Kasr ko'rinishida taqqoslang [3].

Bu masalada o'quvchi avvalo butunning qismlarini ya'ni ulushlarni yaxshi tushunishi va ular ustidagi amallarni mustaqil fikr yurita olishi zarur. Masaladagi *teng bo'laklarga bo'lindi* jumlasini ham o'quvchiga aniq tushuntirish lozim. Chunki chizma chizish jarayonida uni teng o'lchamdagi qismlarga bo'la olishi kerak. Shunda masala yechimida ya'ni bo'laklarni kasr ko'rinishida yozishda xatolikka yo'l qo'yilmaydi.

Yechish:




Bu masalaga ijodiy topshiriq qo'shgan holda, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yana bir bor sinovdan o'tkarib mustaqillilik tamoyilini topshiriq tarkibida o'quvchilarga singdirishga erishish mumkin. Bu esa o'qituvchidan katta mahorat, yuksak bilim va kuchli ijodkorlik talab etadi.

Topshiriq: Bo'lingan ekin maydonlarini tegishlicha bo'yang?

To'g'ri javob:

Kashnich-yashil rangda

Rediska- qizil rangda




Chizmaning bu rangda bo'yalishida mana shu tamoyilning o'rni beqiyosdir. Negaki o'quvchi tabiatda kashnich yashil rangda, rediska esa qizil rangda bo'lishini fikrlab ko'radi. Ushbu masala tajribada o'tkazib ko'rilganda ayrim o'quvchilar kashnichni ko'k, rediskani pushti rangda yoki ikkalasini ham bir xil rangda bo'yab qo'yanlar uchradi. Bu ayrim o'quvchilarda mustaqillilik tamoyilining yaxshi shakllanmaganida yoki shu o'simliklar haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklaridadir.

Faollik. Mustaqillikka o'xshab faollikni ham ikki xil tasavvur qilish mumkin: tashqaridan ichkariga harakat. Bu ma'noda faollik ta'lim prinsipi sifatida o'qituvchi harakatlari - ta'lim metodlari, vositalarini, ta'limning ratsional shakllaridan foydalanish sohasidagi mahoratini anglaymiz; ichkaridan tashqariga harakat. Bu ma'noda faollik insonning intilish, emotsiya, motiv, qiziqishlari ijodiy faoliyatning asosi ekanligini tan olishga to'g'ri keladi. hayot harakatga bog'liq bo'lganidek, ijodkorlik faollikni taqozo etadi. Bu didaktik tamoyil matematika ta'limini ijodiy tashkil etish jarayonida ham keng qo'llaniladigan tamoyildir. Faollikni o'quvchilar o'quv- biluv jarayonini faollashtirish yuzasidan qarash mumkin. O'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini faollashtirish nuqtai nazaridan ham talqin etish mumkin. O'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish juda kata muammodir. Ayniqsa boshlang'ich sinf matematika o'qitish jarayonida o'quvchilar faollikini faollashtirish ko'p omillarga bog'liq. Ditaktik o'yinlar o'quvchilar o'quv faollikini oshirish, qiziqarli mantiqiy topshiriqlar yordamida, dars jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, o'quvchilarning o'quv- biluv faoliyatini faollashtirishda o'qituvchi muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonini tashkil etish, o'quv materiallarini ratsional tanlash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini

tashkil etish kabi ishlar o'qituvchi vazifasiga kiradi. Ta'limni tashkil etishning har qadamida bu tamoyil tadbiriq etiladi.

Matematika o'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish o'quvchilar faolligini oshirishda xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalaridan biridir. Misol tariqasida 2-sinf matematika darsida o'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri to'rtburchak tushunchasi bilan tanishtirish jarayonini quyidagicha holatda tashkil etish mumkin. Turli geometrik shakllar tasvirlangan ko'rgazmani osib qo'yib, shakllar nomi so'raladi.



Savol: 1-shakl nima?

Javob: Uchburchak.

Savol: nechta tomoni bor?

Javob: 3 ta tomoni bor.

Savol: nechta burchagi bor?

Javob: 3 ta burchagi bor.

Savol: 2-3-4-5-shakllar nima?

Javob: To'rtburchak.

Savol: Nega to'rtburchak deymiz?

Javob: Chunki 4 ta tomoni 4ta burchagi bor.

Savol: To'rtburchaklar ichida qaysi biri boshqalaridan farq qiladi?

Javob: Oxirgi ya'ni 5-shaklning boshqalaridan ayni farqi burchaklaridadir. Negaki 5- shaklning barcha burchaklari to'g'ri burchakdan iborat.

Bu ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki bu shakl to'g'ri to'rtburchakdir.

Ushbu ma'lumotlar o'quvchilarga birin- ketin savollar berib aniqlashtiriladi. Bu esa ham o'qituvchidan, ham o'quvchidan faollikni talab etadi. Ayni vaqtda faollik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.

Onglilik. Onglilik, avvalo, insonning ruhiy olami, o'z oldiga maqsad qo'yib, unga intilishida namoyon bo'ladi. Onglilik o'quvchining ta'lim subyektini ekanligini o'zida aks ettiradigan tamoyil bo'lib, bolalarning hissiy bilishdan ratsional bilishga va, aksincha, ratsional bilishdan hissiy bilishga o'tishlarini ta'minlash, ularni abstrakt bilimlardan konkret bilimlarga olib kelish, ular oldiga muammolar qo'yish, ularga topshiriq va mustaqil ishlarni bajartirish yo'llari bilan ta'minlanadi.


Har bir o'zlashtiriladigan matematik tushuncha ongli o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi zarur. Ushbu tamoyil dars jarayonida bilimlarni ongli ravishda anglash va tushunish imkonini beradi. Masalan : 1-sinf o'quvchilarida sanoq ko'nikmasini shakllantirishda ana shu tamoyilga tayaniladi. Ya'ni o'quvchilarga sonlarni o'rgatishda ketma- ketlikka amal qilinadi hamda 1 undan keyin 2, so'ngra 3 vahokazo kelishini, har bir sondan keying son 1 taga ortiq ekanligini ongli ravishda anglab boradi.

Ziddiyatlilik. Ta'lim jarayonida ziddiyatli holatlarni hosil qilish yo'li bilan bolalarda ijodkorlikni tarbiyalash pedagogik va psixologik asarlarda keng yoritilgan. V.I.Zagvyazinskiyning yozishicha, ta'lim jarayonidagi pozitiv - foydali, zarur ziddiyatlar o'quv-tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchlaridir.

Boshlang'ich sinf o'quv predmetlari ziddiyatlarni tashkil etish va hal qilish uchun boy imkoniyatlarga ega. Masalan, matematikada qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish, tabiatshunoslikda kun va tun, qish va yoz, qattiq va yumshoq, ona tilida shakl va mazmun, predmetning belgisi va harakati ana shunday ziddiyatlarga misol bo'la oladi. Shu ziddiyatlarni yuzaga chiqarish va hal etishga oid mustaqil ishlarni tashkil etish, o'quv topshiriqlarini bajartirish, muammolarni hal qilish jarayonida bola ongida muammoli yoki topshiriqli holat hosil bo'ladi. Ongda hosil bo'lgan muammoli holat o'quvchini ongli, faol, mustaqil fikrlashga, ongdagi ziddiyatlarni bartaraf etishga undaydi. Bu ta'lim sharoitida bolalar bilishini jadallashtiradi, ularni ijodiy faoliyatga da'vat qiladi. O'quvchi bilish jarayonidagi pozitiv - foydali, zarur ziddiyatlarni hal etib, o'zi uchun subyektiv yangilik - bilimlarni kashf etadi. Dars mashg'ulotlarida ma'lumotlarni ziddiyatlilik ya'ni qarama- qarshilik asosida tushuntirish bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 3-sinf matematika darligidagi "Kasrlarni taqqoslash" mavzusi ushbu tamoyil asosida olib beriladi.

Bu mavzudagi ziddiyatlilik ya'ni qarama-qarshilik quyidagicha:

Ikkita doiraning har biri 4 ta teng bo'lakka bo'lindi. Birinchi doiraning 3 bo'lagi, ikkinchi doiraning 2 bo'lagi olindi. Ularni kasr ko'rinishida yozing va taqqoslang [3].



Bu rasmga ko‘ra qaysi kasrning surati katta bo‘lsa o‘sha kasr katta hisoblanadi.

Bo‘linuvchi bir xil bo‘lib, bo‘luvchi qancha kata bo‘lsa, bo‘linma shuncha kichik bo‘ladi. Demak, kasr sonning surati bir xil bo‘lib, maxraji qancha katta bo‘lsa, bu son shuncha kichik bo‘ladi [3].



Bulardan tashqari matematikada ziddiyatlilik tamoyiliga asoslarga tushunchalar bor. Bular: qo‘shish va ayirish, bo‘lish va ko‘paytirish, katta va kichik belgilari vahokazo.

Sababiyatlilik. Qadimgi grek faylasufi Demokrit “Bitta sababiyatli izohlashni Eron taxtini egallashdan ustun qo‘yaman”, - deb yozgan edi. Ta‘lim - sababiyatli bog‘lanishlarga boy jarayon. O‘qituvchi ijodkorligi o‘quvchilar ijodkorligiga, ta‘lim subyektlari ijodkorligi ta‘lim samaradorligiga olib keladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonida narsa-hodisalar o‘rtasidagi sababiyatli bog‘lanishlarni izlab topishga oid muammo, topshiriqlarni ta‘limga joriy etish, ularni bajartirish o‘quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Bola sababiyatli bog‘lanishlarni qancha chuqur anglasa, ularni tahlil qilsa, ijod qilish yo‘llarini ham shuncha yaxshi egallab oladi.

Umumiylik va xususiylikning birligi. Tabiat, jamiyat va ong hodisalari, narsa-predmetlarning har biri umumiy hamda xususiy belgilarga ega. Ular umumiy xususiyatlariga ko‘ra bir-biriga yaqin sinfni tashkil qilishsa, xususiy belgilariga ko‘ra alohida narsa-hodisa sifatida qaraladi. Masalan, matematikadagi sonlar tushunchasi umumiyli, kasr sonlar esa xususiylikdir. O‘quvchilarga avval son tushunchasi, ularning hosil bo‘lishi o‘rgatilsa keyin uning turlari ya‘ni kasr sonlar o‘rgatiladi. Bu deduktiv metod hisoblanadi. Deduktiv yo‘l tarixan ikkilamchi bo‘lib, eng yuqori darajadagi umumlashmalardan ularning xususiy holatlardagi harakatini tasavvur etish hisoblanadi.

Dars mashg‘ulotlari jarayonida xususiyan umumiyga ham borish mumkin. Ya‘ni matematikada oldin sonlarni keyin ular ustida amallar bajarishni o‘rgatamiz. Bu esa induksiya metodi hisoblanadi. Induksiya bu xususiyan umumiyga birish demakdir. Induksiya va deduksiya bolalarning ijodiy faoliyati rivojidagi bir-biri bilan dialektik bog‘liq ikki usul bo‘lishi zarur. Bola o‘quv predmetlari vositasida tabiat, jamiyat hodisalarini o‘rganar ekan, umumiyda xususiyni, xususiyan umumiyga ko‘ra bilishi, ajrata olishi lozim.

Ko‘rgazmalilik. Xitoy faylasufi Konfutsiyning bilim haqida quyidagicha fikri bor: “Uni eshitsam esimdand chiqaraman, ko‘rsam eslab qolaman, bajarsam u mening mulkimga aylanadi bu bilimdir”. Demakki har bir o‘rgatilayotgan ma‘lumotni ko‘rgazmalar vositasida amaliy tasvirlash lozim. Misol uchun ulush mavzusini tushuntirganda doiraviy rasmlar yoki shunga o‘xshash buyumlarni bo‘lish orqali tushuntirishimiz mumkin. Shu jarayon o‘quvchida bilimlarni yaxshi o‘rganishni ta‘minlaydi. Negaki bola ma‘lumotlarni ko‘rish orqali uning 85 foizini xotirasida saqlab qola oladi.

Ushbu tamoyillar ta‘lim jarayonida muhim sanalib o‘quvchilar bilimlarni puxta egallashi va amaliyotda qo‘llay olishida yordam beradi. Har bir ta‘moyildan ta‘lim jarayonida samarali foydalanish o‘qituvchining mahorati va salohiyatiga bog‘liq.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. “O‘zbekiston”, 2016. 14b
2. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2004. 285-bet
3. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q., Ruzikulova N., Goibova L. 3-sinf matematika darsligi. -T.: “Sharq”, 2019. 141-144-146-betlar.

Shabnami YUSUFZODA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedra o'qituvchisi

O'QUVCHI MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

*Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni
yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi,
istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi.*
Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanidan tashkillashtiriladigan darslarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari, didaktika ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. Shuningdek, zamonaviy va innovatsion darslarni tashkil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan metodlar hamda ularning o'tkazish tartibi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *tahliliy-sintetik faoliyat, zamonaviy didaktika, qiyoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, aqliy faoliyat, individual, tipik xususiyatlar, fiziologik, dialektika.*

В статье использованы достижения дидактической педагогической психологии, факторы, формирующие логическое мышление на уроках математики в начальных классах. Также описаны методы, которые могут быть использованы при организации современных и инновационных уроков, и порядок их проведения.

Ключевые слова: *аналитико-синтетическая деятельность, современная дидактика, сравнение, обобщение, абстракция, умственная деятельность, индивидуальность, типичные черты, физиология, диалектика.*

The article uses the achievements of didactic educational psychology, the factors that form logical thinking in mathematics lessons in primary school. It also describes the methods that can be used in the organization of modern and innovative lessons, and the procedure for their implementation.

Key words: *analytical-synthetic activity, modern didactics, comparison, generalization, abstraction, mental activity, individuality, typical features, physiology, dialectics.*

O'quvchilar bilish faoliyatini o'rganishda zamonaviy didaktika ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. O'quv materiali yosh va mazmunga bog'liq holda bu faoliyatning o'ziga xosligi ta'lim jarayoni psixologik qonuniyatlarini o'rnatadi, bilish faoliyatida o'quvchilarning individual va tipik xususiyatlarini ko'rib chiqadi. O'zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Tahlil - bu, bilish predmetini qismlarga fikran bo'lishdir.

Sintez - alohida elementlar yoki qismlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Jumladan, o'qituvchining "bitta o'nlik va ikkita birlikdan iborat son necha deb ataladi", - degan savolga javob berayotib, o'quvchilar sintezdan foydalanadilar (O'n va ikkita bir 12 sonini tashkil etadi); "25 sonida nechta o'nliklar va birliklar bor", - degan savolga javob berishda, o'quvchilar sonlar tahlilini amalga oshirishadi.

O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari yuzasidan faylasuflar, psixologlar, pedagogik mutaxassislar, huquqshunoslar, matematiklar kabi olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo'lib, lekin aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun metodik jihatdan mantiqiy tafakkurni rivojlantirish borasida deyarli ilmiy jihatdan to'xtalib o'tilmagan. Matematika fanini o'qitish metodikasi, ulardan foydalanish usullarini o'rganib, ilmiy yangilik sifatida yoritib bergan Abram Aronovich Joiner edi. O'quvchi mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari bu yillarda ayniqsa ahamiyatlidir[3].

Taniqli psixologlar (I. Merzon, A. I. Strazhev, E. Thorndike, I. Xmelev, S.G. Shapovalenko va boshqalar), mantiqiy-didaktik yondashuvning dastlabki shartlari paydo bo'ldi. Ushbu asarlarda mantiq ilmiy va professionallar uchun empirik zarur vosita bo'lishi kerakligi ta'kidlandi mantiqiy bilimlarning metodika sifatida ahamiyatini asoslab bermasdan amaliyot L.M. Perminovanning ta'kidlashicha, bu davrda mantiqiy fikrlash rivojlangandan oddiydan murakkabga, yaqindan olisga, umumiydan ma'lumga, tizimli, tavsiflovchi va axborotni qabul qiluvchi ta'limning maqsadi bo'ldi [1]. Taniqli psixologlar (N.A. Menchinskaya, D.N. Bogoyavlenskiy, M.G. Davletshin, E. Foziyev, G'. Shoumarov va boshqalar) o'quvchilar tahliliy - sintetik faoliyatining umumiy qonuniyatlarini tadqiq etib, ta'limning boshlang'ich bosqichida tahlil sintezdan ortda qoladi yoki, aksincha oldin keladi, mohiyatni qamrab olmaydi. Natijada umumlashtirish ham to'laqonli

bo'lmaydi, ikkinchi darajali tasodifiy belgilarga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha ahamiyatli belgilar sifatida tashqi, tasodifiy, lekin eng yorqinlarini ajratishadi.

Ta'lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o'quvchilarda tahliliy-sintetik darajaning oshishi kuzatiladi. Tahlil sekin-asta ko'rgazmali - amaliylikdan (obyektlarni fikran bilish, mazkur obyektlar bilan amaliy harakatlar jarayonida amalga oshirilayotganda) ko'rgazmali (bilish obrazlar yordamida amalga oshirilayotganda) va so'zli - mantiqiyga (bilish mavhum tushuncha va mulohazalar shaklida amalga oshirilganda) tomon rivojlanadi. Sintez shuningdek, ancha to'liq va ko'p tomonlama bo'ladi.

Qiyoslash bu - o'xshashliklar (umumiy xususiyatlarni ajratish) va tafovutlarni (har bir qiyoslanayotgan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratish) topish maqsadida bilish obyektlarini qiyoslash. Bu amallar boshqa barcha asosiy fikriy operatsiyalar asosida yotadi. Boshlang'ich maktab kursi qiyoslash - sonlarni, ifoda va sonlarni, ikki ifodani, masalalarni va boshqalarni qiyoslab, undan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Umumlashtirish - o'rganilayotgan obyektidan umumiy, xususiy, muhim nomuhimni ajratishdir [4].

Yetakchi psixologlar tomonidan umumlashtirishga oid quyidagi qoida ishlab chiqilgan: o'quvchilarda to'g'ri umumlashmalarni shakllantirishning zaruriy qoidasi - muhimning doimiyligida, tushuncha, xususiyat va dalillarning nomuhim belgilarini o'zgartirishdir. Bu qoida tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Jumladan, o'quvchilarga to'g'ri to'rtburchak haqida tasavvur berishda (1-sinf) bu tushuncha uchun nomuhim bo'lgan belgilarni: rangi (turli rangdagi to'g'ri to'rtburchaklarni olish) u tayyorlangan material, tekislikdagi holati, tomonlari uzunligining nisbatini o'zgartirish kerak. Boshqa barcha muhim belgilarni o'zgartirmay qoldirish, ya'ni: barcha burchaklarni to'g'ri va qarama-qarshi tomonlarini bir xil qilib qoldirish kerak. Barcha hollarda noma'lum harf X (iks, nomuhim belgi) bilan belgilash shunga olib keladiki, $a + 2 = 7$ ko'rinishidagi ifoda tenglama hisoblanmaydi: bu holda to'g'ri umumlashmani shakllantirish tenglamada lotin alifbosidagi turli harflar bilan noma'lumni belgilashga yordam beradi.

Umumlashtirish oddiy shakllardan to'g'ri umumlashmalarga qadar rivojlanadi. Umumlashmalarning to'g'riligi uni o'quvchilar egallashining mezoni. Bu o'zlashtirilgan operatsiyalarni ko'chirib o'tkazish, ya'ni ulardan yangi sharoitlarda foydalanishga xizmat etadi.

Shu sababli zamonaviy didaktika va psixologiya ko'chirib o'tkazish muammosiga katta e'tibor beradi.

Umumlashtirib - mavhumlashtirish - bilish obyektidan bir xususiyatni chiqarib tashlab, boshqasini chiqarib tashlashdan iborat fikriy operatsiya bilan yaqin aloqadadir. Bu xususiyatlar o'rganilayotgan predmet va hodisalarning "ichiga" kirishga imkon beradi. Jumladan, o'quvchilarda "uchburchak" tushunchasini shakllantirishda tomonlari va burchaklarining nisbiy o'lchovlari, tekislikdagi holati va boshqa shu kabi belgilar chiqarib tashlanadi, faqat bittasi - uchta burchakli mazkur tipdagi geometrik figuralar mavjudligi ajratib olinadi.

Ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo'ladi. O'qituvchi rahbarligidagi ta'lim chog'ida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi - hissiy ko'rgazmalilikdan fikriylikka o'tiladi, u ikkinchi signal sistemasi yordamida tushunchaga aylanadi. Mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya aniqlashtirish nomini olgan. Aniqlashtirish:

1) umumiydan xususiyga fikriy o'tish sifatida;

2) mavhumiydan - umumiyga, aniqlikdan-xususiyga uning turli xususiyat va belgilarini topish orqali yetishish, mavhum-umumiyani aniq mazmun bilan to'ldirish, boyitish sifatida namoyon bo'ladi.

Dialektika bilishda mavhumiylik va aniqlashtirish birligi o'rnatiladi. Bu birlik o'zaro aloqadagi fiziologik asosi - ikki signal tizimiga ega. Aniqlashtirish yordamida ilmiy mavhumiylik mazmuni ochiladi, ular aniq predmetlarning alohida tomonlarini boshqalaridan mavhumlashtirib aks ettiradi. Mavhumlashtirishda predmetlar o'z butunligini yo'qotadi; bilish esa real voqelikdagi predmet va hodisalar tomonlarini bir butunlikda ochib bergandagina haqqoniy bo'ladi. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar dalillar orqali aniqlashtirilgandagina erishiladi. Ta'lim jarayonida aniqlashtirish ikki shaklda: hissiy ko'rgazmali vositalar (predmetlar, rasmlar, chizmalar va boshqalar) va so'zli - mavhum shaklda (hikoya, tushuntirish, maxsus topshiriqlarni hal etish) amalga oshiriladi.

Maktabning muhim vazifalaridan biri - o'quvchilarga aqliy faoliyat usullari yordamida ta'lim berishdir. Aqliy faoliyat usullariga fikriy operatsiya usullari - umumlashtirish, mavhumlashtirish va boshqalar kiradi. Xususiyan umumiyga umumlashtirish usuli (induktiv yo'l bilan), masalan, quyidagi amallar tartibida aks etishi mumkin:

a) topshirilgan predmetlarni solishtirish;

b) ularning har biri uchun umumiy bo'lgan barcha belgilarni ajratish va nomini aytish;

v) predmetlarni belgilariga ko'ra birlashtirish. Umumlashtirish deduktiv yo'l bilan amalga oshirilganda (umumiydan xususiyga) o'quvchilar tushunchani, aytaylik to'g'ri to'rt burchakni oldindan bilib

topshirilgan geometrik figuralardan tanlab olishi va umumiy belgilarini aytishi lozim. Yangi topshiriqlarni ongli ravishda ko'chirib o'tkazish aqliy faoliyat usulini o'zlashtirganlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy faoliyat usullari o'quv ishlari usullari bilan uzviy bog'liqdir. O'quv ishlari usullari muayyan amallar, ko'rsatmalar, tavsiyalar, qoida va hokazolar shaklida ifodalanadi. Ularning vazifasi - muayyan masalalarni hal etishda o'quvchilar tashabbusini bo'g'may, umumiy yo'nalish berishdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ularning faol va mustaqilligi, ijodiy yondashuv ko'p jihatdan o'quvchilarning o'quv ishlari va aqliy faoliyat usullarini egallaganligiga bog'liq.

Adabiyotlar

1. Perminova L.M. O'qitishga mantiqiy-didaktik yondoshish. Pedagogika. -2004.
2. Matematikani o'qitishda mantiqiy savodxonlik bo'yicha yagona ta'lim yo'nalishi bo'yicha // Matematikani o'qitishda davomiylik. - M.: "Ta'lim", 1978. - S. 24-36.
3. Onimus J. Mutation de la culture. – Paris, 1973. – P. 3–76.
4. Zel'dovich Y.B., Yaglom M.M. Matematikaning yorug'ligi va porlashi
5. Zel'dovich Y. B. Kitoblar dunyosida. –T., 1980. - № 12. - S. 19-20.

Hamro RAHMATOVBuxoro davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası o'qituvchisi**BOSHLANG'ICH SINFIAR MATEMATIKA DARSLARIDA TIPIK MASALALAR
YECHISHGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI**

Mazkur maqolada bolalar ijodiy iqtidorini o'stirishga doir zamonaviy matematik masalalar tahlil qilinib ulardan foydalanish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *modernizatsiya, innovatsiya, tafakkur, arifmetik amallar.*

В данной статье проанализированы современные математические задачи по развитию детского творческого таланта и описаны методы их использования.

Ключевые слова: *модернизация, инновации, мышление, арифметические действия.*

This article analyzes modern mathematical issues related to the development of children's creativity and describes the methods of their use.

Key words: *modernization, innovation, contemplation, arithmetic actions.*

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tadbiiq etish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ular uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishni bugungi kun talab etmoqda. Hozirgi kunda xalq ta'limi oldida ta'lim tarbiya samaradorligini oshirishning turli uslublarini takomillashtirish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. Bu vazifa bevosita boshlang'ich maktabning ham vazifasi. Ta'lim samaradorligi oshirishning turli yo'llari mavjud. Masalan: ta'limning turli uslublaridan unumli foydalanish, mazmunini qayta ko'rib chiqish, davr talabiga mos materialli tanlash, talim jarayonini tashkil etishning turli shakllaridan maqsadga muvofiq holda oqilona foydalana olish va xokazolar. Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tadbiiq etish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ular uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishni bugungi kun talab etmoqda.

Boshlang'ich sinf matematika dasturining asosiy talablari o'quvchilar tomonidan to'rt arifmetik amalga oid sodda matnli masalalarni yechish ko'nikmasini egallashni nazarda tutadi. Bu quyidagi ko'rinishdagi masalalardir:

- har bir amal mazmunini ochib beruvchi (ikki qo'shiluvchining yig'indisi, ayirma, ko'paytmani topish; teng qismlarga bo'lish yoki mazmuniga ko'ra bo'lishga oid);

- berilgan sondan bir necha birlik (yoki bir necha marta) katta (kichik) bo'lgan sonni topish talab etilgan masalalar hamda ayirish va bo'lish yordamida sonlarni taqqoslashga (ayirmali va karrali taqqoslashga) doir;

- amal tarkibiy qismlaridan birini topishga doir;

- sonning ulushini va ulushga ko'ra sonni topishga doir.

4-sinfda o'quvchilar uchun yangi bo'lgan, yuqorida keltirilgan guruhchalardan ikkinchisiga oid turli ko'rinishdagi masalalar kiritiladi. Bundan tashqari, bolalarga ko'rinishi avvaldan tanish bo'lgan, lekin ular uchun yangi bo'lgan kattaliklar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni tushunib yechish asosida tuzilgan masalalarni yechishga alohida e'tibor beriladi.

Tayyor masalalarni yechish bilan bir qatorda o'quvchilarni o'qituvchining turli topshiriqlari bo'yicha masalalar tuzishga masala qildirish foydali. O'quvchilar masalalar tuzish uchun sonli va sistemali materiallarni atrof-borliqdan olishlari kerak. Bunday masalalarni tuzish va yechish har xil turdagi masalalarning tuzilishi va yechilishining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunish imkonini beribgina qolmay, balki, bolalarning ijodiy tasavvur qila olishlarini, ularning bilim doiralarini kengaytiradi, ta'limning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlashga imkon beradi.

Masalalar bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek tarkibli masalalar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirish, ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi.

Matematikaning asosiy mazmunini tarkibli masalalar ochib beradi. Masalalar yechish jarayonida o'quvchilar har bir amal ma'nosini va ularni qo'llashning asosiy hollarini o'zlashtiradilar: og'zaki va yozma

hisoblash malakalari qo'llaniladi va mustahkamlanadi, masalalar yechishga o'rgatish o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirish uchun, ularda faollik va tashabbuskorlikni oshirish uchun hamda keng fikr yuritishga imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli sonlar va nol arifmetikasini o'rganish, dasturga binoan maqsad sari yo'naltirilgan tizimga asoslandi, ya'ni ularni yechish mazkur kursning asosiy tushunchalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'ladi.

Nazariy masalalar masalalarni yechish davomida amaliy ahamiyat kashf etadi, bu bilan masalalar nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lovchi halqa vazifasini bajaradi. Masalalardan foydalanish o'quvchilarda dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilib, ularga "son", "arifmetik amal", kabi abstrakt tushunchalar real hayotdan, amaliy faoliyatdan olinganligiga ishonchni mustahkamlaydi.

Masalalarni yecha olish qator o'zaro aloqador va uzviy bog'langan qator xususiy (alohida) ko'nikmalarni o'z ichiga oladiki, ularni quyidagicha ta'kidlab o'tish mumkin:

1. Masalani o'qib chiqib, uni tushunish, ya'ni har bir iboraning ma'nosiga yetib, unda tasvir etilgan holatni ko'z o'ngida gavdalanitira olish;

2. Masaladagi shart va savol. Ma'lum va noma'lum narsalarni ajratib olib bilish;

3. Masaladagi shart va savol, berilgan va izlanayotgan ma'lumotlar o'rtasidagi aloqani aniqlay olish, ya'ni masala matnini tahlil eta bilish va uning natijasi o'laroq, masalani yechish uchun arifmetik amallarni tanlab olish;

4. Masalaning yechimi va javobini yoza olish.

Bu ko'nikmalar muntazam va maqsadli amaliyot jarayonida quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

1. Tayyorgarlik ishlari

2. Masala matnini tushuntirish ishlari.

3. Masalani tahlil etish, uni yechish yo'lini izlash va yechish rejasini tuzish.

4. Yechim va javobini yozish.

5. Masala yechilgandan so'ng uning ustida ishlash.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tadbiq qilinadi, shu orqali mustahkamlanadi. Masalan, bilimlarning shakllanishida nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'liq olib borish imkonini beradi. Masala yechish orqali xarid qilingan narsaning narxini, kvartira ta'mirlashning bahosi, poyezdga kechikmaslik uchun uydan qachon chiqish kerak, degan turli xildagi amaliy hisoblashlarni hal qilib beradi.

O'quvchilar masalalarni yechayotganda turli xil matematik tushunchalar – son, arifmetik amal, qo'shiluvchi, yig'indi, qoldiq kabilar bilan tanishadilar, shuningdek atrof muhitdagi, fandagi, texnikadagi turli xil bog'liqli muammolar bilan tanishadilar va uni yechadilar.

Ushbu mavzu bo'yicha har bir bo'lajak o'qituvchining bilim va ko'nikmalariga talablar:

1) boshlang'ich sinflarda matematika bo'yicha masalalarni yechishga o'rgatishga oid dastur izohining asosiy qoidalarini;

2) boshlang'ich sinflarda matematika kursida o'tiladigan oddiy va murakkab masalalarni;

3) boshlang'ich sinflarning matematika kursida matnli masalalar funksiyasini;

4) masalalarni yechishga o'rgatishga oid turli xil usullarni (yuzma – yuz suhbat, ko'rgazmali vositalardan foydalanish).

Shuningdek, har bir o'qituvchi bilishi kerak:

1) har qanday masalani o'quvchilar bilan yuzma-yuz tahlil etishi;

2) o'quvchilarga masalani turli yo'llar bilan yechish mumkinligini tushuntira olishi;

3) mashg'ulotning turli bosqichlarida masala yechishning turli yozma shakllaridan maqsadli foydalana olishi;

4) masala yechimini tekshirishni turli yo'llaridan foydalana olishi;

5) masalalar yechishni o'rgatish mashg'ulotini ishlab chiqa olishi;

6) boshlang'ich sinflar uchun matematika kursi bo'yicha har qanday masalani yecha olishi kerak.

Boshlang'ich sinf matematika kursining asosiy qismini masalalar tashkil etadi. Masala tushunchasi va masala termini birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarga singdiriladi.

Dastlab sodda masalalar bilan keyinchalik murakkab arifmetik masalalar bilan o'quvchilar tanishtirilib, yechib boriladi.

Matematikadan boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini o'stirishda "masala" tushunchasi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Matematika darslarida o'quvchilar masalalar vositasida predmetlar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilishga intiladilar. Ayniqsa, tipik arifmetik masalalar o'quvchi mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyatini oshirish bilan bir qatorda, ularning erkin, mustaqil fikrlashini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada nazariy materiallarga tayangan holda har bir tipga oid masalalar tasnifini berib, ularni yechish va tushuntirish usullari yoritiladi.

1-tip. O'rta arifmetik sonni topishga doir masalalar.

2-tip. Ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi)ga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar.

3-tip. Ikki yoki bir necha sonni ularni yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatidan topishga doir masalalar.

4-tip. Ikki miqdorning ayirmasiga noma'lumni topishga doir masalalar.

5-tip. Ayirish yo'li bilan no'malum miqdorni yo'qotishga doir masalalar.

6-tip. Tenglash usuli bilan yechiladigan masalalar.

7-tip. Almashtirish usuli bilan yechiladigan masalalar.

8-tip. Faraz qilishga doir masalalar.

9-tip. Vaqtni hisoblashga doir masalalar.

10-tip. Yuzlarni va hajmlarni hisoblashga doir masalalar.

11-tip. Harakatga doir masalalar.

12-tip. Sondan kasrni topishga va sonni o'zining kasridan topishga doir masalalar.

13-tip. Birgalikda ishlashga doir masalalar.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitishda o'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. O'qituvchining har xil sathli o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo'la oladi.

O'quv mashg'ulotlarining o'quvchilarni kundalik fanlar majmuasi va ular bo'yicha berilgan topshiriqlar majmuasi bilan hisoblashishga to'g'ri keladigan qilib tashkil etilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o'quvchilar biron bir fanga o'zlarining diqqat e'tiborini to'liq qarata olmaydilar. Bunday notugalliklarni bartaraf etishda, modulli o'qitish eng yaxshi yechim hisoblanishi mumkin.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida tipik masalalar yechishga o'rgatish texnologiyasining tizimi – boshlang'ich matematika kursini o'rganishda faollashishning uzluksizligini ta'minlaydi. Bunda ayni matematik tayyorgarlik darajasi pasaymaydi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida tipik masalalar yechishga o'rgatish texnologiyasini ajratib o'rganishning maqsadga muvofiqligi haqida dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda)
2. Axmedov M., Mirzaaxmedov M. Mantiqiy fikrlashga o'rgatish (4– sinf "Matematika" darsligi asosida) // Boshlang'ich ta'lim. 2004. №2, 42–45 b.
3. Bikbaeva N.U., Sidelnikova R. I., Adambekova G.A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – T. : "O'qituvchi", 1996. – 512 b.
4. Bikbaeva N.U. Matematika, 4–sinf uchun darslik. – T.: "O'qituvchi", 2008. – 452 b.
5. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim stand"artlari //Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2005. – № 5.
6. Qosimov F.M., Qosimova M.M. Murakkab masala va topshiriqlar. Boshlang'ich ta'lim 2007. 1-son.
7. Qosimov F.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar ustida ishlash. – Buxoro, 2005. – 136 b.
8. <http://www.allbest.ru>
9. <http://www.allbest.ru/referat/>
10. <http://www.TDPU.uz>.
11. <http://www.ziynet.uz>.

Mavluda QOSIMOVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası katta o'qituvchisi

Asror QOSIMOV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PROPORSIONAL BOG'LANISHGA DOIR MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI

Ushbu maqolaning muallifi matematika darsliklari asosida sinf boshliqlari muammoni hal qilish metodologiyasini taqdim etadilar

Kalit so'zlar: masala, arifmetik masala, amal, misol, topshiriq.

Автор данной статьи на основе анализа учебников математики начальных классов предлагают методику решения задачи.

Ключевые слова: задача, арифметическая задача, арифметика, пример, задание.

The authors of the given clause offer a technique of the decision of tasks on the basis of the analysis of the tutorials of mathematics of initial classes.

Keywords: matter, arithmetical task, arithmetical action, example, task

Maktabning II sinfidan boshlab proporsional bog'lanishda bo'lgan miqdorda masalalarni yechish ko'zda tutilgan: "to'rtinchi proporsionallik"ka doir masalalar yoki bunday masalalarni "uchlik" qoidasidagi masalalar ham deyiladi. Mazkur masalalarni ikkiga ajratib, "oddiy (sodda) uchlik" qoidasiga doir, "murakkab uchlik" qoidasiga doir masalalar deyish qabul qilingan.

Bunday masalalar matnida to'g'ri yoki teskari proporsional bog'lanishda bo'lgan ikkita miqdor tilga olinadi. Ulardan birining ikkita qiymati berilgan bo'ladi. Ikkinchi miqdorning birinchi miqdor qiymatiga mos keluvchi qiymatlaridan bittasi berilgan bo'lib, ikkinchisiga mos qiymatni topish talab etiladi. Demak "oddiy uchlik qoidasi" deb nom berilishiga sabab, bu qoidaga oid har bir masalaga uchala son ma'lum bo'lib, ularga proporsional bo'lgan to'rtinchi son ya'ni "to'rtinchi proporsional son" izlanadi.

Bunday masalalarni yechishda tayyorgarlik ishi bir qator miqdorlar (kesma uzunligi, massa, vaqt, yuza)ni tanishtirish bilan bevosita bog'lab olib boriladi. To'rtinchi proporsionallikni topishga doir masalalarni kiritish uchun bolalarni baho, jami pul, tezlik va boshqa miqdor (kattalik)lar bilan tanishtirish zarur. Masalan, miqdorlar soni, uning narxi, jami pul, kabi kattaliklar, ular orasidagi bog'lanishlar bilan tanishtirishda "magazin" o'yinini o'tkazish mumkin. Doskaga blaknot, chizg'ich va hokazo qo'yiladi. Ularning bahosi yorliqlarda ko'rsatilgan bo'ladi. Keyin o'yin bo'shlanadi. Bir o'quvchi sotuvchi qilib, bir necha o'quvchi xaridor qilib tayinlanadi. Keyin o'qituvchi rahbarligida xarid qilishga doir bir necha og'zaki masalalar tuzadilar va yechadilar bir o'quvchi sotuvchi, boshqalari xaridor rolini bajaradi.

Masalalar tuzishda har bir xaridorning xaridiga qarab, har gal ushbu bog'lanishni aniqlaydilar: bahosi va miqdori(soni) ma'lum, jami pulni qaytarish amali orqali topiladi. Xuddi shuningdek, boshqa darslarda o'yinlar orqali quyidagi bog'lanishlar ochib beriladi: agar jami puli va miqdori ma'lum bo'lsa, narsaning narxini (teng bo'laklarga) bo'lish orqali topish mumkin. Agar jami puli va narxi ma'lum bo'lsa, bu holda hamma miqdorlar sonini (karrali) bo'lish amali bilan topish mumkin.

Tayyorgarlik ishlaridan so'ng tayyor matnli masalalarni yechishda o'tiladi. Boshlang'ich sinflarda odiy uchlik qoidasiga doir masalalar ham qolgan hamma tipik masalalar singari "qoida" bo'yicha emas, balki erkin mulohaza yuritish yo'li bilan yechiladi. Masala yechish usulini shunday tanlab olishga to'g'ri kelib qoladiki, yechish rejasini tuzishda mazmuni sun'iy bo'lgan savollardan, amallarda kasr son chiqishidan qochish mumkin bo'lsin.

To'g'ri proporsional miqdorlar bilan berilgan odiy uchlik qoidasiga doir masalalar boshlang'ich sinflarda, asosan, to'rt xil usulda yechiladi.

I.To'g'ridan – to'g'ri birlikka keltirish usuli. Bu usul karrali nisbat komponent(had)lari har ikkala miqdorga tegishli bo'lib, uchinchi ma'lum son bo'luvchi bilan bir jinsli bo'lgan hollardagina ishlatiladi.

Masalan: jamoa xo'jaligida uchta traktor bir kunda 36 gektar yer haydaydi. Xuddi shunday ishlaganda, 5 ta traktor bir kunda necha gektar yer haydaydi?

Bu masalaning qisqacha sharti quyidagicha yoziladi:

3 ta traktor – 36 ga

5 ta traktor - ?

II sinfdagi bunday masalalarni “to‘liqsiz muhokama” qilish yo‘li bilan yecha boshlash kerak. 5 ta traktor bir kunda necha gektar yer hayday olishini biz birdaniga bila olmaymiz, chunki bitta traktor bir kunda necha gektar yer hayday olishi bizga ma‘lum emas. Lekin biz buni darhol topa olamiz. Chunki bizda uchta traktor bir kunda 36 ga yer haydaganligi ma‘lum ($36 : 3$). Endi 5 ta shunday traktor necha gektar yer haydaganini topa olamiz (12×5).

Keyinchalik traktorlar soni bilan haydalgan yer miqdori to‘g‘ri proporsional bog‘lanishdan ekanligini ochib berish maqsadida mulohazaning maxsus turini kiritish foydali.

Agar 3 ta traktor bir kunda 36 ga yer haydagan bo‘lsa, bitta traktor undan bir kunda 3 marta kam yer hayday oladi. Agar traktor 12 ga yer haydagan bo‘lsa 5 ta traktor undan 5 marta ko‘p yer haydaydi.

Yechilishi:

$$1) 36 : 3 = 12 \text{ (ga)}$$

$$2) 12 \times 5 = 60 \text{ (ga) yoki } (36 : 3) \times 5 = 12 \times 5 = 60 \text{ (ga)}$$

Javob: 5 ta traktor bir kunda 60 ga yer hayday oladi.

Demak masala birlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirish usuli bilan yechilsa, yechimda (teng bo‘laklarga) bo‘lish va bitta ko‘paytirish amali ishtirok etadi.

II. Qayta birlikka keltirish usuli. Bu usul karrali nisbat komponentlari har ikkala maqdorga tegishli bo‘lib, uchinchi ma‘lum son bo‘linuvchi bilan bir jinsli bo‘lgan hollarda ishlatiladi.

Masalan: Jamoa xo‘jaligida 3 ta traktor bir kunda 36 ga yer haydaydi. Xuddi shunday ishlaganda 60 ga yerni bir kunda nechta traktor hayday oladi?

Masalaning qisqacha sharti quyidagicha yoziladi:

3 ta traktor - 36 ga

? - 60 ga

Bu masalaning muhokamasiga yuqoridagi usullardan istalganini qo‘llash mumkin. Chunki har ikkala masalada ham birinchi savol bir xil ifodalanadi, ya‘ni 1 ta traktor bir kunda necha gektar yer haydagan degan savolga javob topiladi. Ikkalasida ham savolga javob bir xil amal bilan yopiladi. Bu teng bo‘laklarga bo‘lishdir. Demak ikkala masalaning birinchi ishi birlikka keltirish usulidir.

Birinchi masalada traktorlar soni berilgan bo‘lib, izlanadigan son gektarlar miqdoridir. Ikkinchi masalada, aksincha, gektarlar miqdori berilgan, traktorlar soni esa izlanadigan sonidir. Ya‘ni ikkinchi masala birinchi to‘g‘ri masalaning teskari masalasidir. Shu bois ikkinchi masala yechimini qayta birlikka keltirish usuli deyiladi.

Yechim to‘g‘risida quyidagicha mulohaza yuritiladi.

Agar 3 ta traktor bir kunda 36 ga yer haydasa, bitta traktor undan 3 marta kam yer hayday oladi. Agar bitta traktor 12 ga yer hayday olsa, 60 ga yer haydash uchun 60 dan 12 marta kam traktor kerak bo‘ladi.

Ikkinchi masalaning yechilishi:

$$1) 36 : 3 = 12 \text{ (ga)}$$

$$2) 60 : 12 = 5 \text{ (ga) yoki } 60 : 12 = 5 \text{ (ta)}$$

Javob: 60 ga yerni bir kunda 5 ta traktor hayday oladi.

Qayta birlikka keltirish usuli bilan yechiladigan masalalar savoliga ikkita bo‘lish amali bilan javob topiladi. Bunda birinchi bo‘lish “teng bo‘laklarga bo‘lish” bo‘lib, ikkinchisi “karrali bo‘lish” bo‘ladi.

III. Nisbatlar usuli. Bu usul “sodda uchlik”ga doir masalalar ichida faqat bitta miqdorning berilgan ikkita qiymatini ifodalovchi sonlar bir - birining karralisi bo‘lgandagina qo‘llash mumkin. Bunday usulda o‘quvchilarni tayyorlash uchun ularga oldindan taxminan quyidagidek mashqlarni yechdirish mumkin. “16 kg dan 4 kg necha marta katta?”, “30 soni necha marta 5 sonidan katta?”, “72 soni 12 sonidan necha marta katta?” va hokazo.

Bu kabi mashqlardan keyin o‘quvchilarga birlikka keltirishga doir tayyor masalalar taklif qilinadi. “O‘quvchi ikkita bir xil daftar olib, 400 so‘m to‘ladi. U shunday 4 ta daftar uchun qancha to‘lashi kerak?”

Bu masalani oldin o‘quvchilar o‘zlariga tanish bo‘lgan birlikka keltirish usuli bilan yechiladilar. $400 : 2 \times 4 = 800 \text{ (so‘m)}$

Keyin o‘quvchi bu masalani boshqacha usul bilan yechish mumkinligini aytadi va yechim ustida quyidagicha mulohaza yuritadi. Bizda 2 ta bir xil daftar uchun 400 so‘m pul to‘langani ma‘lum. Demek, 4 ta shunday daftar uchun 2 daftarga qaraganda 4 soni 2 sonidan necha marta katta bo‘lsa, shuncha marta ortiq pul to‘lash kerak, - deydi-da, masala yechimini quyidagicha yechib ko‘rsatadi.

Yechilishi:

$$1) 4 : 2 = 2 \text{ (marta)}$$

$$2) 400 \times 2 = 800 \text{ (so‘m) yoki } 400 \times (4:2) = 400 \times 2 = 800 \text{ (so‘m)}$$

Javob: 4 ta shunday daftar uchun 800 so‘m to‘lash kerak.

Keyin shu masalaga teskari masala tuzib ko‘raylik. “O‘quvchi 2 ta bir xil daftar olib 400 so‘m to‘ladi. 800 so‘mga shunday daftardan nechtasini olish mumkin.?” Dastlab bu masalani mulohaza yuritish yo‘li bilan o‘zlariga tanish bo‘lgan - qayta birlikka keltirish usuli bilan o‘quvchilar yechadilar $800 : (400 : 2) = 800 : 200 = 4$ (ta). Keyin bu masalani ham nisbatlar usuli bilan ham yechib ko‘rsatadi. Yechim ustida quyidagicha mulohaza yuritiladi. 400 so‘mga 2 ta daftar olinganligi ma‘lum. Demak 800 so‘mga shunday daftardan 800 so‘m pul 400 so‘m puldan necha marta ortiq bo‘lsa olinadigan daftarlar soni ham 2 ta daftardan shuncha marta ortiq bo‘lishi kerak.

Yechilishi:

$$1) 800 : 400 = 2 \text{ (marta)}$$

$$2) 2 \times 2 = 4 \text{ (ta) yoki } 2 \times (800 : 400) = 2 \times 2 = 4 \text{ (ta)}$$

Javob: 800 so‘mga shunday daftardan 4 tasini olish mumkin.

Bu usul masala yechimida ishlatiladigan amallar to‘g‘risida gapirganda shunday deyish lozim.

Masalada bitta miqdorning berilgan ikkita qiymatini ifodalovchi sonlar bir-birining karralisi bo‘lib, ulardan qiymati izlanuvchisi, qiymati berilganidan katta bo‘lsa, masala bir bo‘lish va bir ko‘paytirish amallari orqali yechiladi, agar kichik bo‘lsa, masala ikkala bo‘lish amali orqali yechiladi.

Yana shunday uchlik qoidasiga doir masalalar borki, ularni na birlikka keltirish usuli bilan, na qayta birlikka keltirish usul bilan yechib bo‘lmaydi. Yechimda faqat nisbatlar usuli qo‘l keladi. Masalan: tegirmonda 100 kg bug‘doydan 70 kg sof un chiqadi. 300 kg bug‘doydan qancha sof un chiqadi?

Masalaning qisqacha sharti:

$$100 \text{ kg bug‘doydan } \text{-----} 70 \text{ kg sof un}$$

$$300 \text{ kg bug‘doydan } \text{-----} ?$$

O‘quvchilar bu masalani o‘zlari odatlanib qolgan usul - qayta birlikka keltirish usuli bilan yechishga harakat qiladilar, mayli ularga to‘sqinlik qilish kerak emas. Toki o‘quvchilarning o‘zlari bu usul bilan bu masalani yechib bo‘lmazligiga ishonsh hosil qilishsin. Chunki bunda 100 kg ni 70 ga butun son marta bo‘lib bo‘lmaydi. Masalani faqat nisbatlash usulida yechish mumkin. 300 kg bug‘doy 100 kg bug‘doydan necha marta katta bo‘lsa, undan olingan sof un miqdori ham 70 kg dan shuncha marta ortiq bo‘ladi. Bu masala karralab bo‘lish va ko‘paytirish amali bilan yechiladi.

Yechish:

$$1) 300 : 100 = 3 \text{ (marta)}$$

$$2) 70 \times 3 = 210 \text{ (kg) yoki } 70 \times (300 : 100) = 70 \times 3 = 210 \text{ (kg)}$$

Javob: 300 kg bug‘doydan 210 kg sof un chiqadi.

Ikkinchi bir masalani ko‘raylik:

Masala: 300 kg bug‘doydan 210 kg sof un olindi. 100 kg bug‘doydan necha kg sof un olinadi?

Masalaning qisqacha sharti:

$$300 \text{ kg bug‘doydan } \text{---} 210 \text{ kg sof un}$$

$$100 \text{ kg bug‘doydan } \text{---} ?$$

Bu masalada ham 300 soni 210 soniga butun marotaba bo‘linmaydi. Demak, masalani faqat nisbat usuli bilan yechish mumkin. 100 kg bug‘doy 300 kg bug‘doydan necha marta kichik bo‘lsa, olingan sof un miqdori ham 210 kg dan shuncha marta kam bo‘ladi.

Masala karralab bo‘lish vat eng bo‘laklarga bo‘lish bilan yechiladi.

Yechilishi:

$$1) 300 : 100 = 3 \text{ (matra)}$$

$$2) 210 : 3 = 70 \text{ (kg) yoki } 210 : (300 : 100) = 210 : 3 = 70 \text{ kg}$$

Javob: 100 kg bug‘doydan 70 kg sof un olingan.

Ko‘rib turibmizki, bu ikkala masaladan har birining yechilishi “karrali solishtirish” dan boshlanadi.

Tajribada yana shunday oddiy uchlik qoidasiga doir masalalar uchraydiki, miqdorlardan birini berilgan ikki qiymatlarni karrali solishtirib bo‘lmaydi. Bunday masalalarni na “birlikka keltirish” va na “nisbatlar usuli” bilan yechib bo‘ladi. Shunday paytda bu masalalarni yechish uchun “karrali bo‘laklar” usuli qo‘llanadi.

Masala: 100 kg bug‘doydan 70 kg sof un chiqadi. 220 kg bug‘doydan necha kg sof un chiqadi?

Masalaning qisqacha sharti:

$$100 \text{ kg bug‘doydan } \text{---} 70 \text{ kg sof un}$$

$$220 \text{ kg bug‘doydan } \text{---} ?$$

Masalaning yechimi ustida mulohaza: bu masalani birlikka keltirish usuli bilan ham, nisbatlar usuli bilan ham yechib bo‘lmaydi, chunki na 70, na 220 ni 100 ga butun son ko‘rinishida bo‘lib bo‘lmaydi. Ammo biz 20 kg da qancha sof un chiqishini, bilishimiz mumkin. Undan keyin esa masalani nisbatlar usuli bilan

yechish mumkin bo‘ladi. Dastlab 100 kg ichida 20 kg necha marta borligini bilamiz. Buning uchun 100 kg ni 20 kg ga bo‘lamiz. $(100 : 20) = 5$ chiqadi. Demak 20 kg 100 kg ning beshdan bir bo‘lagi. Sonning beshdan bir bo‘lagini toppish uchun uni beshga bo‘lish kerak. $(70 : 5)$. Demak, 20 kg bug‘doydan 14 kg sof un chiqadi. Endi 220 kg bug‘doydan qancha sof un chiqishini bilamiz. Buning uchun 220 kg ichida 20 kg necha marta borligini bilish kifoya $(220 : 20)$. Demak 220 kg bug‘doydan 14 kg sof un emas, balki undan 11 marta ortiq sof un chiqadi (14×11) .

Masalaning yechimi:

1) $100 : 20 = 5$ (marta)

2) $70 : 5 = 14$ (kg)

3) $220 : 20 = 11$ (marta)

4) $14 \times 11 = 154$ (kg)

Javob: 220 kg bug‘doydan 154 kg sof un chiqadi.

Biz bayon qilgan to‘rtta usulning massasi boshlang‘ich sinflarda masalalarni butun sonlar sohasida yechish kerak degan talabga bo‘ysunadi. Yechimda kasr sonlari bo‘lishi mumkin desak, unda uchlik qoidasiga doir masalalarning barchasini shu to‘rt usulning istalgan biri bilan yechish mumkin.

Adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi (OO‘Y uchun darslik). –Toshkent: “Turon-Iqbol” 2016.426 b.
2. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.). -Toshkent. “Fan va texnologiyai”, 2005.
3. Rayxonov Sh.Sh., Qosimov F.M., Qosimova M.M. “Boshlang‘ich sinflarda tipik-arifmetik masalalar ustida ishlash” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. -Buxoro: “Durdona”, 2017.
4. Boshlang‘ich sinf darsliklarining yangi nashri.

Nodirabegim RAJABOVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLIKLARIDAGI MISOLLAR YECHISH
JARAYONIDA O'QUVCHILAR TOMONIDAN YO'L QO'YILADIGAN AYRIM
XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH**

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darsliklaridagi misollarni yechish jarayoni, bu jarayonda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: arifmetik amallar, amal xosslari, sonni yig'indiga qo'shish yig'indiga sonni qo'shish, sondan yig'indini ayirish, yig'indidan sonni ayirish, yig'indiga yig'indini qo'shish, yig'indidan yig'indini ayirish.

В данной статье рассмотрен процесс решения примеров из учебников математики начальных классов, недостатки, допущенные учащимися в этом процессе, а также способы их устранения.

Ключевые слова: арифметические действия, свойств действий, сложение суммы к чему, сложение число к сумме, вычитание числа от суммы, вычитание суммы от числа, сложение суммы к сумме, вычитание суммы от суммы.

This article discusses the process of solving examples in the textbooks of mathematics of the primary classes, the shortcomings allowed by the students in this process and the methods of their elimination.

Key words: arithmetical sum, characters of sum, addings sums of numbers, adding the numbers of sums, detach the sum from number, detach the number from the sums, adding sums to sum, detach the sums from sums.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar arifmetik amallar xossalari ma'lum tizim asosida o'rganishdi. Misollarni bajarishda o'quvchilar bu xossalarni o'rinli qo'llay olmaslik natijasida ayrim tipik xatolarga yo'l qo'yishadi.

1-sinf o'quvchisi o'rin almashtirish xossasi bilan 67-darsda tanishadi. Bu esa o'quvchilar 10 ichida qo'shish va ayirish jadvali bilan tanishgach, qo'shishning mazkur xossa o'rganiladi. Bizningcha, hozirgi o'quv dasturi va darsliklaridagi o'rin almashtirish xossasini o'tish vaqti o'z o'rnida emas deb hisoblaymiz. Chunki o'quvchi $_ + 4$, $_ - 4$ ko'rinishidagi qo'shish va ayirishni o'rgangach, qo'shishning o'rin almashtirish xossasi bilan o'quvchilarni induktiv tarzda tanishtirish maqsadga muvofiq. Sababi o'quvchi $_ + 5$, $_ + 6$, $_ + 7$, $_ + 8$, $_ + 9$ ko'rinishdagi qo'shishni o'rganishi uchun qo'shishning o'rin almashtirish xossasini bilishi muhim. O'quvchi $2+6$ ko'rinishdagi misolni bajarishga ko'ra bevosita $6+2$ ni tez topadi. Shu sababli o'quvchi ko'pincha, qo'shishning o'rin almashtirish qonunini qo'llash jarayonida ayrim juz'iy xatolarga yo'l qo'yadi.

Masalan $1+8$ ni bajarish uchun, 1 ga sakkiz marta 1 ni bittalab qo'shib, topmoqchi bo'ladi, buni qo'l barmoqlari bilan bajarib, natijasini chiqarishda xatoga yo'l qo'yishadi. O'quvchi qo'shishning o'rin almashtirish xossasini o'rinli qo'llab $8+1=9$ ni tez chiqaradi.

O'quvchilar 1-sinfda ikki amalli masalalar bilan tanishayotganda, qo'shishning guruhlash (assotsiativlik) xossasini o'rgana boshlashadi. Bir necha masalalarni tuzib bajarishgach, o'quvchilar $(a+v)+s=a+(v+s)$ qo'shishni guruhlash xossasini misollarda ko'rib chiqib, amalda qo'llashga o'rganishadi.

Masalan, quyidagi masalani qaraymiz:

Masala "Birinchiliklikda 3 ta shaftoli, ikkinchi likopchada 4 ta shaftoli, uchinchi likopchada 2 ta shaftoli bor. Uchala likopchada nechta shaftoli bor?"

Ushbu masalani muhokama qilib, quyidagi uch xil ko'rinishdagi yechimni berish mumkin

- $(3+4)+2=7+2=9$ (ta shaftoli)
- $(3+4)+2=3+(4+2)=3+6=9$ (ta shaftoli)
- $(3+4)+2=(3+2)+4=5+4=9$ (ta shaftoli)

O'quvchi guruhlash xossasini qo'llab, "yig'indiga sonni qo'shish" "songa yig'indini qo'shish" xossalari o'rganadi.

a) yig'indiga sonni qo'shish xossasi: "Yig'indiga sonni qo'shish" uchun qo'yidagi uch holni qarash o'quvchi diqqat markazida bo'lishi, misol hamda masalalarni yechishda qo'llay bilishi kerak.

$$1\text{-hol } (8+3)+2=(8+3)+2=11+2=13$$

Yig'indiga sonni qo'shish uchun dastlab ikki son yigindisi topiladi, chiqqan yig'indiga son qo'shiladi.

$$2\text{-hol } (8+3)+2=8+(3+2)=8+5=13$$

Yig'indiga sonni qo'shish uchun dastlab ikkinchi qo'shiluvchiga son qo'shib, so'ngra birinchi qo'shiluvchi bilan yig'indisi topiladi.

$$3\text{-hol } (8+3)+2=(8+2)+3=10+3=13$$

Yig'indiga sonni qo'shish uchun dastlab birinchi qo'shiluvchiga son qo'shib so'ngra ikkinchi qo'shiluvchi qo'shib topiladi. Ayrim o'quvchilar yig'indiga sonni qo'shishning bu hollarini qo'llash jarayonida xatoga yo'l qo'yishadi. Yuqoridagi misol $(8+3)+2$ ni hisoblash jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ayrim xatolarni keltiramiz.

1) $(8+3)+2=8+3=11$ Bu yerda o'quvchi ifoda tarkibidagi yig'indini topib, qo'shiladigan son(2)ni qo'shishni esidan chiqarib qoladi.

2) $(8+3)+2=8+2=10$ Bu holda o'quvchi yig'indiga sonni qo'shish xossasini qo'llamoqchi bo'ladi. Ammo birinchi qo'shiluvchiga sonni qo'shib, ikkinchi qo'shiluvchini qo'shishni esidan chiqaradi.

3) $(8+3)+2=3+2=5$ Ushbu topshiriq yechimida o'quvchi ikkinchi qo'shiluvchiga sonni qo'shib, birini qo'shiluvchiga qo'shishni esidan chiqarib qoladi.

O'quvchi ko'pgina misollarni bajarish jarayonida sonli tenglik xossalarini buzib noto'g'ri natijalar chiqaradi.

Yuqoridagi misolda yo'l qo'yilgan shunday xato namunalarini keltiramiz.

$$1) (8+3)+2=11=11+2=13$$

$$2) (8+3)+2=8+2=10+3=13$$

$$3) (8+3)+2=3+2=5+8=13$$

Ushbu misollar yechimi to'g'ri topilgan, ammo sonli tenglik xossasi buzilgan. Sonli tenglik tranzitivlik xossasiga ega, ya'ni $a=v$ va $v=s$ bo'lsa, $a=s$ bo'ladi.

O'quvchi misolni bajara turib, sonli tenglikning tranzitivlik, simmetriklik xossasini qo'llay bilmagan.

Yig'indiga sonni qo'shish xossasini qo'llashda yo'l qo'yilgan xatolarga o'xshash xatolarni "songa yig'indini qo'shish" xossasini qo'llashda ham yo'l qo'yayotgani tajribada kuzatilmoqda.

Bunday xatolarni bartaraf etishda o'qituvchi nihoyatda o'z mahoratini ishga solmog'i zarur. O'qituvchi birinchi navbatda guruhlash xossasi bilan o'quvchilarni tanishtirar ekan, bu xossaning qo'shishga nisbatan songa yig'indini qo'shish, yig'indiga sonni qo'shish xossalarini yaxshilab o'rgatib, misol va masalalarni bajarishda o'rinli qo'llay bilishga o'rgatmog'i darkor. Yuqorida qayd etilgan o'quvchilarning yo'l qo'yayotgan kamchilik sabablari tushuntirilib, o'z o'rnida bartaraf etish choralari ko'rib borishi kerak.

O'quvchilarga quyidagi ko'rinishdagi masalani yechish tavsiya qilinadi: Masala "Bahromning oyisi 12 dona olma olib keldi. Tushlikda 5 ta, kechqurun 3 ta olma yeyildi, nechta olma yeyilmay qoldi?"

Bunday ko'rinishdagi masala ustida ishlash o'quvchiga sondan yig'indini ayirish xossani o'rganishni taqozo qiladi. O'quvchi bunday masalalarni muhokama qilib yechar ekan, quyidagi uch yechim usulini beradi:

$$a) 12-(5+3)=12-8=4(\text{ta olma})$$

$$b) 12-(5+3)=(12-5)-3=7-3=4(\text{ta olma})$$

$$v) 12-(5+3)=(12-3)-5=9-5=4(\text{ta olma})$$

Aynan shunday ko'rinishdagi masalalarni yechgan paytda ko'pchilik o'quvchilar "tipik" xatolarga yo'l qo'yishadi. O'quvchilar yo'l qo'ygan variantlarni keltiramiz:

$$12-(5+3)=12-5+3=7+3=10$$

Bunday xatoga yo'l qo'yilishiga sabab o'quvchining sondan yig'indini ayirishning usullarini puxta o'rganmaganligidadir. Chunki sondan yig'indini ayirishda shu sondan qo'shiluvchilar ketma-ket ayiriladi. O'quvchi esa berilgan sondan birinchi qo'shiluvchini ayirib, ikkinchi qo'shiluvchini qo'shib xatoga yo'l qo'ydi. "Nima uchun $12-(5+3)$ ifoda qiymatini hisoblashda 12 dan 5 ni ayirib, 3 ni qo'shding?" deb o'quvchiga murojaat qilganimizda o'quvchi "3 soni oldida plyus(qo'shuv) amali bor-ku!" deb javob qildi. Bu xatolikni oldini olish uchun o'quvchiga quyidagi masalani yechishni tavsiya qilish mumkin:

"Senda 12 ta konfet bor edi. Shu konfetlardan 5 tasini o'rtog'ing Nodirga, 3 tasini Shamshodga berding. Senda nechta konfet qoldi?" O'quvchi darhol 4 ta deb javob qiladi. Masala yechimini doskaga bajarishi so'ralganda, o'quvchi masalani quyidagicha yechadi:

$$12-(5+3)=12-5-3=7-3=4(\text{ta})$$

Yo'l qo'ygan xatosini bilib oladi. O'quvchilarga $12-(5+3)$ ifodasini qiymatini yana qanday topish mumkinligi so'ralganda o'quvchilardan biri, ulardan biri "12 dan avval 5 ni so'ngra 3 ni ayirib topamiz" deb aytsa, yana biri "12 dan avval 3 ni so'ngra 5 ni ayirib topamiz", yana biri "Avval 5 ga 3 ni qo'shib, 12 dan chiqqan natijani ayiramiz" deb javob qilishi mumkin.

Ushbu masala yuzasidan o'quvchilar daftarlarini kuzatilganda, ayrim o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoni payqash mumkin.

$$12-(5+3)=12-3+5=8+5=13$$

Shunda o'qituvchi o'quvchini nomini aytmasdan sinf o'quvchilariga murojat qilib "o'quvchilar bordiyu men shu masalani yechib, yechimni quyidagicha yozsam (o'quvchi yo'l qo'ygan xato yechimi misol doskaga yoziladi), men masalani to'g'ri yechgan bo'lamanmi?"

Shunda o'quvchilar birdaniga "siz 12 dan 3 ni ayirib, yana beshni ayirishingiz kerak" deb javob qilishadi. Shunda yo'l qo'yilgan xato umumsinf ishi tariqasida o'quvchilar faolligida bartaraf qilinadi.

Tajribada "Yig'indidan soni ayirish" xossasini masala va misollarda tadbiiq etishida ham o'quvchilarning ayrimlari juz'iy xatolarga yo'l qo'yganini payqash mumkin. O'quvchilar $(12+7)-5$ ifoda qiymatini hisoblashda quyidagicha ish tutishgan.

$$1) (12+7)-5=19-5=14 \text{ (Yig'indidan sonni ayirish uchun yig'indi hisoblanib, undan son ayiriladi)}$$

2) $(12+7)-5=(12-5)+7=7+7=14$ (Yig'indidan sonni ayirish uchun birinchi qo'shiluvchidan son ayrilib, ikkinchi son qo'shiladi).

3. $(12+7)-5=12+(7-5)=12+2=14$ (Yig'indidan sonni ayirish uchun ikkinchi qo'shiluvchidan son ayrilib, birinchi qo'shiluvchi ko'shiladi)

Bu uch usul to'g'ri usullar bo'lib, yig'indidan soni ayirish xossasini ifodolovchi yechish usullaridir. Endi o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato yechim variantlarini keltiramiz:

1. $(12+7)-5=12-5-7=7-7=0$ Bu yerda o'quvchi birinchi qo'shiluvchidan soni ayirib, ikkinchi qo'shiluvchini qo'shish o'rniga ayirib xato natijaga erishdi.

2. $(12+7)-5=7-5=2$ O'quvchi ikkinchi qo'shiluvchidan 5 ni ayirib birinchi qo'shiluvchini qo'shmay qoldi. Natija noto'g'ri chiqdi

3. $(12+7)-5=12-5=7$ O'quvchi birinchi qo'shiluvchidan sonni ayirib ikkinchi qo'shiluvchini qo'shmay qoldi.

$$4. (12+7)-5=12+7=19 \text{ O'quvchi yig'indini topib, sonni ayirmadi.}$$

5. $(12+7)-5=12-7-5=0$ O'quvchi faqatgina amal xossasigina emas, amal bajarilishida xatoga yo'l qo'ydi.

6. $(12+7)-5=7-5=12+2=14$ Natija to'g'ri chiqarilgan, ammo tenglik buzilgan. Chunki, $7-5=12+2$ tengmi? O'quvchi sonni tenglik xossalarini o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilishi kerak.

Ayrim hollarda "yig'indidan sonni ayirish" xossasini barcha hollarini tadbiiq etib bo'lmaydi. Bunday hollarda ham ayrim xatolarga yo'l qo'yilishi tabiiy. Quyidagi ifoda $(3+8)-4$ qiymatini topish talab qilingan bo'lsin. Bu ifoda qiymati faqatgina ikki holda topiladi.

$$(3+8)-4=11-4=7$$

$$(3+8)-4=3+(8-4)=3+4=7$$

Ammo o'quvchi yo'l qo'ygan xatolari quyidagi bo'lishi mumkin.

$(3+8)-4=(3-4)+8=1+8=9$ O'quvchi yig'indidan sonni ayirish xossasini qo'llab ifoda qiymatini topmoqchi bo'ldi, ammo birinchi qo'shiluvchi ayirilayotgan sondan kichik bo'lgani uchun sondan birinchi qo'shiluvchini ayirib, ikkinchi qo'shiluvchini qo'shdi.

$(3+8)-4=8-4-3=4-3=1$ Yig'indidan sonni ayirish xossasini tadbiiq etolmagani uchun shunday xatoga yo'l qo'ydi. 3 sonini qo'shmay, ayirib qoldi.

Hisoblashlar natural sonlar to'plamida qaralyapti.

Ko'pincha "yig'indidan sonni ayirish" xossasini qo'shuvchilarning har biri berilgan sondan kichik bo'lgandagi hollarda o'quvchilarning xatolarga yo'l qo'yayotganining guvohi bo'lasan kishi. $(5+6)-7$ ifoda qiymatini topish talab qilingan bo'lsin. O'quvchi bundan ifoda qiymatini faqatgina yig'indi qiymatini topib, so'ngra yig'indidan sonni ayirishi kerak edi:

$$(5+6)-7=11-7=4$$

Ammo o'quvchi ushbu ifoda qiymatini quyidagicha ko'rinishlarida ifodalashi mumkin.

$$(5+6)-7=7-5+6=2+6=8$$

$$(5+6)-7=7-6+5=1+5=6$$

$$(5+6)-7=5+6=11-7=4 \text{ (Tenglik xossalarini qanoatlantirmaydi).}$$

Bunday xatolarni tezda payqagan o'qituvchi ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqmog'i lozim.

Uchinchi sinflarda o'quvchilar sonni yig'indiga ko'paytirish xossalari bilan tanishgach, bu xossalarni misol va masalarni yechimini topishda qo'llashni o'rganadi. Agar o'qituvchi shu xossalarni o'quvchilarga yaxshi tushuntirmasa, o'quvchilar tomonidan ayrim juz'iy xatolarga duch kelishadi.

"Quyidagi ifoda qiymati topilsin: $5*(2+4)$ " degan topshiriq o'quvchilar tomonidan turlicha bajarilishi mumkin.

$$1\text{-usul } 5*(2+4)=5*6=30$$

Bu yerda misol to'g'ri bajarildi. Qoidasi ham to'g'ri yoritildi: "Sonni yig'indiga ko'paytirish uchun shu sonni yig'indi natijasi bilan ko'paytirildi".

$$2\text{-usul } 5*(2+4)=5*2+5*4=12+20=30$$

“Songa yig‘indini ko‘paytirish uchun son har bir qo‘shiluvchiga ko‘paytirilib, ular natijasi qo‘shiladi”

Bu usul ham to‘g‘ri hisoblanadi.

$$3\text{-usul } 5*(2+4)=5*2+4=10+4=14 - \text{xato usul}$$

O‘quvchi sonni yig‘indiga ko‘paytirish usulini noto‘g‘ri qo‘llab hisoblashlarni bajardi. Xuddi shunday yana quyidagi xato variant ham amalda uchrab turadi.

$$4\text{- usul } 5*(2+4)=2+4*5=2+20=22$$

Bunday xatolar yig‘indisini songa ko‘paytirish, ayirmaning songa ko‘paytirish xossalari amalga noto‘g‘ri qo‘llash natijasida sodir bo‘ladi. Masalan:

$$(3+7)*5=3*5+7=15+7=22$$

$$(3+7)*5=3*5=15$$

$$(3+7)*5=7*5=35$$

$$(3+7)*5=3+7*5=3+35=38$$

$$(8-2)*5=8*3-2=24-2=22$$

$$(8-2)*3=8-2*3=8-6=2$$

Bunday xatolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi, avvalo, har bir hisob usulini va har bir amal xossalari o‘quvchi ongiga to‘g‘ri singdirib olishi kerak. Amalda o‘quvchining misol va masalalar yechimlarini topishda bunday xatolarga yo‘l qo‘ymasligini ta‘minlashi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yig‘indini songa bo‘lish jarayonida yo‘l qo‘yayotgan ayrim xato yechim jihatlari ko‘rib o‘tamiz. O‘quvchilar “Yig‘indini songa bo‘lish” mavzusini o‘rganib, $(8+6):2, (20+40):4, (30+12):3, (2+18):6, (8+12):5$ ko‘rinishdagi misollarni songa bo‘lish xossalari qo‘llaydi.

Bunday misollarni bajarish jarayonida ayrim boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ba‘zi xatolarga yo‘l qo‘yadi.

Bunday hisoblashlarda yo‘l qo‘yilgan ayrim xato yechim variantlarini keltiramiz:

$$(8+6):2=8:2+6:2=4+3=7$$

$$(8+6):2=8+6:2=8+3=11$$

Bunday xatolar “tipik xatolar bo‘lib, o‘quvchi agar har bir qo‘shiluvchi biror songa bo‘lishsa, u holda yig‘indini songa bo‘lishi uchun har bir qo‘shiluvchini songa bo‘lib, ularning yig‘indisini topishi kerak” degan qoidaga rioya qilmagan holda sodir bo‘lgan.

Bunday xatolar oldini olish uchun dastlab har, bir qo‘shiluvchisi biror songa bo‘linadigan yig‘indini songa bo‘lishga doir $(Ms;(8+6):2)$, so‘ngra har bir qo‘shuvchi biror songa bo‘linadigan yaxlit o‘nliklardan tuzilgan qo‘shiluvchilar yigindisini biror songa bo‘lishga doir $(Ms,(20+40):4)$, har bir qo‘shiluvchi biror songa bo‘linadigan ammo jadvaldan tashqari bo‘linuvchi qo‘shiluvchilar biror songa bo‘linib yig‘indini songa bo‘lishga doir misollar $((8+12):5)$ ni tizimli ravishda yechish yo‘llarini o‘rgatmog‘i zarur.

Darhaqiqat, ushbu topshiriq yechimlari o‘quvchilarga puxta o‘zlashtirilishi uchun har bir hisob usullari to‘g‘ri va asoslab bajarilishi maqsadga muvofiqdir.

$$1\text{-usul. } (8+6):2=8:2+6:2=4+3=7$$

$$2\text{-usul. } (8+6):2=14:2=7$$

$(8+12):5$ ifoda qiymati faqatgina bitta usul: “Dastlab $(8 \text{ va } 12)$ sonlari yig‘indisi hisoblanib, natija 5ga bo‘linadi ” $(8+12):5=20:5=4$

O‘quvchilar hisoblash jarayonida ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishlari sabablaridan biri “Ko‘paytmani songa bo‘lish”, “Soni ko‘paytmaga bo‘lish” xossalari o‘rinli ishlata bilmasliklaridir. Masalan.

$(27*18):9=(27:9)*(18:9)=3*2=6$ – o‘quvchi ko‘paytmani songa bo‘lish xossasini noto‘g‘ri qo‘llash natijasida xatoga yo‘l qo‘ygan.

$$\text{Ushbu misol echimining tugri varianti: } (27*18):9=(27:9)*18=9*18=162$$

Ba‘zan, ko‘paytuvchilardan birortasi songa karrali bo‘lib, ko‘paytmani songa bo‘lish talab qilinadigan misollarni bajarishda ham o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Masalan: $(8*9):3=9:3=3*8=24$ tenglik xossasini noto‘g‘ri talqin holda o‘quvchi topshiriqni bajardi.

$$\text{Hisoblashning to‘g‘ri varianti: } (8*9):3=8*(9:3)=8*3=24$$

Ko‘paytuvchilarning birortasi ham songa bo‘linmagan holda ko‘paytmani songa bo‘lishga doir misol bajarilishi so‘ralganda, ayrim o‘quvchilar, ko‘paytma songa bo‘linmaydi, chunki ko‘paytuvchilarning birortasi ham songa bo‘linmaydi deb javob berishdi.

Shunda o‘quvchilarga

$(12*15):9$ misolni birinchi usulda bajarib hisoblash so‘ralganda, $(12*15):9=180:9=20$ misol javobini to‘g‘ri topib aytishadi.

To‘rtinchi sinfdagi o‘quvchilar sonni ko‘paytmaga bo‘lish, bo‘linmani songa ko‘paytirish, sonni bo‘linmaga bo‘lish xossalari qo‘llab, misol masalalar bajarishadi. Shu xossalarni noto‘g‘ri qo‘llash natijasida ham juz‘iy xatolarga yo‘l qo‘yishadi. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato namunalari keltiramiz:

1) $48:(3*4)=(48:3)*4=16*4=64$

2) $48:(3*4)=(48:4)*3=12*3=36$

Bu misol yechimida o'quvchilar "Sonni ko'paytmaga bo'lish" xossasini noto'g'ri qo'llashlari sabab bo'ldi.

Ushbu misol bajarilishida quyidagi qoida hisobga olinishi kerak:

"Soni ko'paytmaga bo'lish uchun shu sonni ko'paytuvchilarga ketma-ket bo'lish kerak"

$48:(3*4)=(48:3):4=16:4=4$

3) $(12:3)*3=12:(4*3)=12:12=1$

4) $(12:4)*3=(12*3):(4*3)=36:12=3$

O'quvchi "Bo'linmani songa ko'paytirish" qoidasini noto'g'ri qo'lladi. Ushbu misol quyidagicha yechilishi mumkin.

$(12:4)*3=3*3=9$ yoki

$(12:4)*3=(12*3):4=36:4=9$

Demak, bo'linmani songa ko'paytirish uchun bo'linuvchini songa ko'paytirib, ko'paytmaga bo'luvchiga bo'lish kifoya.

Kuzatishlar natijasi sifatida aytish mumkinki, sonni bo'linmaga bo'lish jarayonida ham ko'pchilik o'quvchilar xatolarga yo'l qo'yishadi.

5) $54:(9:3)=54:3=6:3=2$

6) $54:(9:3)=(54:3):9=18:9=2$

Ammo o'quvchi bu yerda bo'lish amalining guruhlash xossasiga ega emasligini va sonni bo'linmaga bo'lish xossasini bilmagani uchun topshiriq xato bajarildi. O'qituvchi sonni bo'linmaga bo'lish qoidasini o'zi puxta bilib o'quvchilarni shu qoidaga asoslanib misollarni bajarishlariga o'rgatib bormog'i zarur. Yuqoridagi topshiriq o'quvchilarga quyidagicha yechib ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

$54:(9:3)=54:3=28$ yoki $54:(9:3)=(54:9)*3=6$

Umuman olganda, o'quvchilarning arifmetik amallarni bajarish jarayonida arifmetik amal xossalarini qo'llash jarayonida yo'l qo'yilayotgan "tipik" xatolarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi oshib dars samaradorligi ko'tariladi.

Adabiyotlar

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. 1-sinf darsligi. - T., 2019.
2. Abduraxmonova N., O'rinboyeva L. Matematika. 2-sinf darsligi. -T., 2018.
3. Matematikani o'qitishda davomiylik. - M.: "Ta'lim", 1978. - S. 24-36.

Shabnami YUSUFZODA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O'QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISH ASOSI SIFATIDA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanidan tashkillashtiriladigan darslarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari, psixologik-pedagogik tadqiqotlari, boshlang'ich darajadagi asosiy mantiqiy ko'nikmalar shakllanishi kabi masalalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: empirik, intellektual ko'nikmalar, tafakkur turlari, analiz, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, eksperiment, individual

В статье рассматриваются факторы, формирующие логическое мышление на уроках математики в начальной школе, психолого-педагогические исследования, формирование базовых логических навыков на начальном уровне.

Ключевые слова: эмпирические, интеллектуальные навыки, типы мышления, анализ, синтез, абстракция, обобщение, эксперимент, индивид.

The article examines the factors that form logical thinking in mathematics lessons in elementary school, psychological and pedagogical research, the formation of basic logical skills at the primary level.

Key words: empirical, intellectual skills, types of thinking, analysis, synthesis, abstraction, generalization, experiment, individual.

Ayni paytda boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy muammolaridan biri shundaki, ular sinfdagi turli vaziyatlardan oqilona yo'l topishni bilmaydilar, shu bilan o'qitish vazifasini murakkablashtiradilar, darsda vaqtdan oqilona foydalanmaydilar.

Asosiy intellektual ko'nikmalar orasida, avvalo, matematikani o'qitishda shakllangan mantiqiy ko'nikmalar mavjud. Matematikada qabul qilingan mantiqiy xulosalar obyektlari va ularni tuzish qoidalari hukmlarni asoslash va isbotlash, aniq ta'riflarni shakllantirish, mantiqiy intuitivlikni rivojlantirish, mantiqiy inshootlar mexanizmini qisqacha va aniq ochib berish va ularni qo'llashni o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning psixologik-pedagogik tadqiqotlari boshlang'ich darajadagi asosiy mantiqiy ko'nikmalar bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shakllanishi mumkinligini isbotladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullarini aniqlash va tavsiflash.

Ushbu maqsadga erishish uchun men quyidagi vazifalarni hal qilishni rejalashtirmoqdaman:

- boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslarini tavsiflash;

- boshlang'ich maktabda matematika darslarida mantiqiy masalalarni yechishda mavjud bo'lgan umumiy uslubiy yondashuvlarni tavsiflash;

- boshlang'ich maktabda matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish rolini ochib berish;

- boshlang'ich maktabda matematika darslarida mos mantiqiy masalalarni tanlash va ularni mumkin bo'lgan yechimlarga muvofiq tasniflash.

O'qituvchining muammolarni hal qilishda mohirona va oqilona tashkil etgan faoliyati bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Ishni yozishda quyidagi nazariy tadqiqot usullari qo'llanilgan:

-tadqiqot mavzusi bo'yicha psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni, davriy nashrlarni, Internet manbalarini nazariy - tahlil qilish;

- empirik - talabalar faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, loyihalash, test natijalarini tavsiflash.

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini shakllantirish;

- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali matematikadan bilim sifatini oshirish.

Zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan va hayotiy vaziyatlarda samarali va oqilona harakat qiladigan odamni tayyorlashdir. Maktabda ishlagan yillar davomida ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga bog'liqligini angladim.

Fikrlash - bu unga kiritilgan transformatsion xarakterdagi harakatlar va operatsiyalar tizimini o'z ichiga olgan aqliy va amaliy faoliyatning o'ziga xos turi. Odamlarning aqliy faoliyati aqliy operatsiyalar

yordamida amalga oshiriladi: taqqoslash, tahlil qilish, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish va konkretlashtirish.

Tafakkurning uch turi mavjud: vizual-real, vizual-majoziy, og'zaki-mantiqiy. Bolaning tafakkurini rivojlantirishning dastlabki bosqichi vizual-dolzarb fikrlashdir. Fikrlash uchun topshiriqning vizual ravishda berilishi va qo'l bilan echilishi bilan tavsiflanadi, ya'ni. amaliy harakatlar bilan. Ushbu "qo'l bilan o'ylash" shakli mantiqiy fikrlashning yuqori shakllari rivojlanishi bilan yo'qolmaydi. Nutqni rivojlantirish va tajriba to'plash bilan bola vizual-majoziy fikrlashga keladi. U tasvirlarda o'ylaydi va unga tegishli bo'lgan so'z unga umumlashma qilishga yordam beradi. Bola maktabga kelganida, u asosan aniq tasvirlarga asoslanib fikr yuritadi. Ammo dastur materialini to'liq va chuqur o'rganish og'zaki-mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Mantiqiy fikrlash - bu bolaning aqliy rivojlanishining eng yuqori bosqichi, u uzoq yo'lni bosib o'tadi.

Bola maktabga kirganda uning hayotida muhim o'zgarishlar yuz beradi, ta'lim faoliyati shakllanadi. Ta'lim faoliyati asosida kichik maktab o'quvchisining asosiy psixologik neoplazmalari ishlab chiqilgan. Fikrlash dominant funktsiyaga aylanadi. Mantiqiy fikrlash, vizual yordamisiz xulosalar chiqarish, hukmlarni muayyan qoidalar bo'yicha taqqoslash qobiliyati matematika darslarida o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning zaruriy shartidir. Mantiqiy tafakkuri yaxshi rivojlangan bola haqida ular uning puxta o'ylaydi, intizomli muhokama qilishini aytishadi. Bunday talaba, qoida tariqasida, o'z mulohazalari va xulosalarida xatolarga yo'l qo'ymaydi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni juda uzoq. Shuning uchun, bu bolaning maktabda o'qigan birinchi yillaridan boshlanishi kerak.

Odamlarning aqliy faoliyati aqliy operatsiyalar yordamida amalga oshiriladi: taqqoslash, tahlil qilish, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish va konkretlashtirish.

Taqqoslash - bu narsalar va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va farqlarini topish uchun ularni bir-biriga qo'shib qo'yishdir.

Tahlil - bu narsa yoki hodisani uning tarkibiy qismlariga aqliy ravishda ajratish, undagi ayrim qismlarni, belgilar va xususiyatlarni ajratish.

Sintez - bu individual elementlar, qismlar va atributlarning aqliy birlashuvidir.

Analiz va sintez bir-biri bilan uzviy bog'liqdir, bilish jarayonida bir-birlari bilan birlikda bo'ladi. Analiz va sintez eng muhim aqliy operatsiyalardir.

Abstraktlik - bu obyektlar yoki hodisalarning muhim xususiyatlari va xususiyatlarini ruhiy yoritib berish, shu bilan birga keraksiz narsalardan mavhumlashtirish. Abstraktsiya umumlashtirishning markazida turadi.

Umumlashtirish - bu obyektlar va hodisalarni mavhumlik jarayonida ajralib turadigan umumiy va muhim xususiyatlarga ko'ra guruhlariga aqliy birlashish. Betonizatsiya jarayoni mavhumlashtirish va umumlashtirish jarayonlariga ziddir.

Konkretizatsiya - bu umumiyga birlikga ruhiy o'tish, bu umumiylikka mos keladi. Ta'lim faoliyatida konkretlashtirish misol keltirishni anglatadi.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilar mantiqiy harakatlarning quyidagi elementlarini o'zlashtirishlari kerak: taqqoslash, tasniflash, obyektlarning xususiyatlarini ta'kidlash, tanish tushunchani turlar va turlar farqi orqali aniqlash, ushbu binolar asosida oddiy xulosalar chiqarish. Shuning uchun mantiqiy harakatlarni o'rganishni mos keladigan elementar ko'nikmalarni shakllantirish bilan boshlash, vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bilimlarni o'zlashtirish katta va mashaqqatli ishdir. Bu talabalardan maksimal darajada, uzoq muddatli va mashaqqatli harakatlarni, iroda va e'tiborni doimiy ravishda safarbar qilishni talab qiladi. Tug'ilgandan boshlab, bolalar hayotining har bir kuni azizdir va bundan ham ko'proq, insonning rivojlanishi va shakllanishidagi eng muhim davr bo'lgan birinchi maktab yillarida vaqt yo'qotmaslik kerak. Hozirgi vaqtda mantiqiy fikrlashning rivojlanishi uni maktabda o'qitish samaradorligini, kasbiy tayyorgarlik va hayotda muvaffaqiyatni ta'minlovchi eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yaxshi rivojlangan mantiqiy fikrlash amaldagi xatolardan ogohlantiradi. Bu sifat asosan matematikani o'rganish jarayonida rivojlanadi va mening fikrimcha, matematika darslarining asosiy vazifasidir. Matematikada eng katta to'liqlikka ega bo'lgan talaba boshlang'ich mantiqning deyarli barcha asosiy qonunlarini namoyish eta oladi. Talabalarning bilim sifati tafakkur rivojlanishiga bog'liq.

Kashfiyot, izlanish, eksperiment ta'lim jarayonining asosidir. Ushbu g'oya, talabalarga berilgan bilimlarga ega bo'lishidan oldin ham, berilgan savollarga javob berishi kerak bo'lgan har qanday tadqiqotchining boshidan kechirayotgan narsalarni o'zlari boshdan kechirish imkoniyatini berishdir.

O'quvchilarimning rivojlanishini hisobga olgan holda, men o'rganish ongning markazida fikrlash fikrini qo'yishiga e'tibor qaratdim.

Kichik maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish talabalarni o'qitishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonning ahamiyati o'quv rejalari va uslubiy adabiyotlarda ko'rsatilgan. Tafakkurni rivojlantirish muammosining dolzarbligi har qanday faoliyatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan fikrlash rivojlanishining xususiyatlariga bog'liqligi bilan izohlanadi. Aynan boshlang'ich maktab yoshida, maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mantiqiy fikrlash intensiv ravishda rivojlanishi kerak. Fikrlash idrokda ulkan rol o'ynaydi. Bu bilim chegaralarini kengaytiradi, hislar va idrokning bevosita tajribasidan tashqariga chiqishga imkon beradi. Fikrlash odam bevosita kuzatmaydigan, sezmagani narsani bilish va hukm qilish imkonini beradi.

Afsuski, o'rta sinflarda matematika o'qituvchilari o'quvchilarning tahlil qilish, konkretlash, umumlashtirish, rejalashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatining etishmasligi muammosiga duch kelishmoqda. Savol tug'iladi, qanday qilib biz matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatini yaxshilay olamiz, ularning ongini yanada moslashuvchan qilamiz, nimani anglatishini o'ylashni o'rgatamiz.

Ushbu muammoga asoslanib, men boshlang'ich sinflarda matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb va o'z faoliyatini tashkil etishning yangi usullarini o'zlashtira oladigan, o'zgartiradigan va yaratishga qodir bo'lgan ijodkor uchun jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi bilan belgilanadi deb o'ylayman.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilar mantiqiy harakatlarning quyidagi elementlarini o'zlashtirishlari kerak: taqqoslash, tasniflash, obyektlarning xususiyatlarini ta'kidlash, tanish tushunchani turlar va turlar farqi orqali aniqlash, ushbu binolar asosida oddiy xulosalar chiqarish.

Birinchi sinf o'quvchisi vizual-majoziy fikrlashga ega, uning analitik qobiliyatlari boshlang'ich, umumlashtirish va tushunchalarning mazmuni faqat tashqi va ko'pincha ahamiyatsiz belgilarni o'z ichiga oladi, shuning uchun mantiqiy harakatlarni o'rganishni tegishli elementar qobiliyatlarni shakllantirish bilan boshlash, vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish. Mashqlar yordamida bolalarning bilimlari nafaqat mustahkamlanadi, balki aniqlanadi, mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllanadi, aqliy faoliyat ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bolalar doimo tahlil qilish, taqqoslash, iboralar va jumlar tuzish, mavhumlashtirish va umumlashtirish bilan shug'ullanishlari kerak. Bu bir vaqtning o'zida bolaning bir qator eng muhim intellektual fazilatlarini rivojlanishini ta'minlaydi: diqqat, xotira, fikrlashning turli xil turlari, nutq, kuzatuv.

Shunday qilib, 7-10 yoshli bolalarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish jarayonida, ehtimol, eng muhimi, bolalarni o'zlarining kashfiyotlarini kichik bo'lsa ham qilishni o'rganishga o'rgatishdir. Talaba boshlang'ich sinflarda unga oddiygina o'xshashlik (o'qituvchining harakatlarini nusxalash) bilan harakat qilishni talab qilmaydigan, ammo "aqliy yutuq" uchun imkoniyatni yashiradigan muammolarni hal qilishi kerak. Bu shunchaki tugallangan natija emas, balki o'z farazlari, xatolari, turli g'oyalarni taqqoslashlari, baholari va kashfiyotlari bilan o'zini o'zi hal qilish jarayoni, natijada ongni rivojlantirishda shaxsiy g'alabalarga olib kelishi mumkin.

Men o'z darslarimda har doim o'quvchilarga hazil vazifalarini, aqlli vazifalarni, oyatdagi vazifalarni taklif qilishim mumkin bo'lgan bir lahzani topaman. Bu o'quv jarayonini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi va mantiqning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Matematik qobiliyatlarni rivojlantirish va fikrlashni rivojlantirish uchun mantiqiy masalalar juda foydali va qiziqarli. Mantiqiy vazifalar - dalillarga asoslangan fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini talab qiladigan vazifalar. Sinfdan dastur materialini yaxshiroq o'zlashtirishga va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli vaziyatlarni tashkil etishga imkon beradi.

Rejani amalga oshirish uchun o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini shakllantirish uchun sinovdan o'tkazishga qaratilgan turli usullar, uslublar, vazifalardan foydalanish tizimini ishlab chiqdim. Matematik topshiriqlarni bajarish paytida o'quvchilar mantiqiy fikrlay olishlariga ishonch hosil qilganimdan so'ng, men matematik topshiriqlarni bajarish uchun nazorat va tuzatish ishlarini olib bordim.

Ilmiy ishimni amalda sinab ko'rganimda, deyarli barcha o'quvchilar oxir-oqibat sinfdan faollik oshganini va mantiqiy fikrlash ham yuqori darajada rivojlanganligini payqadim. Biz qisqa vaqt ichida mantiqiy masalalarni yechishni o'rgandik.

Xulosa. Matematika tafakkurni rivojlantirish uchun haqiqiy shart-sharoitlarni yaratganligi sababli, men bolalarga dars berishda ushbu imkoniyatlardan sinfdan to'liqroq foydalanishga qaror qildim. Mening tajribam shuni ko'rsatadiki, matematika darslari o'ziga xos rivojlanish effektiga ega va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun haqiqiy zarur shart-sharoitlarni yaratadi. O'ylaymanki, mening ishning muntazamligi, tanlagan mantiqiy fikrlash shakllari va usullari fikrlash mantiqining mustaqilligini rivojlanishiga hissa qo'shadi, bu bolalar xulosalar chiqarish, dalillar, bayonotlar, xulosalar chiqarish, o'z hukmlarini asoslash, bilimlarni egallash, shuningdek, ushbu bilimlardan faol foydalanish matematika darslari va kundalik

hayotda. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, materiallardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliyotda foydalanadilar. Mantiqiy fikrlash - maktab ta'limining asosi, texnik va gumanitar fanlarni muvaffaqiyatli anglashning kalitidir. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayon sifatida bola tanasining rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq ravishda, bolaning intellektual rivojlanishi bilan birlik va hamjihatlikda amalga oshirilishi kerak. Barcha darslarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish o'qitish sifatini ta'minlashning eng muhim talablaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Boshlang'ich sinflar davlat ta'lim standarti. –Toshkent, 2017.
2. Efanova Z.A. Tafakkurni rivojlantirish. - Volgograd: “Korifey”, 2010.
3. Белошистая А.В., Левитес В.В. Задания для развития логического мышления в начальных классах – Москва: “Дрофа”, 2008. – 65 с.
4. Берков В.Ф. Логика: задачи, упражнения, практикум. – Минск: “ТетраСистемс”, 1998.
5. Мельникова, Т.В. Математика. Развитие логического мышления. – Волгоград: “Учитель”, 2009. – 131 с.

Gavhar SAIDOVABuxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN ZAMONAVIY DARS SHAKLLARI**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanidan tashkillashtiriladigan darslarning zamonaviy shakllari haqida fikr yuritilgan bo'lib, bugungi kun zamon talabidan kelib chiqib, boshlang'ich ta'lim o'quvchisining matematika fanini tez va oson o'zlashtirishi uchun samarali usullar yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy va innovatsion darslarni tashkil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan metodlar hamda ularning o'tkazish tartibi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, zamonaviylik, innovatsiya, dars shakli, metod, samarali, usul, matematika.

В этой статье обсуждаются современные формы уроков математики в начальной школе и описываются эффективные способы для учащихся начальной школы быстро и легко овладеть математикой в соответствии с современными требованиями. Также описаны методы, которые можно использовать при организации современных и инновационных уроков, а также порядок их проведения.

Ключевые слова: современный, современный, инновация, форма курса, метод, эффективный, метод, математика.

This article discusses modern forms of math lessons in elementary school and describes effective ways for elementary school students to quickly and easily master math in accordance with modern requirements. It also describes methods that can be used in organizing modern and innovative lessons, as well as the order of their delivery.

Keywords: modern, modern, innovation, course form, method, effective, method, mathematics.

Ta'lim samaradorligi ma'lumot mazmuniga didaktik ishlov berish, ta'lim prinsiplariga qat'iy amal qilishga bog'liq bo'lganidek ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashga ham bog'liqdir. O'qitishda ta'lim metodlarini mutaxassislar turlicha talqin etishadi. Ba'zi tlklarda bilmaslikdan bilishga borish yo'li, ayrimlarida esa o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini bog'lovchi usullar deb ham talqin etiladi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish orqali ta'limning mazmuni va sifati oshadi, dars qiziqarli faol tarzda tashkil etiladi. Shu bilan birga o'quvchilarning darsdagi ishtiroki faollashdi, dunyoqarashi kengayadi, ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy jihatdan tajribalar orttiradilar. Ularning yozma va og'zaki nutqlari rivojlanadi hamda shakllanadi. O'quvchilar o'z ustida mustaqil, ijodiy ishlaydilar, erkin fikr yuritadilar. Mavzuning mazmunini yoritish uchun adabiyotlarni mustaqil ravishda o'rganadilar. Kutubxonada izlanadilar, mavzu bo'yicha yangiliklarni topib o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kutubxonada ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan ishlashga o'rganadilar. Seminar darsida o'quvchilar matndagi g'oyalarni gapirib berish orqali ularning og'zaki va yozma nutqlari uzviy holda rivojlanadi.

Hozirgi kunda multimedia, kompakt disklar orqali ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanib dars o'tilmoqda. Jumladan, multimedia - ma'lum bir soatga mo'ljallangan, ovozi, dasturli, rejali, DTS ga mos keladigan dars shaklidir. Undan foydalanish uchun mavzuga oid bo'lgan ma'lum bir soatga mo'ljallangan holda mutaxassislar tomonidan multimedia yaratiladi. Matndagi mavzu ekrandagi multimedia yaratiladi. Matndagi mavzu ekrandagi multimedaning o'zi mazmunli, sifatli qilib yaratib beradi.

O'qituvchi dars jarayonida ortiqcha kuch, bilim, mehnat sarflamaydi. O'quvchilar faolligi oshadi, mustaqil, ijodiy ishlaydilar, erkin fikr yuritadilar. Darsda zamonaviy usul bilan ishlashga o'rganadilar. Kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlikka ega bo'ladilar, darsni texnik vositalar yordamida tashkil etishni o'rganadilar. O'quvchilarning dunyoqarashlari o'sadi, faolligi yanada oshadi, qiziqishlari oshadi.

O'qituvchi bu usuldan foydalanishda o'quvchilarga o'ylantiruvchi topshiriq va savollar bilan murojaat qiladi. Albatta, topshiriq va savollar mavzuga oid bo'lishi zarur. Masalan : odobnoma darsida o'qituvchi o'quvchilarga shunday topishmoqli savol bilan murojaat qilishi mumkin. Bir odam har kuni 3 ta non olar ekan. Bittasini ota-onasiga, yana birini farzandlariga berar, qolgan birini o'zi yer ekan. Nima uchun u shunday qiladi ? Albatta, yuqori sinf o'quvchilari bu topishmoqli savolni darhol topib oladilar, lekin kichik yoshdagi o'quvchilar uchun bu topishmoqli savolni yechishda evrika usulidan foydalanish mumkin. Ular uchun bu savol o'ylantiruvchi bo'lib, aqliy imkoniyatlarini ishga soladilar. Ularni o'ylashga majbur qiladi. Shuningdek, matematika darsida o'qituvchi o'quvchilarga shunday usullardan birini noan'naviy tarzda qo'llashi mumkin. Misol : o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi topshiriqni beradi:

— o'ngacha bo'lgan xohlagan bir sonni o'ylang va uni bizga aytmang! O'ylagan sonni ikkiga ko'paytiring, javbini ham aytmang! Unga ikkini qo'shing, shundan so'ng chiqqan sonni ikkiga bo'ling! Hosil bo'lgan sonni dastlab o'ylagan soningizdan ayiring! Barchangizda bir raqami qoladi.

Darhaqiqat, bu o'yantiruvchi, qiziqarli, noan'anaviy usullardan biridir. Bu usul orqali o'quvchilarning aqliy tafakkuri rivojlanadi, dunyoqarash va tafakkurlari orqali shakllanadi. Dars qiziqarli noan'anaviy tarzda o'tadi. O'quvchilarning darsdagi faolligi oshadi. O'z fikr-mulohazalarini erkin yuritishga sharoit yaratiladi. Har bir o'quvchilarning o'z pozitsiyasi, yo'li shakllanadi. O'qituvchi mavzuni o'tishda o'quvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida kasbga bog'lab dars o'tadi. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni biror-bir kasb-hunarga qiziqtiradilar. Masalan: boshlang'ich sinflardagi odobnoma, o'qish darslari orqali o'quvchilarni kasbga qiziqtirish maqsadida kasbga bog'lab dars o'tish usulidan foydalaniladi. Bunda mavzuni yoritishda kasb-hunarga oid hayotiy misollar dars jarayonida o'quvchilarga tushuntiriladi. Tikuvchilik, pazandalik, kosibchilik, dehqonchilik, zardo'zlik, naqqoshlik, ustachilik, shofyorlik, sport ustalari haqida ma'lumotlar, bahs-munozara, suhbat, kasb-hunarni egallagan shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Buni dars jarayonida qilsa ham bo'ladi. Kasb-hunar haqida o'quvchilarga ma'lumot berib turib, ularni ya'ni hunarli kishilarni darsga taklif qilish orqali ma'lum bir vaqt ichida ular o'zlarining faoliyatini kelajak uchun, jamiyat uchun foydasi haqida savol-javob qilinadi. Bu bilan dars noan'anaviy tashkil etiladi.

O'quvchilar dars jarayonida nafaqat bilim oladilar balki kasb-hunarga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'quvchilarning kasbiy qiziqishlari ortadi. Kelajakda ma'lum bir kasbni egallay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars hayotiy, noan'anaviy o'tadi. O'quvchilar mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga ega bo'ladilar. Dars hayotiy, noan'anaviy o'tadi. O'quvchilar mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga ega bo'ladilar. Shuningdek, dars jarayonida kasb-hunarga qiziqishlari ortadi.

Yuqorida keltirilgan noan'anaviy usullar o'quvchilarni birinchidan, darslarda faol qatnashishga undaydi. ularni darsga qiziqitira olish imkoniyatiga ega bo'ladi Ikkinchidan, noan'anaviy usullar orqali dars o'tishga o'quvchilar maustaqil, ijodiy ishlashga o'rganadilar, erkin fikr yuritadilar. Uchinchidan esa, dars qiziqarli tashkil etiladi, bolalar darsda zerikmaydilar, ham ijodiy ishlaydilar, ham turli manbaalar ustida ishlashga o'rganadilar va ham ularda ilmiy-nazariy, uslubiy-amaliy bilim, tajribalar rivojlanadi.

O'quvchilarga mavzu yoki rejalar oldindan beriladi. O'quvchilar bu mavzu yoki rejalariga mustaqil puxta tayyorgarlik ko'radilar. Har bir sinfdagi o'quvchilarning eng iqtidorli, a'lochi, o'z ustida mustaqil ishlaydigan bolalardan 3-4 tasiga mavzu va rejaga tayyorgarlik ko'rishni, chuqur o'rganishni, uning maqsad va vazifalarini, metodologik asoslari, ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy bilimlar uslubini, prinsip, qoida-qonuniyatlarini, mavzu rejadagi muammolar, ularning yechimi tahlilini atroflicha o'rganib keladi va mana shu 3-4 ta o'quvchi mavzuni atroflicha yoritib beradi. Barcha o'quvchilar esa uning kamchiliklarini, yutuqlarini tahlil qilib to'ldiradilar, munozara qiladilar. Boshqaruvchi ea har bir savol, mavzuning qanday va qaysi yo'l, yo'nalish bilan boyitilib borishni, mavzudan chetga chiqib ketmaslikni nazorat qilib boradi. Mavzu va savollarning mazmuni, yechimi, muammolari ilmiy-nazariy, amaliy- uslubiy jihatdan hal etiladi, umumlashtiriladi, xulosa qilinadi, taklif, tavsiyalar beriladi. O'z fikrlarini mustaqil ifolashga imkon yaratiladi. Aynan bir mavzu, savol chuqur, atroflicha echiladi, uning maqsad vazifalari, metodologik asoslari, muammolarini o'quvchilar mustaqil, munozara tarzda bilib oladilar. Darsda o'quvchilar faol ishtirok etadilar, noan'anaviy dars shaklida amalga oshiriladi. O'quvchilar bilmagan narsa, yangiliklarini konferensiya darsida bilib oladilar.

Biror bir mavzu o'qituvchi rejalar bilan birga tuzib o'quvchilarga oldindan beradi. Ular bu reja asosida tuzilgan mavzu ustida mustaqil o'qiydilar, kutubxonada adabiyotlar bankini to'playdilar, darsga tayyorgarlik ko'radilar. Darsda o'quvchi shu mavzu yuzasidan o'quvchilarning fikr-mulohazalarini bilib oladilar. Seminar darsida o'quvchilarning barchasi ishtirok etadilar. O'qituvchi har bir o'quvchidan mavzuning maqsad va vazifalari, usul va shakllarini, mazmun mohiyatini so'raydi. Mavzu atroflicha o'rganiladi. Seminar darsida o'qituvchi, boshqaruvchi, yo'naltiruvchi rolini o'tasa, o'quvchilar esa darsda faol ishtirok etadilar.

Boshlang'ich matematikaning tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

1. Arifmetik material kursining asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya elementi material bilan qo'shib o'qitiladi.

2. Boshlang'ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan. oldin 1-o'nlikni raqamlash o'qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko'p xonali sonlar ichida.

Bularni o'qitish bilan birga raqamlash. miqdorlar. kasrlar. algebraik va gemetrik materiallar qo'shib o'qitiladi.

3. Nazariya va amaliyot masalalari o'zaro bog'langan xarakterga ega.

4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy bog'lanishlarni ochish kursda o'zaro bog'langan.

5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi.

Masalan, arifmetik amllarni o'qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi. Keyin amalining xossalari, keyin komponentlar orasidagi bog'lanish. keyin amal natijasi. oxirida amallar orasidagi bog'lanish beriladi.

6. Asosiy tushunchalar va natijaviy tushunchalar o'zaro bog'lanishda berilgan.

Ammo amaldagi dasturda konsentrlar soni kamaytirilgan o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar. Shuni ham aytish kerak, material shunday guruhlashganki. unda o'zaro bog'langan tushunchalar, amallar, masalalarni qarash vaqt jihatdan yaqinlashtirilgan.

Arifmetik amallarning xossalari va mos hisoblash usullarini o'rganish bilan bir vaqtda arifmetik amallar natijalari bilan komponentlari orasidagi bog'lanishlar ochib beriladi. (Masalan, agar yig'indidan qo'shiluvchilardan biri ayrilsa ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'ladi). Komponentlardan birining o'zgarishi bilan arifmetik amallar natijalarining o'zgarishi kuzatiladi.

Algebra elementlarini kuzatish, chuqur, tushunilgan va umumlashgan o'zlashtirish maqsadlariga javob beradi. Tenglik, tengsizlik, tenglama, o'zgaruvchi tushunchalari kankret asosda ochib beriladi.

1-sinfdan boshlab sonli tengliklar va tengsizliklar ($4=4$, $6=5+1$, $2<3$, $6+1>5$, $8-3<8-2$ va boshqalar) qaraladi.

Ularni o'rganish arifmetik materialni o'rganish bilan bog'lanadi va uni chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

2-sinfdan boshlab $(x+6)-3=2$ va h.k. ko'rinishdagi tenglamalar qaraladi.

Tenglamalarni yechish. Oldin tanlash metodi bilan, so'ngra amallarning natijalari bilan komponentlari orasidagi bog'lanishlarni bilganlik asosida bajariladi. O'zgaruvchi bilan amaliy tekshirish o'quvchilarning funksional tasavvurlarini egallashlariga imkon beradi.

Geometrik material bolalarning eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, bog'lanishlarni ko'rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi: masalan, to'g'ri to'rtburchakning teng kvadratlarga bo'lingan ko'rsatmali obrazidan ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasini bog'lanishi ochib foydalaniladi.

1-sinfdan boshlab to'g'ri va egri chiziqlar, kesmalar, ko'pburchaklar va ularning elementlari, to'g'ri burchak vahokazo kiritilgan.

O'quvchilar geometrik figuralarni tasavvur qila olishni, ularni nomlari, katakli qog'ozga sodda yasashlarni o'rganib olishlari kerak. Bundan tashqari. ular kesma va siniq chiziq uzunligini, ko'pburchak perimetrini, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat va umuman har qanday figuraning yo'zini (paletka yordamida) topish malakasini egallab olishlari kerak.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning maqsadlari quyidagilar: umumta'lim maqsadi, tarbiyaviy maqsadi, amaliy maqsadi. Bu maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

1. Ta'lim maqsadi o'qituvchidan quyidagini talab qiladi:

a) o'quvchilarga matematik bilimlar tizimidan, bilim, malaka, ko'nikmalar berish;

b) haqiqiy olamni matematik metodlar bilan o'rganish;

v) o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishni, uning sifatli bo'lishini ta'minlash;

g) o'quvchilarga matematikadan shunday bilimlar berishini ta'minlash kerakki, bu bilimlar orqali, faol bilish faoliyati orqali, bilim, malaka, ko'nikmalari ortib borsin.

2. Tarbiyaviy maqsad. Matematika o'qitish o'quvchilarni sabotlilikka, tirishqoqlikka, puxtalikka, o'z fikr va xulosalarini nazorat qila olishga. ayniqsa, kuzatish asosida aytiladigan fikrlarning ravon bo'lishishiga erishish kerak. Miqdorlar orasidagi bog'lanishni ifodalash uchun matematikada simvollar ishlatiladi. Mana shu matematik til rivojlanishi kerak. O'qituvchining vazifasi matematik tilda ifodalangan matematik fikrni ona tiliga ko'chirishga o'rgatishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Bilishga intilish. Mustaqil ishdan qanoat hosil qilish tuyg'ularini tarbiyalash kerak. Matematika fanini o'qitishning o'zi o'quvchilarda diqqat va fikrni to'play olishni tarbiyalaydi.

O'qituvchi quyidagilarni taminlashi kerak:

a) o'quvchi moddiy olamdagi bog'lanishlarni, miqdorlarning o'zgarishini, bir-biri bilan aloqasini anglay olishi;

b) o'quvchilarning matematikani o'rganishga astoydil qiziqishini ta'minlash;

v) mehnatga, Vatanga, insonlarga bo'lgan munosabatlarini ta'minlash, estetik did hosil qilish;

g) o'zbek millatining tarixi, jumladan, matematika o'qitilishi tarixiga bo'lgan dunyoqarashni tarbiyalash;

d) o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini va matematik madaniyatini tarbiyalash.

3. Amaliy rivojlantiruvchi maqsad. Matematika o'qitishdan kuzatilgan amaliy maqsad - o'quvchilar olgan bilimlarni, amalga qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Olingan bilimlarni sonlar va matematik ifodalar.

nuqtalar ustida bajariladigan amallarga tadbiiq qila bilish. bir xil masalalarni yechishda foydalana bilishga o'rgatish. Bu bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan masalalarni hal qilishga qo'llay bilishga o'rgatishdir.

O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalardan biridir.

Shunday qilib o'qitish metodlari o'zlashtirish. tarbiyalash va rivojlanish kabi uchta asosiy vazifani bajaradi. O'qitish metodlaridan, ta'limning yangi mazmuniga, yangi vazifalariga mos keladiganlariga ongli tanlab olish uchun oldin hamma o'qitish metodlarini tasniflashni o'rganib chiqish zarur.

Pedagogik tarbiyalashga oid ish tajribalarni o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonni chuqur tadqiq qilmay turib pedagogikani rivojlantirib bo'lmaydi. Hozirgi ta'lim-tarbiya pedagogikani ilmiy bilishning umumiy metodi bilan qurollantiradi, ammo boshqa har qanday fan kabi pedagogika fanining ham xususiy tadqiqot metodlari mavjud.

Ilmiy-tadqiqot metodlari - bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish, va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir. Kuzatish, tajriba, maktab hujjatlari bilan tanishish, o'rganish, suhbat va so'rovlomalar o'tkazish, ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari jumlasiga kiradi. So'ngi vaqtlarda matematik va kibernetik metodlardan, shuningdek, modellashtirish metodlaridan foydalanish qayd qilinmoqda.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasida butun pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlarning o'zidan foydalaniladi.

Kuzatish metodi - odatdagi sharoitda kuzatish metodlarini tegishli qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda aniq material to'plash imkonini beradi. Kuzatish vaqtida tadqiqotchi o'quv jarayonining odatdagi bosqichiga aralashmaydi. Kuzatish aniq maqsadni ko'zlangan reja asosida uzoq yoki yaqin vaqt oralig'ida davom etadi. Kuzatishning borishi, faktlar, sodir bo'layotgan voqealar, jihozlar kuzatish kundaligiga qayd qilinib boriladi. Kuzatish tutash yoki tanlama bo'lishi mumkin. Tutash kuzatishda kengroq olingan hodisa matematika darslarida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish faoliyatlari, tanlama kuzatishda kichik-kichik hajmdagi hodisalar, matematika darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari kuzatiladi. Qaror yozish yoki kundalik yuritish kuzatishni qayd qilishning eng sodda metodidir. Hamma kuzatishlarni qayd qilishning eng ishonchli metodi texnik vositalar, video, foto va ekranlardan foydalanishdir.

Foydalaniladigan kuzatish metodlaridan biri ilg'or pedagogik tajribani o'rgaish va umumlashtirishdan iborat. Bu metoddan muvoffaqiyatli foydalanishning majburiy asosiy sharti shundan iboratki, o'qituvchilar tajribasining tavsifi qo'yilgan tadqiqot vazifasiga javob beradigan bo'lishi kerak.

Tajriba - bu ham kuzatish bo'lib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va tizimli ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Pedagogik tajriba o'qitishning va tarbiyalashning u yoki bu usulining, ko'rsatma qo'llanmalarining samaradorligini tadqiq qilishda qo'llaniladi. Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni aniq ifodalab olishi, bunday masalalarning hal qilinishi maktab amaliyotida va pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi o'rganish predmeti bo'lmish masalaning nazariyasi va tarixi bilan, shuningdek, shu soha bo'yicha amaliy ish tajribasi bilan tanishib chiqadi. Tadqiqotda ilmiy farazning o'rni katta ahamiyatga ega. Butun tajribani tashkil qilish ilmiy farazni tekshirishga yo'naltiriladi. U material to'plash imkonini beradi, tadqiqotchining aniq materialda chalkashib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Tajriba natijalarini tahlil qilish, taqqoslash metodi bilan o'tkaziladi. Buning uchun ikki yoki bir necha guruh tuziladi. Bu guruhlarga kirgan o'quvchilar tarkibi bo'yicha tayyorgarlik darajalari va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha imkoni boricha bir xilda bo'lishi kerak. Bir xil sinflarda tadqiqotchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan tajriba materiali bo'yicha ish bajariladi. Taqqoslash uchun nazorat sinflari tanlanadi. Bu sinflar o'quvchilar tarkibi, ularning bilim darajalari bo'yicha taxminan tajriba sinflarda qo'llaniladigan metodlar, vositalar va boshqalar qo'llanilmaydi.

Tajriba natijalari haqida obyektiv ma'lumotlar olishning boshqa usularidan ham foydalaniladi:

-tajriba sinov o'tkaziladigan sinflarda boshlang'ich shartlar nazorat sinfdagiga qaraganda bir muncha eng qulayroqdir: agar tajriba sinflarda bunday sharoitlarda yaxshi natija olingan bo'lsa, masalani tajriba hal qilishi o'zini oqlagan hisoblanadi;

-o'quvchilarning tarkibi taxminan bir xil bo'lgan ikkita sinf olinadi: tadqiq qilinayotgan masalaning yangi yechimi shu sinflarning bittasida qo'llaniladi, so'ngra boshqa mavzu materiallarida ikkinchi bir sinfda qo'llaniladi; agar bunday qo'llanishdagi yangi metod, usul yaxshi natija bersa, bu usul, metod o'zini oqlagan bo'ladi.

Tajriba boshlashdan oldin, uning oraliq bosqichlarida va oxirida hamma sinf o'quvchilarining bilimlari tekshiriladi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida tadqiq qilinayotgan metodning, usulning va h.k.

samaradorligi haqida xulosalar chiqariladi. Tajriba-sinov o'tkaziladigan sinflardan olingan sifat va miqdoriy natijalarni tahlil qilish asosida natija chiqariladi. Miqdoriy kattaliklarni aniqlashning turli xil usullari (o'zlashtirilishi bo'yicha, to'g'ri va noto'g'ri javoblarni taqqoslash va h.k.) mavjud. Keyingi vaqtlarda shu maqsadda variatsion statistika metodlaridan bir xil hisoblash texnikasi va kibernetik vositalardan foydalanilmoqda. Ba'zi muhim qoidalarni tajribaviy tekshirish ommaviy tajriba yo'li bilan amalga oshiriladi.

Pedagogik tadqiqotlarning keng tarqalgan metodlaridan biri o'quvchilar va maktab hujjatlarini o'rganishdan iborat. O'quvchilarning dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash, o'qitishning ma'lum davri davomida o'sishi va rivojlanishlarini kuzatish imkonini beradi. Masalan: maxsus yozma va grafik ishlar shu maqsadda o'tkaziladiki, bularni tekshirish natijasida bolalarning matematikadan olgan bilimlarini va malakalari aniq ko'rinishi kerak: ma'lum vaqt oralig'ida bunday maxsus ishlarni bajartirib turish, o'quvchilar olg'a siljiyotganini va qanday darajada siljiyotganini ko'rsatadi. O'quvchilarning yozma ishlarida yo'l qo'ygan xatolarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlil butun sinf o'quvchilarining duch keladigan murakkab qiyinchiliklarini, shuningdek, o'quvchilarning matematikani o'zlashtirishlaridagi individual xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'quv hujjatlari (o'quv rejasi, dasturi, metodik ishlar xujjatlari, hisobotlar va h.k.) o'quv tarbiyaviy ishlarni rivojlanish jarayoni va holatini aks ettiradi.

O'quvchilarning daftarlarini o'rganish, ilmiy tadqiqot ishi uchun ahamiyatga ega. Pedagogik tadqiqotlarda suhbat metodidan ham foydalaniladi. Bu metoddan foydalanish kuzatishdan olingan ma'lumotlarni to'ldiruvchi va aniqlovchi materiallar olish, topshiriqlar bajarish imkonini beradi. Bu metod muvaffaqiyatining asosi bolalar bilan aloqa o'rnatilishi, ular bilan bemalol erkin muloqotda bo'lish imkoniyatidan iborat.

Suhbat bu eng ko'p tarqalgan va yetakchi o'qitish metodlaridan biri bo'lib. Darsning bir xil bosqichlarida, bir xil o'quv maqsadlarida qo'llanishi mumkin, ya'ni uyga berilgan topshiriqlarni va mustaqil ishlarni tekshirishda, yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlash va takrorlashda qo'llanilishi mumkin.

Suhbat - o'qitishning savol javob metodi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda, maxsus tanlangan savollar va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishga olib keladi.

Metodik adabiyotda suhbat metodidan ko'pincha matematik tushunchalar bilan tanishtirilayotganda (son, arifmetik amallar va ular komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlar) tanishtirishda foydalanish tavsiya etiladi. O'qitishda suhbatning ikki xildan, ya'ni katexezik va evristik suhbatdan foydalaniladi.

Katexezik suhbat - shunday savollar tizimi asosida tuziladiki, bu savollar ilgari o'zlashtirilgan bilimlar, ta'riflarni oddiygina qayta eslatishni talab etadi. Bu suhbatdan asosan bilimlarni tekshirish va baholashda yangi materialni mustahkamlashda va takrorlashda foydalaniladi.

Suhbat o'tkazish maqsadini belgilash, dastur ishlanmasi, yo'nalishi va metodikani asoslash juda muhimdir. Suhbat metodi bevosita berilgan savollarga javoblarning ishonchliligini tekshirish imkonini beruvchi bevosita va bilvosita savollarni kiritishni nazarda tutadi. Suhbat metodi o'qituvchilarga, ota-onalarga qaratilgan bo'lishi ham mumkin, bunda tadqiqotchining suhbatdoshiga nisbatan munosabati ochiq-oydin bo'lishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga matematika o'qitishning maqsad va mazmunining ancha ko'p o'zgarishi munosabati bilan maktabda o'qitishning yangi usullar qo'llanishi zarurligi haqida ko'proq gapiriladi. Bunda masalan, o'qitishning muammoli usuli, dasturiga moslab o'qitish usullari va boshqa usullar. Biroq bu usullarning yangiligi shundan iboratki ular o'quvchilarning, asosan, mustaqil izlanuvchanlik faoliyatini uyg'otishga mo'ljallangan o'qitish usullaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar

1. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T.: "O'qituvchi", 1996. 16-18 betlar.
2. Jumayev M., Tojiyeva Z. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T.: "Texnologiya", 2004.
3. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. 1-sinf darsligi. -T., 2019.
4. Abduraxmonova N., O'rinboyeva L. Matematika. 2-sinf darsligi. -T., 2018.
5. Burxonov S., Xudoyorov O., Norqulova Q., Ro'ziqulova N., Goibova L. Matematika. 3-sinf darsligi. -T., 2019.
6. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K. Matematika. 4-sinf darsligi. -T., 2017.

Yulduz NUROVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

**O'ZBEK XALQ PAREMALOGIYASIDA TOPONIM VA ANTROPONIM
MAQOLLARINING ETNOLINGVISTIK IFODALANISH XUSUSIYATLARI**

O'zbek xalq paremalagik birliklaridan biri xalq maqollari mavzuning keng ko'lamligi, rang-barangligi bilan boshqa birliklardan ajralib turadi. Ushbu maqolada xalq folklor ijod namunasi maqollarda toponim va onim ishtirok etgan maqolning etnolingvistik kelib chiqishi to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qadimiy urf-odat, etnik genezisi, maqol, parema, otalar so'zi, o'zbek millati, toponim, Qoraqurum, shahar, etnolingvistika, til birliklari, maqol.

Одна из узбекских народных паремалагических единиц, народные пословицы, отличается от других единиц широтой и разнообразием предмета. Эта статья посвящена этнолингвистическому происхождению пословицы, которая включает топоним и мать в образце фольклорных произведений.

Ключевые слова: древняя традиция, этнический генезис, пословица, парема, родовое слово, узбекская нация, топоним, Каракурум, город, этнолингвистика, языковые единицы.

One of the Uzbek folk paremalagic units, folk proverbs, differs from other units in the breadth and variety of the subject. This article focuses on the ethno-linguistic origin of the proverb, which includes the toponym and mother in the sample of folklore works.

Key words: ancient tradition, ethnic genesis, proverb, parema, generic word, Uzbek nation, toponym, karakurum, city, ethno-linguistics, linguistic units.

“Xalq orasida ko'pchilik tildan qo'ymaydigan so'z also o'lmaydi”

Gesiod

Ma'lumki, barcha xalqlar qatorida o'zbek millati ham o'zining qadimiy urf-odatlari, etnik genezisi jihatdan juda qadim tarixga ega. Yevropaning taniqli sharqshunos olimi, professor G.Vamberi o'tgan asrning ikkinchi yarmida o'lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagicha yozgan edi: “...Sharq qadimdan she'riyat tuyg'ulari o'lkasi bo'lib kelgan... Shuning uchun ham o'tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she'riyatga bo'lgan ishtiyoq Parij yoki Londondagi ma'lumotli jamiyat a'zolaridagiga qaraganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasligi kerak... Markaziy Osiyoda bir-biriga muhabbat qo'ygan yosh oshiq-mashuqlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham – xullas, hamma-hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi... Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, ko'chmanchining o'tovida ham uchratish mumkin... Sahro o'g'loni bunday “otalar so'zi”ni hamma vaqt yuzida jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma'nosiga zid bo'lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday inontiruvchi so'z uning fikriga ta'sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug'ma mutaassiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto'g'ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsada bunchalik kuchli tarzda namoyon bo'lmaydi” [1]. Maqol termini arabcha “qavlun”(aytmoq, gapirmoq) olingan bo'lib, o'zbek tilida u xalq donoligining namunasi bo'lmish aforistik janrlaridan birining atamasiga aylangan.

Keltirib o'tilgan fikrlar, olimlarning ilmiy izlanishi shuni ko'rsatadiki, maqollarda o'zbek xalqining etnik genezisi, o'tmishi va bugunni bog'lab turuvchi folklor yotadi. Maqol xalq og'zaki ijodining durdona asarlaridan biri sanalib, o'zining rang-barangligi, mavzularning serko'lamligi jihatdan boshqa janrlardan farqlanadi. O'zbekistonda maqol to'plamlari, ularning nashr jarayoni ancha-muncha to'planib chop etilgan bo'lishiga qaramay, lekin har bir maqolning entik kelib chiqishi, qanday ma'no anglatishi to'g'risida hali hanuz mukammal holda o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi: biz to'xtalmoqchi bo'lgan tadqiqotimizda ham, xalq maqollarida etnolingvistik qarashga to'xtaladigan bo'lsak, etnolingvistika (etno... va lingvistika) - orasidagi bog'liqlik hamda munosabatlarni, til rivoji, vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganuvchi sohasi. Til bilan etnik xususiyatlarning o'zaro munosabati, bir-biriga ta'siri ikki tomonlama bo'ladi: etnik omillar (etnosning urf-odatlari, milliy an'analari, falsafiy, diniy qarashlari va boshqalar)ning til rivojiga ta'siri va, aksincha, til vazifaviy imkoniyatlarining va etnik xususiyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'siri. Etnolingvistika til va uning rivojiga turli etnik guruhlarning qanchalik hissa qo'shganini, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini tadqiq

qiladi [4], etnolingvistikada toponim, onim ishtirokida maqollarni tahlil qilish, ularning ne chog'lik etnik tushuncha ifodalanishini o'rganishdan iboratdir. Buning uchun avvalo toponimikaga bir oz to'xtalib o'tsak. Toponim (yun. topos - joy va onyma - ism, nom) degan ma'nolarni anglatib, toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq shakllangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi [2]. Xuddi shu jihatdan paremologik birlik sanalgan maqollarda ham toponim ishtirok etgan ko'rinishlar ham uchraydi. Maqsad shuki, toponim va onim maqollar ishtirok etgan maqollarning kelib chiqish genezisini o'rganish ular to'g'risida ma'lumot berish.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimlarini o'rganish ham uzoq tarixga ega. O'zbekiston toponimikasini o'rganishda mashhur rus sharqshunos olimlari hamda tarixchilari: V.L.Vyatkin, N.F.Sityakovskiy, L.N.Sobolev, V.V.Bartol'd, S.P.Tolstov, P.P.Ivanov. M.E.Masson, O.A.Suxareva va boshqalar bu sohada juda katta ishlarni amalga oshirdilar. Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogeneziyani) hamda geografiyaga oid atamalarni o'rganishda Y.G'.G'ulomov, R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, O'zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan X.T.Zarifov; etnonimlar - E.Fozilov M. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, R. Qo'ng'irov; geograflardan H. Hasanov, S. Qorayev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir. Biz o'zbek xalq paremalarida ifodalangan etnik maqollarda toponimlar va onimlarning kelib chiqish xususiyatlarini, etnolingvistik qo'llanish usulini tadqiq etmoqchimiz.

Tadqiqot natijasi: Biz xalq maqollarini o'rganishimiz, etnik kelib chiqish jihatidan lug'at tartibida joylashtirishimiz natijasida quyidagi toponim ishtirok etgan maqollarning izohini berib o'tmoqchimiz:

Qoraqurumga borsang ham, qora qoningni to'kaman.

Bu maqolning etnik kelib chiqishi, "Jangnomai Amir Temur Ko'ragon" asarining muallifi fikricha, XIV asrning oxirgi o'n yilligida yuzaga kelgan. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur 1395-yilda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi ikkinchi bor hujum qiladi. Bu kurashda tor-mor etilgan To'xtamish qochadi. Temurning o'g'li Mirzo Shoxruh to'ra to'xtamishni yakkama-yakka quvib, Qoraqurum dashtiga yetadi. Unga o'xshash bir shahar qo'rg'oni ko'rinib, u shahar Uzoqqal'a der edilar. U shaharda Zalatovus hokim erdi. Zalatovus u yerda ov qilib yurar edi. Nogoh bir tarafdin chang-to'zon paydo bo'lib, ko'rsakim, bir odam keladur. Hanuz so'zg'a lab ochmay, orqasidan aslaha yarog' birla yana bir yigit kelur. Xonanda to'rani ko'rib, otini qamchilab, harchand harakat qilib urdi, bechora ko'p charchab yugurarg'a madori qolmadi. To'rani ikkala ko'zi o'tdek yonib, filhol yugurib borib, To'xtamishxonni beliga qilich birla andoq urdikim, To'xtamishxon ikki bo'linib, To'xtamishxon yerga tushib shahid bo'ldi [3].

Mirzaning cho'liga shoti eksang, arava unib chiqadi.

Bunda Mirzacho'l nazarda tutilgan bo'lib, "uning yeri shunday kuchliki, agar quruq yog'ochni suqib qo'ysang ham, ko'karib, barakali hosil beradi" demoqchi bo'lingan.

Ma'nodoshlar: "Mirzai azimda ming Qorunning xazinasi-yu tuman Jamshidning davlati bor"(Qorun – Muso payg'ambar zamonida yashagan afsonaviy ulkan xazina egasi. U umr bo'yi boylik yiqqan va sarflamagan. Natijada shoh xazinasidan ham katta boylik to'plagan. Qorun payg'ambar qarq'ishiga uchrab, o'zi va boyligini yer yutgan. Jamshid qadimgi Eronda hukmdorlik qilgan peshdodiyalar sulolasining to'rtinchi vakili), "Chinozga tayoq bilan borgan kishi toylik bo'lib keladi, Mirzacho'lga toy bilan borgan kishi tayoqlik bo'lib keladi" [3].

Damachining qovunini yemabsiz - dunyoga kelmabsiz.

Damachi - Toshkent yaqinidagi (hozirgi Kalinin rayonidagi) bir qishloq, Hasanboy husaynisi, Quva anori, Varganza uzumi, Marg'ilon turupi, Oqqo'rg'on anjiri bilan qadimdan mashhur bo'lgani kabi Damachi shirin-shakar qovunlari bilan mashhur edi. Yuqoridagi maqolni ko'proq damachilik dehqonlar qovun sotayotganda yohud o'z qovunlarini bironvga ta'riflaganda aytadilar [3].

Oq qoptol ot otboshi o'tin o'tlamas

(Otboshi-joy nomi). Otning egar, jazliq (egarning ikki qanoti) turar yerini – yelkasini "qoptol" deb ataydilar. Ot agar yag'ir bo'lsa-yu, yag'iri bitsa, shu bitgan o'rning jani odatda oq bo'lib chiqadi. Shunga ko'ra bunday otni "oq qoptol" deb ataydilar. Bunday azoblangan ot o'zini asraydigan, hech kimni mindirmaydigan bo'lib qoladi. Oq qoptol ot biror yerda shikastlangan bo'lsa, o'sha yerning o'tini yemaydi [3].

Oq uyda bo'lgan kishi olachiqda ham bo'ladi

(Oq uy-ustiga oq kigiz yopilgan o'tov) bunday o'tov odatdagi o'tovdan katta bo'lib, (4, 5, 6, 7 qantoli bo'lib, "kerakali") unda boylar, biylar istiqomat qilishadi.

Olachiq – oldi ochiq – eng kichik (ikki qantoli) eng kichik ko'rimsiz, oldida eshigi hatto chiya bo'lmagan o'tov; kappa; kulba.

Ma'nodoshlari: "Oq uyim, boq uyim, Gar boqmasang- qoq uyim", "Oppoq bo'lgan oq uyim, osh – noni yo'q uyim qoq uyim"[3].

Mard bo'lsang, Eskijovada hangar

Eskijo'va Toshkentning eng katta bozori joylashgan "gavjum joy" ma'nosida ishlatilgan bo'lib, bu bilan majozan: "Zo'r bo'lsang, odam gavjum joyda qilib ko'rchi" deyilmoqda [3].

Antroponim bilan bog'liq etnik maqol

Oti omon- Oypora

"O'tgan zamonda Chirkinoy degan chiroyli qiz bo'lgan ekan. Uni bir boyga ikki xotin ustiga uzatadilar. Er bu yosh xotin bilan bo'lib ketib, boshqa xotinlariga e'tibor bermay qolgan. Kundoshlar bu holga chiday olmay, uni har taraflama kamsitib, ninaday aybini tuyaday qilib ko'rsatib, erta-yu kech yomonlashga tushganlar. Hatto uning ismi Chirkin, ya'ni chirk bosgan, iflos, jirkanch, tuban degan ma'noda bo'lganligini betiga solib, kamsita boshlaganlar. "Bu yashshamagurning oti-yu zoti Chirkinoy edi-yu, bu yerga kelib oypari bo'lib qoldimi endi? "degan so'zlar bilan haqoratlab, unga "oti yomon - Oypora" deb laqab qo'yishgan [3].

Mahmudning qadami yetgan joyda o't o'smas

Bu maqolda Mahmud G'aznaviy nazarda tutilgan. Tarixdan ma'lumki, XI asr boshlarida ashaddiy qonxo'r, zolim, bosqinchi Mahmud G'aznaviy Markaziy Osiyo xalqlarining qon qaqshatgan, o'z harbiy harakatlari bilan el-yurtga qirg'in-barot keltirgan, hamma yoqni kulba – vayronaga aylantirgan. Yuqoridagi maqolda xalq ommasining unga nisbatan bo'lgan qahr-g'azabi, nafrati la'nati o'zining kichik bir ifodasini topgan [3].

Iso ham o'z yo'liga, Muso ham o'z yo'liga

Iso - xristianlar payg'ambari; Muso - yahudiylar payg'ambari. Har ikkisinin tutgan yo'li o'ziga xos bo'lgan, bir-biridan farq qilgan va har ikkisi ham o'z yo'lini to'g'ri deb bilgan. Ma'nosi shundayki, har kimning o'z tutgan yo'li, hayotga qarashlari bo'ladi deyilmoqchi [3].

Iskandar xo'ja, bulturji jo'ja, bola ochadi, tashlab qochadi

Oila, bola-chaqasi bilan ishi bo'lmay, nuqul ko'cha-kuyda o'z maishatini ko'zlab yuradigan yohud bola-chaqasini tashlab, xotin qo'yib, farzandlarini tirik yetim qoldirib, boshqa xotinning ketidan ketadigan bevafo odamga achchiq kinoya tarzida shunday dedilar [3].

Xulosa: Maqollar zamonlar osha tobora sayqallanadi, mazmuni teranlashadi. Ota-bobolarimizning boy tajribalariga amal qilish, ularning an'alarini hozirgi zamon an'analari bilan boyitgan holda davom ettirish uchun bizga meros qilib qoldirilgan maqollarni shunchaki yig'ib, nashr etibgina qolmasdan, ularning etnik kelib chiqishini, tarixini o'rganish ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biz keyingi izlanishimizda o'zbek xalq paremalogiyasi bilan bog'liq bo'lgan kiyim-bosh maqollarining etnik kelib chiqishi, hozirgi kunda qo'llanilish darajasi to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Adabiyotlar

1. Вамбери Г. Очерки Средней Азии. -М., 1868.323-324 -ст
2. Do'simov Z. Toponimlarning yasalishi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 1978.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. -T., 1990.
4. Zveginsev V. A. Etnolingvistika. Istoriya yazshkovedeniya XIX-XX vv. -M., 1965.

Zilola ABDIYEVA

Buxoro davlat universiteti

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: p.f.n, dotsent F.M.Qosimov

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING FAZOVIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH

Maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: fazoviy tasavvur, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ko'rgazmali material, o'yin.

В статье рассматривается формирование пространственных представлений у детей дошкольного и начального образования.

Ключевые слова: пространственное воображение, дошкольное образование, начальное образование, наглядный материал, игра.

The article focuses on the formation of spatial imagination in preschool and primary school children.

Keywords: spatial imagination, preschool education, primary education, visual aids, games.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda inson tafakkuri qay darajada kamol topgani uning zamon bilan hamohang yashashi va har jihatdan o'sishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tafakkuri esa bevosita tasavvur, idrok, ong kabi tushunchalar bilan bog'liqdir. Tasavvuri keng inson yaxshi fikrlay oladi. Mustaqil fikrga ega bo'ladi. Ongli ravishda aniq maqsad, strategik rejalarni o'z oldiga qo'ya oladi va maqsadiga erishish uchun rejali harakat qiladi. Bu esa zamon talabidir. Inson bunday natijaga erishishi uchun ma'lum muddat belgilanmaydi. Lekin natija uchun ko'pgina omillar mavjud. Ulardan eng asosiysi ta'lim tizimida bola tasavvuri rivojlanishi uchun olib boriladigan uzviy va tizimli faoliyatdir. Bolaning qay darajada o'z o'rnini topishi, mustaqil fikrlay olishi, o'quv predmetlarini qay darajada o'zlashtirishi uning tasavvuri bilan bog'liq. Demak ta'lim tizimidagi asosiy maqsadlardan biri ta'lim oluvchining tasavvurini rivojlantirish ekan. Izlanishlarimiz natijasida shu ma'lum bo'ldiki, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish uchun eng muqobil davr bu 11-12 yoshgacha bo'lgan davr ekan. Bu esa maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davriga to'g'ri keladi. Ko'pgina pedagoglar o'quv predmetidagi tushunchalarga e'tibor qaratib, o'quvchi tasavvuri bilan ishlashga juda kam vaqt sarflashadi. Bunday holatda esa tushunchalar o'quvchining vaqtinchalik xotirasida saqlanib qoladi. Ya'ni bilimlar bola ongida bir umrga muhrlanib qolmaydi. Ma'lum muddat o'tgandan so'ng unutiladi. Natijada kompetensiyaviy yondashuv amalga oshmaydi. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim o'rin tutadi. Bu kabi muammolarni hal etish uchun ham o'quvchida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish zarurdir.

Bolada tasavvur rivojlanishi tevarak-atrofnii kuzatish bilan boshlanadi. U atrofi olamni kuzatar ekan, undagi predmetlarning rangi, shakli, katta-kichikligini o'rganadi. Bir-biri bilan taqqoslaydi. Aynan mana shu faoliyat undagi fazoviy tasavvurlarning shakllanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim davrida va ungacha amalga oshadigan bosqichdir. Bu davrda bola nutqida "bu yerda", "shu yerda", "mana" kabi so'zlar, keyinroq biror predmetni ko'rsatib "yonida", "yaqinida", "oldida", "yonma-yon" "oldinda" "orqasida", "orasida" kabi atamalarga almashinishi oddiy terminlardan murakkablariga o'tish jarayonining misolidir. Bola bunday terminlardan foydalanishi, uning predmetlar oralig'ini aniqlay olishi undagi boshlang'ich bilimlar shakllanayotganidandir. Shuningdek, bu bosqichda asosan "Ertalab", "Kunduzi", "Kechasi", "Kechqurun", "Tun", "Kecha", "Bugun", "Ertaga" kabi vaqt tasavvurlari, "Oldida", "Orqasida", "Yonida", "Balandda", "Pastda", "Yuqorida", "Chapda", "O'ngda", "Uzoqda", "Yaqinda" kabi o'rin joyga oid tasavvurlar, "Katta", "Kichik", "Teng" kabi munosabatlarga e'tibor qaratiladi va izchillikda o'rgatib boriladi. Bu jarayon maktabning ilk davrlarida ham davom ettiriladi. Ta'limning bu ikki davrida o'rgatilishi lozim tushunchalar deyarli bir xil, e'tibor fazoviy tasavvurlarni kengaytirishga qaratilgan bo'lsada, lekin ular bir-biridan ta'lim oluvchilarning yoshi inobatga olingan holda tashkiliy va uslubiy jihatdan farqlanadi. Maktabgacha davrda ta'lim o'yin faoliyati asosida tashkillashtiriladi. Kichik maktab davrida esa bu tushunchalar mustahkamlanib to'ldirib borilgan holda algebraik, geometrik bilimlarni o'rganish vositasida o'qish, o'rganish faoliyatiga asta-sekinlik bilan o'tiladi. Bu davrda o'quvchilar yuqorida keltirib o'tilgan vaqt tasavvurlarini tushunadilar, bularga qo'shimcha ravishda soat, minut, sutka, hafta, oy, yil kabi tushunchalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchilarga kun tartibiga rioya qilish, vaqtdan unumli foydalanish zarurligi uqtiriladi va bular bilan bog'liq ko'nikmalar hosil qilinadi. Maktabgacha ta'lim davrida o'rin-joyga doir tushunchalar bilan tanishtirilgan bo'lsa-da, o'quvchilar bu tushunchalarni ongli tarzda to'la o'zlashtirmagan bo'ladi. Jumladan "Chap", "O'ng" tomonlarni 1-sinfning ba'zi o'quvchilari ko'rsata olsa,

ba'zilarida ikkilanishlar hali ham mavjud bo'ladi. "Katta", "Kichik", "Teng" munosabatlari to'g'risida ham kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tor doiradagi tasavvurlar mavjud bo'ladi. Ya'ni ular ko'rib turgan predmetlarini bo'yi, eni, hajmidan kelib chiqib taqqoslay oladilar va ularning biri biridan katta, kichik yoki bir-biri bilan teng ekanligini ayta oladilar. Lekin, sonlar, ifodalar, miqdor kattaliklarini bir-biri bilan ongli tarzda taqqoslay olmaydilar. Bu bilimlar ta'lim standartlari va o'quv dasturiga muvofiq holda munosabatlar bilan parallel holda bosqichma-bosqich o'rgatib boriladi.

Fazoviy tasavvurlarni shakllantirishga tayyorlov guruhida ko'proq e'tibor qaratilishi lozim. Chunki bu davr bolaning maktabga moslashishi va maktab bilimlarini egallab borishi uchun asosiy tayanch vazifasini o'taydi. Ko'pgina 1-sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlar yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Buni quyidagi holatlardan aniqlashimiz mumkin:

– matematikani o'qitishda - raqamlarning noto'g'ri yozilishida, ko'p xonali raqamlarni yozishda birliklarining almashinishida, sonlar qatorini o'zlashtirishda qiyinchiliklar va ketma-ket sonlarning o'zaro bog'liqligi, o'lchov paytida ko'z xatolari, daftarga misollar yozuvlarini nosimmetrik tartibda joylashtirmaslik;

– yozishni o'rgatish paytida - harflarni oynada yozishda, harflarning yuqori va pastki elementlarini aralashtirishda, so'z birikmasini tuzishda, so'zlashayotganda so'zlarni tanlashda;

– o'qishni o'rgatish paytida - ravon o'qishga sust o'tish sabablaridan biri bo'lgan chiziqlarning ajratib turadigan joylari hajmining torayishida, o'xshash shakldagi harflarni ajratishda xatoliklarda, mantiqiy va grammatik tuzilmalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelganda;

– rasm chizishni o'rgatishda - rasmni qog'oz oralig'ida joylashtira olmaslikda, rasmdagi nisbatlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarda;

– motor mashqlarini bajarishda - buyruq ostida tiklash paytida harakat yo'nalishini tanlashda qiyinchiliklar (o'ng - chap yo'nalish, yuqoriga-pastga), harakatning bir yo'nalishidan boshqasiga o'tishda qiyinchiliklar.

Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun maktabgacha davrda ham, boshlang'ich maktab davrida ham tizimli faoliyat olib borish joiz. Bunda didaktik o'yinlar, ko'rsatmali materiallar, interfaol metodlar va qiziqarli topshiriqlardan unumli foydalanish samarali natija beradi. Quyida maktabgacha ta'lim tarbiyachilari va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun bir nechta tavsiyalarimizni berib o'tmoqchimiz:


“Teskarisini ayt” o'yini

Bu o'yindan ta'limning har ikki bosqichida ham foydalanish mumkin.

Bunda tarbiyachi yoki o'qituvchi fazoviy tasavvurlar bo'yicha bir so'z aytadi. O'quvchi esa shu so'zga teskari ma'noli so'z aytishi kerak bo'ladi. O'yin tezkor tarzda davom ettiriladi. O'qituvchi katta desa o'quvchi kichik deyishi, o'qituvchi yuqorida desa, o'quvchi pastda deyishi, O'qituvchi ko'p desa, o'quvchi kam deyishi kerak bo'ladi. Shu tariqa o'yinni bir necha marta amalga oshirish mumkin. Aytilishi mumkin bo'lgan so'zlar: katta-kichik, uzun-qisqa, baland-past, tun-kun, kechasi-kunduzi, uzoq-yaqin, keng-tor, yoz-qish, bahor-kuz, sovuq-issiq, qalin-mayin, barvaqt-kech, chap-o'ng, uzoqda-yaqinda....

Bu o'yinning foydali jihati o'quvchida tasavvur, mantiqiy fikrlash, tez javob berish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchida ko'rib turgan narsasinigina emas, balki mavhum tushunchalarning ma'nosini anglash va ulardan tog'ri foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

“O'rniga qarab rangni ayt” o'yini



Bunda quyidagi to'rtburchakka o'xshagan bir necha xil rangli to'rtburchaklar doskaga ilinadi. O'qituvchi biror rangning joylashgan o'rnini aytadi. O'quvchilar esa aytilgan o'rindagi rangni topishlari kerak. Masalan o'qituvchi yuqori-chap desa, o'quvchilar sariq deyishi, past-o'ng desa qizil deyishi, past-chap desa yashil, yuqori-o'ng desa qora deb aytishi lozim.

O'yinni o'tkazishdan maqsad: O'quvchilarning “Past”, “Yuqori”, “Chap”, “O'ng” kabi fazoviy tushunchalar to'g'risidagi tasavvurlarini rivojlantirish, Ularning geometrik tasavvurlarini shakllantirish, ranglarni farqlashga o'rgatish “Mo'ljalga olish” o'yini

Doskaga ko'rsatilganidek rasmlarni ilib qo'yib, joylashgan o'rniga yoki ma'lum predmetga nisbatan o'rnini topish (mo'ljal olish) topshirig'i beriladi. O'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- o'rtada qaysi hayvon turibdi? (joylashgan o'rniga nisbatan)
- pastda qaysi hayvon bor? (joylashgan o'rniga nisbatan)

– yuqorida qaysi hayvonlar bor? (joylashgan o'rniga nisbatan)

– o'ng tarafda qaysi hayvon? (joylashgan o'rniga nisbatan)



- chap tomonda qaysi hayvon? (joylashgan o‘rniga nisbatan);
- yo‘lbarsning chap tomonida qaysi hayvon bor? (predmetga nisbatan);
- tipratikanning yonida qaysi hayvonlar bor? (predmetga nisbatan);
- tipratikan qaysi hayvon bilan yonma-yon?... (predmetga nisbatan).

Bu kabi ko‘rgazmali materiallardan foydalanish o‘quvchilarning atrofi olam to‘g‘risidagi bilimlarini oshirishga, shuningdek fazoviy tasavvurlarini(o‘rtada, yuqorida, pastda, chapda, o‘ngda, yonida, yonma-yon... kabi tushunchalar orqali) shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish uchun olib borilgan mashg‘ulotlarda asosiy e‘tiborni ularning berilgan obyekt o‘rni, narsalarning o‘lchami, shakli, bir-biriga nisbatan nisbiy holatini, shuningdek, obyektlarning bolaning o‘zi yoki boshqa narsalarga nisbatan uzoqligini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratish lozim. Bola maktabgacha ta‘lim davrida har xil narsalarning har qanday joylashishini va albatta, o‘zini o‘zi to‘g‘ri ko‘rsatishni va tushuntirishni o‘rganishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu bilimlar maktab o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishi uchun sezilarli ta‘sir qiladi. Undagi kamchiliklar maktab o‘quv dasturini idrok etishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda boshlang‘ich maktab o‘quvchilari dasturga muvofiq nafaqat yangi narsalar va tushunchalarni o‘rganadi, balki bu jarayonda ularni idrok etish ham muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

1. Rayxonov Sh. R. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qish usuliyoti (ma‘ruzalar matni). (1-2-3 qismlar). -Buxoro, 2004.
2. Bikbayeva N.U. Sidelnikova R. Adambekova G. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi.– T.: “O‘qituvchi”, 1996. – 512b.
3. Arxiv.uz
4. Nauchkor.ru
5. Foras-beauty.ru

Saodat QODIROVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

“ZARBULMASAL” ASARINING JANRIY XUSUSIYATLARI

Ushbu maqolada Gulxaniy ijodiga mansub bo'lgan “Zarbulmasal” asarining tarixi va o'tmishimiz ya'ni o'sha davrning muammolari masallar asosida ochib berilgan. Insonlar xarakteri hayvonlarga majoziy tarzda ko'chirilib, ular o'rtasidagi munosabat asosida o'sha davrning muhiti yaqqol ko'rinadi. Asarning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi, bosh syujet yo'li, tarkibi, tili, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lum tasavvur hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: asar, sujet, mazmun, fikr, xarakter, qahramon, moziy, dialog.

В этой статье рассказывается об истории произведения Гульхани “Зарбулмасал” и проблемах нашего прошлого, то есть того времени, основанных на притчах. Нрав человека аллегорически переносится на животных, и, исходя из отношений между ними, и хорошо видна среда того времени. Формируется определенное представление о содержании, идеологическом направлении произведения, основном сюжете, композиции, языке, методологических особенностях.

Ключевые слова: произведение, сюжет, содержание, идея, характер, герой, история, диалог.

In this article the author tried to explain the history of the great written work “Zarbulmasal” by Gulxaniy and also gave facts about how Gulxaniy described and revealed the life problems of that period—the period of our past with the help of parables. The characters and manners of people were metaphorically transferred to animals and on the basis of the relationship between people the atmosphere of that time was obviously shown and revealed. The readers of this book can get certain information about the content of the written work, its ideological tendency, the way of the main plot, the composition, the language, the stylistic distinction of it and the work can give an unforgettable impression on people.

Key words: work(written work), plot(subject), content(meaning), idea, character(manner), hero, moral story, dialogue.

Mulla Gulxaniy nomini avloddan-avlodga yetkazib kelayotgan va adabiyotimiz tarixida shoirga abadiy joy olib bergan yodgorlik, bu “Zarbulmasal”dir.

“Zarbulmasal” – o'zbekcha nasriy badiiy yodgorlikning noyob namunasi bo'lishi bilan birga, tuzilishi, mazmuni, tili, badiiy tasvir vositalarining o'tkirligi jihatidan ham tengi, o'xshashi yo'q original asardir.

Asarning ilmiy-tanqidiy matni qanday va nimalar asosida tuzilganini ochiqroq anglab yetish uchun eng avval bu asarning tarixi, yozilish sabablarini bilib olish va nazarda tutish lozim, undan keyingi o'rinda asarning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi, bosh syujet yo'li, tarkibi, tili, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish zarur.

“Zarbulmasal”ning yozilish tarixi. Asarning muqaddima qismida Gulxaniy “Zarbulmasal”ning yozilish tarixiga oid qiziq bir voqeani hikoya qiladi. Amir Umarxon saroyida bo'lib turadigan odatdagi “Bazmi Jamshidlar”-adabiy kechalardan birida “burung'i-yaxshilardan qolg'on zarbulmasallarning so'zlanmishda va chechanlik bobida” tutgan muhim o'rni ustida so'z ketadi. Suhbtda Amir Navoiyning “Oshni ta'mi tuzi bilan, suvning ta'mi muz bilan” degan so'zlari esga olinib, ra'yi oliy (Amir Umarxon e'tibori) xalq ichidagi shu zarbulmasallarni to'plash zarurligiga qaratiladi. Ushbu topshiriqdan keyin adib “Amirning amrlarini vojib bilib”, “Zarbulmasal”ni yozishga kirishadi va “Yapaloqqush bilan Boyqushning qudaliqlari arosinda to'rt yuz zarbulmasali avomunnos”ni betartib bayon qilmoqchi bo'ladi.

Asarning yozilish tarixiga oid bu qisqagina tasvirdan kelib chiqadigan kattagina xulosalar bor. Biri shuki, Amir va unig atrofida gii kishilar Mulla Gulxaniyning xalqchil tabiati va o'tkir adabiy qobiliyatini tan olganlar. Ikkinchi tomondan, o'zidagi qobiliyatni to'laroq nomoyon qilish uchun Gulxaniyga yuqoridan shunchaki bir ishora zarur edi, shu ishora bahona “Zarbulmasal” dunyoga keldi.

Ushbu epizoddan kelib chiqadigan va bu yerda qayd etish lozim bo'lgan yana bir xulosa shuki, o'tmishdagi hokimlar, xonlar, ilm-fan, san'at va adabiyot ahlini o'z atrofiga yig'ib, ulardan ilmiy-ijodiy asarlartalab qilish bilan birga, ularga rahnamolik qilganlar, ma'naviyat sohasini ma'lum usullar bilan boshqarib borganlar. Vazifa – birgina Amir Umarxonning emas, tariximizdagi madaniy markazlarda g'aznaviylar, qoraxoniylar, temuriylar va xonliklardagi hukmdorlarning bu sohadagi usul va tajribalarini chuqurroq tadqiq qilish va umumlashtirishdan iboratdir.

“Zarbulmasal” atamasi va asarning janriy xususiyatlari. “Zarbulmasal” arabcha “zarb” va masal so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan birikmali nom bo'lib, adabiy atama sifatida “masal (maqol-matal,

ibora) keltirib soʻzlamogʻ, “oʻxshashini va dalilini topib gap qilmoq” maʼnolarida ishlatiladi [1]. Forsiy va turkiy xalqlarda keyinchalik bu nom “maqol-matal”, “ibora” maʼnosida ishlatilgan. Nutq uslubini anglatish uchun qoʻllangan “zarbulmasal” atamasining keyinchalik til birligini – leksik-frazeologik tushunchani anglatishga koʻchib qolgani ochiq koʻrinadi. Tarixda “Zarbulmasal” nomi bilan atalgan asarlar koʻp, ammo mazmun-mohiyatiga qarab ularni bir-birlaridan anchayin farq qiladilar. Ubayd Zokiyning 200ga yaqin forscha maqol, matalni oʻz ichiga oladigan asari boʻlib “Zarbulmasal” deb atalgan. Maqol, matal, iboralarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimai – izohli lugʻatlari bor – ular ham “Zarbulmasal”, “Zurubi amsol” nomlari bilan yuritiladi. Turk tili manbalari orasida Takazodaning “Zurubi amsoli Turkiya” kitobi, Ibrohim Shinosiyning “Zurubi amsoli Usmoniya”si, Ali Majidiy tuzgan “Zurubi amsol va istilohot” asarlari lugʻat tipidagi ana shunday “zarbulmasallar”dandir [2]. “Irsol-ul masal(masalga asoslanib tuzilgan risola)” sanʼati boʻyicha yaratilgan asarlar – pandnomalar bor – ular ham “Zarbulmasal” deb ataladi. Oʻzbek adabiyoti tarixida Sulaymonqul Rojiiy va Nozili Xoʻjandiy meroslari ayni shu turdagi “zarbulmasallar” hisoblanadi [3].

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asariga kelsak, bu asar nasriy hikoyachilik asosiga qurilgan badia boʻlib, unda moddiy hayot voqealari, har xil ijtimoiy tabaqaga mansub turlicha feʼl-atvorli kishilarning oʻzaro munosabatlari majoziy tarzda – qushlar obrazlariga koʻchirib hikoya qilinadi. “Zarbulmasal”ning sharq masalchiligi anʼanalariga, ayniqsa, “Kalila va Dimna”ga yaqinlashadigan tomoni ham ana shunda. Biroq asardagi qush obrazlari oʻzaro mahalliy muhitda nafas olib, milliy til va taomillar boʻyicha gaplashdilar, bir-birlari bilan oʻzbekcha qator maqol-matal, hikmat va hikoyatlar keltirib, zarbulmasal yoʻli bilan fikr almashadilarki, badiiy ifodaning bu usuli masalchilik tarixida aynan koʻrilgan emas.

Asarga nisbatan hozirgacha “hikoyat”, “qissa”, “masal” singari nomlar qoʻllanib kelinadi. Zarbulmasalning muqaddima qismida adibning oʻzi ham uni “hikoyat” deb tilga olgan. Shunga asoslanib boʻlsa kerak, kitobning ayrim nashrlarida “zarbulmasal” nomi ostidan “Yapaloqqush hikoyasi” degan izoh qoʻshib qoʻyiladi.

Hikoyachilik asosiga qurilganligi jihatidan asar oʻzbekcha badiiy nasriy obidalarning Gulxaniydan avvalgi namunalariga, chunochi, Rabgʻuziy qissalari va Xoja hikoyatlariga yaqin turadi. Biroq voqeaning boshlanishi, yoʻnalishi, asarning tuzilishi, mazmuni va ifodaning usul va vositalari eʼtibori bilan Zarbulmasal badiiy nasrchilikning barcha namunalaridan katta farq qiladi

Janr xususiyatining murakkabligi, yaʼni uni na hikoya, na qissa, na masal, na hajviya deb alohida olingan biror adabiy janr qolipiga sigʻdirib boʻlmasligining oʻzi Zarbulmasalning originallik belgisidir. Asarda bu janr turlarining har biriga xos xususiyatlar, ifoda yoʻllari (nasr, nazm, saj) aralashgan, qorishgan holda tiniq bir umumiy ohang yaratadi.

Adabiyot nazariyasiga oid ishlarda “Zarbulmasal”ni “hajviy va yumoristik qissa” deb taʼrifladilar [1]. Bizningcha, qissaning bu belgilari oldidan “majoziy” sifatini qoʻshish kerak. Zarbulmasal – maqsadni majoz yoʻli bilan ifodalashga qaratilgan hikoyatdir. Majoz boʻlganda ham, oddiy majoz emas, koʻp qavatli murakkab majoz bor bunda. Odam timsoli oʻrnida qushlarning harakatda boʻlishi birinchi majoz boʻlsa, ular tilidan Xolvoqi Misgar, Yodgor poʻstindoʻz singari kishilarning, Tuya, Chayon, Sangpoʻsht (Toshbaqa) singari hayvon-hasharot timsollarining har xil naql-rivoyatlar keltirib soʻz yuritishi – ikkinchi majoz, bu timsollar nutqida keltirilgan ifodalarning koʻchma maʼnolari – yana bir majoz – majoz ichidagi majozdir.

“Zarbulmasal”ning gʻoyaviy mazmuni. Kichik hajmli bu asarning mazmuni shu qadar keng koʻlamliki, unga nisbatan “mazkur asarning gʻoyaviy mazmuni nimadan iborat?” deb umumiy tarzda savol qoʻyishning imkoni yoʻqday. Asarning mohiyatini anglab yetmagan kishi matnning ayrim oʻrinlarini tushunmay qolishi, toʻgʻri yozilgan soʻz yoki jumlagacha shubha bilan yondoshish mumkin. Asarda mashhur Movarounnahr – Buxoroda Amiral – moʻminin Sayid Muhammad Umarxon buzgan yurtlar nomi sanab oʻtiladi. Adibning muddaosini tushunmaslik natijasida “buzgan” soʻzi bosma nusxalarga “tuzgan”, “turgan” qilib “tuzatib” olingan va u asar matnida keyingi yillargacha saqlanib kelgan. Asarning mazmunidan xabardor boʻlgan kishi “buzgan”ni toʻgʻri topmasa, “tuzgan”, “turgan”ni ham maqbul koʻrmagan boʻlar edi.

Zarbulmasalning bosh gʻoyasini adabiyotshunoslarimiz “Yolgʻiz Fargʻona viloyatidagina emas, umuman Movarounnahrda vayronagarchilikning hukmronligini koʻrsatish va uni fosh etish”dan iborat deb uqtirib keldilar [5].

Gulxaniy bu asarni yozishga kirishgan paytda Qoʻqon xonligini uzoq vaqt qiynab kelgan bir siyosiy jumboq – Oʻratepa masalasi endigina oʻz yechimini topgan, Qoʻqondagi hukmdor toifalar Oʻratepani oʻziga qaratib olib oʻzlarini gʻolib hisoblab, Qoʻqon xonligini Buxoro amirligidan ustun koʻrayotgan yillar edi.

Buxoro bilan Qoʻqon xonliklari orasida bir tomoni Xoʻjand, ikkinchi tomoni Jizzaxgacha tutashgan Oʻratepa bekligi mavjud boʻlib, bu beklilik, tarixiy anʼanalarga koʻra, mustaqil davlat huquqi uchun kurashib kelar, xonlar esa strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega boʻlgan bu viloyatni boʻysundirish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Oʻratepa bekligi mustaqillikni bir muncha vaqt saqlab qolishga erishgan boʻlsa ham,

ko'proq Buxoro izmida qolishga izmida qolishga majbur edi. Qoqon xonligi markazlashib olganidan keyin Olimxon va Umarxonlar davrida O'ratepani bo'ysundirish uchun kurash boshlanadi. XIX asrning birinchi choragi davomida Qo'qon xonlarining O'ratepa uchun Buxoroga qarshi 20 martadan ortiq yurish qilgani tarixdan ayon. O'ratepa qo'rg'oni Amir Umarxonning 1817 yilgi yurishlaridan birida ishg'ol qilindi. Biroq undan keyin ham bu yerda osoyishtalik yuzaga kelmadi. Zarbulmasalda Qoqon – O'ratepa-Buxoro munosabatlariga doir ana shu tarixiy holat-siyosiy inqirozlar davri o'z ifodasini topgan. "Movorounnahr – Buxoroda Amiral mo'minin Sayyid Muhammad Umarxon buzgan ...Rabot, Pushog'ar, Zomin, Bekobod, Xayrobod..." deb sanaganda adib O'ratepa bekligini nazarda tutib gap qilgan edi.

O'zaro urushlar tufayli har ikki xonlikdagi ahvol bir-biridan og'ir ekanini yaxshi ko'rib turgan chog'ida ham adibimizning o'z xonligi yutuqlaridan, ayniqsa, uning hududi kengayganidan faxrlanmay qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham asarda obrazlar tilidan Umarxon davrida mamlakat obod bo'ldi, yangi shahar andozasida yurtlar bino bo'ldi, bu yerdan boyqushbop vayronalar topilmaydi deb mubolag'a qilinadi. Buxoro haqida esa aksincha holni ko'ramiz. Ko'rqush tilidan hikoya qilinishicha, Buxoro amirligiga qarashli yurtlar (O'ratepa atrofi) Umarxonning bir yurishi bilan vayronaga aylanib ketgan. Agar Boyo'g'li rozi bo'lsa, qizining qalini uchun tilagan ming chordevorni Buxoro hududidan sanab berishi mumkin. Buxoroning bir tumanidan chordevor – "Chordevor (to'rt devor)" emas, "Hashtdevor (sakkiz devor)" desa ham topiladi. Ish oxirida ana shu yo'l bilan hal qilinadi ham. Boyo'g'li vakilning roziligi bilankuyov tomon qizning qalini deb Urgutdan boshlab Yangiqo'rg'on, Rabot, Pushog'ar, Eski Sabot, Mo'g'ul, Chakan, Firuz, Nishopur, Shahriston, Beshsaroy, Dehliyon, Itarchi, Mujun, Mang'it, Kenagas, Yangiariq, G'onchi, G'azondarak, Xrak, Xoja Tohir, Yaxoja Tohir, Yaxdon, Qizili, Kurkat, Bekobod, Xayrobodgacha bo'lgan vayrona yurtlarni solib beradi.

Yig'inda utirgan qushlarning hammasi Yapaloqqush vakilining mardligiga qoyil qolib turgan bir paytda qiz tomonning vakili Xayrobodga nisbatan e'tiroz bildirib qoladi. Sababi – "daryoga yovuq(yaqin)dir, Boyo'g'li xalqi suvdin e'tiroz etar, muni o'rnig'a Mug'ni soling", deydi. "Mug'"dan bu yerda O'ratepa ichidagi qal'a - Mug'tepa, ya'ni O'ratepaning o'zi ko'zda tutilyapti. "Xayrobodning o'rniga Mug'ni soling!" deyish bilan "Xayrobodning o'rniga O'ratepani bering!" demoqchi. Ayni o'sha tarixiy – siyosiy vaziyat nuqtai nazaridan qaraganda, bu gapda qanchalik tagdor mazmun borligini tushunish qiyin emas. Ushbu talab oldida kuyov vakili Ko'rqush: "Shoshmang, Mug' egasini mug' atvorlig'i bor, ya'ni berish yo'lini yo'qotibdir, mumsiklar af'oli ang'a maqbul va marg'ub tushubdir, mug'luq bo'lurg'a oz qolibdur, yana bir safarlik holi bor, kech kuzgacha ani ham solib bermoqg'a man kafil", deb ishontiradi.

"Mug' egasi" – bu yerda O'ratepa hokimi, "mug' atvorlig'i bor" iborasida murakkab so'z o'yini bor: "otashparastlarga (yoki tovuqqa) o'xshash qiliq chiqardi", "berish yo'lini yo'qotibdur" – xonga xiroj to'lamayapti (yoki "tuxum tug'may qo'ydi"); "mug'luq bo'lurg'a oz qolibdur" – ayanchli holga tushib qoldi; "yana bir safarlik holi bor" – Amir Umarxonning yana bir yurishiga bardosh berolmaydi. "Kech kuzgacha ani ham solib bermoqg'a man kafil" – (ahvol shunday ketaversa) kech kuzgacha O'ratepani ham (vayron qilib) qizingni mahriga solib berishga kafolat beraman.

Asarning g'oyaviy yo'nalishi Boyo'g'lining qizi uchun qalin berish paytida keltirilgan mana shu ifodalarda juda ravshan ko'rinadi. Ikki xonli orasidagi siyosiy raqobatda Gulxaniy o'z xonligining ustunligini ko'rsatmoqchi, muxolif tomonni kamsitmoqchi. Bundan chiqadiki, asarning bosh g'oyasi buzg'unchilikni ko'rsatish va fosh etish emas, o'z mamalakatining obodligi va g'olibligidan faxrlanish va vatanparvarlik g'oyasidir.

"Zarbulmasal"da Gulxaniyning nima uchun Qo'qon xonligini bu qadar mubolag'a bilan maqtangani va Buxoroni ancha kamsitib gapirayotgani o'quvchini qiziqtiradi. Qo'qonda Hapalak qishlog'i singari xaroba holiga kelgan yurtlar ham bor edi.

Tadqiqotchilarning ko'pchiligi Gulxaniyning bu o'rinda tutgan yo'li va gaplarida kinoya va qochirim bor, aslida u bu bilan o'z xonligining buzg'unchilik siyosatini qoralamoqchi, deb izoh beradilar.

Asarning butun mazmunida bo'lganidek, tabiiyki, bu o'rinda ham adib kinoya va qochirimni ko'zda tutgan bo'lishi mumkin. Biroq bu masalaning muhimroq tomoni shundaki, Gulxaniyning o'zi qanchalik ilg'or fikrli kishi bo'lmasin, avvalo o'z davrining – xonliklar davrining kishisi, Qo'qon xonligining fuqarosi edi. O'z zamondoshlari, vatandoshlari singari u ham Qo'qon xoni va xonligining muvaffaqiyatlaridan quvonar, tarixiy vaziyat vujudga keltirib qo'ygan tor vatanparvarlik tuyg'usi unga ham yot emas edi. Buxoro qishloqlarini xaroba holida tasvirlash bilan adib o'sha davr uchun faqat Buxoro xonligini fosh qilayotgan bo'ladi-yu, kelgusi avlod uchun tarixiy davrning ijtimoiy – siyosiy manzarasini keng va ravshan qilib yoritib beradi, ammo buni endi "fosh qilish" deb aytib bo'lmaydi.

"Zarbulmasal"ning bosh syujet yo'li. "Zarbulmasal" – murakkab syujetli asar. Uning qoliplovchi bosh sujet yo'li bor. Bosh sujetga qoliplangan yon sujet chiziq-lari bor. Asarning ilmiy – tanqidiy matnini shakllantirishda sujet yo'lining mantiqiyiligi va qat'iyiligi alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Bosh sujet yo‘li roviylarning rivoyatiga asoslanib boshlanadi, qahramonlarning murodu maqsadga yetishlari bilan tugallanadi. Voqea “ilgarigi ahdi ayyomi Nofarjomda Kaykubod otlig‘ podshohdin qolg‘on bir eski shahristonda” yuz bergan. Boyo‘g‘lida Kunushbonu ismli qiz, Yapaloqqushda Kulangir sulton nomli o‘g‘li voyaga yetgan. Yapaloqqush o‘z o‘g‘li uchun Boyo‘g‘lining qizini so‘rab Ko‘rqushni sovchilikka yuboradi. Boyo‘g‘li esa qizining qalini uchun ming buzuq chordevor talab qiladi. Amir Umarxon davrida Qo‘qon xonligi obodlikka yuz tutib, buncha chor devorni topib berish imkoni bo‘lmaydi. Oxiri Buxoro xonligiga qarashli vayrona yurtlarni sanab berib xayrli ishni bitkazadilar. Asarning bosh sujet yo‘li ana shunda.

Bu o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, “Zarbulmasal”ning bosh sujet yo‘li – boyqushlarning o‘zaro qudachilik munosabatlari, ularning qiz uchun qalin evaziga minglab buzuq chordevor talab qilishi tasvirlari kichik epizodlar shaklida Gulxaniygacha bo‘lgan tarixiy manbalarda ham uchraydi. Masalan, Nizomiy Ganjaviyning “Mahzun-ul asror”asari 11maqolotida Nushirvonning ov qilib chekka bir xaroba qishloqqa borib qolgani va unda ikki qushning g‘ayritabiiy bir tarzda “suhbatlashayotgani” hikoya qilinadi. Vazirning izohiga qaraganda, qushlar qudachilik yo‘lida gaplashayotgan ekan-u, biri ikkinchisidan qalin uchun shu xarobalarni o‘ziga berishni talab qilar ekan. Bunga javoban ikkinchi qush “agar podshohimiz omon bo‘lsalar, yuz ming xaroba qishloq desang ham topiladi...” deb javob qilayotgan ekan. Ayni shu mazmun boshqacharoq bir shaklda Nizomiydan ancha avval o‘tgan Abu Bakr Muhammad Tartushiyning “Siroj-ul mulk” asarida ham tilga olingan. Rabg‘uziy qissalari, Xoja hikoyatlari orasida ham yuqoridagi kabi epizodlarga duch kelamiz, lekin ularning har birida o‘zgacha mazmun, o‘zgacha yo‘nalish bor. Aslida xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lib, undan diniy – ta‘limiy mazmundagi asarlarga ko‘chgan bu sujetni Gulxaniy epik asar darajasida kengaytirib, unga chuqur ijtimoiy mazmun berdi, ko‘p sonli personajlar kiritdi, voqea yo‘nalishini hayajonli dramatik qolipga soldi, shu voqea negizida til, uslub, badiiyat nuqtai nazaridan tangi asar yaratdi. Eng muhimi – Gulxaniy qushlarni zarbulmasal yo‘li bilan so‘zlatish orqali o‘zbek tilidagi xalq ma‘naviyati durklarini bir sujet ipiga bog‘lab berdi.

“Zarbulmasal”ning tarkibiy qismlari. Asarning turlicha hikmat va hikoyatlardan tashkil topgan “yig‘ma” hikoyat ko‘rinishi bor. Adibning o‘zi bu kitobda “to‘rt yuz zarbulmasali avomunnas batartib bayon qilingani”ni qayd etib o‘tgan. Bu ma‘lumotga asoslanib ba‘zi kishilar “Zarbulmasal”da 400dan ortiq (yoki kam) maqol bor deb izoh beradilar. Aslida esa bu yerda maqol (“otalar so‘zi”, “mashoyixlar gapi”, matal, ibora) nomi bilan umumlashadigan xalq aytilari 200ga yaqin boradi xolos. “Zarbulmasal” masallari jumlasiga “maqol(matal, ibora)”dan tashqari, fikrning asosi va dalili sifatida keltirilgan har xil adabiy parchalar (hikmatlar), qissa va hikoyatlar, hadis rivoyatlar, adabiy san‘atlar, ifodaning, qissa va hikoyatlar, hadis rivoyatlar, adabiy san‘atlar, ifodaning badiiy tasvir vositalari, ba‘zan, hatto, usul va shakllari ham qo‘shilib ketadi. Ana shularning hammasi jamlanganda “Zarbulmasal” masallari 300ga yaqin boradi. Bular orasida mustaqil sujetga ega bo‘lib, asarning bosh sujet yo‘liga qoliplangan qissa va hikoyatlar ko‘p. Ilmiy-tanqidiy matnni shakllantirish va asar qo‘lyozmalarining butunlik darajasini belgilashda bu qissalarning asardagi o‘rnini bilib olish katta ahamiyatga ega. Buning uchun bosh sujet chizig‘ining muhim nuqtalariga e‘tibor berish lozim bo‘ladi.

“Zarbulmasal”dagi bosh sujet chizig‘ining asosiy nuqtalari quyidagilardan iborat:

Boyqush bilan uning qizi Kunushbonu o‘rtasidagi bahs (voqeaning boshlanishi).

Yapaloqqush bilan Ko‘rqush suhbat (sovchilikka da‘vat).

Ko‘rqushning Kulangir sulton dargohida bo‘lishi.

Ko‘rqushning Boyo‘g‘li maskaniga yo‘l olib, yo‘lda Hudhud bilan uchrashgani.

Ko‘rqush bilan Boyo‘g‘lining xayrli ish yuzasidan qilgan suhbat.

Boyo‘g‘lining o‘z qizidan (kuyovga chiqish uchun) rozilik so‘rashi.

Yapaloqqush tomonidan Sho‘ranulning Malikshabohang huzuriga sovchilikka yuborilgani.

Malikshabohang topshirig‘i bilan Kordon va Turumtoyning to‘y taraddusida safarga otlanishi, ular orasida bo‘lib o‘tgan hangomalar.

Kordon bilan Boyo‘g‘li o‘rtasidagi tortishuv va mojarolar.

Kordonning Ko‘rqush bilan uchrashuvi.

Ko‘rqushning Boyo‘g‘li ma‘vosiga qaytib borishi va murosa ahdining yuzaga kelishi.

Mahr solish va nikoh marosimlari.

Bu nuqtalarning har birida qanday dialoglar kelishi, bu dialoglarda qancha va qanday aytimlar borligi, asarning u yoki bu qo‘lyozmasida ularning qay tartibda uchrashi – bularning hammasi hisobga olib boriladi. Voqeband adabiy parchalar (masal, qissa, hikoyat) larga kelsak, ular ajratib ko‘rsatilgan nuqtalar – epizodlarning 4tasi (4,8,9, 10 -)dan o‘rin olgan.

Ko‘rqushning Hudhud bilan uchrashuvida Hudhud Ko‘rqushning sovchi bo‘lib borayotganini anglab, “Sanga sovchi bo‘lmoq nadur?!” mazmunida unga “hikoyati hakim uhoziq (Kabutar ila Zog‘)”ni, “qo‘ldin

kelmas ishga urunganing najjorliq qilg'an maymung'a o'xshar" deb esa "qissai manzumi maymun (Najjor bilan Maymun)"ni aytib beradi. Ko'rqush ham o'z navbatida "bu ishda mening ixtiyorim yo'q", deb Hudhudga "Tevani bo'tasi anosi bila munozaat qilgani" (Tuya bilan Bo'taloq) haqidagi qissani bayon qiladi.

Kordon bilan Turumtoy o'rtasida bo'lib o'tgan hangomalar davomida Turumtoy Kordonning safar taraddudidagi hatti-harakatlarini nafs ovorasi bo'lgan Xolvoqi misgarning qilmishiga o'xshatadi va bu bilan o'z xojasiga nisbatan katta beodobchilik qilib, Kordonning g'azabiga duchor bo'ladi. "Og'zi oshga tekkanda, burni qonag'an man bo'ldim o'xshar" mazmunida Kordondan uzr so'rab, unga Yodgor po'stindo'z haqidagi hikoyatni aytib beradi (bu hikoyatning o'zi beshta maroqli hikoyachalarni o'z ichiga jamlab olgan). Safarda yaxshi do'stning zarurligini ta'kidlamoqchi bo'lib Kordon Turumtoyga "Bozanda va Navozanda" hikoyatini, Bozanda tilidan esa "Sangpusht (Toshbaqa) va Chayon" masalani keltiradi.

Kordon bilan Boyo'g'li o'rtasidagi mojarolar ham uzoq, ham juda murakkab tusda davom etadi. Boyo'g'lining ming chordevor ustida qattiq turib olganidan g'azablangan Kordon avval Amir Umarxonga madhiya o'qiydi, so'ng uning davrida obodonchilik yuz berganini ta'kidlaydi. "Qalinni ozroq so'ragil, yo'qsa sen ham dum ishtiyoqida yurub, ikki qulog'idin ayrilgan eshakdek bo'lma" mazmunida unga eshak bilan dehqon voqeasini: Boyo'g'lining "tuqqan tomurim bilan kengashay" deganiga javoban ikki Faj-Laj (Niyozcha og'aliq bilan Bobojon Ashur cho'loq o'g'li) haqidagi hajviyani, Mulla Muhammad Sodiq degan tolibi ilmning omonat mablag'ini yeb, tonib ketgan firibgar tog'asi Sobirboy va uning qilmishlarini aytib beradi, Muhammad Yusufboyning o'z vazifasiga kafsh sotib olishi haqidagi hikoyat ham Kordon tilidan xuddi shu o'rinda keltirilgan.

Asoslar oldida lol bo'lib qolgan Boyo'g'li Kordonning jasadiga razm solib, uning bo'yi uzunligi, farosati kamligiga ishora qiluvchi hikoyatlar keltiradi. Imom Abu Yusuf va bir betamiz odam voqeasi, mevali daraxtning ho'l shoxini quruq shoxiga payvand qiladigan lavand bog'bon hikoyasi, Teva (tuya) bilan tulkining savol – javobi ana shular jumlasidandir.

Kordonning Ko'rqush bilan uchrashuvida Ko'rqush Kordonning "biz quda bilan bo'lgan munosabatda andisha yo'lini tutdik, "quda bo'lding – judo bo'lding", degan so'zga yo'qmiz", deb aytgan gaplariga javoban, bir odamning o'z do'ppisini suvga oqizib uni ololmay, "yo'qolgani xo'b bo'ldi, boshimg'a tor kelur erdi", deganini naql keltiradi va Navfal podsho Majnunga, Muta'mar shoh esa Uyaynaga orqa bo'lgandek, "sen ham shu tarzda ish qilsang, noming to yavmul jazog'acha qolur erdi", deydi. Kordonning "hikoyat qil!" ishorati bilan Ko'rqush arab podshohi Mu'tamarning qancha mehnat va harajat tortib oshiq Uyaynaga uning ma'shuqasi Rayyoni olib bergani haqidagi uzun hikoyatni aytib beradi.

Ko'rinadiki, "Zarbulmasal" asari tarkibiy jihatdan ko'p va xilma-xil badiiy qismlardan tashkil topgan. Bu qismlarning har biri alohida olinganda, mustaqil adabiy – badiiy qismlardan tashkil topgan. Bu qismlarning har biri alohida olinganda, mustaqil adabiy – badiiy asar ko'rinishiga ega, bir butun holda esa murakkab bir kompozitsiyani hosil qiladi.

"Zarbulmasal"da tasvirlangan voqeaning yuz berish o'rni. Zarbulmasalda tasvirlangan voqea – qushlarning o'zaro qudachilik munosabatlari yuz bergan joyni ochiq tasavvur qilmasdan turib, asarning mohiyatiga yetib bo'lmaydi, buningsiz matn tuzish ishiga qo'l urib bo'lmasligi o'z-o'zidan ravshan. Asardagi voqea tasviriga kirishishdan avval adib uning "ilgarigi ahdu ayyomi nofarjomda Farg'ona iqlimida Kayqubod otlig' podshohdin qolg'an bir eski shahristonda" yuz berganini qayd etib o'tadi. Hikoya davomida yana bu nom bir necha bor zikr qilinadi. Masalan, Yapaloqqush sovchilari Boyo'g'liga qarab: "San o'zingni Kayqubod Shahristonining Kayqubodi sonub bizni manzur etmading", deya gina qiladi. Buxoro amirligida buzuq yurtlarning ko'pligi haqida gap borgan boshqa bir o'rinda esa "bulardin shahri Kayqubod rashk olib, adam sari yuzlandi", deb aytiladi.

Hikoya mazmunidan shu narsa aniq bo'ladiki, Kayqubod shahristoni ilgarigi ayyomda Farg'ona iqlimida joylashgan, Kayqubod otliq podshoh ismiga nisbatan nom olgan qo'hna shahar ekan, Gulxaniy zamoniga kelganda, shahar xarobalari bu davrning buzg'unchiliklaridan rashk olib yo'qlik dunyosiga yuz tutibdi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida, yozma adabiy-tarixiy manbalar ichida Kayqubod oti joy nomi sifatida kam uchraydi. Bu nom Buxoro, Samarqand, Kashmir, Bog'dod singari faol qo'llanuvchi an'anaviy nomlardan emas. Shunga ko'ra, Gulxaniy aytgan bu nom tarixiy jihatdan realmi yo rivoyatmi, degan savol qo'yiladi. Bordi-yu real bo'lsa, uning o'rni Farg'ona iqlimining qaysi tomonida bo'lishi mumkin? Zarbulmasalning mazmuni, undagi ayrim lavhalarning tarixiy asoslarini kuzata borib, biz shunday xulosaga keldikki, asarda tilga olingan gaplarning hammasi o'z hayotiy zaminiga ega ekan, undagi biror narsa bejiz va beasos tilga olinmagan ekan.

Turmushda bor bo'lgan, hayotda ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortgan narsa, voqea – hodisalar qushlar tilida zikr qilingani uchun bu asarning shuhrati ortib ketgan bo'lishi kerak. Shu xulosaga ko'ra, adib "Kayqubod shahristoni" deganda, "Daqyonusdan qolgan qandaydir bir qo'hna shahar" ma'nosidagi mavhum

bir joyni emas, o‘z zamondoshiga uncha begona bo‘lmagan, asarga nomi kiritilsa, kitobxon anglab oladigan va zavqlanadigan aniq bir joyni – ma’lum shahar xarobalarini nazarda tutgan bo‘lishi kerak.

“Kayqubod” nomi asar nusxalarida “Kay Qubod” tarzida ajratib yozilgan. Kay – ulug‘, yuksak, baland martabali ma’nosidagi so‘z bo‘lib, qadimgi eroniy xalqlar uni “shoh”, “shahanshoh” ma’nosida qo‘llaganlar. Sosoniylar davrida podshohlarni “Kay” unvoni bilan “Kay Qubod”, “Kay Kovus”, “Kay Xisrav”, “Kay Lo‘hrosp” deb ulug‘langanlar. Kayoniylar nomiga nisbat berilgan joy nomlari Markaziy Osiyoda ham bo‘lgan. Tojikistonning Shahrituz tumaniga qarashli Kayqubodshoh shahri xarobalari va qadimgi Ushrushnaning markazi hisoblangan, yunon tarixchilari Kiropol deb atagan shahar xarobalari ana shular jumlasidandir. Kiropol shahrini olimlar hozirgi O‘ratepa g‘arbida joylashgan Shahrison qishlog‘idagi Qagqaha tepaligi xarobalariga nisbat beradilar.

1. Adabiyotshunos olim E.Shodiyev bir o‘rinda Zarbulmasal asaridagi voqealar o‘rnini tasvirlashda Gulxaniy shu Shahrison xarobalarini nazarda tutmaganmikin, degan mulohazaga boradi.

2. Lekin bu asarda bu joy “Farg‘ona iqliminda”, deb yozilgan. O‘ratepa atrofini ham Farg‘ona iqlimiga doxil deb hisoblaydilar, lekin “Farg‘ona iqlimi” birikmasi orqali asarda “Farg‘ona davlati” (Qo‘qon xonligi) nazarda tutilganini hisobga olsak, bu fikrdan qaytishga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotlar

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. Qo‘lyozma. Majmua. Zahiriddin Muhammad Bobur nomli Andijon viloyat kutubxonasi. 1956.

2. Gulxaniy. Zarbulmasal. Qo‘lyozma. Majmua. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi. 1871.

3. Gulxaniy. Zarbulmasal. –T.: “G‘afur G‘ulom”, 1974.

4. Abdullayev B. A. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob, ikkinchi nashri, -T.: “O‘qtuvchi”, 1967.

5. Aliyev A. Yu. O‘zbek adabiy tili tarixidan materiallar. – T.: “Toshkent Davlat Universiteti”, 1986.

6. Ahmedov. B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (Qadimgi va o‘rta asrlar). – T.: “O‘qtuvchi”, 1991. 163-212b

Dilora SIDIQOVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL TA'LIM VA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim metodlari va loyihalash texnologiyasining ahamiyati va qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *interfaol, metod, ta'lim-tarbiya, loyihalash, pedagogika, ilmiy-pedagogik, individual, psixologik xususiyat, strategiya, darslik.*

В этой статье дается обзор важности технологии интерактивного обучения и проектирования в начальной школе и того, как ее можно достичь.

Ключевая слова: *интерактивный, способ, образовательный тренинг, дизайн, педагогический, научно-педагогический, человек, психологическая особенность, стратегия, учебник.*

This article provides an overview of the importance of interactive teaching methods and design technology in primary school, and how they can be achieved.

Keys words: *interactive, method, education-upbringing, design, pedagogy, scientific-pedagogical, individual, psychological traits, strategy, textbook.*

Hozirgi kunda shiddat bilan iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida juda ko'p o'zgarishlar va rivojlanishlar bo'lmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham, 2019-yilda Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Prezident maktablarining asosiy vazifasi iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish hisoblanadi. Bunday bolalarni tayyorlash, albatta, boshlang'ich sinfdan boshlanadi.

Ma'lumki, ta'lim olish jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa biron - ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga (usullarga) tayangan holda kechadi. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo'naltirish yo'llarini anglatadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish borasida eng rivojlangan davlatlarning ta'lim metodlaridan foydalanish lozim. Hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlar bu-interfaol metodlar hisoblanadi. Interfaol-"Interaktiv" ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni, "inter" - "o'zaro", "akt" - harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi. Interfaol metod - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim metodlarining turi ko'p bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayonini samarali vositasi sanaladi. Interfaol metodlarni ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash lozim. Buning uchun dars jarayoni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Interfaol ta'lim metodlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Interfaol metodlar: "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalar.
2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar.
3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Klaster", "Insert" va boshqalar.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarning faolligini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o'quv sifatini va samaradorligini oshiradi. Interfaol usulda tashkil etilgan darslar jarayonida birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarni ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmuni bilan o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars jarayonida o'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish sodir bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilar bir-birini fikrini tinglashda, o'zaro hurmat qilishga, do'stona aloqada bo'lishini ham ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'lim uchun zarur va ustuvor yo'nalishlardan biri ta'lim mazmunining yangilanishi, darsni ilg'or tajriba va g'oyalariga tayanib, zamonaviylashtirilgan hamda ilmiy-pedagogik texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki, dars ta'lim-tarbiya berishning asosiy o'zagidir. O'quvchining o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom avlod qilib voyaga yetkazishda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita hisoblanadi. Dars ta'limning asosiy shakli ekan, o'qituvchi shu jarayon o'z shogirdlarining ongli va faol bo'lishi, jamiyatning vatanparvar, adolatparvar, mehnatsevar va fidoyi kishilar bo'lib ulg'ayishlari uchun mustahkam zamin tayyorlashi lozim.

Demak, bugungi interfaol darslarni tashkil qilish uchun interaktiv metodlarni amalda joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirishda ma'lum maqsadga erishishda, o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, interfaol darslarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbqiq etishi, ta'limning yangi-yangi usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalana olishi juda muhimdir. Bunday interfaol metodlar orqali tashkil qilinadigan darslarni loyihalash o'qituvchidan albatta, mahorat talab qiladi.

Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida bir nechta xususiyatlarga ega. Ularga alohida e'tibor qaratamiz. Interfaol darslarni tashkil etishning boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqish hosil qilishdagi o'rni beqiyos. Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. Ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qulaydir. Bolaning shaxsi shakllanadi, munosabatga kirishishi o'sib boradi. Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson faoliyatining shakllanishi rivojlanib, mehnatga layoqati va mas'uliyati shakllanib boradi. Ayniqsa, bola shaxsining psixologiyasi shakllanishida yordam beradi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Interfaol usulda tashkil etilgan darslar jarayonida birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarni ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmuni bilan o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars jarayonida o'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish sodir bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilar bir-birini fikrini tinglashda, o'zaro hurmat qilishga, do'stona aloqada bo'lishini ham ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, interfaol darslarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbqiq etishi, ta'limning yangi-yangi usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalana olishi juda muhimdir. Shuni unutmashlik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari boyitib borilmoqda. O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi.

Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayonining qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga

oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi - ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. Darvoqe, o'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun "Debat" metodi ikki o'quvchi o'rtasidagi bahs hisoblansa, "Aqliy hujumda" guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtiroki zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi.

Ma'lumki, pedagogik texnologik ham ma'lum qonuniyatalar asosida loyihalanaadi va o'quv jarayonini tashkil etishga asos yaratadi, joriy qilingach esa yakuniy natijani, o'quvchining u yoki mavzuni mustaqilligini ta'minlaydi. Ta'limning umumiy maqsadidan kelib chiqib o'qitishning ayni bosqichidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalarni yechish zaruratni hisobga olgan holda ajratilgan variant tahlillanadi va baholanadi.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida o'quvchi va o'quvchilar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur. Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo'llab o'tkazaversa bo'ladi, lekin amalda buning iloji yo'q. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta'sir ko'rsatadi. Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loyihalash (lot. projectus – olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proyektni ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi. Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlardan biri bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi. Loyihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlari tuziladi. Ular o'zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlarni mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi. Bunday tashkil etilgan darslar o'z maqsadiga erishish mumkin.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- natijalarni oldindan ko'ra bilish;
- rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyahasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Darsni loyihalashda o'qituvchi o'z oldiga uch xil maqsad qo'ygan edi: bolalarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash. Bu maqsadni amalga oshirish uchun besh xil ish tashkil etildi- kuzatish, sanash, majmuada insonning o'rnini aniqlash, misollar o'ylab topish, dastlabki xulosani chiqarish.

Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: "O'zbekiston", 2017. -488-b.
2. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. Pedagogik mahorat, 2003.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi.-T.: "Ilm-ziyo", 2009.
4. Mavlonova R., Voxidova N.va Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T., 2010.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. -T., 2017.
6. Olimov Sh.Sh, Durdiyev D.Q. Pedagogik texnologiya. –Buxoro: "Durdona", 2019. 215-b.

Umida TOG‘AYEVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrası o‘qituvchisi**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA PREDMETLARARO INTEGRATSION YONDASHUV**

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim ona tili o‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati, predmetlararo uzviylikni o‘rnatish yo‘l-yo‘riqlari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, yozuv, uzviylik, dunyoqarash, bog‘liqlik, ko‘nikma, dars, tushuncha.

В этой статье содержится информация о важности междисциплинарных связей при обучении родному языку в начальной школе, а также рекомендации по установлению междисциплинарных связей.

Ключевые слова: интеграция, начальное образование, родной язык, запись, непрерывность, прогноз, соедение, способность, урок, концепция.

This article provides information on the importance of interdisciplinary connections in the teaching of mother tongue in primary education, as well as guidelines for establishing interdisciplinary links.

Keys words: integration, primary education, mother tongue, writing, interdependence, worldview, dependency, skill, lesson, consciousness.

Integratsion yondashuv boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalaridan biri. Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunib yetishni o‘rgatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida integratsiya so‘ziga quyidagicha izoh berilgan:

Integratsiya (lot. Integration – tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish) 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Biz ta‘lim nuqtayi nazaridan olib qaraymiz va boshlang‘ich ta‘limda predmetlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni sifatida talqin etamiz. Bundan tashqari, R.X.Jo‘rayev, O‘.Q.Tolipov, R.G‘.Safarova va boshqalar tomondan tuzulgan pedagogik lug‘atda quyidagicha keltirilgan:

Integratsiya-

1. O‘quv fanlarning alqadorligi.

2. Lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “qayta” qurish, tiklash, to‘ldirish, “integr”- to‘liq, butun, yaxlit degan ma‘noni anglatadi. Integratsiya – bir-biri bilan organik birlashib ketish, bir-biriga o‘zaro singdirish, bir-bir bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan yaxlit g‘oyani hosil qilish. Boshlang‘ich ta‘limda bu tushunchani bir necha predmetning o‘zaro bir-birini to‘ldirishi sifatida tushunishimiz mumkin. Integratsiya tushunchasi ilmiy tilda izohlanmagan bo‘lsada, qadimdan mavjud bo‘lib kelgan. Bunga misol qilib Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy kabi allomalarimizning qarashlari va asarlarini aytish mumkin. Ular faqat bir fan doirasida emas, balki bir necha fanlar yuzasidan fikr yuritganlar va tadqiqotlar olib borganlar. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini ham bir necha fanlar doirasida tahlil etish mumkin.

3. Unda tabiatshunoslik, geografiya, axloqshunoslik, adabiyotshunoslik kabi bir qancha fanlar uyg‘unlashganini ko‘rishimiz mumkin. Unda Navoiy, Jomiy, Suhayliy, Binoiy kabi ijodkorlar, Marvari, Yusuf Ali, Behzod kabi san‘atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho berilgan. Farg‘ona, Samarqand kabi bir qancha shaharlar geografik jihatdan g‘oyatda qiziqarli tavsif etilgan.

Buyuk didaktik olim Y.A.Komenskiy fanlararo aloqadorlik haqida o‘zining “Buyuk didaktika” asarida shunday yozadi: “Barcha o‘zaro bog‘liqliklar aynan ana shu bog‘liqlikda o‘rganilishi zarur” [4]. Keyinchalik ko‘plab olimlar mazkur fikrni umumlashtirgan holda uni yanada rivojlantirdilar. Klassik pedagogika namoyondasi K.D.Ushinskiy fanlararo bog‘liqlikning psixologik-pedagogik asosini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko‘ra, ma‘lum qilinayotgan bilim va g‘oyalar organik jihatdan fanda qanday bilsalar, shunday tarzda o‘rganilishi zarur. Integratsiya muammolari bilan ko‘p shug‘ullangan K.D.Ushinskiy, V.Ystyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov kabi pedagoglar fanlararo bog‘liqlik nazaryasining metodik ishlanmasini yaratishga e‘tibor qaratdilar. Shuningdek T.L.Ramzayeva, G.N.Akalova, N.Y.Velinkin, G.V.Belyukova, M.Maxmutov, R.A.Mavlonova va boshqalarning bir qator ishlari boshlang‘ich ta‘limga fanlararo bog‘liqlik va fan ichidagi bog‘liqlik ishlariga bag‘ishlangan.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, mustaqil tarzda ijodiy mulohaza yuritishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bu o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishni o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamalikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, o'quvchini barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga o'rgatishi lozim. Bu maqsadni boshlang'ich ta'lim amalga oshirishi kerak. Bugungi kunda o'quv rejasidagi fanlarning soni boshlang'ich ta'limda o'ndan ortdi. O'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy ta'lim son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining bo'lishini nazarda tutmoqda. Bu jihatdan rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayanmoq lozim. Jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida, asosan, integrativ kurslar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shvetsariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi.

Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarni integratsiyalashning ma'lum bir imkoniyatlari mavjud bo'lib, uni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog'liqdir. Shuning uchun pedagoglar va metodistlar yangi dasturni yaratishdan oldin ana shu holatlarning barchasini inobatga olishlari lozim. Buning uchun, eng avvalo, o'qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini chuqur o'rganishi kerak. O'quvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo'lishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, katta hajmdagi matni savodli ko'chirib olish uchun uni tez va to'g'ri o'qiy olish malakasi talab etiladi. Bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o'qituvchi o'rgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma'lumotlaridan foydalanmasdan o'rgatishi ancha qiyin. Integrativ ta'limning bosh maqsadi bolani tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan, bir so'z bilan aytganda, dunyo bilan suhbatga tortish. Mazkur suhbat mobaynida faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan tildan foydalanishga yo'naltirish g'oyasi, kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashga yordam berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Boshlang'ich ta'limdagi ona tili darslarini o'qish, odobnoma, rasm, tabiatshunoslik, mehnat, jismoniy tarbiya kabi fanlar bilan bog'lab olib borish mumkin. Bunday darslar o'quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Jumladan, 1-sinf ona tili darsligidagi 36-mashqda integratsiyani qo'llaymiz. 36-mashq. She'rni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qiling.

Til topishdi (Qambar Ota)

Uchrashdilar

G'oz va o'rdak

- Isming nima?

- Menikimi?

- G'oq-g'oq-g'oq.

- Senikichi?

- G'o-g'o-g'o.

Bir zumda til

Topishdi.

O'ynagani

Chopishdi.

O'qituvchi o'quvchilarni munozaraga chorlaydi. "Bolalar, o'rdak va g'ozlarni hech kuzatganmisiz?" deya murojaat qiladi. So'ngra sinf 3 guruhga bo'linib, 1-guruh o'rdakni, 2-guruh g'ozlarni og'zaki ta'riflaydilar, 3-guruh esa o'rdak va g'oz rasmini chizadi. So'ngra shu asosda ular bahsga kirishadilar, o'rdak va g'ozlarning o'xshash va farqli jihatlari aytiladi, o'qituvchi fikrlarga yakun yasab, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qildiradi.

Ta'lim-tarbiya ishi bugungi kunda o'quvchining har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi majmuaviy jarayon sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shuning uchun ham mazkur jarayon turli yoshdagi o'quvchilarning aqliy rivolanishi, o'quv-biluv jarayonida o'quvchi shaxsining faoliyati, tahsil olishi va rivojlanishining o'zaro aloqadorligini ta'minlashga yordam berishni nazarda tutadi. Xuddi shu borada integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilarni bilim sifatini o'zaro aloqadorlikda amalga oshirib borish ko'zda tutiladi.

Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni pedagogik qo'llab-quvvatlash, qobiliyat va iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, muayyan sharoitga moslashuvchanligini qaror toptirishga yo'naltirilgan maxsus o'quv faoliyatida o'quvchining maqbul rivojlanishini ta'minlash muhimdir. Yangi sharoitda maqbul rivojlanish deganda biz o'quvchining o'ziga xosligini pedagogik jihatdan qo'llab-

quvvatlash, uning rivojlanishiga boshqa yangicha bir o'quv modeli ta'sir qilishini tushunamiz. Agar o'quvchiga ta'lim berish va rivojlanish muammosi uyg'unlashtirilsa, uning o'ziga xosligini pedagogik qo'llab-quvvatlash, birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarda didaktik va psixologik talablarni hisobga olgan holda muayyan o'quv predmeti doirasida maxsus tashkil etilgan individual hamda alohida guruhlarda jamoa bo'lib olib boriladigan ishlar orqali hamda turlicha murakkablik darajasida bo'lgan topshiriqlarning har tomonlama o'ylab ishlab chiqilgan tizimi har bir mavzuning o'zlashtirilishi muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday sharoitda ta'lim rivojlanishiga nisbatan ilgari boradi.

O'quvchi odatda mustaqil bajariladigan topshiriqni kichik guruhda o'zaro yordam, hamfikrlik natijasida tez bajaradi. Kichik guruh uchun murakkablik qiladigan mashq va masalalarni o'quvchilar jamoa bo'lib, oson va sifatli bajarishlari mumkin. Savol va topshiriqlarni tabaqalashganlik darajasidan kelib chiqqan holda hamda bir mavzu bo'yicha belgilab beriladigan topshiriqlar ularning sifati, har bir o'quvchining o'zligini namoyon qilishini talab qiladi. Shu bilan birga bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi o'z rivojlanishi va bilim sifatining darajasi va individual xatti-harakatlarini ham belgilab oladi.

Ta'lim mazmunini tanlashda har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyat va qobiliyat darajasi, alohida hisobga olinishi kerak. Har bir bolani uzluksiz rivojlanish tamoyili o'quv materiallarini integratsiyalashni, integratsiyalashgan o'quv materiallarini qamrab olgan darsliklar yaratishni taqozo qiladi. Taqdim etiladigan bilimlarning mustahkamligi, o'quvchining umumiy rivojlantirish darajasi dastlab maqsadga asoslanadi. Shuning uchun o'quv materiallari tarkibida turli ranglar, ramzlar, ularning ma'nosi, hajmi bilan tanishtiriladi. Buning natijasida o'quvchida kuzatuvchanlik faoliyati tarkib topadi. Chunki kuzatuvchanlik shaxs faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Integratsion darslardagi o'quv materiallari o'quvchini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilishi va shu rivojlanish darajasiga muvofiq tarzda bayon qilinishi kerak. Har bir o'quvchiga o'zining mustaqil ta'lim olishga imkoniyat berilishi hamda har bir darsda o'quvchilarda muntazam uyg'un ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ularning bir qismi mustaqil ishlar, boshqa bir qismi axborot manbalari yordamida hosil bo'ladi. Biz har qanday texnologiyalardan foydalanmaylik, o'quvchilarni mustaqil ishlashlari uchun ham imkoniyat yaratmog'imiz kerak. O'quvchi o'zini qiziqtiradigan, yechishga kuchi yetadigan topshiriqlarni aynan o'zi tanlay olishi talab etiladi. Bunda o'quvchining xohish va bilim sifatini hisobga olish muhimdir.

Ona tilining maktabda fan sifatida boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi, asosan, har xil yo'nalishlarda qarab chiqilishi mumkin. Odatda, ona tili boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bog'liq bo'ladi, chunki til hamma fanlarni ta'riflash uchun zarur vosita demakdir. Til orqali haqiqatning hamma tomonlari ko'rinadi. Tilni o'rganmasdan turib, aqliy faoliyat qilish mumkin emas. Til qurol sifatida har qanday fandan o'quvchi bilim olishi shart bo'lgan sharoitlardan biridir. Ona tili maktab ta'limida fan sifatida ko'p qirrali hodisadir va boshqa fanlar bilan aloqasi mazmunangina emas.

Olimlarning fikricha, bir fan ikkinchi fandagi savollarni, masalalarni yechishda bir vosita hisoblanar ekan. Ana shunday bog'lanishi lozim bo'lgan fanlardan biri ona tili va o'qishdir. Bularga qo'shimcha tarzda ingliz tili, matematika, tasviriy san'at, mehnat fanlarini ham uyg'unlashtirish fan doirasini kengaytiradi. Ikkita fanning o'zi emas, balki ko'proq fanlar integratsiyalansa, fanlarning aloqalar rivoji kuchayadi. Bunday darslar o'quvchilarni so'zga, ranglarning turfa olami, tovushlar sehriga chuqur kirib borishga ko'maklashadi, savodli, og'zaki va yozma nutqlari shakllanishiga yordam beradi, uning rivojlanishiga va boyishiga, estetik didni oshirish, san'at asarlarini tushunish va to'g'ri baholay olishga, Vatan tabiatini go'zalligi va boyligini his etishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari integratsiyasini tashkil etishda fanning talablari, vazifalari o'rganib chiqiladi. Qo'yilgan maqsadlar ham har ikkala fanga ham tegishli bo'lishi shart. Mujassamlashgan darsda, mos mavzularni topish mushkul, lekin ona tili darsidagi mashqlarni bajarilishini o'qish darsligidagi mos mavzularga uyg'unlashtirish mumkin bo'ladi. Bunda o'quvchi faqat o'qish yoki yozish bilan shug'ullanmasdan, balki har ikkisini ham bajarib boradi. Ona tili va tabiatshunoslik integratsiyasi. Ona tili va tabiatshunoslik fanlari uyg'unlashtirilgan darslarda fanlar va tabiat hodisalarini ta'sirchan qabul qilish doimo bolalarning nutqini o'stirish ishlariga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga o'simliklar, hayvonlar, odam tana a'zolarini to'g'ri aytishga o'rgatadi, kuzatish natijalarini aytib borishni taklif etadi. Shunday qilib, bolalar o'rgangan so'zlar, ularning tushunchalarida tasavvurlar, aniq hodisalarga bog'lanadi, hayotiy mazmunga to'ladi. Bu esa bolalarni tabiatga bag'ishlangan hikoyalar, maqollar, she'rlarni ongli ravishda o'qish, yozishga tayyorlaydi, ko'rganlari haqidagi matnni katta qiziqish bilan o'qishadi yoki o'qituvchi bilan suhbatlashganlarini yaxshiroq tushunadilar.

Ona tili darslarida yozilgan mashqlar tarkibining ko'p qismi tabiat voqea-hodisalariga bog'liq. Shu bois ham tabiatni e'zozlash to'g'risida va boshqalar haqida kichkina suhbatlar o'tkazish ham foydadan holi

emas. Ona tili darslarida nutqni rivojlantirish asosiy hisoblanishini unutmagan holda matn mavzusini o'rganganda insholardan foydalanish mumkin. Inshoni tanlashda esa, tabiatga xos bo'lgan, bolalarda tabiatga muhabbatini tarbiyalovchi mavzularni tanlash kerak bo'ladi. Bunday insholar 5-20 daqiqagacha, hajmi 5-15 gapdan iborat tarzda haftada bir marotaba o'tkazish mumkin. Insho bolalarda tabiatga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi, ularga zamonning axloqiy talablarini tushunishga yordam beradi. O'zlarining hikoyalarida bolalar qisqa sitatlar kiritishni, yorqin so'z va iboralar yaratishni, insholarga rasmlar chizishni, bezashni o'rganadilar. Bundan maqsad tabiat to'g'risida badiiy emotsional aniq rasmlar yaratishdir. Shu bilan birga rasm asosida hikoya yoki ertak yozishga o'rgatiladi. Bunday hikoya yoki ertaklarda, albatta, darak, so'roq, undov va buyruq gaplar ishtirok etadi.

Demak, integratsiyalashgan darslarda quyidagicha uslublardan foydalanish mumkin:

- evristik suhbatlar;
- nutqni rivojlantirishga oid ijodiy ishlar, ularni yozishda tabiatshunoslik materialidan foydalanish;
- og'zaki rasm chizish (tasvirlash, manzarali tasvirlangan joylarni yozma ravishda daftarga tushirish);
- tabiatshunoslik mavzusida diktant, insholar yozdirish.

O'qituvchilar integratsiyalashgan darsni har bir darsda emas, balki uning ma'lum bir bosqichda, ya'ni haftada 2-3 marotaba foydalanish mumkin. Masalan, lug'at bilan ishlash paytida tabiatshunoslikdan olingan ma'lumotlardan keng foydalanish imkoni bo'ladi. Har qanday so'zga lingvistik va tabiatshunoslik nuqtai nazaridan tushuncha berish mumkin. Umuman olganda, ona tili va tabiatshunoslik darslarini integratsiyalashda ularning dars turiga mavzularning o'zaro uyg'unligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Ona tili va tasviriy san'at mujassamlashgan darslarda o'rganish maqsadi tasviriy san'at na'munalari bo'ladi. Materialni bayon qilishda o'qituvchi bolalarga rassom tarjimai holi bilan tanishtiradi, rasm yaratish jarayonini ta'riflab beradi. Shu bilan birga asar muhokama va tahlil qilinadi. Rasm bilan tanishish natijasida bolalar rasmda tasvirlangan holat bilan hayotda kuzatgan holatlarini solishtirishni, bu esa, o'z navbatida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Rasm tasvirlari ona tili darslarida yorqin taassurot manbai bo'ladi, bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi. O'quvchilarni ongli ravishda savodli bo'lishlariga asos bo'ladi. Chunki insonning his-tuyg'usi san'atni qabul qiluvchi fikrlash va nutq o'zaro bog'liqdir. Rasm bilan ishlash o'quvchilarning nutq faoliyatini shakllantiradi va ularning so'z zahiralari boyitadi. Ona tili va tasviriy san'at fanlarini o'zaro bog'lanishini amalga oshirishda o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatlari ham e'tiborga olinadi. Masalan, darsda yozma ravishda mashq bajarishdan oldin o'qituvchi bolalarga shunday topshiriq berishi mumkin. Ya'ni o'quvchilar daftarlari ertalab uyidan chiqib, maktabga kelguncha bo'lgan yo'lni chizishlari kerak bo'ladi. Bunda barcha burilishlar, aylanib o'tishlar yo'lning qayrilishlarini unutmaslik lozim. Bu topshiriq o'quvchilarni xotirasini faollashtiradi, chunki ular qiziqish bilan topshiriqni bajaradilar. Eng asosiysi, o'quvchilar ushbu topshiriq orqali qo'l mushaklarini yozuv jarayoniga tayyorlaydi. Bunday topshiriqni turli variantlarini o'ylab topish mumkin. Bundan tashqari matnga oid rasm chizdirish orqali bolalar adabiy nutqining ma'nodorligi oshadi.

Ona tili va mehnat integratsiyasi yanada qiziqarli bo'ladi. Bunda ham xuddi tasviriy san'at integratsiyasi kabi, dars boshlanishida ayrim elementlarni kiritish mumkin. O'quvchilar plastilindan shakl yasashlari, rangli qog'ozlardan har xil shakllarni qo'yib olishlari, yirtish usuli bilan qog'ozdan yassi shakldagi buyumlarni yasashda foydalanishadi. Ona tili, tasviriy san'at, mehnat darslari uyg'unlashgan mashg'ulotlar qiziqarli, jonli, shovqinsiz bo'ladi. Bolalar har bir darsga qiziqish bilan qaraydilar, qog'ozlarni qirqqanlarida qo'l mushaklari ishlaydi, rasm chizganida xayol qilish, fantaziya rivojlanadi, solishtirish ishlarida og'zaki taqqoslash ko'nikmasi shakllanadi. Eng muhimi bu darsda faqatgina yozma ravishda bilmasdan, balki o'zlari o'sha buyumlarni yasab, o'z ko'zlari bilan ko'radilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

Adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: “O'qituvchi”, 1995. – 288b.
2. Hamroyev A.R. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. Ped.fan.nom.dis. – T., 2005. 141 b.
3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev.M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: “Nihol”, 2016.
4. Mavlonova.R.A, Raxmonqulova.N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi - T.: “Ilm-Ziyo”, 2009.-192b.
5. Mavlonova.R.A, Raxmonqulova.N . Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. - T.: “G'ofur G'ulom”, 2013 .
6. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. 1-sinf ona tili darsligi. – T.: “Sharq”, 2019. – 112 b.

Malika XAYDAROVA
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MEHNAT TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida sharq allomalarining fikrlari, ayniqsa mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'quv materialı, tarbiya, mehnat, mutaffakkir, metodlar, mustaqil ish, topshiriq, aqliy qobiliyat, qiziqish.

В этой статье анализируются взгляды восточных ученых, особенно на трудовое воспитание в процессе начального образования.

Ключевые слова: образование, учебный материал, воспитание, труд, мыслитель, методы, самостоятельная работа, задание, умственные способности, интерес.

This article analyzes the views of eastern scientists on the process of primary education, especially on labor education.

Key words: education, educational material, upbringing, labor, thinker, methods, independent work, assignment, intelligent ability, interest.

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan [1].

Mana shunday ertaklardan biri "Aql va boylik" ertagidir. Bunda 6 hol to'rt o'g'liga qarata "Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi", degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga "Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor", - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi. Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan. Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Masalan:

Daryo suvini bahor toshirar,
Inson qadrini mehnat oshirar.
Oltin o'tda bilinar,
Odam mehnatda.

Mehnatda do'st ortar,

G'iybatdan dushman. kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi. Masalan, alloma dehqonlar haqida: Hammasiga yechim (va) ichimdan halovat yetadi). Deb dehqonlar mehnatini ulug'lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham "juda zarur kishilardir... temirchi, tikuvchi, etikdo'z, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko'zim uzayib ketdi. ... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar", - deb o'zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo'lish shartlari xususida o'z tavsiyalarini bayon qiladi.

Dehqonlarga nisbatan:

(O‘zing bular bilan aralashgin, qo‘shilgin,
Tilda yaxshi so‘zla, yuzingni ochiq tut).
Hunarmandlarga nisbatan:
(Bular ham senga kerakli kishilardir,
Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir).
Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug‘lab:
(Aralashgin, qo‘shilgin, yedir ham ichir,
To‘g‘rilik ichra tirikchilik kechir.
Nima so‘rasa bergil, kerak bo‘lsa ol
Chindan ko‘rdim ushbu odamlar
Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar).

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub” asarlari ham mavjud.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlaridan biri mehnatsevarlik deb ko‘rsatadi. U “Hayratul abror”ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko‘z tikishdan ko‘ra o‘z qo‘li bilan hayot kechirish ulug‘roq va oliyjanobroq ekanligini “Hotam Toyi” hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo‘y-qo‘zilar so‘ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So‘ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o‘tin ko‘tarib kelayotgan birchol uchraydi. Hotam Toyi unga “Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og‘ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko‘rgil”, - deydi. Shunda chol kulib: “Ey, oyog‘iga hirs band solgan, g‘ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin”, - deb javob qiladi.

Hotam Toyi cholning bu so‘zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida Qorandan o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini “Mehmonnoma” deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o‘rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatadi. Dehqonlar to‘g‘risida fikr yuritir ekan, “Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. ... Olam ma‘murlig‘i alardin va olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkum, ham barakot”, - deb dehqonlarni, ya‘ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni, nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta‘magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma‘rifatparvar shoir Furqat ham o‘zining ma‘rifiy she‘rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritir ekan, har bir sog‘lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da‘vat etadi, hunarga mehr qo‘ygan, uni o‘rganishni da‘vat etgan kishining jahonda qadri baland bo‘lajagini uqtiradi [3].

Pedagog-shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o‘rgatishi kerak, - deb ta‘kidlagan ekan, yoshlar ma‘naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She‘rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, “O‘qi”, “Kitob”, “Qalam” kabi she‘rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmasligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradi. U yoshlarga kelajakda o‘z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta‘kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar o‘quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

Adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. -T. “O‘qituvchi” 1992.
2. Jo‘raeva O. Odobnoma. -T.: “O‘qituvchi”, 1995.
3. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. -T.: “O‘qituvchi”, 1993.

Yulduz PO‘LOTOVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrası o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI

Maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni takomillashtirish xususiyatlari va tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv fani, aloqadorlik, o‘qitish, integratsiya, ilmiylik, tamoyil, didaktik.

В статье рассматриваются особенности и принципы совершенствования интегрированных уроков в начальных классах.

Ключевые слова: академическая наука, связь, обучение, интеграция, научный, принцип, дидактический.

The article gives an idea of the features and principles of improving integrated lessons in primary classes.

Key words: academic subject, connection, teaching, integration, scientific, principle, didactic.

Umumiy ta‘lim mazmuni o‘quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishga, ularda turli xil tafakkurni shakllarini rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o‘quv predmetini o‘rganish bolaning materialni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta‘sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

O‘quv predmeti mazmunini tuzish pedagog amaliyot shu fanning asosiy kategoriya, tushunchalarining rivojlanish mantiqini hisobga oladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va psixologlar o‘quvchilar tomonidan materialni o‘zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga oladilar. San‘at sohasidagi umumiy o‘rta ta‘lim mazmuni o‘z ichiga g‘oyaviy tomoni va to‘kis badiiy shakli birligini hosil qiluvchi asarlarni o‘z ichiga oladi. Badiiy jihatdan bo‘sh, g‘oyaviy jihatdan haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan asarlar bolalarning ruhiyatiga ta‘sir qila olmaydi, tasavvur va tafakkurni rivojlantirmaydi, go‘zallik va badbaxshalik to‘g‘risida tasavvurni shakllantira olmaydi. Bolalar bilan ishlashda san‘at asarlarining chin badiiyligini hisobga olish, shakl va mazmunining birligi, ma‘naviyat va haqqchilik prinsiplarini amalga oshirishda muhimdir.

Umumiy o‘rta ta‘lim kelajakda bolalarga xohlagan fanni egallash imkonini beruvchi bilimlar asosini yaratadi. O‘quv predmeti fanlarning mustahkam asosiga ega, zamonaviy ilmiy ma‘lumotlarni tushunishga yetaklaydi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi. Umumiy o‘rta maktab uchun faqat hozirgi kunda ochilgan narsalar emas balki, avvalombor, fanning asosini, nazariy o‘rnini tashkil etuvchi narsalar ham zarur.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati o‘quvchilar uchun bir qadar murakkablik kasb etadi. Bunda boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha dastlabki uy vazifalari, darsda bir darslik materiallari asosida takrorlash daqiqalari, sxematik ko‘rgazmalilikdan foydalanish kabilarga ahamiyat beriladi. O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlash asosida o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga erishish o‘quv fanlariaro aloqadorlikni maqsadga muvofiq tarzda ta‘minlash imkonini beradi.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlash asosida uy vazifasini bajarishga ham umumiy talablar qo‘yiladi. Bunday mustaqil, individual mashg‘ulotlar ilmiylik va tushunarlik kabi yo‘nalishlarga ega bo‘lishi, ta‘lim mazmunining hayotiyliigi, amaliyot bilan bog‘liqligini ta‘minlash, o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishi kerak. O‘quv fanlariaro aloqadorlikka tayangan holda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, muammoli masalalar yechish, kitob bilan mustaqil ishlash, ko‘rgazmalilik kabi o‘qitishning turli shakllaridan keng foydalanishlari lozim. O‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida ochib beriladigan o‘quv materiallari mazmuni va uni o‘quvchilarga taqdim etish metodikasiga alohida yondashish talab etiladi. O‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan dars jarayonida o‘qituvchilar quyidagilarga e‘tibor berishlari lozim:

- fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etiladigan har bir darsga mujassam yondashish. Bunda ta‘limning o‘qitish, rivojlantirish, tarbiyalash kabi maqsadlariga erishish;

- voqea-hodisalar, bilim va tushunchalarni aralash fanlar dasturi asosida o‘quvchilarga o‘rgatishga erishish;

- darsda o‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan o‘quv- metodik majmualardan foydalanish mujassamlashtirilgan topshiriqlar yordamida yangi mavzuni o‘zlashtirish va o‘quvchilarning

fanlararo aloqadorlik asosida egallagan bilimlaridan unumli foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish;

- o'quv fanlariaro aloqadorlikni mujassam tarzda ta'minlash asosida darslarning sermahsulligiga erishish, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, o'quvchining bilim olish motivlari va shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlagan holda boshlang'ich sinf o'quv fanlaridan egallagan bilimlar quyidagi hollarda samarali rivojlanadi:

- o'qituvchining darsga tayyorgarligi, aralash fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini yaxshi o'zlashtirganligi va o'quv mavzularining o'zaro aloqadorligini anglab yetilgan bo'lsa;

- ushbu faoliyat o'qituvchi shaxsiy rejasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'la olsa;

- guruhlar bo'yicha alohida o'quv fanlari mavzulari o'zaro bog'liqligi umumiy chizmasini va tarmoq grafigi o'qituvchi tomonidan to'g'ri tayyorlansa...

Boshlang'ich sinf o'quv fanlari mazmunida g'oyaviy, siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, ekologik, g'oyaviy-badiiy xususiyatdagi fanlararo aloqadorlik muammolari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quv fani va o'quv faoliyati o'qitish jarayoni tizimi obyekt sifatida umumiy birlikdan iborat bo'lgani sababli o'quv fanlariaro aloqadorlikni aniqlashning didaktik asosi sifatida belgilanadi. O'quv fanlari va o'quvchi o'quv faoliyatining tarkibiy tuzilishi va uning qismlari ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikning manbai bo'lib xizmat qiladi. O'quv fanlari mazmuni va o'quvchilar faoliyatida bilimlarning asosiy turlarini qiyoslash asosida ularning o'xshash jihatlari aniqlanadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlik quyidagi yo'nalishlarda ta'minlanishi mumkin:

- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi uchun zarur bo'lgan aralash tipdagi ilmiy dalillar, nazariy qoidalar, qonuniyatlar, g'oyalarga tayanish orqali bilim va tushunchalar tizimini boyitish.

- aralash o'quv fanlari uchun umumiy bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni va birinchi navbatda o'quv fanlari o'rtasidagi g'oyaviy bog'liqlikni o'zlashtirish hamda murakkab metodlarga asoslanadigan elementar o'quv ko'nikmalarini shakllantirish..

- umumlashtirilgan o'quv materiallari asosida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni to'g'ri qo'llay olishga nisbatan munosabatni shakllantirish, bunda turkumlararo aloqadorlikni anglash va o'quv fanlarini mukammal bilish alohida ahamiyatga ega.

- fan asoslarini amaliyotda mujassamlashtirgan holda qo'llashda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonida integratsiyalangan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan materiallarning aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham va yig'iq ekanligi, undan tashqari o'quv materialini o'rganishning tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan: 1- va 2-sinfidagi "Atrofimizdagi olam" kursining barcha mavzulari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. 3- va 4- sinfdagi "Tabiatshunoslik" darslari "Atrofimizdagi olam" kursini davom ettiradi. Uning dasturiga tabiat va insonlar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish kiritilgan. O'quvchilar tomonidan atrof olamni o'rganish, o'qish, nutq o'tsirish, matematika, mehnat ta'limi darslarida davom etadi. Shunday ekan, "Atrofimizdagi olam" kursi predmetlararo aloqalar o'qituvchiga barcha o'qitilayotgan darslarda atrof olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ish olib borishga imkon beradi. Boshlang'ich maktabdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl fanlari bilan uzviy bog'liq, bu kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o'rganishga bo'lgan faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turish kerak.

Bu o'quvchilarga hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi.

Bu holatda nutq o'stirish erkin sharoitda, hozir o'qilayotgan obyektlarga bo'lgan jonli qiziqish asosida o'tadi.

Tabiatshunoslik, o'qish, husnixat va matematika nutq o'tsirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

G. Petsalotsi ta'kidlaganidek "...aql notinch sezgili idrok qilishdan aniq tushunchalarga ko'tariladigan" manbadir. Bu tushunchalarni anglash esa nutq san'ati bilan birga yuradi. Erkin tabiat obrazlari bolada mantiq bilan birga ta'sirchanlikni ham rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilar uchun tushunarli va olingan bilimlarni yangi o'quv sharoitida ishlata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

- tabiatda mavjud bulgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;
- "tabiat –inson" sistemasida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiya shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish;
- o'quvchilarda sistemalashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish;
- tabiatning obyektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarining, qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarni shakllantirish;
- bilim, ko'nikma, malaka sistemasini ishlab chiqish;
- maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyaning ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va faktlar majmuasi, bir- biriga yaqin fanlarning birlashuvi;
- maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivjlantirishda albatta, o'qitish tamoyillariga rioya qilinishi shart.

Didaktik tamoyillar ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish prinsiplaridir. M.N.Skatkinning ta'kidlashicha, "o'qitish tamoyili o'qituvchi va o'quvchining bir maqsadga yo'naltirilgan hamkorligi hamda shu hamkorlik natijasida ko'zlangan maqsadga erishishi"dir. O'qituvchining kasb mahorati, o'quvchining o'rganuvchan faoliyatini bir qolipga solib, maqsadga erishishini ta'minlaydigan qoidalar ta'lim jarayonida didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Ilmiylik tamoyili - bu faqat ta'lim mazmunida yangi ilmiy yutuqlarni aks ettirish bilan chegaralanmasdan, balki ilmiylik bizning fikrimizcha, u yoki bu fanning asosiy qismini tashkil etishi, o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olib, o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish lozim. Dars jarayonida bilim o'rganish faoliyat natijasi sifatida emas, balki faoliyat jarayoni sifatida e'tirof etilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlaridan egallagan bilimlarini fanlararo aloqadorlik asosida o'z tajribasida sinab ko'radi va uni qo'llash usullarini topadi. Shu asosda o'qitish va tarbiyalashning ilmiyligiga erishiladi.

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. Boshlang'ich sinflarda ijtimoiy- gumanitar turkumdagi o'quv fanlari asosida o'rganiladigan bilimlar o'quvchilar ongiga ikki tomonlama singdiriladi: nazariy hamda amaliy. Demak, o'quvchilar fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarning nazariy hamda amaliy tomonlarini egallab olishlari kerak. Mana shundagina nazariya va amaliyotning birligi tamoyili ta'minlanadi. Amaliy yo'nalganlik bilimning funksional tomonini ochib berishni ko'zda tutadi, bu o'quvchilarda dunyoni yaxlit tizimli tushunish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Amaliy topshiriq pedagogik jihatdan muhim afzallikka ega, bu esa boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi asosida o'qitish jarayonida ulardan muntazam foydalanish samaradorligini oshiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu afzalliklarni o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini o'qitish jarayoniga rasman kiritish yo'li bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Ular ma'lum talablarni bajargandagina o'quv predmetlarining mazmuni turli fanlarni o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, dars jarayonida amaliy mashg'ulotlar juda ko'p vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ularni o'tkazishda faqatgina erishilayotgan afzalliklar, sarflanayotgan vaqt yetarlicha foyda berganida va amaliy mashg'ulotlar, nazariy materiallarni o'zlashtirish jadallashgan holdagina o'zini oqlaydi.

Ta'lim-tarbiyaning muntazamliligi tamoyili o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy mafkura va milliy g'ururga sadoqat kabi ko'plab tuyg'ularni qaror toptirishdan iborat. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yosh avlod iymon- e'tiqodini mustahkamlash, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol inson qilib tarbiyalash, tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarimizning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilishni qaror toptirish, ularni zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan komil insonlar bo'lib yetishishiga ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash ta'kidlangan. Azaldan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor berib kelinadi va bugungi kunda mazkur e'tibor yanada kuchaymoqda.

O'.Q.Tolipov o'z tadqiqotlarida tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini belgilab bergan. Uning fikricha, o'quvchi ta'lim jarayoniga yetakchilik qilsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi sifatida asosiy mavqeni egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan, u tarbiyachi- o'qituvchining yordamiga muhtoj. Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish, ijobiy fazilatlarini ularda tarkib toptirishda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'rni beqiyos. Ushbu o'quv fanlari doirasida o'rganilayotgan, tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi har bir

mavzu, albatta, matematik tushunchalarsiz o'quvchilar ongiga singdirilmaydi. Matematik tushunchalar yordamida voqea-hodisalar o'quvchilarning ongiga o'rnatiladi.

O'qitishda tarixiylik tamoyili o'rganilayotgan o'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'lim mazmunini tanlashda tarixiylik tamoyiliga amal qilinsa, o'rganilayotgan o'quv materiali boyitiladi, o'quvchilar tomonidan yangi mavzuning puxta o'zlashtirilishiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik asosida mazmun jihatidan o'xshash mavzularning ketma-ketlikda bayon etish imkoniyati tug'iladi. Natijada bilimlarni yaxlit bir butunlikda o'zlashtirish ehtiyoji ta'minlanadi. O'qitishda tarixiylik tamoyili didaktikshunos olimlar tomonidan XX asrning 50-yillarida umumdidaktik tamoyillar tasnifiga kiritilgan. Har bir millat o'z o'tmishi, milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradi.

Didaktikada dars jarayonida yangi mavzuni tez va sifatli o'zlashtirish taqozo etiladi. Zero, **o'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili** qisqa va mazmunli dars o'tishga borib taqaladigan didaktik hodisadir. Fanlararo aloqadorlik asosida har bir dars jarayonida bir necha darslarning o'xshash mavzularidan misollar keltirib, foydalanish ko'p vaqtni talab qiladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv predmetidan dars beradigan o'qituvchi bir soatlik dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuni nihoyatda vaqtni tejagan holda, tez va mazmunli tarzda o'quvchilar ongiga etkaza olishi, ular xotirasida o'tilgan mavzuning asosiy komponentlarini saqlanib qolinishiga erishishi lozim. Bunda o'quvchining darsga nisbatan qiziqishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchining bilishga moyilligi, intilishi, havasi, ehtiyoji didaktikada bir so'z bilan "motivatsiya" deb ataladi. O'.Yo'ldoshev motivatsiyani didaktik tamoyil sifatida talqin etib, shunday deydi: "Motivatsiya-o'quv bilish faoliyatida o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, uni vujudga keltirish o'qituvchidan ulkan mahorat talab etadi. Motivatsiya-o'quv jarayonining eng muhim unsuri va ayni vaqtda dars jarayonini jadallashtirishda yetakchi omil hisoblanadi". Motiv o'quvchining bir maqsad sari intilishini mustahkamlaydi, maqsadga erishish uchun izchil va dadil harakatlanishini ta'minlaydi. Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo'lib, u o'quvchilarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'rganilishida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta - uyg'otuvchi, yo'naltiruvchi, fikr uyg'otuvchi vazifalaridan foydalanadi.

Boshqa o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan va qo'llaniladigan atamalar, o'quv materiallarining xususiyatlari, ta'lim vositalari, o'quv materialini tanlash qonuniyatlari, o'quv fanlararo aloqadorlik xususiyatlari belgilab berilishi kerak. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish davomida nazariy bilimlarni qo'llay olishlari kerak. O'quv materiallari hajmini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu albatta, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jismoniy va aqliy mehnat o'quv materiallarini idrok etish jarayonining rag'batlantiruvchi omili ekanligini hisobga olishi lozim. Shuning uchun o'quv jarayonini o'quvchilarning yoshi va fiziologik imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ularda o'quv materialiga nisbatan qiziqish uyg'otish va diqqatini o'zlashtirishga jalb etish darkor. O'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari muntazam murakkablashib, o'quv va amaliy masalalarni yechish jarayonida kengayadi. Ushbu murakkablashish ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Didaktik tamoyillar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun quyidagi vositalar talab qilinadi: o'quv anjomlari, texnik vositalar, modellar. Shu bilan bir qatorda mahalliy omillarni hisobga olish, foydalaniladigan vositalarni tanlash ularning xususiyatiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash kerak. Masalan, o'quv fanlararo aloqadorlik qonuniyatlariga binoan amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq real vaziyatlardan foydalanish asosida tashkil etilishi ham mumkin.

O'quv fanlararo aloqadorlikning barcha imkoniyatlaridan didaktik tamoyillarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish o'quvchilarning nazariy-amaliy faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda didaktik tamoyillar amaliy topshiriqlarini bajarish, o'rganilayotgan nazariy hodisani to'liq tasavvur qilish imkonini beradi. Bu didaktik tamoyillar o'quv predmeti mazmuni haqida ko'rgazmali tasavvurni shakllantirishda asos hisoblanadi.

O'quv fanlararo aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga qo'yidagi didaktik talablar qo'yiladi:

– fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

– fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish

jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

1. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi. Masalan, o'qish darslarida qish fasliga doir she'r yoki matnni o'qishdan oldin o'qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog'liqligi haqida "tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlarni o'rgandik. Ushbu she'r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan" degan fikr bilangina cheklansa, unda o'quv fanlari o'rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo'ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. O'quv fanlararo bilim va tushunchalarni tizimlashtirish uchun alohida o'quv mavzulari bo'yicha umumlashtiruvchi jadvallarni tuzish maqsadga muvofiqdir (yoki fanlararo turli mavzudagi o'quv muammolari bo'yicha).

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

3. O'quv fanlararo aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

4. Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosga ega bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishni taqozo qiladi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

5. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

– **Maqsadli bosqichda** o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligidagi predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobilyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

– **Isbotlash bosqichida** o'qituvchi o'quvchilar dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.

– **Faoliyatning mazmun bosqichida** o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.

– **Vositalar tanlash bosqichida** o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

– **Keyingi bosqich - natija.** O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirishlarni amalda qo'llaydi.

– **Nazorat qilish bosqichida** o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladilar.

Tekshiruvlar ko'rsatishicha integral yondoshuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

1. Everistik suhbatlar.
2. Umumiy suhbatlar.
3. Ekskursiyalar.

4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'tsiriish uchun yozilgan ijodiy ishlar.

5. Ta'limning ko'rgazmali, metodlari.
6. Mustaqil ishlar.
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish.
8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar).
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish.
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);

11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi.

Boshlang'ich sinflarda matematikani ona tili bilan bog'lab o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga doir tushunchalarni berishda nutqiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Masalan, tenglamalarni yechish jarayonida o'quvchilar diqqatini noma'lumni topish bilan birgalikda kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalanishga ham qaratish mumkin.

Adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2003.
2. Ahlidinov R.Sh. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv dasturlarini yaratishdagi izlanishlar. DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar. //Seminar materiallari. XTV ning ilmiy maqolalar to'plami. -Toshkent, 2002. 17-24 betlar.
3. Musayev U. Integratsiya - ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi. //Xalq ta'limi jurn. 2002, № 6. 4-7-b.
4. Musayev U. Q. Umumiy o'rta ta'lim jarayonini liberallashtirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari. //Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. -Toshkent, 2004.- 130 bet.
5. Musayev P. O'quv fanlarining funksional vazifasi va ularni integratsiyalash masalalari. DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar. // Seminar materiallari. XTVning ilmiy maqolalar to'plami. -Toshkent, 2002.

Нодира АДIZОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси

БУХОРО ТУМАН ТОПОНИМИЯСИНИНГ МАВЗУИЙ-НОМИНАТИВ ТАСНИФИ

Мазкур мақолада топонимика фанининг долзарб масалалари, жумладан, Бухоро тумани микротопонимларининг этимологияси ҳақида фикр юритилади.

Таянч сўзлар: *топоним, ойконим, жой номи, ономастика, топонимия, микротопонимия, содда топоним, мураккаб топоним, гидроним.*

В данной статье рассмотрены вопросы изучения основных направлений исследования микротопонимов Бухарского района.

Ключевые слова: *топоним, ойконими, название местности, ономастика, топонимия, микротопонимия, простые топонимы, сложные топонимы, гидроним.*

The article deals with the issues concerning the studies of the main directions in researching microtoponyms of the Bukhara region.

Key words: *typonym, oykonym, place name, Onomastics, Typonymics, Microtyponymy, simple typonym, complicated typonym, hydronym.*

Топонимлар тилшунослик, география, тарих, геология каби фанларнинг ўрганиш объекти ҳисобланади. Уларда халқ ҳамда эл-юртнинг тарихи – тақдири ўз ифодасини топган. Жой номлари қадим тарихга эга бўлган элат, миллат ҳамда халқларнинг ўзига хос ноёб ёдгорликларидан бири саналади. Сабаби, уларнинг ўзи бир олам тарих ҳамда тақдирни ифодалаб туради. Ономастика тилшуносликнинг атоқли отлар ҳақидаги алоҳида бўлими бўлгани каби, унинг бир соҳаси бўлган топонимикада топонимлар ва улар луғавий асосларининг этимологик тадқиқини амалга ошириш ҳам синхрон, ҳам диахрон ҳолатда катта назарий, амалий аҳамиятга эга.

Мақола материаллари ва методлари. Мақола учун таҳлил объекти қилиб Бухоро тумани топонимияси бўйича 2017-2020 йиллар давомида тўпланган 1450 дан ортиқ топонимик материаллар олинди. Ушбу материал туманининг Кулонхона, Дехча, Арабхона, Хонабод, Талалиён, Работак, Новметан, Подшохи, Хумин, Боғдашт, Зарманок, Работипоён ва бошқа қишлоқлар ҳудудидан, шунингдек, уларга ёндош ҳудудлардан тўпланган. Мавзунини ёритишда тасвирий, тарихий, тарихий-қийсий илмий усуллардан фойдаланилди.

Асосий қисм. Мақолада Бухоро тумани топонимларининг лисоний-этимологик ҳамда морфемик тадқиқига қаратилгани бўлса-да, жой номлари ҳақида бугунгача амалга оширилган тадқиқотларига умумий; ҳам лингвистик, ҳам географик; тарихий ҳамда лингвистик; изоҳли ва этимологик жиҳатлардан тадқиқ этилган ишлар сифатида тўхталиш ўринлидир.

Ушбу тадқиқотда топонимларнинг этимологик таҳлили ҳақида турли тамойил ҳамда усулларга, шунингдек, тадқиқотни амалга оширишга оид масалаларга жиддий эътибор берилди. Улар топонимларнинг этимологик таҳлили мисолида далиллар билан асосланди. Шу сабабли, бирор усул, омил ёки тамойил ҳақида гапирганда бир ёхуд бир неча топонимнинг этимологик таҳлиллари намуна сифатида берилди. Шу билан бирга этимологик таҳлил этилган ўша топонимга бошқа тамойил, усул ва омиллар ҳам амал қилиши мумкинлигини рад этмаймиз. Топонимларнинг этимологик тадқиқи жараёнида лингвистик йўналиш географик, тарихий йўналишлар билан биргаликда, ономастик тадқиқотларнинг муҳим қирраси ҳисобланади.

Мазкур қиррани мантиқий изчиллик билан мукамал ёритиш учун топонимларнинг луғавий асосларини белгилаш ҳамда этимологик тадқиқиди ўрганилиш шартли сифатида қуйидагилар белгиланди: топоним ва улар луғавий асосларининг этимологик тадқиқига оид ёндош масалалар; топоним ва улар луғавий асосларининг этимологик тадқиқини таъминловчи омиллар: топоним ва улар луғавий асосларини этимологик тадқиқ қилишнинг тамойил ҳамда усуллари; топонимларнинг этимологик тадқиқи. Ёритилиши мўлжалланган бу масалаларнинг ўрганилиши ҳақида ҳар бир бобнинг бошланишида алоҳида тўхталинган.

Топонимлар ва улар луғавий асослари этимологик тадқиқи йўсинлари сифатида тақдим этилаётган тамойил, усул, омил ва мотивланиш масалалари бошқа фанлардаги шундай масалалардан мазмун жиҳатдан фарқ қилади. Ҳар бир фан ёки соҳанинг ўрганиш объекти, предмети, тушунчавий базаси бўлгани каби ономастиканинг, шу жумладан, топонимиканинг ҳам ўзига хос хусусиятлари

бор. Муайян бир фандаги тамойил, усул, омил ва мотивланиш хусусиятларини иккинчи бир фанга тўғридан- тўғри тадқиқ қилиш ўзини оқламайди. Ўрганилаётган соҳанинг талабларидан келиб чиқиб, уларга ниманидир кўшиш керак ёки улардан ниманидир олиш керак.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ишда қайд этилаётган топонимлар луғавий асослари ва этимологик тадқиқнинг назарий негизи бўлган тамойил ҳамда усуллар, шунингдек, бундай тадқиқда кўрилган масалалар ономастик, топонимик тадқиқотлар олиб бориш учун ёпиқ тизим эмас, балки очик тизимлар мажмуи саналади. Фандаги мавжуд усул ва тамойилларни қаторлаштириб санаб ўтишдан кўра, тўпланган топонимларга таяниб, тадқиқот мавзумиз доирасида зарур бўлган ёндош масалалар, омил, тамойил ва усуллар ҳақида тўхталиш ўринли. Кўйилаётган муаммолар топонимларни этимологик тадқиқ қилиш жиҳатдан ўрганишнинг назарий, амалий қимматга эга бўлган масалалари жумласига киради. Шунинг учун улар бу илмий тадқиқотнинг алоҳида – алоҳида боблари сифатида тадқиқ этилади.

Тадқиқотимиз олдида Бухоро тумани топонимлари бўйича умумий тадқиқ олиб боришнинг йўсинлари сифатида омил, тамойил ва усулларни, шунингдек, шундай тадқиққа оид масалаларни ўрганиб, уларни қўллаш муаммосини ҳал қилиш масаласи турибди. Ишимизнинг тадқиқ объектини ҳар томонлама назарий ва амалий жиҳатдан асослаб беришда амалга оширилган тадқиқотлар маълум маънода ҳам илмий, ҳам амалий асос бўлиб хизмат қилади. Мазкур иш Бухоро туман топонимлари тадқиқ йўсинларини монографик планда ўрганиш бўйича бажарилган дастлабки илмий тадқиқотлардан бири саналади.

Топонимларни тасниф ҳамда тавсиф қилишдан бошланган амалий ва назарий изланишлардан англашилиб турибдики, ономастика, шу жумладан, топонимика соҳасида ҳар томонлама мукамал, яъни ҳақиқатга яқинлиги билиниб турган этимологик таҳлил ҳамда тадқиқотларни амалга ошириш учун, аввало маълум бир назарий тўхтамага келиш зарурлиги кўринади.

Муайян ҳудуд топонимиясини тадқиқ қилиш, аввало, ўша ҳудуддаги топонимик материални тўплашдан бошланади. Бундай материал, шубҳасиз, турли тип номларнинг йиғиндисидан иборат бўлади. Мана шу номларнинг мазмуни, луғавий таркиби номинацион ва грамматик хусусиятларни аниқлаш учун, ўрганилаётган ҳудуд топонимик тизими учун кўпроқ қандай номлар типик эканини белгилаш, уларни муайян гуруҳлар (типлар)га ажратиш лозим бўлади. Мана шу талаб ономастик материални маълум тамойиллар, усуллар асосида таснифлашга олиб келади. Шу сабабли, тадқиқотчилар жой номларини таснифлаш масаласини асосий муаммолардан бири деб баҳолашди: “Атоқли отларни тавсифлаш ва таҳлил қилиш таснифсиз тўлиқ бўлмайди. Тасниф номшунослик ишларида бевосита қатнашади ёки баъзи тадқиқотларда у муаллифнинг асосий мақсади бўлиши мумкин ва тасниф материалда ўз ифодасини топган тури мезонлар асосида амалга оширилади” [10]. Ономастик материални тавсифлаш иши билан, деярли барча номшунослар шуғулланиб келади. Чунки, атоқли отлар таснифи ономастик тизимни таҳлил қилишнинг энг зарурий ва асосий шартларидан биридир. Тадқиқотнинг қанчалик муваффақиятли олиб борилиши материални тўғри таснифлай олишга ҳам боғлиқдир. Тадқиқотимиз жараёнида Бухоро туман топонимларининг куйидаги кўринишлари мавжудлиги маълум бўлди.

1.1. Топонимлар. Қуруқликда жойлашган табиий географик ва сунъий объектлар атоқли оти. Булар куйидаги гуруҳларга ажралади.

1.1.1. Ойконимлар. Бунга қишлоқ, овул, маҳалла номлари киради.

Қишлоқ ва овуллар номи ойконимиянинг таркибий қисми бўлиб, Бухоро туман топонимиясининг асосий қисмини ташкил қилади. Қишлоқ номлари макротопоним ва микротопонимлар тизимининг чегарасини кўрсатувчи ономастик бирлик бўлиб, [3] макротопонимлар гуруҳига киради.

Бухоро туманидаги қишлоқ номларининг аксарияти жуда қадимий, тарихий номлардир ва уларнинг номланиш сабаблари ҳам кўп ҳолда унитилган дейиш мумкин. Чунончи, Юринпоён, Патпут, Лейлак, Тутухушк, Жанафар, Чаппа, Жонбобо, Мижона, Откучи, Обиторатқаби қишлоқлар номи бунга мисол бўла олади.

Куйида қишлоқ номларининг баъзиларини қисқача изоҳини келтираимиз.

АРАБХОНА -тумандаги аҳоли пункти номи. Ўзбекистоннинг кўпчилики вилоятларида учрайдиган қишлоқ ва маҳалла номи. Араблар, Арабон, Арабҳо (Арабо) ва бошқа кўринишдаги атамалари ҳам мавжуд бўлиб, “Араблар қишлоғи”, “Араблар яшайдиган жой” маъноларига эга. Марказий Осиёнинг араблар томонидан босиб олиниши даврдан бошлаб, ундан кейинги асрларда ҳам келиб ўрнашган араблар билан боғлиқ. Бухоро, Вобкент, Жондор, Когон, Ромитан, Пешкў, Олот, Шофиркон, Қорақўл ва Гиждувон туманларида ҳам шу номдаги қишлоқ, маҳалла, гузар мавжуд.

Профессор Т.Нафасов тадқиқотида араблар истиқомат қиладиган аҳоли пунктларида куйидаги тур араблар мавжудлигини қайд этган:

- 1) араб тилини билмайдиган, қарлуқ лаҳжасида гаплашадиган араблар;
- 2) араб тилини биладиган, ўзбекча сўзлашадиган, тожик тилини билмайдиган араблар;
- 3) араб ва тожик тилини билмайдиган, ўзбекча сўзлашадиган араблар;
- 4) араб тилини билмайдиган, тожик ва ўзбек тилларида сўзлашадиган араблар.

Сўнгги икки тур араблар яшайдиган аҳоли пунктлари Арабхона деб аталади. этник таркиб жойларнинг номланишига асос бўлган [6].

БУХОРО - тумандаги жой номи. Бухоро қадим тарихга эга, ёдгорликларга бой бўлган шаҳар. Наршахий Бухоронинг *Нумижкат*, *Бумискат*, *Мадинат ус-Суфрия*, яъни “*Мис шаҳар*”, *Мадинат ўт-тужжор*, яъни “*Савдогарлар шаҳри*” деган номлари борлигини айтади: “Бухоро” деган ном у номларнинг ҳаммасидан маъқулроқдир, Хуросон шаҳарларидан биронтаси ҳам бунчалик кўп номга эга эмас. Бир ҳадисда Бухоро номи Фоҳира бўлиб қолган. Чунки қиёмат куни Бухоро шаҳри ўзида шахидларнинг кўплиги билан фахр қилади. Халқда Бухоро – Бухора деган ривоят ҳам бор.

Бухоро – санскритча “Вихара” сўзидан олинган бўлиб, “ибодатхона” маъносини билдиради, деган фикр ҳам бор. Археологик маълумотларга кўра, Бухорога милоддан аввалги 1 минг йиллик ўрталарида асос солинган, Унинг номи илк ўрта аср Хитой манбаларида турлича (Ан, Анси, Анго, Бухо, Буку, Бухе, Бухаер, Бухуаер, Бухала, Бухуала, Фухо, Пухуала ва бошқалар) аталган. Бу атамалардан аввалги учтаси Бухоронинг хитойча номлари бўлиб, қолгани “Бухоро” сўзининг хитой тилидаги талаффузидир... Кейинги тадқиқотларда бу атама суғдийча “буғ” ёки “баг” (“тангри”) ҳамда “оро” (“жамол”) сўзларидан иборат бўлиб, “тангри жамоли” деган маънони англатади, деган фикр илгари сурилмоқда [12].

В.А.Лишиснинг фикрича, Вихара сўзи сўғд тилида “пархар” шаклида кирган. Ҳофиз Таниш ёзишича, “Бухоро” сўзи *бухор* сўзидан келиб чиққан бўлиб, оташпарастлар тилида “илм макони” демакдир. Бу талаффуз уйғур ва хитой бутпарастларининг тилига яқиндир, чунки улар сиғиниш жойлари бўлган маъбудаларни “бухор” деб атайдилар.

Бухоронинг номи аслида Лумижкат бўлган [17].

Бухоро топоними ёлғиз эмас. XI-XII асрларда Балх шаҳри атрофида Навбеҳор дарвозалари бўлган. Навбеҳор “ерта баҳор” эмас, балки “янги ибодатхона” демакдир.

Бухоро шаҳри этимологияси билан Ҳиндистондаги Биҳар штатининг этимологияси бирдир [7]. В.В.Шостакович Сибирдаги Бухоро номли дарёни тилга олади. Бухоро яқинида Дул Бухоро (Жул Бухоро) номли қишлоқ бўлган. Бухоро вилоятларидан бири Бухорхитвар (Нажар-хатвар) деб аталган (Бухоро ҳокимлари “бухорхудот” дейилар эди.) Бекобод яқинида Бухоролик, Жанубий Уралда Бухорча деган сой, Қашқадарё вилоятида (Китоб, Ғузурда) Бухортўпор, Бухори, Хўжабухори номли маҳалла, жойлар бор. Шундай қилиб, Бухоро компонентли топонимлар бир қанчадир. Қадимги туркий руник ёзув (Култегинга бағишланган ёдгорликда) Вухарак деган жой номи учрайди. Буқарақ, улис – Бухоро эди. Бу жой номига С.Й.Малов бемалол Бухоро деб изоҳ берган. Академик Б.Я.Владимирсев ўша ёдгорликда сўғд номи ҳам учрашини айтади ва Бухара ҳақиқатан Бухоро деган сўз бўлиб, “ўйрат” (олтой) қахрамонлик эпосларидан бирида бухарин черик, яъни “Бухоро кўшинлари” деган сўзлар учрайди, деб ёзади.

Баъзи бир тадқиқотчилар Бухоро сўзи санскритча эмас, балки эфталитча бўлса керак, деб ҳисоблайдилар. Бунда улар сўғдий ёзма ҳужжатида Бухоро сўзининг бош ҳарфи “п” билан ёзилганини далил қилиб келтирадилар [5].

БОҒИКАЛОН - тумандаги аҳоли пункти номи. Топоним икки қисмдан ташкил топган: боғ(и)+калон. Боғ форс-тожикча сўз бўлиб, *мевали дарахт*, *ток ва гул билан банд ер майдони*; *мевазор ҳамда шаҳардан ташқаридаги қўрғон ва унга ёпишган мевазор*, *токзор жой* маъноларига эга [14]. Калон сўзи ҳам форс-тожикча бўлиб, *ҳажман ва миқдоран улуг*; *балоғатга этган*; *мансабдор*; *вазифаси ёки унвони жиҳатидан устун* каби маъноларда қўлланади [11]. Топоним таркибидаги “и” форсий изофа саналади. Боғ+и+калон – катта боғ. Ҳудудида катта боғ бўлганлиги ёки аҳолиси кўплиги сабабли қишлоқ шундай номланган.

БЕШБЎРИ - тумандаги аҳоли пункти номи. Топоним умумтуркий сўз бўлиб, бой+бўри тарзида шаклланган. Бой сўзининг қадимий маънолари – “улуг”, “буюк”, “улкан”, “юксак ҳажмли”; “муқаддас”, “мўътабар”; “катта мол-мулк эгаси”, “бадавлат” кабилар саналади. Қадимги туркий халқлардаги Умай (аёл, малика-худо, афсонавий аёл-маъбуд, ёш болаларни паноҳида асровчи илоҳ, яратувчи аёл-маъбуда) сўзининг ўзгарган, содалашган шакли “бой” сўзи бўлиши мумкин, дея тахмин этади Т.Нафасов. Бўри – қадимги туркий халқларда тотем, сиғинилган мавжудот. Қадимги туркий ашин қабиласи ўзларини бўридан келиб чиққан деб ҳисоблашган. Бойбўри – улуг бўри, кучли

бўри. Кўнғиротларнинг ва қорақалпоқларнинг бойбўри уруғи мавжуд. Бойбўри – киши исми. Исм ҳам тотем ва уруғ номидан келиб чиққан. Қишлоқ номи уруғ номидан яралган [6].

Умуман олганда, туркий қавмлар таркибида “беш” сўзи қатнашган *бешбола*, *бешкал*, *бешкалтак*, *бешкапа*, *бешкуби*, *бешогоч*, *бешсари*, *бештентак* *бешқозон* каби уруғ номлари кенг тарқалган.

Адабиётлар

1. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол.фан. ном. ... дисс. –Т., 2005-1876
2. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. -Самарқанд, СамДЧТИ, 2005. 57-58 б.
3. Бегматов Э., Орипов Ў. Микротопоним тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.-2000.- №3.-Б, 25-28
4. Латипов Дж. Топонимия города Маргилана и его окрестностей: Автореф. дис. ... канд. филол.. –Т.: “Наук”, 1975.
5. Лившист В.А., Кауфман В., Дьяконов И.М.О древней согдийской письменности Бухары//Вестник древней истории. №-1, 1954, с. 150-163.
6. НафасовТ. Қашқадарё қишлоқномаси. - Т.: “Мухаррир”, 2009. 430 б.
7. Никонов В.А. Введение в топонимику. –М.: “Наука”, 1965. – 179 с.
8. Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф.дис. ... канд. филол.. –Т.: “Наук”, 1978.
9. Подольская Н.В.Словарь русской ономастической терминологии. -С.27
10. Суперанская А.В. Общая теория собственных имен. – М.: “Наука”, 1970. –С.55.
11. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (ибораат аз 2 ҷилд) Ҷилди 1. А – НЗери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов,Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. Душанбе – 2008, 950 с.
- 12.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 2-жилд.–Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2001. -700 б.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 3-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002. -703 б.
- 14.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли, 1-жилд. –М.: “Рус тили”, 1981. -631 б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли, 2-жилд. –М.:“Рус тили”, 1981. -715 б.
- 16.Qorayev S. Toponimika. –Т.:“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2006. -318b.
- 17.Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом, 1-жилд. – Т., 1966. -273 б.

Muxtor PЎЗИЕВБухоро давлат университети
катта ўқитувчиси**ДИДАКТИК ҲОДИСАЛАР ТИЗИМИГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ**

Бу мақолада замонавий таълим жараёни тўғрисида сўз юритилади. Замонавий таълим жараёнида, икки концепция амалий жиҳатдан қўлланиб келмоқда. Мақолада шунингдек шу иккала концепция ўртасидаги фарқлар ва замонавий таълим жараёнининг устун томонлари тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар: дидактик ҳодиса, таълим жараёни, ўқитиш фаолияти, ўқиш фаолити, анъанавий қараш, замонавий қараш, иккита субъект, дарс типологияси, таълимнинг универсал қадами.

В данной статье говорится о современных процессах обучения. В современном процессе обучения практически применяется две концепции. В статье говорится ещё о различии этих двух концепций и о преимуществе современного процесса обучения.

Ключевые слова: процесс обучения, деятельность обучения, деятельность учения, традиционная точка зрения, современная точка зрения, два субъекта, типология урока, универсальный шаг обучения.

It is written about modern educational process in this article. There are two practically supported concepts in modern educational process. In addition, the article deals with the difference between these two concepts and gives information about advantages of modern educational process.

Keywords : didactic event educational process, teaching activity, learning activity, traditional view, modern view, two subjects, course typology, universal step of education.

Дидактик ҳодиса таълим жараёни тизимида маълум вақт ва ўринда содир бўладиган ўзгаришлардир. Ҳар бир дидактик ҳодисанинг шаклланиши ва амал қилиши учун ўқитувчи фаолияти, ўқиш фаолияти, болаларнинг ёши ва тайёргарлик даражасига мос ўқув материали бўлиши шарт. Шу бирликлар ўзаро таъсири, бир-бири билан кесишувидан таълим жараёни актлари, босқичлари, даврлари шаклланади.

Дидактик ҳодисалар ўзига оид маконда зуҳур этилади. Улар амал қиладиган макон таълим жараёни бўлиб, ўзига хос ижтимоий, тарихий, маданий муҳитдир.

Ҳозирги пайтда дидактика соҳасида фаолият кўрсатаётган мутахассисларнинг айримлари таълимни ўқитиш фаолияти тизими шаклида тавсиф қилишса, баъзи бирлари таълимни икки субъект-ўқитиш ва ўқиш фаолиятларининг ўзаро таъсиридан шаклландиган ширкат, шу билан бирга ҳосила фаолият сифатида шарҳланади.

Таълим жараёни тўғрисидаги қарашларни шартли равишда икки гуруҳга ажратамиз: анъанавий ва замонавий қараш.

Таълим жараёнининг анъанавий концепцияси ва унга оид педагогик амалиёт болани, унинг ўқув – билув фаолиятини таълимнинг предмети – объекти сифатида тасаввур этишга асосланган. Анъанавий таълим назарияси ва унга оид педагогик амалиёт ўқувчилар хотирасига мўлжалланган бўлиб унда таълим мақсадларини амалга оширишда болалар фаоллиги тўлиғича тан олинмайди. Бундай қараш дидактика фанининг асосчиси Я.А. Коменскийдан тортиб, ҳозирга қадар давом этиб келмоқда. Ўқувчига унинг фаолиятига тоза доска-tabula rasa деб қараш бутун дунё мамлакатлари педагогикаси, педагогик амалиётига шунчалар сингиб кетганки, ҳатто замонавий педагогик намоёндалари, илғор ўқитувчилар ҳам шу ғоя доирасидан чиқиб кетиша олмаяпти.

Таълим жараёнининг замонавий концепцияси ва унга оид педагогик амалиётда ўқувчига, унинг ўқув- билув фаолиятига таълимнинг субъектларидан бири сифатида қаралади. Бу қараш ўтган асрнинг 70 йилларида машҳур, рус дидакт олими Ю.К.Бабанский тадқиқотларида кўзга ташланган эди. У таълим жараёни моҳиятини тавсифлашда ўқитиш ва ўқиш фаолиятларининг ўзаро таъсиридан келиб чиққан эди. Ю.К.Бабанский илмий-педагогик тадқиқотларида ўқитиш ва ўқиш фаолиятлари ўзаро таъсирини ўрганиб, таълим жараёни таркибий қисмлари, ўқув – тарбия жараёни босқичлари, таълимни оптималлаштириш муаммолари ўрганилди.

“Таълим жарёни, - деб ёзган эди Ю. К.Бабанский, - ўқитиш ва ўқиш нинг оддий йиғиндиси бўлмай, аксинча, таълим вазифаларини амалга оширишдаги бутунлай янги, яхлит ҳодисадир”. Мутахассислар таълим жараёнини атрофлича ўрганиш учун унинг таркибини таҳлил қилишади, акт, босқичларини таълимнинг қадамлари шаклида қайд этишади. “Ҳар бир қадам миниатюрадаги

таълимдир“. Ю.К.Бабанский таълим жараёни моҳияти тўғрисидаги қарашларини қўйидагича давом эттиради“. Жараённинг қадами деганда биз таълим босқичининг маълум вақтда бошланиши ва якунланиши цикли-даврини англаймиз. Таълимнинг ҳар бир қадамида ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро таъсири бошқарилиб, маълум дидактик вазифа ҳал қилинади. Таълим акти ёки босқичи унинг битта типик универсал қадамидир.” Таълимнинг универсал қадами тушунчасини назарда тутиб, Ю.К. Бабанский таълим жараёнини олти босқичга ажратган: 1) таълимни мақсади, вазифасини ўрганиш, 2) маълумот мазмунини синф ўқувчилари реал ўқиш имкониятларига реал ўқиш имкониятлари мўлжаллаб таҳлил қилиш, 3) таълим воситаларини режалаштириш, таълим методлари, ташкилий шакллари оптимал шакллантириш, 4) ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро таъсири ташкил этиш, 5) жорий назорат, 6) таълимнинг маълум босқичида эришилган натижаларни таҳлил қилиш.

Ўтган асрнинг 70 йилларига келиб, таълимнинг икки субъекти – ўқитиш ва ўқишнинг ўзаро таъсири сифатида қараш одат тусини ола бошлади. Бу ғоя, бизнинг кузатишимизча, даставвал В.В.Краевскийнинг илмий ишларида асосланди. Унинг таъкидлашича, таълим категориясини қўйидаги даражаларда тасаввур этиш мумкин. Таълим:

- умумий педагогика даражасида ижтимоий тажрибани ёш авлодга беришнинг алоҳида нуқтаи назари ;

- дидактика даражасида маълумот мазмунини ўргатиш фаолиятида ўқитиш ва ўқишнинг бирлиги, ўзаро таъсири;

- методика даражасида ўқув предмети материалларида ўқитиш ва ўқиш фаолиятларини амалга ошириш мажмуи;

- психология даражасида ўқитувчи ва ўқувчи таъсирининг мажмуи бўлиб, унинг натижасида болаларнинг психикаси, интеллекти янада ривожланади.

В.В.Краевский таълим категориясини дидактика нуқтаи назардан таҳлил қилиб , ўқитиш ва ўқиш фаолиятларини алоҳид-алоҳида шарҳлайди. Ўқитиш ўқитувчи хатти-ҳаракатлари мажмуи эмас, аксинча, ўқитиш фаолиятининг маълумот мазмунига ҳолатига йўналган яхлит ҳолатидир. Бу фаолиятнинг вакили жамоавий субъектдир. Янада оммабопроқ қилиб айтганда, маълумот мазмунини ёшларга бериш билан машғул кишилар фаолиятига нисбатан “ўқитиш” термини ишлатилади. Ўқитиш меҳнатнинг ижтимоий тақсимланишида ўқувчилар зиммасига юклатилган ижтимоий вазифадир. Ўқиш бу фаолият бўлиб, унинг вакили ҳам жамоавий субъектдир. Зеро, меҳнатнинг ижтимоий тақсимланишида ёшлар зиммасига ўқиш, ўрганиш вазифаси юклатилган .

Шундай қилиб, В.В.Краевскийнинг дидактик қарашларида таълим ўқитиш ва фаолиятлари ўзаро таъсиридан шаклландиган, икки субъект – ўқитиш ва ўқиш фаолиятларининг бир-бири билан уйғунлашувида амал қиладиган ижтимоий институт шаклида изоҳлана бошланади .

Ю.К.Бабанский, В.В.Краевский дидактик қарашларида асосланган концепция кейинроқ проф. О.Р.Розиқов илмий изланишларида давом эттирилди. О.Р.Розиқов, аввало, таълимни жараён сифатида шарҳлар экан, жараён тушунчасини қўйидагича изоҳлайди. “-Инсон тафаккурининг ўрганилаётган объект билан дуч келиши.“ Таълимни макон ва замон контекстида тасаввур этиб таълим жараёни тушунчаси ишлатилади. Таълим жараёнининг зухур этиши ва амал қилиши икки дахлдор фаолиятнинг иштирокини мутлақо тақоза этади.

О.Р.Розиқовнинг дидактик изланишларида таълим жараёнининг қатор жиҳатлари асосланди, таълим болалар ўқув мақсадлари тизими аниқланди. Бу тизим уч компонентдан иборат: бош мақсад, оралиқ мақсад (ДТСларни ўзлаштириш), ҳаракатга тенг мақсад. Таълим жараёнида болаларнинг мустақил ўқиш, ўрганишига оид фаолиятларининг бошланғич нуқтаси ҳаракатга тенг мақсадлар эканлиги исботланди. Таълимнинг самарадорлиги муаммосига аниқликлар киритилди. Таълимнинг самарадорлиги қўйилган мақсад билан эришилган натижага кўра аниқланиши зарурлиги уқтирилиб, самарадорликни таълим жараёни контекстида ва таълим сифатини эса ўқиш фаолияти контекстида таҳлил қилиш методологияси ишлаб чиқилди. Педагогик амалиётни янги шарҳлаш имконияти яратилди. Анъанавий таълим назариясига оид педагогик амалиётда ўқитиш фаолияти хусусиятларидан келиб чиқиб ўқув-тарбия жараёни ташкил этилаётган бўлса, эндиликда педагогик амалиёт ўқитиш ва ўқиш фаолиятлари ўзаро таъсири нуқтаи назардан ташкил этилиб шарҳланиши исботланди. Дидактик ҳодисаларни ўрганишга янги ёндашиш методологияси ишлаб чиқилди. Унга кўра ҳар бир дидактик ҳодиса ҳам жараён, ҳам воситавий тафсирлаш учун имкониятлар яратилди. Мақсад, восита ва натижа категориялари синтезида дарс типлари ўрганишнинг тамоман янги типологияси асосланди. Шу типологияга кўра ўқув материалларини тўлиқ ўзлаштириш блоклари ажратилиб, шу блоklarга мос тўрт хил дарс типи қатъийлаштирилди. Агар анъанавий дарс типологиясида олти хил дарс типологияси ажратилган бўлса, О.Розиқов ишлаб чиққан назарий

қарашларда – дарс типологиясида дарс типлари тортага олиб келинди. Бу дарс типларига мос таълим воситаларини танлаш ишларини бир қадар осонлаштиради.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, ҳар бир дидактик ҳодисанинг шаклланиши ва амал қилиш учун уч нарсанинг иштироқи шарт: болаларнинг ўқиш-ўрганишга муносабатини таҳлил қилган, уларнинг реал ўқув имкониятларини биладиган ўқитувчи фаолияти; билишга иштиёқманд, ўзлаштириш қийинчиликларини бартараф этишга тайёр ўқувчилар фаолияти; ўқув дастурлари, дарсликларига киритилган, Давлат таълим стандарт (ДТС)ларида кўзда тутилган таълим мазмуни. Шу таркибий қисмларнинг ўзаро таъсири, бир-бири билан кесишуvidан таълим жараёни акт, босқич, давр шаклида амал қила бошлайди. Таълим жараёни вақт кўрсаткичига ҳам эгадир. Ҳар бир акт босқичнинг бошланиш, давомийлик ва якунланиш нуқталари бўлганидек, ҳар бир даврнинг ҳам бошланиш, давомийлик ва якунланиш ўлчовлари бор. Худди шундай, таълим жараёни актлари, босқичлари ўртасида интерваллар мавжуд бўлганидек, даврлар ўртасида ҳам интерваллар – осойишталик нуқталари амал қилади. Ҳаракат ва осойишталик таълим жараёнида амал қиладиган дидактик ҳодисаларнинг барчаси учун муштарак бўлиб, улар ўқувчининг маълум натижага эришганини ҳам англатади. Ўқувчилар таълим жараёни акти, босқичларида макронатижаларга, даврларида макронатижаларга етиб келади.

Адабиётлар

1. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. Общедидактический аспект. -М. “Педагогика”, 1977. -с 254.
2. Краевский В.В. Проблема научного обоснования обучения. -М.: “Педагогика”, 1977. -с 264
3. Розиков.О. ва бошқалар. Таълим технологияси. -Т.: “Ўқитувчи”, 1999. -71б.
4. Розиков.О. ва бошқалар. Дидактика.-Т., 1998. 256-б

Шоира ҚУРБОНОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТУРЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг меҳнат таълими дарсларини амалга оширишда таълим технологияларидан фойдаланишнинг самарали жиҳатлари очиб берилган. Ўқувчилар ўзлари бажараётган у ёки бу нарсани тайёрлаш йўллари ўрганиши билан бир қаторда ҳар бир кузатиб ўрганаётган нарсаларини турлича муаммолар орқали бажаришнинг янги ва усуллари ҳақида фикр юритилган.

Калим сўзлар: педагогик технология, педагогик ёндашув, таълим технологияси, кейс стади, балиқ скелети, нилуфар гули, ақлий ҳужум, бумеранг технологияси, ўйинли технологиялар.

В статье раскрываются эффективные аспекты использования образовательных технологий при реализации уроков трудового воспитания учащихся начальных классов. В дополнение к изучению того, как подготовиться к тому, что они делают, ученики думают о новых путях и средствах для достижения того, что они изучают, наблюдая за множеством проблем.

Ключевые слова: педагогическая технология, педагогический подход, образовательная технология, тематическое исследование, рыбий скелет, цветок лилии, умственная атака, технология бумеранга, игровая технология.

The article reveals the effective aspects of the use of educational technologies in the implementation of labor education lessons for primary school students. In addition to studying what they are learning, they observe multiple problems.

Keywords: educational technology, pedagogical approach, educational technology, case study, fish skeleton, lily flower, mental attack, boomerang technology, game technology.

Бугунги кунда жамиятимиз учун ҳар томонлама ривожланган фан-техника тараққиётини ҳаётга татбиқ эта оладиган етук малакали кадрлар тайёрлаш масаласи турибди. Мактаб таълимнинг ҳозирги босқичида ўқувчиларни меҳнатга тайёрлаш ўсиб келаётган ёш авлоднинг таълим-тарбиясидаги энг зарур вазифалардан бири ҳисобланади, чунки меҳнат ҳар қандай ривожланиш ва тараққиёт жараёнининг асосидир. Қўл меҳнати жараёнида болалар асосан ишлаб чиқариш технологияси чиқиндилари (қоғоз, картон, сим, ёғоч, газмол парчаси в.б.), табиий ва сунъий хом ашёлар (лой, пластмасса, пластилин, елим в.б.) билан кенг истеъмол моллари ва халқ хунармандчилиқ маҳсулотлари тайёрлаш учун маҳаллий хом ашёлар, электр, радиотехника ва ҳоказолар билан ишлашга ўрганадилар. Буларнинг ҳаммаси ўқувчиларга қўл ашёлари билан ишлаш, ҳар хил хом ашёлардан фойдаланишнинг маълум тажрибасини тўплашга имкон беради. Бу эса меҳнатнинг кадрини ва маъносини тушунишга, меҳнат кишиларига ҳурматда бўлишга, меҳнат ҳамда касбнинг у ёки бу турига қизиқишни шакллантиришга ёрдам беради.

Таълим ва тарбия жараёнида интерфаол методларнинг ўрни ва имкониятларидан тўғри, аниқ, ўринли фойдаланиш кўникма ва малакаларини ҳосил қилиш, мантиқий-ижодий тафаккурни ривожлантириш, коммуникатив саводхонликни ошириш, миллий ғояни сингдириш, шарқона тарбияни шакллантириш, шахсни маънавий бойитишдан иборатлиги таъкидланган. Педагогик технология – бу ўқитувчининг ўқитиш воситалари ёрдамида талабаларга муайян шароитда янги ҳақиқатни таъсир кўрсатиш жараёнидир [1].

Интерфаол метод-таълим жараёнида ўқувчилар ҳамда ўқитувчи ўртасидаги фаолликни ошириш орқали ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштиришини фаоллаштириш, шахсий сифатларини ривожлантиришдан иборат. Интерфаол методларни қўллашнинг дарс самарадорлигини оширишга интерфаол таълимнинг асосий мезонлари: норасмий баҳс-мунозаралар ўтказиш, ўқув материални эркин баён этиш, ифодалаш имконияти, ўқувчилар ташаббус кўрсатишларига имкониятлар яратилиши, кичик гуруҳ, катта гуруҳ, синф жамоаси бўлиб ишлаш учун топшириқлар бериш, ёзма ишлар бажариш ва бошқа методларнинг таълим тарбиявий аҳамияти катта. Интерфаол методларни машғулот мақсадига мувофиқ танлаш мақсадга мувофиқдир. Тўғри танланган методларни қўллаш машғулотнинг қизиқарли ва самарали бўлишини таъминлайди.

Интерфаол методлар конструктивизм назарияси билан боғлиқликлари. Конструктивизмнинг қуйидаги асосий хулосалари: ўқувчи ўзи ўрганиши керак, акс ҳолда унга ҳеч ким ҳеч нарсани ўргата олмайди; ўқитувчи ўқувчиларга билимларни “кашф қилишга” ёрдам берадиган жараённи ташкил қилади;

Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири, ортикча рухий ва жисмоний куч сарфламай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. Қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни ўқувчиларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ҳамда малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидаси юксак педагогик маҳоратни, таълим жараёнига нисбатан янгича ёндашувни талаб этади. Бугунги кунда бир қатор ривожланган мамлакатларда ўқувчиларнинг ўқув ва ижодий фаолликларини оширувчи ҳамда таълим-тарбия жараёнининг самардорлигини кафолатловчи педагогик технологияларни қўллаш борасида катта тажриба тўпланган бўлиб, ушбу тажриба асосларини ташкил этувчи методлар интерфаол методлар номи билан юритилмоқда. Қуйида уларнинг турлари ва моҳияти тўғрисида тўхталиб ўтилади.

Аклий ҳужум технологияси. Аклий ҳужум технологияси бирор муаммони ечишда ўқувчилар томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали маълум бир ечимга келадиган самарали усуллардан биридир. Аклий ҳужум услубини қўллашда ўқитувчи ўқувчиларини тўплайди, улар олдига бирор муаммоли вазиятни ечиш бўйича ўз фикр ва мулоҳазаларини билдиришларини сўрайди. Мазкур босқичда ўқувчилардан ҳеч бири бошқа қатнашувчиларнинг ғояси, фикрини муҳокама қилиш ёки баҳолаши мумкин эмас. Билдирилган ҳар қандай ғоя ва фикрлар ҳисобга олинади, қанча кўп фикр ва ғоялар билдирилса шунча яхши. Билдирилган ғоя ва фикрларни тўлдириш, кенгайтириш, қайта ўзгартириш мумкин. Ғоялар ёзилган варақлар деворга осиб қўйилади. Берилган ғоялар асосида муаммони ҳал этишга ёрдам берадиган ечимни тиклаш учун муҳокама ўтказилади. Бу ҳақиқатан ҳам ўқувчиларнинг таълим жараёнида фаол иштирок этишлари, турли ғояларни баён этиш чоғида бошқаларни ҳам қизғин ишга йўллашлари, илҳом билан ишлашларига имкон берувчи ва унга рағбатлантирувчи самарали методдир. Ўқитувчи мавзу ёки саволни ажратиб олиши зарур, кейин эса ўқув фаоллиги 5-10 дақиқа оралиғидаги вақт чегарасида енгиллаштирилади.

Тармоқлар (Кластер) технологияси. Фикрларнинг тармоқланиши бу педагогик стратегия бўлиб, у ўқувчиларни бирон-бир мавзунини чуқур ўрганишларига ёрдам бериб, ўқувчиларни мавзуга тааллуқли тушунча ёки аниқ фикрни эркин ва очиқ равишда кетма-кетлик билан узвий боғлаган ҳолда тармоқлашга ўргатади. Шунингдек, ўтилган мавзунини мустаҳкамлаш, яхши ўзлаштириш, умумлаштириш ҳамда ўқувчиларни шу мавзу бўйича тасаввурларини чизма шаклида ифодалашга ундайди.

Бумеранг технологияси. Бумеранг услуби бир машғулот давомида ўқув материални чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин эгаллашга йўналтирилган. У ўз ичига оғзаки ва ёзма иш шакллари камраб олади ҳамда бир машғулот давомида ҳар бир иштирокчининг турли топшириқларни бажариши, навбат билан ўқувчи ёки ўқитувчи ролида чиқиши мумкин. Бумеранг технологияси танқидий фикрлаш, мантиқни шакллантиришга имконият яратади: хотирани, ғояларни, фикрларни, далилларни ёзма ва оғзаки шаклларда баён қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Кичик гуруҳларда ишлаш технологияси. Ўқитувчи ўқувчилар билан кичик гуруҳларда ишлашни ташкил этиши учун фаолият йўналиши аниқланади. Муаммодан бир-бирига боғлиқ бўлган масалалар белгиланади. Мавзунинг керакли асоси яратилади. Мавзунинг ўрганишдан олдин ўқувчилар мазкур муаммо ҳақида тушунчага эга бўлишлари лозим. Ўқувчилари кичик гуруҳларга 3-5 кишидан бўлинишлари керак. Ўқитувчи томонидан ўқувчиларга аниқ кўрсатмалар берилади. Берилган муаммони ечишда ўқитувчи ўқувчиларни қўллаб-қувватлаб ва йўналтириб туради. Мавзу сўнгида муҳокама қилинади.

“Блиц-сўров” методи. Блиц-сўров (инглизча “блиц” - тезкор, бир зумда) методи берилган саволларга қисқа, аниқ ва лўнда жавоб қайтарилишини тақазо этадиган метод саналади. Унга кўра ўрганилган мавзу, муайян таркибий қисмлар моҳиятининг очиқ берилишини талаб этадиган саволларни ишлаб чиқади ва ўқувчиларнинг эътиборларига ҳавола этади. Ўқувчилар берилган саволга қисқа муддатда, лўнда ва аниқ жавоб қайтара олишлари лозим. Гуруҳ ёки жуфтликда ишлашда бир нафар ўқувчи берилган саволга жавоб қайтаради, унинг шериклари ёки гуруҳдошлари жавобни тўлдиришлари мумкин. Бироқ, фикрлар такрорланмаслиги лозим. Методни қўллашда мавзуга доир таянч тушунчалар, асосий ғояларнинг моҳияти талабалар томонидан оғзаки, ёзма ёки тасвир тарзида ёритилиши мумкин.

“Т-жадвал” технологияси. Бу технологияда ўрганилаётган мавзу ёки масаланинг муайян жиҳатини ёритиш мақсадида бир неча асосий белги, таянч тушунчаларнинг мазмунини бир-бири билан ўзаро солиштириш, қиёслаш асосида очиқ берилади. Кўп ҳолларда мазкур технология мавзу асосини ташкил этувчи бир неча ҳолатларнинг афзалликлари ёки камчиликларини, самардорлик ва самарасизлик даражасини, бугунги кун ва истиқбол учун аҳамиятини таққослаш мақсадида қўлланилади. Ушбу технологияни қўллаш қуйидаги тартибда амалга оширилади:

- 1) ўқувчилар эътиборига ўрганиладиган мавзу, масала ёки топшириқ ҳавола этилади;
- 2) ўқувчилар “Т-жадвал” методини қўллаш шартлари билан таништириладилар;

3) ўқувчилар гуруҳ (жуфтлик)ларга бириктириладилар;

4) ажратилган вақт оралиғида гуруҳ (жуфт)ликлар жадвал шаклида берилган топширик моҳиятига кўра қиёсий таққослашни амалга оширади, яъни жадвалнинг чап ва ўнг томонларига масаланинг бир-бирига зид ҳолатларни баён этадилар;

5) гуруҳ (жуфтлик)лар томонидан тўлдирилган жадваллар ўзаро солиштирилади.

Ролли ўйинлар дарсида ўқувчи турли хил характердаги инсон образига қалбан киришиб кетади. Ўйинда ўқувчиларга асосан тугалланмаган вазиятлар акс этган муаммоли саҳна кўриниши роллари берилди. Ўқувчилар ушбу берилган муаммоли ролларни мустақил равишда охирига етказиб ўйнашлари лозим. Театр дастурларидаги ролли ўйинлар бошқа инсонларни тушунишга ўргатади.

“Балиқ скелети” методи. Бу метод ўқувчиларда мавзу юзасидан муайян масала моҳиятини тасвирлаш ва ечиш қобилиятини шакллантиради. Методни қўллашда ўқувчиларда мантикий фикрлаш, мавзу моҳиятини ёритувчи таянч тушунча, маълумотларни муайян тизимга келтириш, уларни таҳлил қилиш кўникмалари ривожланади:

1) ўқитувчи ўқувчиларни методни қўллаш шарти билан таништиради;

2) улар гуруҳларга бириктириладилар;

3) гуруҳлар топшириқларни бажарадилар;

4) гуруҳлар ўз ечимларини жамоага тақдим этадилар;

5) жамоа гуруҳлар ечимлари юзасидан муҳокама уюштиради.

“Кейс-стади” технологияси. “Кейс-стади” (инглиз тилида “case” мажмуа, аниқ вазият, “study” - таълим) технологияси ўқувчиларда аниқ, реал ёки сунъий яратилган муаммоли вазиятни таҳлил қилиш орқали энг мақбул вариантларини топиш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади:

1) кейс ечимини топиш бўйича индивидуал ишлаш;

2) кейс ечимини топишда жамоавий ҳамкорликка эришиш;

3) тадқиқот методларини танлаш;

4) тақдим этилган муаммонинг амалий жиҳатларини ўрганиш;

5) берилган муаммони ечишнинг усул ва воситаларини аниқлаш.

“Нилуфар гули” технологияси. Бу технология дидактик муаммоларни ечишнинг самарали воситаларидан бири бўлиб, шаклан нилуфар гули кўринишига эга. Ягона асос, унга бириккан тўққизта “гулбарг” (квадрат, тўртбурчак ёки айланала)ларни ўз ичига оладиган мазкур метод ёрдамида етакчи муаммо ва унинг мазмунини ёритилишига имкон берадиган хусусий масалалар ҳал этилади. Мазкур методдан фойдаланиш қуйидаги тартибда амалга оширилади:

1) ҳал этиладиган масала аниқлаштирилади; уни ечиш шартлари билан таништириладилар;

2) ўқувчилар кичик гуруҳларга бириктирилади;

3) гуруҳ аъзолари марказий тўртбурчак (квадрат, айлана)да асосий муаммони қайд этадилар;

4) мазкур масала ечими юзасидан фикр юритиб, марказий тўртбурчак (квадрат, айлана) атрофида саккизта худди шундай ёрдамчи чизмаларни ҳосил қиладилар, уларда масаланинг хусусий ечимларини баён этадилар;

5) “гулбарглар”да хусусий масала ва ечимлар акс эттирилади;

6) ҳар бир гуруҳ ёки жуфтликлар топширик юзасидан ўз ечимларини тақдимот тарзида баён этадилар.

Бошланғич синфларда ўқувчиларни меҳнатга тайёрлаш уларнинг қизиқишлари, мойилликлари ва имкониятларига асосланган қўл меҳнати ҳисобланади. Шу муносабат билан меҳнат таълими жараёни ўқувчиларда ушбу ёш учун билим, меҳнат, ахлоқий эстетик, иқтисодий экологик ва ақлий имкониятларни аниқ меҳнат жараёнларини ривожлантиришга қаратилган, натижада уларни меҳнатга тайёрлашни кейинги синфларда давом эттирилиши учун зарур асос бўлиб хизмат қилади. Замонавий педагогик технология асослари ўқувчи талабаларнинг билиш фаолиятини мақсадга мувофиқ тарзда ташкил этиш ва амалга оширишни кўзда тутди. Янгича ёндашув янгича фикрлаш асосида ўқитиш жараёнида билим олувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини самарали ташкил қилиш керак. Ўқув-тарбия жараёнини илмий ва методик жиҳатдан мукамал ташкил этиш муваффақиятлар гаровидир. Бунда барча турдаги машғулотлар ва мустақил топшириқлар талабаларни ўйлашга, ижодий меҳнат қилишга, ҳар томонлама фикр юритишга, берилган топшириқларни ўз ҳаётий тажрибаларга асосланиб ҳал этишга ўргатади.

Адабиётлар

1.Абдуллаева Х.А., Бикбоева Н.У. ва бошқалар. Бошланғич таълим концепцияси. -Т.: “Бошланғич таълим”, 1998.

2.Мавлонова Р. А. Меҳнат таълими методикаси. -Т.: “Ўқитувчи”, 2000.

3.Санокӯлов Ҳ. Бошланғич синфларда меҳнат таълимидан амалий ишлар. -Т., 1994.

4.Мавлонова Р. А. Меҳнат дарслиги. 1–3- синфлар учун. -Т.: “Ўқитувчи”, 2000

Меҳринисо ҲАКИМОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси

МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА МАТЕМАТИК ТАСАВВУРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА УЗВИЙЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ УСТИДА ИШЛАШ.

Мазкур мақолада мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлаш устида ишлаш йўллари ёритилган. Шунингдек узвийликни таъминлашда топшириқларнинг ўрни асосланган.

Таянч сўзлар: узвийлик, мактабгача таълим муассасаси, бошланғич таълим, математик тасаввур, дидактик тамойил, топшириқ, кооператив таълим технологияси, кўникма, малака.

В данной статье рассматриваются пути работы по обеспечению единства в формировании математического воображения в дошкольном и начальном образовании. Также исходя из роли поручений в обеспечении преемственности.

Ключевые слова: системность, дошкольное, начальное образование, математическое воображение, дидактический принцип, задание, технология кооперативного обучения, навыки, квалификация.

This article covers ways of working on ensuring unity in the formation of mathematical imagination in preschool and primary education. Also based on the role of assignments in ensuring continuity.

Keywords: consistency, preschool, primary education, mathematical imagination, didactic principle, assignment, technology of cooperative education, skills, qualification.

Очиқ ахборот тизими интернет маълумотларига таяниб айтишимиз мумкинки, жаҳонда математикани мактабнинг куйи ва юқори синфларида ўқитишнинг узвийлигини таъминлаш, ўқувчилар математик тайёргарлигининг юқори синф ўқув фаолиятида математика курсларини муваффақиятли ўрганиши учун зарур бўлган талаб даражасини аниқлаш ва унга эришиш бўйича тадқиқот ишлари кенг миқёсда олиб борилмоқда. Бироқ мактабгача ва бошланғич таълим тизимида математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлашнинг методик имкониятларини такомиллаштириш, ўқитувчиларининг мунтазам касбий ўсишда интерактив методлар, педагогларнинг таҳлилий, танқидий ва ижодий фикрлашини ривожлантиришга йўналтирилган инновацион методикалар, мустақил таълим олишни кенгайтиришни назарда тутувчи техника ва технологиялардан фойдаланган ҳолда машғулотлар олиб бориш малака ва кўникмаларини ривожлантириш зарурати мавжуд.

Шу боис мактабгача таълим муассасаларида, умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган математика курслари билан узвийликда ўқитиш методикаси таълим мазмунини танлаш, инновацион ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш ёрдамида такомиллаштириш ва таълим муассасаларини ривожлантиришдаги ўзгаришларга эришиш алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Хўш, ўзгаришлар қандай жорий этилади? Билимизки ўзгаришлар жараёни ўз-ўзидан бошланмайди. Назаримизда бундан бир неча йил олдинги ўқув фаолиятларимиз жараёнида ҳам боғча ва мактаб ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик бўлган. Тажриба ва кузатувларимиз шуни кўрсатадики, бу узвийлик фақат қоғозларда мавжуд бўлиб, амалда ҳеч қандай самара кўрсатмаган. Бугунги кун нуқтаи назаридан олиб қараганимизда “ўзгариш” вақти келди. Демак биз боғча ва мактаб ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик болаларнинг математик саводхонликларини оширишда ўзаро узвийликни таъминлаш методикасини ишлаб чиқишимиз, мавжудларини эса такомиллаштиришимиз лозим.

Буюк педагог олим Я.А.Каменский айтганидек “Энг яхши билимларни ўзлаштириш ва энг яхши ишларни қилишни ўргатадиган мактаб бахтлидир”. Ҳақиқатдан ҳам болалар математик саводхонлигини ошириш, математик тушунчаларни комплекс ўзлаштириш ва қўллашнинг осон ечимини ишлаб чиқиш интеллектуал куч ва ақлий салоҳият талаб этади. Бунинг учун эса, мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлашнинг методик имкониятларини такомиллаштириш, самарали шакл ва методларини амалиётга татбиқ этиш педагоглардан касбий маҳорат ва интеллектуал салоҳиятни талаб этади. Айтиш ўринлики, илғор педагогик технологияни ва таълим тизимидаги ўзгаришларни тўлиқ жорий этиш учун аввало, педагог кадрларни янги педагогик технология усул ва услублари билан қуроллантириш зарур. Тажрибалар давомида мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни

таъминлашнинг методик имкониятларини такомиллаштиришда индивидуал ўқитишнинг қатор инновацион технологиялари аниқланди.

Масалан, “Ҳозларнинг турнақатор парвози”, “Маълумотлар харитаси” методидан самарали фойдаланиш натижасида болаларнинг ҳар томонлама фикр юритиш ҳамда ўз тасаввурлари ва ғояларидан ижобий фойдаланиш борасида маълум кўникма ҳамда малакаларни ҳосил қилишга эришилади. “Ҳозларнинг турнақатор парвози” методи орқали болаларда жамоа психологияси, ўзаро ҳурмат ва ҳамжиҳатлик каби фазилатларни тарбияланади. “Маълумотлар харитаси” тақдимот асосида яратилган диаграммалар орқали ўқитиш технологияси ҳисобланиб, ўқувчиларни мазкур ўқув техникаси асосида, берилган мавҳум тушунчага фикрлаш жиҳатидан уни тасниф қила олиши, бошқа математик тушунчаларни берилган масалага асоция асосида боғлай билиши ва унинг ўхшаш, фарқли жиҳатларини анализ қилган ҳолда изланиш олиб боришини таъминлашга хизмат қилади. Бу технология битта тушунча асосида яратилади ва шу белгиланган тушунча ғоялар, фикрлар, образлар, сўзлар орқали боғланади. Жамланган фикрлар марказий белгиланган тушунчага боғланган бўлади ва бошқа фикрлар марказий тушунчанинг тармоқлари ҳисобланади. “Маълумотлар харитаси” “Ўргимчак” диаграммасининг бир турига мансуб ҳисобланади ва “қуёш порлаши” ғоясига ўхшаш тушунчадир. Катта ҳажмдаги маълумотларни график тасвирлар асосида мукамал фойдали маълумотлар базасига айлантиришга хизмат қиладиган бу технология Тоний Бузан томонидан ишлаб чиқилган. Ўқитувчи ўз педагогик маҳорати билан ушбу методдан фойдаланишда унинг мазмунида куйидаги педагогик жиҳатларга эътибор бериш лозим:

- мавзуга доир марказий тушунчани танлаш ва камида уч хил рангдан фойдаланиш;
- ўзингизга мавжуд маълумотингизга асосланган ҳолда образ, рамз, кодлардан фойдаланиш;
- таянч сўзларни ажратиш ва маълумотларнинг долзарблилик даражасига қараб сўзларни катта ёки кичик ҳарфларда ёзиб ажратиш;
- ҳар бир сўз, рамз, классификация қилинаётган соҳада алоҳида ўз ўрнига эга бўлиши лозим;
- ҳар бир классификация қилинган бўлимлар марказдаги тушунча ғоясига боғланган бўлиши керак;
- ҳар бир бўлинма марказдаги умумий тушунчадан махсус тушунчага торайиб бориши лозим ҳар бир классификация қаторини ҳажмини, узунлигини бир хил ўлчамда бўлишини таъминлаш.

Педагогик технология, унинг асосий тамойиллари, янгича ишлаш усуллари, тарбиячи ҳамда ўқитувчининг ўқув жараёнидаги ўрни, роли ҳақида билиб бориш, болаларни мустақил фикрлашга ўргатиб ўқув жараёнининг юқори сифат ва самарадорлигини ҳосил қилиш ва вақт оралиғини қисқартириш, таълимни жадаллаштиришга ёрдам беради.

Таълимнинг мазкур технологиясидан фойдаланиш жараёнида қатор **дидактик тамойилларга** амал қилинади: илмийлик, натижалилик, тизимлилик, ижодкорлик, эркин фикрлилик, мантикий мушоҳадалилик, ўқувчиларнинг шахсий ва психологик хусусиятларининг устуворлиги, натижани олдиндан кўра билиш, таълимнинг интерфаол усулларида фойдаланиш имкониятининг устуворлиги ва б.қ.

Мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлашнинг методик имкониятларини такомиллаштиришда, ушбу технологиянинг афзалликлари куйидагилар билан изоҳланади:

- ўқитувчи ўзининг бор педагогик маҳоратини намойиш этиш имкониятига эга бўлади, қисқа вақт ичида юқори самарадорликка эришиш имконияти вужудга келади;
- гуруҳдаги барча ўқувчиларнинг дарсдаги фаоллиги таъминланади;
- ўқувчиларнинг эркин ва ижодий фикрлаш қобилияти ривожланади;
- номанфий бутун сонлар арифметикаси, миқдорлар ва уларнинг ўлчов бирликлари, алгебраик ва геометрик материаллар, каср ҳақида маълумот арифметик масалаларнинг осон ечимини топиш йўлларини ўзлаштиради;
- бошланғич синфларда масалалар ечишга ўргатиш, масалани эшитиш ва уни мустақил ўқиш малакасини шакллантириш жараёнини таҳлил қилиш;
- масаланинг бошланғич таҳлилини ўтказиш, масалани қисқа ёзиш, масалани ечиш уни ўқитувчи талабига биноан ёзиш ва масала саволига жавоб бериш малакасини шакллантириш жараёнини кузатиш;
- онгли равишда таълим ва тарбиянинг интерфаол усуллари амалиётга жорий этишга муваффақ бўлади.

Биламизки, комил инсонни вояга етказишда бошланғич таълим шубҳасиз мустаҳкам пойдевор ролини ўтайди. Математика фани инсоннинг интеллектини, диққатини ривожлантиради, кўзланган

мақсадга эришиш учун қатъият ва иродани тарбиялайди, алгоритмик тарздаги тартиб интизомни таъминлайди ва тафаккурни кенгайтиради.

Тадқиқотлар жараёнида фойдаланилган **кооператив таълим технологияси** – бу ўқувчиларни майда гуруҳларга ўзаро тақсимлаш йўли билан дарс ўтишнинг замонавий технологияси ҳисобланади. Агар ўқувчини бир гуруҳ деб тасаввур қилсак, улар ўқитувчи томонидан бир неча майда гуруҳга ажратилади. Ҳар бир гуруҳ унга берилган махсус топшириқ бўйича ишлайди, маълумотларни ўрганади, саволларга жавоб беради, қўйилган муаммога муқобил ечим топишга уринади. Шундан сўнг гуруҳлар ўрганган мавзуси юзасидан иккинчи гуруҳ билан ўзаро фикр алмашади.

Шунингдек таълим жараёнида болаларнинг ёш хусусиятларини инобатга олган ҳолда ўйинли технологиялардан фойдаланиш ҳам ўзини ижобий самарасини берди, ўйинларни яратишда мураккаблик даражалари энг камида учта бўлиши мақсадга мувофиқлиги таъминланди. Математик тасаввурларни шакллантиришда биринчи ўнлик сонлар билан танишишда дидактик тамойилларга асосланиб 10 ичида кўшиш ва айириш амаллари билан танишишда дидактик жараёнлар қўлланилди. Бу эса, ўқувчиларда ўзлаштириши керак бўлган билим ва кўникмалар узвийлигини таъминлашга асос бўлди.

– билимларни шакллантирувчи. Машқ қилдирувчи математик дидактик ўйинлар. Мс: натурал катордан ўрнингни топ, бўш катакларни тўлдириш, жадвалларни тўлдириш;

– билимларни ривожлантирувчи. Таққослаш, таҳлил қилиш, математик тушунчаларни бир бирдан фарқлай олиш ва боғлай олишга ёрдам берувчи математик дидактик ўйинлар. Мс: ортиқчасини топ, мосини топ, венн диаграмма, Т-чизма, зинама-зина;

– ижодкорликка асосланган. Мустақил ижодий мантикий фикрлашга ундовчи математик дидактик ўйинлар бўлиши лозим.

Мактабгача ва бошланғич синфларда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлаш рақамлар, геометрик шакллар, сон ва ҳисоблашлар, вақт тасаввурларини шакллантириш каби математик тушунчалардан фойдаланиб математик тафаккур ва илмий дунёқарашини шакллантиришнинг методологик ва дидактик асосларини яратиш, таълим мазмуни ва сифатини оширувчи илмийлик, мунтазамлик, онглилик тамойилларига амал қилишни таркибий қисмларини, илмий билимлар тизимининг алоҳида қисмлари илмий тушунчалар, қонуниятлар, назариялар, мажмуали муаммолар ҳақида тасаввур ҳосил қилиш ўзига хосликка эга бўлиб, дарс жараёнида турли восита, шакл ва методлар ёрдамида амалга оширилади.

Мактабгача ва бошланғич синф ўқувчиларининг математик тасаввурларини шакллантиришда узвийликни таъминлаш, таълим-тарбия жараёнини лойиҳалаштириш тажрибасини эгаллашда худди мана шундай вазиятларни ташкил этиш кўникмасини ҳам ўзлаштириши муҳим касбий аҳамиятга эга. Бунинг учун тарбиячи ва педагогларимиз, боғча ва бошланғич биринчи синф ўқувчиларни ижодий фаолият кўрсатишга ундайдиган ўқув топшириқларини танлай билиши ва мақсадга мувофиқ тарзда лойиҳалаштира олиши керак. Чунки мазкур турдаги ижодий ўқув топшириқлари ўқувчиларнинг узлуксиз ривожланишларини башорат қилиш ва ушбу жараённи самарали бошқариш имконини беради. Бунинг учун тарбиячи ва ўқитувчиларимиз ўқув топшириқларининг дидактикада кенг тарқалган кўринишларини ўзлаштириши лозим. Масалан:

1. Маълумотларни онгли тушуниш имконини берадиган топшириқларнинг ўзига хос хусусиятларини ўзлаштириш ва уларни танлай олиш;

а) ўқувчиларнинг муайян ўқув материални ўзлаштиришга йўналтирилган топшириқлар;

б) ўқувчиларнинг алоҳида далиллар, миқдорлар, маълумотлар ва тушунчаларни ўзлаштиришга йўналтирилган топшириқлар;

в) аниқ қодалар, ўлчовлар, мезонлар, меъёрларни ўқувчилар билиб олишларига хизмат қиладиган топшириқлар;

г) ўқувчиларнинг турли жадваллар, иллюстрациялар, расмлар ва чизмаларнинг мазмун-моҳиятини изоҳлай олишларини таъминлайдиган топшириқлар.

2. Ўқувчиларнинг далилларга таянган ҳолда фикрий операцияларни амалга ошириш кўникмаларини ўзлаштиришларига хизмат қиладиган топшириқлар:

а) далилларни ойдинлаштиришга қаратилган топшириқлар;

б) далилларни тўплаш ва таҳлил қилишга қаратилган топшириқлар;

в) ҳаракат жараёни ва усулларини аниқлайдиган ва тасвирлайдиган топшириқлар;

г) ўқув материаллари таркибини аниқлаш ва уни қисмларга ажратишга йўналтирилган топшириқлар;

д) муайян матнларни тузиш ва қисмларга бўлишга қаратилган топшириқлар;

е) сонларни тақсимлашга қаратилган топшириқлар;

- ё) далиллар орасидаги муносабатларни очишга қаратилган топшириқлар;
ж) абстракциялаш, ойдинлаштириш ва умумлаштириш кўникмаларини ҳосил қиладиган топшириқлар;
з) мураккаб бўлмаган ўқув вазифаларини ечишга йўналтирилган топшириқлар.
3. Ўқувчиларнинг далилларга асосланган ҳолда мураккаб фикрий операцияларни амалга оширишларига қаратилган топшириқлар:
- а) ўқув материалларини бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга кўчиришга қаратилган топшириқлар;
 - б) ўқувчиларнинг мустақил фикр баён қилишларига хизмат қиладиган топшириқлар;
 - в) ўқувчиларни индукция усулида ишлашга ундовчи топшириқлар;
 - г) ўқувчиларнинг дедукция усулларини қўллашларига йўналтирилган топшириқлар;
 - д) ўқувчиларнинг далилларни исботлаш ва текширишларига қаратилган топшириқлар;
 - е) ўқувчиларнинг ўзлаштирган билимларини аниқлашга қаратилган топшириқлар.
4. Ўқувчиларнинг ўзлаштирган билимлари ва маълумотларни баён қилишга хизмат қиладиган топшириқлар:
- а) ўқув материалларни шарҳлаш, конспектлаштиришга йўналтирилган топшириқлар;
 - б) маърузалар, ҳисоботлар мулоқот матнлари ёзишга қаратилган топшириқлар;
5. Ўқувчилардан ижодий фикрлашни талаб қиладиган топшириқлар:
- а) амалий машғулотларни бажаришга қаратилган топшириқлар;
 - б) ўқувчиларнинг муаммоли вазиятлардан чиқишларига хизмат қиладиган топшириқлар;
 - в) аниқ саволлар асосида вазифалар қўйиш ва иш усулларини шакллантиришга қаратилган топшириқлар;
 - г) ўқувчиларнинг шахсий кузатишларини аниқлашга қаратилган топшириқлар;
 - д) ўқувчиларнинг шахсий фикрларини ҳисобга олган ҳолда танланган топшириқлар ва ҳ.к.
- Мазкур ёндашувлар асосида ташкил этиладиган шахсга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнида ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган билимлар уларнинг топшириқларни ечишга қаратилган амалий ҳаракатларида намоён бўлди. Шунинг учун ҳам, ўқитувчилар ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини назорат қилиш жараёнида математик топшириқларини бажариш имкониятларини аниқ баҳолаш тажрибасига ҳам эга бўлишлари керак.

Адабиётлар

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мақтабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Мақтабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори
4. Собирова Д.Т. Мақтабгача катта ёшдаги болаларда тасвирий саводхонлик элементларини шакллантириш.п.ф.н..илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Т., 2007

Ирода РАЖАБОВА

Бухарский государственный университет
кафедра дошкольного
образования учительница**ЛИЧНОСТНОЕ ОТНОШЕНИЕ-УСЛОВИЕ УЧЕБНОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ**

В статье рассматриваются вопросы, связанные с личностными отношениями деятельности учителя. Автор в живой, доступной форме помогает систематизировать и углубить свои знания по данному вопросу. Кроме этого, в статье речь идёт об анализе качественных характеристик личности учителя. А также автор приводит примеры разных методов по обучению студентов профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *ценность, гуманность, деятельность, развитие, социальная сущность, профессионализм, саморазвитие, образование, чувства, характер, нравственность.*

The article discusses issues related to the personal relationships of the teacher. The author in a lively, accessible form helps to systematize and deepen his knowledge on this issue. In addition, the article deals with the analysis of the qualitative characteristics of the teacher's personality. And also the author gives examples of different methods for teaching students professional activities.

Key words: *value, humanity, activity, development, social essence, professionalism, self-development, education, feelings, character, morality.*

Педагогической наукой конкретизировано современное понимание задач духовно-нравственного обучения, которые сводятся к развитию в человеке свободы. Нравственное воспитание завершается формированием личности, развитием индивидуальности человека.

Личность как понятие сложное характеризуется наличием позитивных социокультурных, духовно-нравственных, исторических и религиозных представлений, сформировавшихся в структуре национальной традиции. В общественных науках личность рассматривается как особое качество человека, приобретаемое им в процессе совместной деятельности и общения. Гуманисты - педагоги и психологи указывают на то, что личность является ценностью, ради которой осуществляется развитие общества. "Потребности, интересы и мотивы, - пишет В.А. Мижериков, - обуславливают поведение, целенаправленную деятельность и поступки человека".

Анализ качественных характеристик личности учителя позволяет ученым (А.А. Бодалев, Л.С. Глебова, А.Н. Леонтьев, В.А. Мижериков и др.) отметить социальную сущность учителя, "чьи личностные свойства, суждения и поступки являются особенно значимыми для окружающих, образцом для подражания". Личность учителя в таком контексте выступает как источник основных ценностей, норм и правил поведения, суждений и поступков для ученика. В гуманистической, личностно ориентированной системе воспитания, по мнению В.А. Мижерикова, формируется личность, для которой характерно непрерывное стремление к возможно более полному выявлению и развитию своих потенциальных возможностей. Такие личности способны к творчеству, полноценному общению и активному самоутверждению". Таким образом, оптимальными условиями для функционирования педагогической системы духовно-нравственного воспитания современная педагогика считает ее ориентированность на гуманизацию. Концептуальные основы гуманизации профессионального образования (Е.В. Бондаревская, М.И. Рожков) проектируются на конкретизацию научного описания субъектов образования. Если для учителя, как уже было отмечено, должна быть характерной функция "выступать источником основных ценностей, норм и правил поведения, суждений и поступков для другого человека, то личность учащегося характеризуется направленностью на обучение, развитие своего интеллекта, на рост духовный, нравственный, физический, эстетический. При уточнении исходных позиций исследования учитывалось мнение ученых о том, что обучающиеся имеют особенности, проистекающие от специфики:

- функций учреждения образования;
- психических процессов и актуальных, а на данном этапе обучения и развития, свойств личности;
- высшей нервной деятельности, наследственных признаков и врожденных задатков;

Особую важность для организации и осуществления педагогического эксперимента имеет следующее теоретическое положение. Признаками социально-психологической зрелости обучающегося, по справедливому мнению В.А. Мижерикова, являются: "гражданская позиция,

профессионализм, деловитость, уровень мышления, эстетическая грамотность, эстетическая культура, активность, самосовершенствование”.

Так как процесс воспитания осуществляется воспитателем, необходимо обратиться к проблеме научного понимания личного примера воспитателя, т.е. примера жизни и деятельности учителей, родителей, других авторитетных лиц, которым следуют воспитанники. Рассматривая личный пример воспитателя в системе факторов успешного осуществления духовно нравственного воспитания учащихся на всех этапах непрерывного образования, укрепляется принятие известной истины: “Чтобы воспитать у кого-то высокие моральные и волевые качества, воспитатель должен сам обладать этими качествами, служить примером во всем”.

Технологическое значение в исследовании имело указание на необходимость развития у учителей способностей сознательного управления своим поведением для того, чтобы “в определенных жизненных ситуациях необычным поступком воздействовать на воспитанников, производя сильное впечатление”. Известно, что степень влияния и способ личного примера учителя зависят от возрастных особенностей учащихся. В младших классах ученики подражают своим учителям и родителям неосознанно, в то время как подростки сознательно стремятся видеть в учителе идеал человека, следовать его примеру. Таким образом, в процессе развития духовно-нравственных качеств учащиеся сознательно или неосознанно оценивают гуманистический потенциал учителя, принимая или отвергая возможность педагогического воздействия.

В этой связи в теории профессионального образования рассматриваются категории: человек, общество, история народа и государства; понятия о долге, совести, чести, справедливости и добродетели. При этом создаются условия для функционирования установки на полноценное человеческое отношение к жизни, формирующееся посредством рационально-логического, эмоционально-образного и аксиологического восприятия действительности. Воспитание такого рода соотносится с задачей укрепления национального и гражданско-государственного самосознания, воспитания любви к Родине, возрастания трудовых качеств человека через приобщение к глубоко воспринятому представлению об одухотворённом творческом труде как его святой обязанности.

Смысл современного образования, таким образом, состоит сегодня в том, чтобы воспитывать не только хорошо информированных людей, но и нравственных, ответственных, добропорядочных граждан. Личность, стремясь к самосовершенствованию, добровольно и активно участвует в работе на благо общества. Таким образом, говоря сегодня о ментальных основах воспитания, необходимо осознавать, кого воспитывает школа: пассивного потребителя или деятеля, стремящегося к гармонии чувств и разума. В этом глубокий смысл признания ценности труда, работы личности по воспитанию, саморазвитию. Не случайно то, что в современной теории и методике профессионального образования появляются термины “работопотребность” и “работоспособность”. Раскрывая смысл этих понятий в аспекте проблем гуманизации профессиональной деятельности учителя в сфере духовно-нравственного воспитания учащихся, представляется целесообразным определить основные характеристики важнейших качеств современного учителя, осуществляющего воспитание учащихся в условиях непрерывного гуманизирующего образования.

Так, под работопотребностью имеется в виду особое профессионально значимое для учителя качество - мотивированное, непреходящее желание (потребность) быть все время занятым творческим поиском успешного самовоспитания и воспитания учащихся. Работопотребность как процесс мотивированного самосовершенствования личности учителя формирует атмосферу личностного удовлетворения, которое сопровождается эмоциональными переживаниями, ощущением радости, оптимистического настроения. Таким образом, работопотребность учителя в сфере духовно-нравственного самовоспитания и воспитания - высшая потребность учителя в профессиональном труде. Работопотребность логически взаимодополняется потенциальной возможностью учителя выполнять свою педагогическую деятельность на высоком уровне эффективности в течение неограниченного временными рамками процесса непрерывного образования.

Работоспособность учителя характеризуется его предрасположенностью к активному высокоинтеллектуальному труду.

Личность - не только слаженный синтез и результат воздействия на человека социальных условий определённого времени, но одновременно и результат осознания себя в диалоге. Личность - это сформировавшаяся цельность духовной иерархии, возникшей на национально-государственной почве (А.Н. Леонтьев, С.Л. Рубинштейн и др.). Личностью мы можем назвать того, кто ощущает своё подлинно человеческое духовное достоинство и осознаёт глубокую причастность к людям и Отечеству. Истинная личность - тот, в ком мощно выражены гуманные качества совести, чести, воли, стремления к самосовершенствованию. Следует отметить, что сильная, волевая натура не всегда

признается в науке личностью. Личность - это тот, кто в человеческих формах отстаивает своё право на уважение к своей самостоятельности, свою духовную свободу и вместе с тем видит себя частью более высокого, значительного. Воспринимая личность как социально-историческую данность, что само по себе справедливо, учитель усваивает ориентир на актуально значимое осмысление духовной стороны бытия. Истинная личность так или иначе, отражает историческое восприятие мира, иерархию духовных ценностей национального самосознания. В укладе жизни личности проявляется духовное отношение к миру - от самобытных ощущений материальной реальности и переживания исторического времени до национального образа мыслей, чувства благоговения, проистекающего из духовного самосознания.

Анализ состояния практики воспитания учителем свидетельствует о необходимости включения в систему послевузовского образования учителей гуманизированной теории психологии личности. В частности, требуется корректировка профессиональной деятельности учителей по анализу поведения, привычек, характера субъектов образования. Связано это с распространенными в педагогической среде явлениями оценки характера учащихся на основе эмпирических наблюдений, без учета научных психолого-педагогических характеристик этого феномена.

Характер в педагогической психологии рассматривается как неповторимое индивидуальное сочетание свойств личности, которые обуславливают типичные для каждого человека особенности поведения и отношения к действительности. Среди черт характера в педагогике выделяют две группы. Одна группа определяет общую направленность характера и включает ряд отношений к обществу (социальная активность, коллективизм), к людям (гуманность, честность), к себе (скромность, чувство собственного достоинства), к труду (трудолюбие и бережливость). Другая группа волевых качеств определяет силу характера, самостоятельность, ответственность, мужество, т.е. принимается во внимание сущность волевых качеств.

Важнейшая задача педагога - воспитать у учащегося социально-значимые черты характера. Она определяет программу педагогического руководства с учетом исходного «портрета» личности. Готовой рецептуры для работы над характером дать нельзя: это одна из наиболее свободных областей педагогического творчества, зависящая от конкретных условий. Так, социально-пассивного учащегося учителю необходимо вовлекать в дела группы, планировать для него самостоятельное по характеру общественное поручение. При этом малоответственный, лживый учащийся нуждается в постоянном контроле и дополнительной проверке. Учащегося с эгоистической направленностью педагог должен вовлекать не в индивидуальные, а групповые формы учебы, труда, спорта, требующие кооперации, равного распределения нагрузок. Работа с жестоким учеником, проявляющим антигуманную направленность, требует тщательного контроля за взаимоотношениями с младшими или более слабыми, решительного пресечения всех попыток насилия. Такого учащегося необходимо вовлекать в ситуацию ответственности за личность. Для ленивого учащегося пригодна программа вовлечения в общественно полезный труд с обязательным поощрением первых успехов. Но независимо от характера учащегося учитель выстраивает с ним отношения через свою профессиональную деятельность, основанную на принципах гуманизма, целесообразно управляемого педагогического процесса воспитания.

Обязательность обучения, воспитания должна быть свободной по цели. В этой связи решение проблем гуманизации духовно-нравственного воспитания предполагает усиление внимания к феномену дисциплины и тесно связано с понятиями работы и труда. Дисциплина, по мнению ученых (С.И. Гессен, В.П. Алексеев и др.), есть организованное принуждение, организованное не только в том смысле, что она сама есть нечто упорядоченное, но и упорядочивающее, имеющее своей целью организацию. Дисциплинированный человек умеет согласовывать свои физические усилия и духовные способности так, что в результате его работы происходят позитивные изменения в структуре духовно-нравственных качеств личности.

Проблема развития воспитания привлекает неослабное внимание ученых, так как, по сути, речь идёт о завтрашнем дне России, ценностных ориентирах нашего общества, а по большому счёту - о национальной безопасности страны, корни которой кроются в воспитании, творческом развитии, гражданском становлении подрастающего поколения.

Воспитание закладывает основы общественных идеалов и ценностей, постоянно оживляя их и превращая в действующую силу человеческой жизни. Оно укрепляет жизнеспособность человека, помогает выносить возможные неудачи, кризисы и конфликтные ситуации. Важно помочь обучающимся в формировании умения делать выбор и осуществлять его в соответствии с нормами, которыми руководствуются школа, семья, общество. Воспитание - процесс непрерывный и

незавершимый, управлять этим процессом в системе образования столь же необходимо, как и учебным.

Анализ образования показывает, что оно находится в постоянной динамике, чутко реагируя на изменения во внешней среде, адаптируясь к её меняющимся потребностям, активно влияя на её состояние и предопределяя эти потребности. Система образования, несомненно, имеет непосредственное отношение к происходящим в государстве событиям. Это относится и к тем негативным тенденциям, которые всё более явственно дают о себе знать, причиной их, в конечном счёте, является сам человек, потерявший веру в нравственные, духовные ценности в мире и смысл жизни, тем самым лишившийся жизненных ориентиров и не находящий ответов на важнейшие мировоззренческие вопросы ни в науке, ни в религии, ни в образовании. Но именно образование в состоянии переломить катастрофически нарастающие негативные тенденции в духовной сфере. Только ему посильна конечная историческая роль в спасительной интеграции и гармонизации знания и веры, в упреждении необратимых деформаций в менталитете общества, а главное - в возрождении и непрерывном обогащении высших нравственных идеалов и жизненных приоритетов.

Современный человек в силу различных обстоятельств стоит перед дилеммой выбора целей благородных, но не лёгких или сомнительных, однако легко достижимых. На этот выбор может повлиять школа, а особенно авторитетный учитель, осознающий, что идеал - это не только цель воспитания, но и путь, по которому должен идти его воспитанник.

Н.И. Новиков в своем труде «О воспитании и наставлении детей» главным предметом воспитания называл «образование детей благополучными людьми и полезными гражданами». В формировании гражданственности он видел два процесса: воспитание души и сердца и воспитание ума. Заботу о душе ребёнка Н.И. Новиков считал заботой о его чувствах, характере, нравственности. «Худой человек всегда бывает и худой гражданин, - пишет он. - Никакой человек не может быть ни довольным, ни счастливым, ни добрым гражданином, если его сердце волнуется беспорядочными пожеланиями, доводящими его либо до пороков, либо до дурачеств». По мнению В.А. Сухомлинского, аморальные явления в подростковой среде - это следствие ограниченности, убожества и примитивности мира чувств. Ученый признавался в том, что его рассказы о мире не только доносили знания до сознания мальчиков и девочек, но и заставляли задуматься над судьбой мира, над тем, что его личное счастье, счастье семьи зависят от чего-то более значительного, нежели огород и приусадебный участок.

Анализ процесса становления феномена гражданственности свидетельствует о том, что в общественном масштабе отчётливо просматриваются прогрессивные тенденции в художественной, философской и педагогической литературе, которая всегда стремилась возвышать нравственные качества и приоритет в деле воспитания души, сердца и ума. Например, для русских людей земля - не просто территория, это категория нравственная, соединяющая прошлое, настоящее и будущее народа. По мнению В.Ю. Троицкого и других, патриотизм есть чувство нравственное, оно не мотивируется политической идеологией, хотя и может определять её содержание.

Зарубежная педагогика не обходит вниманием проблему гражданского воспитания. Например, в США стремятся сформировать ответственность человека за судьбу демократического общества, в Европе - обучать правам человека.

Как показывает анализ педагогической теории и практики, требуют безотлагательного решения проблемы, сдерживающие развитие кадровой политики. Так, ученые отмечают недостаточность уровня культуры и профессиональной компетентности педагогов в вопросах содержания и методики духовно-нравственного воспитания на традиционной основе. Как следствие стала очевидной необходимость организации специальной подготовки, переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. До сих пор нет основной программы по духовно-нравственному воспитанию в масштабах страны или региона, не сформулированы четкие цели и задачи, не обозначены приоритеты, отсутствуют соответствующие органы управления, организационно-экономические механизмы реализации духовно-нравственного воспитания.

Если основанием жизнедеятельности всех сфер общественной жизни XX века была культурная макромодель - производство - образование, то новое отношение к образованию как к сфере культуры и связанная с ним новая парадигма образования обусловлена внедрением новой культурной макромодели: культура - образование - история. Гуманизация образования обращена к человеку, к вопросам человеческого бытия, к развитию личностных качеств субъектов образования. Существует справедливая гипотеза о наличии у каждого человека потребности быть личностью. Утверждение человека личностью происходит там и тогда, где и когда происходит его встреча с «Другим», в процессе социализации, общения с другими людьми. Это образование гуманистично, оно

ориентировано на процесс формирования личности во всей полноте культурного, психологического, духовно-нравственного и социального развития человека. Настоящее образование открывает человеку мир в его целостности и значимости, побуждает определить свое личностное отношение ко всему окружающему.

Гуманитарное образование, становясь важнейшим фактором понимания и осмысления происходящих перемен, не может стать панацеей от всех проблем. Но оно может:

- дать систему объективных научных знаний о человеке, культуре, социальных ценностях и идеалах, моральных и правовых нормах;
- способствовать формированию мышления, которое ставит в центр социальных ценностей человека, его жизнь, его права, его здоровье;

В последнее десятилетие в общественном и, конечно, в педагогическом сознании произошел сдвиг, повлекший за собой продвижение в понимании всего комплекса вопросов, связанных с образованием. Стремление к отказу от жестких авторитарных схем, связанных с манипулированием сознанием учащихся, и ориентация на всестороннее развитие, проблемное обучение повлекли за собой усиление внимания к философскому, методологическому и теоретическому осмыслению педагогической науки и практики. Сегодня принято считать, что образование и воспитание - разные виды педагогической деятельности. Образование формирует интеллект, развивает рациональное мышление, а воспитание развивает эмоционально-ценностную сферу личности, человеческие качества: гуманное отношение к окружающим, отзывчивость, доброту, способность к сочувствованию, сопереживанию и сорадванию.

На Востоке есть высокопочтительное понятие – “учитель”. Это не тот, кто дает другому какие-то знания, передает информацию и ничего больше. Учитель всегда ассоциируется с колоссальной внутренней культурой, личной силой, уважительным отношением к ученикам, которых он растит как нечто драгоценное на благо развитие учения и культуры. Только так формируется уникальное взаимоотношение учителя и учеников. “Образованщина” - солженицынское понятие принципа построения современной школы. В.Д. Шадриков в интервью газете “Московские новости” сказал, что задача школы - образование, а не воспитание; воспитание же - это задача семьи и церкви. Обращение человека к религии (к какой именно) или его атеистическое убеждение - это его личное дело, к образованию, т.е. к приобретению определенной суммы знаний отношения не имеющее. В такой позиции очевидно заблуждение, ошибочность взглядов на историческую роль и значимость российского воспитания. Духовно-нравственное воспитание остается важнейшей задачей школы, так как общечеловеческие принципы поведения одинаковы и для религиозных людей, и для атеистов, и для православных, и для мусульман.

Анализ психолого-педагогической литературы по проблеме гуманизации образования в целом и гуманизации профессиональной деятельности учителя в сфере духовно-нравственного воспитания учащихся свидетельствует об устойчивой тенденции включения в систему послевузовского образования учителя научной информации о ключевых компетенциях воспитателя, гуманизирующего процесс духовно-нравственного развития субъектов образования. Доминантные понятия теории и практики гуманизации профессиональной деятельности учителя отражают суть ценностного отношения к личности обучающей и обучающихся. В этой связи в структуру рабочих понятий исследования были включены термины гуманизм, гуманизация образования, гуманитарный, гуманитаризация образования.

Целостная система повышения квалификации учителей по вопросам гуманизации их профессиональной деятельности в сфере духовно-нравственного воспитания основывается на профессиональной этике учителя. При этом актуализируются и углубляются знания учителей о педагогической деятельности, ее функциях и целях, компонентах педагогической системы с позиций гуманизации образования. Рабочие программы по гуманизации профессиональной деятельности, как показали данные констатирующего эксперимента, должны соответствовать философской идее. Гуманизировать профессиональную деятельность учителя в сфере духовно-нравственного воспитания учащихся могут учителя с активной жизненной и профессиональной позицией, с мотивацией на потребность научно обоснованного обновления содержания и структуры духовно-нравственного воспитания обучающихся.

Ценностные ориентации учителя, таким образом, регламентируются совокупностью идей и взглядов, утверждающих ценность человека, право личности на свободное развитие своих творческих сил. Принципы такой идеологии, лежащие в основе педагогической этики, связаны с утверждением справедливости человеческих отношений. Все это в своих основных чертах соответствует классическому определению гуманизации как человечности, человеколюбия, уважения к людям.

Принципы гуманизации образования, в свою очередь, конкретизируются своей конструктивной сущностью:

Литература

1. Алексашина И. Ю. Теоретико-методологические основы освоения учителем идей гуманизации образования в процессе повышения его квалификации: Дис. . д-ра пед. 1997.
2. Амонашвили Ш. А. Личностно-гуманная основа педагогического процесса Текст. / Ш. А. Амонашвили. -Мн.: “Университетское”, 1990.
3. Бодалев А.А. Личность и общение. Избр. тр. Текст. / А.А. Бодалев. -М.: “Педагогика”, 1983.
4. Бондаревская Е. В. Школьное образование в контексте культуры Электрон. / Е. В. Бондаревская // Образование и наука. 1999. - № 23.
5. Бездухов В. П. Теоретические проблемы становления гуманистического стиля педагогической деятельности будущего учителя Текст. / В. П. Бездухов. Самара: Изд-во СамГПИ, 1992.
6. Леонтьев Д. А. Значение и личностный смысл: две стороны одной медали Текст. / Д. А. Леонтьев // Психол. журн. 1996. - Т., 17. - № 5. - С. 19-29.

Малика ХАЙДАРОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВНИ ТАДБИҚ
ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ**

Ушбу мақолада бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этиш ҳақида фикр юритилган бўлиб, унда индивидуал ёндашув муаммосига нисбатан назарий қарашларнинг вужудга келиши ва тараққий этиши, бошланғич таълим жараёнида индивидуал ёндашувни тадбиқ этишининг асосий белгилари, стратегиялари баён қилинган.

Калим сўзлар: индивидуал ёндашув, индивидуаллаштирилган таълим, табақалаштирилган таълим, ўқув материали, педагогик шакллар, методлар, мустақил иш, топшириқ, ақлий қобилият, қизиқиш.

В данной статье рассматривается применение индивидуализированного подхода к процессу начального образования, в котором описывается возникновение и развитие теоретических подходов к проблеме индивидуальных подходов, а также основные особенности и стратегии реализации индивидуализированного подхода к начальному образованию.

Ключевые слова: индивидуальный подход, индивидуальное обучение, дифференцированное обучение, учебный материал, педагогические формы, методы, самостоятельная работа, задание, умственные способности, интерес.

This article discusses the application of an individualized approach to the primary education process, which outlines the emergence and development of theoretical approaches to the problem of individual approaches, and the main features and strategies for implementing an individualized approach to primary education.

Key words: individual approach, individualized learning, differentiated learning, learning material, pedagogical forms, methods, independent work, task, mental ability, interest.

Бугунги кунда ривожланган мамлакатларнинг нуфузли илмий марказлари: Австрияда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини индивидуал ривожлантиришга асосланган дастурлар, Германияда иктидорли ўқувчиларни ривожлантиришга йўналтирилган “Немис мактаб академияси”, Англия, Франция ва АҚШ каби давлатларда чуқурлаштирилган мактаб ҳамда табақалаштирилган синфларда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ5712-сонли “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси” тўғрисидаги Фармони[1]нинг қабул қилиниши ва у асосида амалга оширилаётган ислохотлар ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичмабосқич татбиқ этишни тақозо этмоқда.

Педагогика энциклопедиясида “Индивидуал ёндашув методи - (лот. individium - бўлинмас) педагогик жараённи ўқувчининг индивидуал ўзига хос жиҳатлари (мижози, характери, қобилияти, мойиллиги ва бошқалар)ни эътиборга олган ҳолда амалга ошириш методи” сифатида талқин этилади [2].

Таълимни индивидуаллаштириш – уни ҳар бир ўқувчининг ўз индивидуал хусусиятларига мослаб ташкил этиш демакдир. Индивидуаллаштириш деганда ҳар бир ўқувчининг индивидуал-психологик хусусиятларини ҳисобга оладиган ўқувчилар ўқув-билув фаолиятини бошқариш тизими тушунилади. Таълим жараёнида ўқувчиларнинг индивидуал тайёргарликларини таъминлашда уларнинг лаёқатларини алоҳида эътиборга олиш лозим. Агар ўқувчи ўз тайёргарлиги давомида фаол ҳаракат қилмаса, унинг лаёқати ташқи таъсир ва шароитлар натижасида ўзўзидан қобилиятга айланмайди [3].

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этиш замонавий таълим тизимини такомиллаштириш йўллари билан бириктирилади. Индивидуал ёндашувнинг аҳамияти шундаки, ўқувчи таълим жараёнининг асосий субъекти сифатида ўқитувчи ҳамда ўқув материаллари билан мулоқотга киришади. Бу ўз навбатида, шахснинг ижобий фазилатларини аниқлаш; шахсни мунтазам психологик-педагогик ташхислаш; таълимтарбия жараёнида шахс хусусиятларини ҳисобга олиш; шахс ривожланишини башорат этиш ва бошқаларни камраб олади.

Индивидуал ёндашув бола руҳиятининг индивидуал хусусиятларини, фан соҳалари ва касб эгаллашга бўлган табиий мойилликларини тўлиқ эътиборга олиш имкониятини таъминлаш имконини беради. Мазкур ёндашув таълим шакллариининг энг қадимийси бўлиб, у қадимги давр ва ўрта асрларда ҳам кенг қўлланилган. Унинг самараси, айниқса, амалий санъат, хунармандчиликда устоз-шоғирд таълими тарзида намоён бўлган.

Ҳозирда жаҳон таълим тизимида индивидуаллаштириш ва табақалаштириш тушунчалари кенг қўламда татқиқ этилмоқда. Бундай ёндашув ўзбек халқи таълим тизимида асрлар давомида мавжуд бўлган. Ўтмишда мактабхоналар айниқса, мадрасаларда таълим олувчиларга алоҳида ёндашилган ҳолда, уларнинг қизиқишлари ва интилишларини ҳисобга олиб таълим-тарбия берилган. Ҳар бир таълим олувчининг муайян мавзуни билиш имкониятлари ва ўзлаштириш даражалари аниқлангандан кейингина унга навбатдаги топшириқ берилган.

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этишда унинг йўллари, усуллари, ўқитиш мароми, ўқувчиларнинг ўзига хос фарқли жиҳатлари, уларнинг ривожланганлик даражалари ва ўқиш лаёқатлари алоҳида ҳисобга олиниши керак.

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этиш қуйидаги ҳолатларга кўра амалга оширилади:

- ўқувчилар гуруҳига хос бўлган эмас, балки ҳар бир ўқувчига хос умумий белгилар ҳисобга олинади;

- ўқув жараёни учун муҳим бўлган ўзига хосликларгина таълимни индивидуаллаштириш жараёнида ҳисобга олинади;

- аксарият ҳолларда таълимни индивидуаллаштириш жараёнида ўқувчиларнинг қобилиятлари ва саломатликларига ҳам эътибор қаратилади;

- ўқув жараёнини индивидуаллаштириш қисман амалга оширилади ва у умумий ўқув вазияти билан уйғунлаштирилади.

Бошланғич таълим жараёнида индивидуал ёндашувни тадбиқ этишнинг асосий белгиларини ажратиш муҳим аҳамиятга эга. Ўқув жараёнини индивидуаллаштириш учун ўқувчиларга кўпроқ мустақил топшириқлар бериш лозим. Шу билан бир қаторда, ўқув жараёнини индивидуал ёндашув асосида ташкил этилганда дарснинг таркибий тузилиши ҳам ўзгаради. Индивидуал ёндашувда таълим жараёни олдида бир қатор мақсадлар қўйилади ва бу мақсадларга эришиш учун ўқув машғулотини бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга кўчирилади.

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этишда қуйидаги талаблар назарда тутилади:

1. Ўқувчилар фаолиятини умумий тарзда ташхисловчи, башоратловчи, таълимий, билим берувчи, ривожлантирувчи, шакллантирувчи, оптималлаштирувчи.

2. Ўқувчиларни ўзига хос тарзда мослаштирувчи, тузатувчи ва ҳ.

Ўқув жараёнини индивидуаллаштириш ва табақалаштиришга оид турлича ёндашувларнинг мавжудлигига қарамадан, мутахассислар қуйидаги талқинга кўпроқ мойиллик билдирадилар:

1. Таълимни индивидуаллаштириш – бу ўқув жараёнини ташкил этиш, унинг йўллари, усуллари, ўқитиш маромини танлашда ўқувчиларнинг ўзига хослиги, уларнинг ривожланганлик даражаси ва ўқиш лаёқатини ҳисобга олиш демакдир.

2. Ўқув жараёнини табақалаштириш – ўқув жараёнини ташкил этишда ўқувчиларни муайян ўзига хос жиҳатларига кўра алоҳида ўқитиш имконини берувчи гуруҳларга ажратиш демакдир.

Ўзбек халқининг тарихий тажрибаларини ўрганиш натижалари шуни кўрсатмоқдаки, ўқитишнинг жамоавий шаклидан кўра ўқув жараёнини индивидуаллаштириш ва табақалаштириш кўп жиҳатдан самаралидир. Шу билан бир қаторда, ўқув жараёнини индивидуаллаштириш ва табақалаштириш бўйича хорижий педагогларнинг назарий ёндашувлари мавжуд ва улар алоҳида аҳамиятга молик. Жумладан, АҚШ таълим тизимида қўлланиладиган барча педагогик шакл ва методлар ўқув жараёнига ўқувчиларнинг ўзига хос хусусияларини ҳисобга олган ҳолда татбиқ этилмоқда.

Ўқув жараёнини индивидуаллаштиришнинг бир қатор стратегиялари мавжуд. Жумладан:

- ўқитишга боғлиқ бўлмаган ҳолда энг кам сонли ўқувчилардан бошлаб бутун гуруҳ аъзоларининг ўзига хосликларини ҳисобга олиш;

- таълимнинг турли вариантларини ишлаб чиқиш, жумладан, ўқувчиларга муайян мавзуни ўргатиш мароми, мақсадлари, методлари, ўқув материаллари, талаб этилган ўзлаштирилганлик даражалари кабиларни кўп вариантларда тақдим этиш;

- таълимда индивидуаллаштиришни қўллаш ўргатиладиган барча ўқув предметлари, уларнинг муайян қисмлари, ўқув курслари, ўқув материаллари ва алоҳида ўқувчиларга нисбатан амалга

оширилади. Бунинг натижасида ўқувчиларнинг умумий белгиларига асосланган ҳолда турли гуруҳларни ташкил этиш мумкин [4].

Австрияда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини индивидуал ривожлантиришга асосланган дастурларда ўқувчиларнинг ўзига хос лаёқатларига асосланган ҳолда уларнинг мустақил ишларини такомиллаштиришни назарда тутадилар. Индивидуаллик ўқувчиларнинг синфдаги мустақил ишлари, топшириқлар, индивидуаллаштириш эса, ўқув топшириғи ҳар бир ўқувчи учун унинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда алоҳида-алоҳида танланганда вужудга келади.

Англия мактабларида ўқув жараёни табақалаштириш тамойили асосида ташкил этилган. Ўқувчилар бошланғич таълим босқичини ўтагандан кейин уч хил йўналишдаги мактабларга бўлинадилар. Улар: грамматик йўналишдаги мактаблар, замонавий ўрта мактаблар ва техника соҳасидаги ўрта мактаблардир. Бу мактабларнинг ҳар бирига ўқувчилар ақлий қобиятлари ва умумий ривожланиш даражаларига кўра тақсимланадилар.

Бугунги кунга келиб таълим жараёнига бўлга ёндашувлар тубдан ўзгармоқда. Ўқув жараёнига индивидуал ёндашув ўқувчиларнинг ақлий қобилиятлари ва қизиқишларига қараб амалга оширилмоқда. Таълим босқичларининг ҳар бирида ўқув жараёнини индивидуаллаштириш ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, у ўта мураккаб педагогик жараён сифатида тавсифланади. Англия мактабларида икки турдаги индивидуаллаштирилган ўқув жараёни амал қилади:

– ўқувчиларнинг турли гуруҳларига таълим бериш, бунда уларнинг лаёқатига боғлиқ ҳолда турли даражага эга бўлган турлича билимлар тақдим этилади;

– бир қатор ўқув предметлари ва таълим соҳаларидан чуқурлаштирилган билим бериш.

Умуман олганда, ўқув жараёнини индивидуаллаштиришнинг мазкур шакллари қулай бўлиши билан бир қаторда, айрим камчиликларга ҳам эга. Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этишда қуйидаги қулайликлар мавжудлиги кузатилди: ўқитиш жараёнида ҳар бир ўқувчининг ўзига хослигини ҳисобга олиш имконияти туғилади; ўқувчиларнинг ўқув-билув жараёнига бўлган қизиқишлари ортади; мустақил ишларнинг аҳамияти ошади; индивидуал топшириқларни бажариш жараёнида ўқувчиларнинг ижодкорлик кўникмалари ривожланади.

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этишда қуйидаги камчиликларнинг мавжудлиги ҳам кўзга ташланади: синф-дарс тизимида ўқитувчининг ҳар бир ўқувчи билан индивидуал шуғулланиш имкониятининг чегараланганлиги; у ёки бу ўқув предметини ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг қизиқишларини ҳисобга олиш натижасида таълим жараёнининг самарадорлигига путур етиши; синфдаги барча ўқувчилар ҳам ўқув материалларини ўзлари мустақил ўзлаштириш имкониятига эга эмасликлари.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сонли “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси” тўғрисидаги Фармони.
2. Педагогика: энциклопедия. II жилд./ тузувчилар: Жамоа. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2015. -368 б.
3. Қаландарова М.К. Ўқувчиларни интеллектуал ривожлантиришга йўналтирилган таълим жараёнини ташкил этиш механизмлари// Монография. – Тошкент: “Фан”, 2019. - 97 бет.

Hamro RAHMATOV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası o'qituvchisi

Ixtiyor AXROROV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA DIDAKTIK O'YINLAR

Ushbu maqola muallifi matematika darsliklarini tahlil qilish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yin uslubini taklif qiladi

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, didaktik materiallar, topshiriq, tezkorlik, mashq, uslub, tajriba, malak, imkoniyat.

Автор данной статьи на основе анализ учебников математики начальных классов предлагают методику дидактическую игры ученикам начальных классов

Ключевые слова: дидактическая игра, дидактический материал, задание, быстрота, упражнение, методика, опыт, квалификация, возможность.

The authors of the given clause offer a technique of the decision of tasks on the basis of the analysis of the tutorials of mathematics of initial classes.

Keywords: didactic game, didactic materials, assignment, quickness, exercise, style, experience, malak, opportunity.

Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yinning o'tkazilish formalari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar ta'lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz "Jimjitlik" o'yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazishimiz mumkin; "Nima o'zgardi" tipidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi va hokazo. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, "Doiraviy misollar" o'yinida hamma bolalar masala yechadi, "Zanjircha"da 10, "Do'koncha"da 8-12 bola, "Narvoncha" da esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari bevosita ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar vositasida bivosita qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, "Eng yaxshi hisobchi", "Kim aniqroq va tezroq" va shu o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar.

O'yin paytida bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

"Kim aniqroq va tezroq", "Bo'sh kelma", "Eng yaxshi hisobchi", "Ko'rganni eslab qolish diktanti" singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. "Kim turgan saf yaxshiroq", "Zanjircha", "Narvoncha", "Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin" singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining bitta o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda bolalar

o‘z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o‘rtoqlari topshiriqni to‘g‘ri bajarsa, o‘ndan behad xursand bo‘ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o‘yin o‘tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi.

Didaktik o‘yinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin, o‘ning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo‘lishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Didaktik o‘yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, “Doiraviy misollar” o‘yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinчисiga to‘g‘ri kelish-kelmasligini bilib bo‘lmaydi. Ana shuning o‘zi bolalarni aktivlashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo‘ymaydilar.

“Do‘koncha” tipidagi o‘yinda o‘yinchoqlar “sotib olish” ning o‘zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o‘yinchoqlar narxini hisoblab (qo‘shib) chiqishga, necha pul “qaytarib” berish kerakligi haqida o‘ylab ko‘rishga ham to‘g‘ri keladi. Bolalar “Qiziqarli kvadratlar” o‘yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda o‘quvchilarga bir yo‘la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, bajarishilishi mumkin bo‘lgan natijalar tug‘risida o‘ylab ko‘rishga va noto‘g‘ri hisobdan voz kechishga to‘g‘ri keladi. Bularning hammasi tez, zo‘r qiziqish va aqliy faoliyat bilan o‘tadi. Katta, chiroyli to‘pni ko‘rgan o‘quvchilarda tortinchoqlik yo‘qola borib, ular dastlab qo‘rqa-pisa, keyinchalik esa dadillik bilan sonlarni o‘ylab topishga kirishadilar. O‘yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to‘g‘ri tushuncha paydo bo‘lardi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini (mustaqil o‘ylab topish paytida) xilma-xil qilishga yordam beradi. “Do‘koncha”, “Nimani taqillatdim?”, “Teatr”, “Bolalar bog‘chasida mehmondorchilikda” singari o‘yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og‘irlik o‘lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib olardilar. Ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o‘yinlar, ayniqsa bolalar ham, o‘qituvchi ham o‘yinining qanday o‘tishiga qiziqqan paytlarida o‘qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi. O‘qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do‘stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o‘yinlar, ayniqsa dastlabki kunlarda bolalarda o‘qituvchi va o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinlar rolini chuqurroq va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz bu ishimizda qo‘llaydigan ta‘lim, o‘yin, didaktik topshiriq, o‘yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta‘rifiga va ularning ma‘nosini ochib berishga to‘xtalib o‘tishimiz zarur.

Ta‘lim - o‘qituvchining bolalarga bilim, ko‘nikma va malakalar berishining, bu bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali suratda o‘tadigan jarayonidir.

Ta‘lim jarayoni - bolalar xotirasining boyishi, ularning nutq va tafakkurining o‘sish jarayoni; turli xil metod va usullar yordamida sodir bo‘ladigan jarayon.

O‘yin - bolalarning suyak-suyagiga singib ketgan faoliyat, ularning bu faoliyati, o‘yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o‘zida aks ettiradi.

O‘yin sinfda o‘tilgan o‘quv faoliyatining ma‘lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Didaktik o‘yin - ta‘lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta‘limiy maqsadlarga erishuvga, ya‘ni o‘tilgan o‘quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya‘ni ma‘lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi. Masalan, “Teatr” o‘yiniga qo‘yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. “Doiraviy misollar” o‘yinida esa ikkinchi o‘nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo‘lgan didaktik topshiriq qo‘yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo‘yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o‘yinining ham har qanday o‘yindagi singari qoidalari bo‘ladi. “Jimjitlik” o‘yinida bolalarga beriladigan topshiriq o‘qituvchi ko‘rsatgan belgi, sonni “hayol”da yechish va son natijasini topishdir. O‘yin qoidasi - ovoz chiqarmasdan harakat qilishdir.

Didaktik material: suratlar, jadvallar, plakatlar, sanoq jadvallari, stol ustida ko‘rsatiladigan teatr-shirma, abak (sanoq asbobi), o‘yinchoqlar, cho‘tlar; har bir bolaga beriladigan sanoq materiali: geometrik shakllar, xaltachalarga solingan dub yong‘oqlar, cho‘plar, qo‘lda yasalgan buyumlar (qog‘oz qayiqcha va shapkacha); geometrik shakllar chizilgan jadvallar, kartondan yasalgan shakllar, sxemalar solingan konvertlar; sanoq materiallari solingan individual yashiklar; geometrik shakllar solingan konvertlar va hokazo.

1-sinfda bir qancha didaktik o‘yilardan foydalanish mumkin: “Men bir sonni o‘ylab qo‘ydim”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Bir-biriga qarama-qarshi”, “Jimjitlik (yangi varianti)”, “Tingla va o‘yla”, “Bir-biriga qarama-qarshi”, “Do‘koncha”, “Narvoncha”, “Zanjircha” “Narvoncha (yangi varianti)”, “Jimjitlik

(narvoncha usulida)”, “Qaysi surat bekitildi?”, “Sanayver”, “Jimjitlik (murakkablashtirilgan varianti)”, “Kim bilsa, hisoblashni davom ettiraversin”, “Doiraviy misollar”, “Hisoblashni qaysi son bilan boshlagan bo‘lsang, o‘sha son bilan tugat”, “Qaysi son yo‘q”, “Topchi, qancha?”, “Tuk-tuk” (har bir o‘quvchi bilan individual suratda o‘tkaziladigan varianti), “Tuk-tuk” (butun sinf o‘quvchilari bilan bir vaqtda o‘tkaziladigan varianti), “Qiziqarli kvadratlar”, “Anqayib o‘tirma”, “Kim aniqroq va tezroq ko‘paytira oladi”.

Didaktik o‘yinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo‘lishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqarar ekan. Didaktik o‘yinlarda tirishqoqlik, matonatlik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanar ekan. Didaktik o‘yin - ta‘lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta‘limiy maqsadlarga erishuvga, ya‘ni o‘tilgan o‘quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya‘ni ma‘lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinar ekan.

Sanoqqa doir didaktik o‘yinlar o‘zining mazmuniga ko‘ra, universal bo‘ladi, ya‘ni ularni (“Jimjitlik”, “Narvoncha”, “Eng yaxshi hisobchi” va boshqalarni) butun yil bo‘yi turli variantlarga o‘tkazish mumkin. Ko‘pchilik o‘yinlarni hech qanday ko‘rsatmali quolsiz o‘tkazish mumkin. Odatda ulardan darsning boshlanish qismida og‘zaki hisoblash o‘rnida yoki darsning oxirgi qismida (3-5 minut davomida) mustahkamlovchi vosita sifatida foydalaniladi. “Jimjitlik” (bir necha varianti), “Hisoblayver”, “Ketgan kim”, “Biz kamayib qoldik”, “Nima o‘zgardi”, “Eng yaxshi hisobchi” (bir necha varianti), “Bir-biriga qarama-qarshi”, “Tingla va o‘yla”, “Narvoncha” (bir necha varianti), “Zanjircha” “Qo‘shish yoki ayirish”, “Hisoblashni qaysi son bilan (boshlagan bo‘lsang, o‘sha son bilan tugat”, “Anqayib o‘tirma”, “Kim aniqroq va tezroq”, “Men bir sonni o‘ylab qo‘ydim”, “Topchi, qancha” va boshqa o‘yinlar ana shular jumlasiga kiradi.

“Teatr”, “Jadvalni qidirib top”, “Doiraviy misollar”, “Do‘koncha”, “Yarmarka” (bir necha varianti), “Qaysi surat bekitildi”. “Ko‘rganni eslab qolish diktanti”, “Sonli jadvallar- Qiziqarli kvadratlar” va boshqa ko‘rsatma qurollari - jadvallari, o‘yinchoqlari, maketi, plakatlari, turli buyumlari va maxsus tayyorlangan o‘yinlar qatoriga kiradi.

Sanoqqa doir o‘yinlar bir necha guruhga bo‘linadi.

Son operatsiyalarini, ya‘ni birinchi va ikkinchi doirasidagi sonlarni qo‘shishni, ayirishni so‘ngra esa ko‘paytirish va bo‘lishni mustahkamlovchi o‘yinlar birinchi guruhga kiritiladi. Turli variantlarda son tuzishni mashq qildiruvchi, sonlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni mustahkamlovchi o‘yinlar ikkinchi guruhga kiritiladi. Undan oshirib hisoblash malakalarini mustahkamlovchi o‘yinlar uchinchi guruhga kiritiladi. To‘g‘ri va teskari sanashni hamda son tarkibini mustahkamlovchi o‘yinlar to‘rtinchi guruhga kiritiladi.

Ko‘paytirish va kamaytirish topshiriqlarini bajarish malakalarini mustahkamlovchi o‘yinlar beshinchi guruhga kiritiladi xat-savodga doir o‘yinlar o‘qish va yozish darslarida o‘tkaziladi. Jadvalda keltirilgan o‘yinlardan ba‘zilari (“Sholg‘om”, “Oldin qanday qo‘yilganini ko‘rib ol va xuddi shunday qilib qo‘y (ko‘rganni eslab qolish diktanti), “Xuddi shunday qilib joyla”, “Bo‘lishlar”, ko‘rsatma qurollardan foydalangan holda, qolganlari esa ko‘rsatma materialsiz o‘tkaziladi. Xat savod egallanishi bilan xat-savodga doir o‘yinlarni o‘tkazish ehtiyoji yo‘qolaveradi.

Sanoqqa doir ba‘zi didaktik o‘yinlarning tasnifi

I guruh. Birinchi o‘nlik doirasidagi son tarkibi malakalarini mustahkamlovchi o‘yinlar

“Buyumlarni 10 gacha sanash”

O‘ynatiladigan didaktik o‘yin: “Jim-jitlik” (1-varianti).

Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash.

O‘yin topshirig‘i (bolalar uchun): konkret buyumlarni hayolda sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko‘rsatish.

O‘yinning borishi (o‘yin bolalarni nari-beri so‘rab chiqilgandan keyin o‘tkaziladi).

O‘qituvchi:

- Bolalar, hozir “Jimjitlik” o‘yini o‘ynaymiz. Men sizlarga indamay har xil narsalarni ko‘rsataman.

Masalan, mana, men qancha cho‘p ko‘rsatdim?

Bir qancha bolalar birdan gapga tushib ketadilar

- yo‘q, bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo‘l ko‘tarish kerak. Men kimdan so‘rasam, o‘sha javob beradi.

O‘qituvchi chaqirgan bolalar doiralar, cho‘plarni sanashadi.

- Endi sizlarga buyumlarni ko‘rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo‘lganini barmoqlaringiz bilan bilan ko‘rsatasiz.

O'qituvchi bitta qalam ko'rsatadi. Bolalarning deyarli hammasi bir vaqtda bittadan barmoqlarini ko'rsatadilar.

O'qituvchi 4 ta qo'g'irchoqni ko'rsatganda qariyb bolalarning hammasi to'rtta barmoqlarini ko'taradilar. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-e'tibori topshiriqni bajarishga qaratilgan. O'qituvchi:

- Barakalla, hammangiz to'g'ri hisobladingiz. Endi cho'pni bir qo'limdan ikkinchi qo'limga olaman, sizlar esa ovoz chiqarmasdan sananglar, keyin menga qancha bo'lganini ko'rsatasizlar.

Bolalar indamay, o'qituvchining harakatlarini kuzatib, sanashadi va hammalari 10 ta barmoqlarini ko'rsatishadi. O'qituvchi:

- Endi kvadratlarni sananglar, - deydi, taxtagachaga ketma-ket oq kvadratlarni qo'yadi. Bolalar sanashadi. Ular oltita narsa ko'rsatilganda oltita barmoqlarini ko'rsatadilar. O'yin 12 minut davom etadi.

Bu o'rinda bolalarning birinchi o'nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha ko'rsatilsa, o'shani barmoq bilan sanab ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, ovoz chiqarmay, hayolda sanash bilish kabi shartli reflektor aloqalari ham mustahkamladi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdaniga erisha olmaydilar, jimlikni talab etuvchi o'yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning yaxshi tomoni shundaki, bolalarning diqqat e'tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo'ladi. Kelgusi darsda yana ham murakkablashtiriladi. Masalan, bolalar barmoqda barcha kvadratlarni ko'rsatishadi. Sanashning shu tarzda murakkablashtirish natijasida bolalarni turli sonlarning tarkibi bilan tanishtiriladi. Bunda bolalar kerakli kvadratlar miqdorini turlicha ko'rsatadilar.

Bu o'yinni o'ynatish tufayli o'quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkoni tug'iladi.

“To'g'ri va teskari sanash”

O'ynatiladigan didaktik o'yin “ko'rganni eslab qolish diktanti”.

Didaktik topshiriq: qo'shib sanash yo'li bilan geometrik shakllardan son qatorini tuzish.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunaga 3-4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometrik shakllarning soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o'zining daftariga to'g'ri yozish.

Ko'pchilik o'yinlar eng qiyin matematik bog'lanishlardan biri - son tarkibining bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'maklashuvchi ajoyib vositalardan hisoblanadi. Dasturga muvofiq, birinchi o'nlikdagi son va raqamlar bilan dastlabki tanisha boshlangan paytdayoq bolalar son tarkibini o'qib olishlar lozim. Shuni ham aytish kerakki, bu vazifa uchun hamma vaqt ham oson bo'lavermaydi, chunki buning uchun bolalarda sonlarning tarkibini farq qilishga asoslangan tahlil, tafakkurining yaxshi mashq qirilgan bo'lishi talab etiladi:

olti - 3 va yana 3; 2 va 4; 5 va 1 ; 2, 2 va yana 2 demakdir. O'quvchilarning son va raqamlar anchayin esda qolishining o'zi bilan ish bitmaydi, shuni unutmash kerakki, son va raqamlarni bu tariqa eslabgina qolish yetti yashar bolalar uchun juda ham xarakterlidir. O'qituvchi ishining g'oyat murakkabligi ham ana shundadir.

Materialni puxtarok o'zlashtirish va konkretlashtirish uchun “Teatr”, “Nima o'zgardi” kabi maxsus o'yinlar o'tkazish yaxshi natija beradi.

“4 soni va raqami”

O'ynatiladigan didaktik o'yin: “Nima o'zgardi”

Didaktik topshiriq: 4 soni tarkibining turli variantlarini mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: bolalarning turgan joylarini eslab qolish, ularning joy almashganlarini bilish (ya'ni 4 soni tarkibining yangi variantini ko'rsatish).

O'yindan ilgari og'zaki hisoblash mashqi o'tkaziladi Bolalar masala o'ylab topishadi. Masalan: Karim “Bitta daraxt bor edi, yana uchta draxat o'tqazildi, endi daraxtlar 4 ta bo'ldi” - deydi. “Ikkita mashina turgan edi. Yana ikkita mashina ularning yoniga kelib to'xtadi, - deydi Rahim,- endilikda mashinalar soni 4 ta bo'ldi. O'qituvchi bu bolalarni doskaga chaqirib, ularning aytgan narsalari xayollarida qanday joylashtirilgan bo'lsa, o'sha narsalarni xuddi shunday tartibda jadvalga joylashtirishni taklif qiladi.

O'qituvchi: “4 sonini yana qanday hosil qilish mumkin?” - deb so'raydi. Bolalar uzoq o'ylanib qolishadi. Nihoyat, ulardan biri quyidagi tarzda ko'rsatadi 4.

So'ngra o'yin boshlanadi. O'qituvchi 4 bolani chaqirib, ularni bir safga qo'yadi. Keyin o'quvchilardan biriga “Bolalarning safda qanday turganlarini diqqat bilan ko'rib oladida sinfdan chiqib tur”,- deydi, O'qituvchi bolalarning birini alohida, uchtasini esa yonma-yon qo'yadi tashqariga chiqqan bola kirib keladi. O'zgarishni ko'rgach: “Uch o'quvchi bir joyda, bittasi alohida turibdi”,-deydi.

- Jami qancha? - deb so'raydi o'qituvchi. -To'rt kishi, - javob beradi o'quvchi.

- Demak, to'rt sonini qanday hosil qilish mumkin.

- Uchta birni qo'shib.

O'qituvchi doska oldiga boshqa o'quvchini chaqiradi. U ham safda turgan bolalarga bir nazar tashlab, tashqariga chiqadi. Qaytib kirgach: "Ilgari chap tomonda uch kishi, o'ng tomonda bir kishi turgan edi, endi esa har ikkala tomonda ikkitadan kishi bor", - deydi.

- Bunga qanday erishildi? - so'raydi o'qituvchi.

- Uchta bo'lib turganlardan biri yakka turgan bolaning yoniga o'tib olibdi.

- Demak, - deydi o'qituvchi, - 4 sonini yana qandan hosil qilish mumkin ekan?

- Ikkiga ikkini qo'shib, - javob beradi o'quvchi.

So'ngra uchinchi o'quvchi sinfdan chiqib turadi. O'qituvchi uch bolani birga, bittasini alohida qo'yadi. Sinfga qaytib kirgan o'quvchi yuz bergan o'zgarishni aytadi:

- Ilgari ular ikki kishidan turishgan edi, endi esa bu yerda bir, anavi yerda uch kishi bo'lib qolibdi.

- Qaysi tomondagilar ko'pchilikni tashkil etibdi? Mana bu tomondagilarmi, Ibrohim? To'g'ri. Demak, 4 soni yana qanday hosil bo'lar ekan?

- Birga uchni qo'shish yo'li bilan, - deb javob beradi o'quvchi.

So'ngra o'qituvchi butun sinfga murojaat qilib:

- 4 soni qanday hosil bo'ladi? - deb so'raydi. Ko'pchilik o'quvchilar javob berish uchun qo'l ko'taradilar to'g'ri javob berishadi:

- To'rtta birdan, o'ch bilan birdan, ikki bilan ikkidan bir bilan uchdan.

O'yin jonli va qiziqarli o'tadi. Alohida-alohida so'rash natijasida doskaga chaqirilgan o'quvchilarnigina emas, sinfdan o'tirgan boshqa o'quvchilarning ham to'rt sonining tarkibini yaxshi tushunganlari aniqlanadi. O'yin besh minut davom etadi. Shundan so'ng o'qituvchi bolalarni 4 raqami bilan tanishtiradi.

"5 soni va raqami"

O'ynatiladigan didaktik o'yin: "Teatr" ("Nima " tipida).

Didaktik topshiriq: 5 soni tarkibini mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: buyumlar (qo'g'irchoqlar) tarkibini eslab qolish, ularni solishtirib ko'rish, joylar almashgandan keyin o'zgarishni topib ko'rsatish. Foydalaniladigan buyumlar: pardasi bo'lgan ramka, beshta qo'g'irchoq.

O'qituvchi o'yin boshlangunga qadar o'quvchilar bilan besh soni tarkibini takrorlaydi. O'ndan so'ng o'yin shartlarini tushuntirishga o'tadi.

Adabiyotlar

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning didaktik asoslari. p.f.d avtoreferati -T., 2005 y
2. Ibrohimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari. p.f.d ilmiy darajasi uchun taqdim etilgan dissertatsiya.
3. Abduraxmonova N., Axmedov M., Jumayev M., 1-sinfda matematika darslari.O'qituvchi kitobi. – Toshkent, 2006.- 192 b.
4. Abduraxmonova N.,O'rinbaeva L. Matematika. 2-sinf uchun darslik. – T.: "O'zbekiston NMI", 2012.- 208 b.
5. Adizov B.R.Ijodiy ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. //“Xalq ta'limi” jurnali. 2008, 4-son .
6. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. – T.: "Uzinkontsentr", 2011.- 158 b.
7. Bikbayeva N. va boshqalar. Matematika. 4-sinf uchun darslik.-T.: "O'qituvchi", 2011. -208b.

Мохинур САИДОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси

БОШЛАНҒИЧ СИНФ МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ МОҲИЯТИ, УСУЛЛАРИ ВА ШАКЛЛАНТИРИЛАДИГАН КОМПЕТЕНТЛИК

Мазкур мақолада ахборот технологияларининг мазмуни, бошланғич синф математика ўқитиши жараёнида фойдаланиши мумкин бўлган ахборот технологиялар, уларнинг турлари ва ащамияти ҳақида фикр юрилтилган.

Калит сўзлар: *Дарс, масала, математика, ахборот технология, бошланғич синф.*

В этой статье даётся мысль о содержании и значении, видах информационных технологий, которые процессе обучения математики в начальных классах.

Ключевые слова: *Урок, информационные технологии, задача, математика, первоначальный класс.*

Here was written about the importance of and the types of information technologies using in math lessons, the main idea of innovative technologies.

Key words: *Sum, math, teaching method, information technology, Primary school.*

XXI асрда жаҳон миқёсида таълим барқарор тараққиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилиб, 2030 йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида “бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш” долзарб вазифа сифатида белгиланди. Бу таълим тизимида педагоглар, жумладан, бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий фаолиятида методик тайёргарлик даражасини ошириш, ижодий тафаккурни ривожлантиришга йўналтирилган технологиялардан фойдаланиш имкониятини кенгайтирди.

Дунё миқёсида таълим жараёнига ахборот технологияларини жорий этиш, уларнинг дидактик асосларини ўрганиб, янги усул, воситаларни ишлаб чиқиш методикасини ва методологик асосларини такомиллаштириш, ўқувчилардаги ижодий билиш фаолиятининг репродуктив ва продуктив даражаларни моделлаштириш юзасидан қатор янги усуллар ва ғояларни ишлаб чиқиш зарур. Мазкур янги ғоя, янги усулар натижасида ўқувчи-ёшларнинг эркин, мустақил фикрлаш, атрофдаги воқеликка онгли муносабатда бўлиш, дахлдорлик ва ижтимоий фаоллик каби сифатларини ривожлантириш, дарс жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг моддий-техника базаси яратилди, меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқилди. Интеллектуал салоҳиятли ўқувчини тарбиялашда таълим тизимининг ролини кучайтириш бошланғич таълимнинг юқори сифатини таъминлаб, илғор педагогик ва ахбороткоммуникация технологияларини бошланғич синф ўқитувчилари фаолиятига жорий қилиш учун замин яратиш билан бир қаторда бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантиришни тақозо этмоқда.

Бугунги кунда республикамизнинг таълим соҳасида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг меъёрий-ҳуқуқий базасини тубдан такомиллаштириш, илғор хорижий тажрибалар, илмий изланишлар ва замонавий технологияларни бошланғич таълим жараёнига интеграция қилиш, билиш фаолиятини шакллантириш орқали бошланғич синф ўқувчиларининг билим, кўникма ва малакаларини ўстириш устувор вазифа қилиб белгиланган. Ўзбекистон Республикасида таълим сифатини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Таълим жараёнида натижавийликка эришиш бўйича ўқувчиларнинг ақлий ва ижодий тафаккурни ўстириш учун шартшароитларни тубдан яхшилаш, ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятларини таъминлаш, педагог ва мутахассисларнинг малака даражасини юксалтириш” каби муҳим вазифалар белгиланган. Таълим тизимида бошланғич синф ўқувчиларига математика фанини ўргатишда ахборот таълим ресурслари, иқтидорли ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ўстириш учун ижодий материаллар тизимини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга жорий этиш, фанга бўлган қизиқишни ўстириш билан бир қаторда, Давлат таълим стандартида математика фани доирасида келтирилган билим, кўникма ва малакаларни ҳаётда қўллай олиш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ахборот технологияларининг бошланғич синф математика дарсларида фойдаланиш ва уни дарсларда жорий этишда қуйидаги бир қатор муаммолар ўз ечимини топиши кераклиги таъкидланади:


- Бошланғич синф ўқувчиларига математикани ўргатишда ўзига хос инновацион технология тури бу - ахборот технологияси эканлиги.

- Бошланғич синф математика дарслари жараёнида ҳар бир инновацион технологияларнинг ўз ўрни бор. Айниқса, инновацион технологияларнинг бир тури саналган ахборот технологияси ўқувчилар тафаккури, дунёқараш ва фикрлаш қобилиятини ўстириш учун хизмат қилади. Ахборот технологияси интерфаол методлар, дидактик ўйинлардан фарқли ўларок, барча математик тушунча ва мавзуларни экранда кўриб, фикр юритишда ва таҳлил қилиш учун яхши самара беради. Математика дарслари ахборот технологиялари ва уларнинг турларидан фойдаланиш энг яхши восита эканлиги қайд этилди.

- Бошланғич синф математика дарсларидан ахборот технологиялари орқали ўтишда эҳтиёж сезиладиган мавзулар базасини шакллантириш лозим. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланиш белгиланган мавзу юзасидан чуқур билим олиш, тасаввур, тушунча ҳосил қилиш учун замин яратади. Айниқса, каср ва ҳаракатга доир масалаларни тушунтиришга доир ахборот таълим ресурсини шакллантириш болаларда мавҳумликдан аниқликка бориш учун йўл очади, қолаверса, билимларини мустаҳкамлашга, мавзунини чуқурроқ таҳлил этишга, кейинчалик юқори синф мавзуларни ҳам қийинчиликларсиз ўзлаштириш учун пойдеворни мустаҳкамлашга асос бўла олади.

– Ахборот технологияларидан бошланғич синф математика дарсларида фойдаланиш учун уни дидактик воситалари тизимини ишлаб чиқиш зарур.

– Бошланғич синф математика дарслари жараёнида яхши самара бера оладиган ахборот технология турларини ажрата олиш ва ундан фойдаланишни ташкиллаштириш. Бошланғич синф математика дарси жараёнида самарадорликни оширишда фойдаланиш мумкин бўлган технологиялар тизимини қуйидагича ажратиш мумкин.



Ўқитувчи бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан қўллашда дидактик воситалардан фойдаланиш учун махсус кўникма ва малакаларга эга бўлиши зарур.

Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир материаллар қуйидаги муаммоларни ҳал этиши зарур:

1. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир материалларни танлаш ва уларни ўқитиш самарадорлигини оширишда сараланган материаллардан назарий (маъруза) ва амалий машғулотларда қандай анъанавий, ноанъанавий методлардан ҳамда шакллардан фойдаланишни аниқлаш.

2. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир танланган материаллар ўқувчиларнинг мустақил, ижодий фикрлашларини, билиш қобилиятларини ривожлантиришни, мантикий мулоҳаза юритишларини ҳисобга олиш.

3. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир танланган материалларни ўқувчиларга ўқитиш методикасини ишлаб чиқиш.

Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир танланган материаллардан ўқув жараёнида фойдаланиш деганда қуйидаги мақсадлар тушунилади:


- танланган материаллар математика фанининг ўқув режаси ва дастури талабларига мос келиши, ўқувчиларнинг қийналмасдан ўзлаштириб олишларига ёрдам бериши;
- ўқувчиларда илмий дунёқарашни, абстракт тафаккурни шакллантириш;
- ўқувчиларда мустақил ва ижодий фикрлашни ўстириш;
- ўқувчиларда абстракт тафаккурни, мантикий мушоҳада юритишни ривожлантириш;
- ўқувчи эгаллаган назарий билимини қийналмасдан амалиётда қўллаш билиши;
- бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир танланган материаллардан ўқув жараёнида фойдаланиш мақсадли ва режали асосда бўлиши, зарурий педагогик вазиятни аниқланган ҳолда танланиши.

Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишга доир танланган материалларга қуйидаги дидактик талабларни қўйиш мумкин:

- танланган материалларнинг мазмуни дидактик ва методик талабларга жавоб бериши керак;
- танланган материаллар мазмуни содда, қисқа ва тугалланган матнда ифодаланган бўлиши зарур;

- танланган материаллар мазмуни ва улардаги фактлар ҳақиқий бўлиши лозим;
- танланган материаллар ва синон саволлари аниқ ҳамда тушунарли бўлиши даркор.

Масала ечиш жараёнида ўқитувчи, албатта, қайсидир метод, усул, ва воситалардан фойдаланади. Метод тушунчаси дидактика ва методиканинг асосий тушунчаларидан бири. Дидактика ва методикага оид ҳозирги замон ишларининг кўпчилигида методлар ўқитувчи ва ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолиятлари усуллари бўлиб, бу фаолият ёрдамида янги билимлар, кўникма ва малакаларга эришилади. Ўқувчиларнинг дунёқарашлари шаклланади, уларнинг қобилиятлари ривожланади, деб тавсифланади. Бошланғич синф математика ўқитиш жараёнида қатор метод, усул ва воситалардан фойдаланиш мумкин.




Дарсликлардаги содда масалалардан ташқари баъзи масалалар борки, уни алоҳида таҳлил этишимиз, махсус методикасини ишлаб чиқишимиз, ахборот технологияларини қўллаш ва ўқувчиларни ўзлаштиришлари, тушунишлари, таълимда эса натижавийлигини ўстириш учун ахборот технологиялардан фойдаланиш зарур. Айнан шу масалаларнинг мазмунини ўқувчиларга яхшироқ етказиш учун махсус методика тизимини ишлаб чиқиш, қолаверса, ахборот таълим ресурси керак. Бу масалалар туркумига қуйидагилар киради:




Ўқиб тушунишда ўқувчиларга мураккаблик туғдирадиган масалаларга қаср, улуш ва ҳаракатга доир масалалар киради.

Қаср тушунчасини ўрганиш жараёнида ўқувчилар сонни бир неча улушини топишга доир билимни оладилар ва уни малакага айлантирадилар.

Улуш ва қасрга доир масалаларни ечишни ахборот технологиялар асосида ўргатиш ўқувчиларда маълум компетентликни ривожлантиради.



Ҳаракатга доир масалаларни ахборот технологиялар орқали мукамал ўрганиш ўқувчида қатор компетентликни ўстиради.



Бошланғич синф математика дарсларида масала устида ишлашда яхши натижага эришиш учун юқорида келтирилган методика асосида қуйидаги тавсияларни келтириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

1. Назарий ва амалий таҳлилимиз масала, масала устида ишлаш жараёни қанчалик аҳамиятли эканлигини гувоҳи бўламиз. Масаланинг турлари, содда масалани мураккаб масалага айлантириш, масала режаси устида ишлаш ва қисқача шартини тузиш жараёнидаги камчиликларини бартараф этишнинг самарали усули ахборот воситалардан фойдаланиш ва уларнинг энг мақбулини танлай олиш.

2. Ўқувчиларда дастлабки масала ҳақидаги тасаввурни шакллантириш учун $\square - \square = \square$, $\square + \square = \square$ кўринишга мос масалаларни ахборот технологияларида ҳаракатли расмлар орқали тушунтириш.

3. Даре давомида сонни улушини, улушга қараб сонни топиш, сонни бир неча улушини топишга доир масалаларни ўргатишда шаклланиши кўзда тутилган компетентлик асосида самарали ишлар тизимини ишлаб чиқиш ва ундан фойдаланиш.

4. Улуш ва қасрга доир масалаларни ўқувчилар осон тушунишлари учун ахборот технологияларидан кенг фойдалана олиш ва ўрганган билимларини амалиётга тадбиқ эта олиш қобилиятига алоҳида эътибор қаратиш керак.

5. Ҳаракатга доир масалалар устида ишлашнинг методикасига кенг эътибор қаратиш, қисқа ёзув кўринишларни тўғри танлай олиш, ахборот технологиялари орқали тезлик, масофа ва вақтни топа олиш, турли ижодий топшириқлар орқали бу кўникмани малакага айлантириш лозим;

Ўқитувчи доимо юрт ва унинг равнақи учун хизмат қиладиган ёшларни тарбиялайди. Шундай экан, ўқитиладиган ва ўргатиладиган ҳар бир фан ва элементга алоҳида эътибор бериш лозим.

Зеро, масалани тўғри ва аниқ ишлашга ўрганиш, мантиқий тафаккурни ривожлантиришга хизмат қиладиган асосий восита саналади.

Адабиётлар

- 1.Халиллаев А, Худойназаров Э. Бошланғич синфларда масала ечишга ўргатиш методикаси. - У., 2010. -6 б.
2. Курманила Ш Методика преподавания математики в начальных классах. –Астана, 2011. 92-с
3. Куланов И.Б.Мултимедиали ўқитиш тизимларини яратиш технологиясига бўлган талаблар. “Физика, математика ва информатика” журнали. 2009. -№2.
4. Арипов М., Бегалов Б., Бегумкулов У., Мамаражабов М. Ахборот технологиялари. – Тошкент, 2009. – Б. 198.
5. Роберт И.В., Панюкова С.В., Кузнецов А.А. и др. Информационные и коммуникационные технологии в образовании // Учебнометодическое пособие для педагогических ВУЗов. -М., 2006. –с. 259.

Махфуза САДУЛЛАЕВА

Бухарский государственный университет
учитель кафедры методики
начального обучения

**ПОСЛОВИЦЫ И АФОРИЗМЫ В БАСНЯХ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ
НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ БАСНИ “КАЛИЛА И ДИМНА”
ИНДИИ)**

Басни и пословицы - эти народные жемчужины можно найти в книгах. Басни и пословицы действительно делают речь говорящего плавной и красивой и производят большее впечатление на слушателя. Многие исследователи, рассматривая языковые особенности тех или иных произведений, внесли огромный вклад в развитие теории литературы.

Ключевые слова: афоризмы, пословицы, паремиология, сопоставление, этническая литература, обеспечение, языковые особенности, басни, поговорки, впечатление.

Fables and Proverbs - these folk gems can also be found in books. Fables and proverbs really make the speaker's speech smooth and beautiful and make a greater impression on the listener. Many researchers, considering the linguistic features of certain works, have made a huge contribution to the development of literary criticism.

Key words: aphorisms, proverbs, paremiology, comparison, ethnic literature, provision, linguistic features, fables, sayings, impression.

Масал ва мақоллар-бу халқ дурдоналарини китобларда учратиши мумкин. Масал ва мақоллар чиндан ҳам сўзловчининг нутқини силлиқ ва чиройли қилиб, тингловчида катта таассурот қолдиради. Кўпгина тадқиқотчилар айрим асарларнинг лингвопоетик хусусиятларини ҳисобга олиб, адабиёт назарияси ривожига улкан ҳисса қўшганлар.

Калим сўзлар: афоризмлар, мақоллар, паремиология, қиёслаш, этник адабиёт, ризқ, тил хусусиятлари, масаллар, гаплар, таассурот.

“Сегодня, анализируя пройденный нами за годы независимости трудный и вместе с тем славный путь, избранный нашим народом, мы можем с гордостью сказать, что, став хозяевами своей судьбы, за исторически короткий период достигли огромных успехов в обретении достойного места в мировом сообществе, обеспечении прав и свобод человека, возрождении национальной государственности и духовных ценностей, нашей священной религии, обычаев и традиций” Ш.М.Мирзияев [1].

Как известно, индийские ученые и литературоведы внесли огромный вклад в обогащение этнической литературы посредством басен и пословиц. Многие исследователи, рассматривая языковые особенности тех или иных произведений, внесли огромный вклад в развитие теории литературы.

Пословицы и афоризмы с точки зрения смысла и грамматики - сжатый текст, в котором обобщен многолетний опыт людей с четкими изображениями общественного мнения, советов и мудрости.

В наследии народов мира басни играют важную роль в формировании национального языка, литературы и культуры, тем самым способствуют обогащению его содержания. Научная паремиология (Паремиология (др.-греч. παροιμία paroimía - притча, пословица и λόγος logos - слово, учение) - подраздел фразеологии, раздел филологии, посвященный изучению и классификации паремий - пословиц, пословичных выражений, антипословиц, поговорок, веллеризмов, девизов, слоганов, афоризмов, загадок, примет и других изречений, основным назначением которых является краткое образное вербальное выражение традиционных ценностей и взглядов, основанных на жизненном опыте):

“Дружба с коварным завистником хуже сглаза, общение с клеветником опаснее, чем чума и проказа”[2].

Восточные и западные мыслители этого сокровища; бесценные люди, которые часто использовали в своей деятельности пословицы и афоризмы, пока не появилась письменность. Можно говорить о происхождении басен и пословица, “Калила и Димна”.

Книг оказалась поистине огромной сокровищницей сюжетов, неисчерпаемым кладом, из которого можно было черпать и черпать. В ней был материал для создания и забавных басен, и коротких новелл, и назидательных и нравоучительных сочинений. Соединенные в одной книге

мудрость и занимательность существовали как бы и отдельно: каждая из частей “Калилы и Димны” могла стать сюжетной основой для создания произведения любого жанра, прозаического или поэтического.

В различные эпохи читатели находили в “Калиле и Димне” то, что было интересно для всех сословий: ученые проникали в скрытый смысл забавных басен и сказок, постигая ту мудрость, ради которой Ануширван отправил Бурзое в опасное путешествие; простые горожане смеялись, читая о злключениях недалекого мужа, поверившего неверной жене, или о хитрости обезьяны, обманувшей черепаху, желавшую получить обезьянье сердце, или же о глупости осла, который “отправился за рогами, но вернулся с отрезанными ушами”. Многие узнавали в своевольном и жестоком льве—царе зверей—правителей своего времени, в тиграх, кабанах и шакалах - князей и вельмож, а в маленьких птичках, сумевших победить могущественного слона,- малых мира сего, и себя самого, и своих соседей и знакомых. Ну а, скажем, богословы видели в книге “божественную” аллегория, повествующую о тщете бренного мира и о тех добродетелях, коими должен обладать каждый верующий и благочестивый человек, чтобы достойно провести свою жизнь и получить доброе воздаяние на том свете.

Из истории произведения “Калила и Димна”, как известно, индийские ученые и литературоведы внесли огромный вклад в обогащение этнической литературы посредством басен и пословиц. Наши исследования показали, что Западные ученые пришли к выводу о том, что в более ранних произведениях древнеиндийских книг использовано множества басен и пословиц. И тема дружбы, чести как положительного; корысти, обмана как отрицательного являются основной темой этой главы.

Вначале плоды вероломства сладки и приятны, но вскоре они становятся горькими, и предатель, раз поскользнувшись, все быстрее катится в пропасть. Благоразумие велит мне покинуть тебя и оставить бесполезные увещания и наставления, коими помышлял я исправить твой нрав и изменить твою природу, ибо коварство и злонравие заразны, словно моровая язва. Недаром гласит пословица: “Дружба с коварным завистником хуже сглаза, общение с клеветником опаснее, чем чума и проказа” [3].

Любая басня отличается от всех других художественных произведений своей краткостью текста, но безграничной и вечно общественной проблемой. Как говорил, “Краткость – сестра таланта”, в чем надо дать должное баснописцам. Басня как литературный жанр считается многогранной в научном исследовании.

В нашей статье, мы анализируем сходство и различие лексико-структурную их классификацию. В подтверждении сказанного приведем несколько примеров из “Калилы и Димны”. В разговоре Калилы и его друга Димны, второй признается в предательстве царя; а именно как он подтолкнул царя к убийству своего близкого подчиненного Шатрабу.

Димна говорит: “Что случилось, того не вернуть”[3]. Димна свое предательство оценивает как заслугу перед царем, он не видит в этом ничего погубного. Мать же царя, узнав об этом, начинает упрекать предателя Димну словами: “И тебе придется испытать смертный страх и тяжкие муки, так что ты пожалеешь, что родился на свет, и будешь желать себе скорой смерти”[3].

Она совершенно точно указывает на источник “Калилы и Димны” - написанную на санскрите книгу “Панчатантра”, буквально “Пятикнижие”, начинающуюся именно с рассказа о царе зверей льве и двух шакалах - Каратаке и Даманаке, чьи имена по-арабски стали звучать “Калила” и “Димна”. Автор “Панчатантры” неизвестен. Ученые-санскритологи полагают, что ее первоначальный вариант, не дошедший до нас, появился в III-IV веках н. э., однако, без сомнения, отдельные басни о людях и животных, из которых состоит “Панчатантра”, появились гораздо раньше, ибо были частью фольклора Индии. От них-то и идут так называемые “бродячие” или “странствующие” сюжеты в фольклоре многих народов мира, подобные рассказу о “лягушке-путешественнице”. Во-вторых, легенда отражает присущее людям древности и средневековья отношение к слову как к некоему волшебному талисману, величайшей драгоценности, достойной храниться в царской сокровищнице. Ведь слово - облаченная в словеса мудрость и в то же время ее оружие, вот потому-то мудрость ценится выше богатства, дороже царской власти. Легенда как бы подчеркивает общечеловеческое значение “Калилы и Димны”: заключенная в ней мудрость, по словам Бахнуда ибн Сахвана, поучительна и необходима не только индийцам или персам, но всем народам и всем людям, желающим приобщиться к ней, она надобна не только “мудрецам и философам”, которые желают постигнуть ее глубины, но и каждому, кто станет читать ее, привлеченный забавными рассказами, и незаметно для себя начнет проникаться высшей мудростью в той мере, в коей позволит ему нрав его и разумение. И действительно, трудно назвать в мировой литературе книгу, что заслужила бы такую

же воистину непреходящую популярность. Она оказалась понятной и близкой людям средневековья и нового времени, ее читали в переводах и переложениях в Западной Европе и на Руси, в Иране, в Турции и Индонезии. Почему же “Калила и Димна” волновала умы в течение столь долгих веков? Ведь литературы тех стран, где осуществлялись переложения и переводы этого сочинения, изобилуют произведениями самых разнообразных жанров, и поэтических, и прозаических, которые по своей значимости и художественным достоинствам намного превосходят сборник забавных басен о животных.

Очевидно, причина популярности кроется в том, что провозглашаемая книгой цель, якобы “доступная лишь философу”, не так глубоко запрятана и потому понятна простому читателю, неискушенному в философских вопросах. И цель эта - показать отношения человека и общества, вскрыть самые распространенные человеческие пороки, найти способы, с помощью которых можно от них избавиться, то есть сформировать личность разумного человека

Особую популярность “Калила и Димна” получила примерно через триста лет после своего появления, в XI веке, когда к арабской литературе, особенно к ее художественной прозе, проявили интерес ближайшие соседи арабов — византийцы. Около 1080 года византийский прозаик Симеон Сиф перевел “Калилу и Димну” с арабского на греческий язык, дав ей название “Стефанит и Ихнилат” (букв. “Увенчанный и Следопыт”), так как переводчик “этимологизировал” имена шакалов, произведя имя Калила от “иклиль” (араб, “венец”), а Димна - от слова, обозначающего “остатки кочевья”. Греческий перевод послужил основой для множества переложений и переводов на славянские языки, и уже в XII в. книга “Увенчанный и Следопыт” пришла на Русь, где приобрела широкую известность как нравоучительное зеркало. Древнерусские переводчики почитали ее наставлением в христианском благочестии даже утверждали, что автор - не кто иной, как Иоанн Дамаскин, знаменитый христианский богослов. В этих двух отрывках нас больше занимает мудрые изречения пословицы, поговорки. В первом отрывке использована пословица “Что случилось, того не вернуть” имеет свой синоним в русском языке “Кто помянет прошлое, тому глаз вон!”, на узбекском “Ўтган ишга саловот”. Если учесть кочующие темы, выражения, пословицы, поговорки, афоризмы, то без труда можно найти аналогичные варианты данной пословицы. Невольно возникает вопрос, в чем сущность данной пословицы. Здесь нужно учесть две стороны: первое положительное прошлое, второе негативное прошлое. Этим определяется ситуация использования данной пословицы. Здесь Димна, как отрицательный персонаж, предатель. Он не хочет вспоминать содеянное, считая себя грешным. Недаром грех его преследует “Нет обмана, который бы не раскрылся, нет клеветы, которая не была бы опровергнута рано или поздно” [5].

Учитывая этническую особенность русской нации, необходимо учесть словесную культуру, чтобы прошлое не мешало людям дальше честно жить, использована эта пословица; Глаз вон. Ведь недаром, мы знаем, что это богатство дано нам, чтобы деяния наши были благие.

Он говорил: “Нет обмана, который бы не раскрылся, нет клеветы, которая не была бы опровергнута рано или поздно. Ты настроил царя против мирного и благородного нравом Шатрабы, говоря, что он набирает себе сторонников в его войске. Но когда царь начнет расспросы, обнаружится ложь и откроется правда. И тебе придется испытать смертный страх и тяжкие муки, так что ты пожалеешь, что родился на свет, и будешь желать себе скорой смерти [3]”. И тебе придется испытать смертный страх и тяжкие муки, так что ты пожалеешь, что родился на свет, и будешь желать себе скорой смерти.

Тебя раздавят, как ядовитую гадюку, боясь твоей злобы и опасаясь твоего яда. Я отрекаюсь от тебя и с нынешнего дня не считаю тебя больше своим другом и не доверю ни одной тайны, ибо мудрые люди сказали: “Сторонись того, кто не заслуживает доверия” [5]. Я должен покинуть тебя, чтобы спасти свою жизнь, ибо царь, узнав правду, будет беспощаден”. Индийский писатель и литературный критик Раджендра Раджан Чатурведи сравнивал пословицу с притчей, рассказывающей правду о жизни. Басни и пословицы отражают связь с народом. В связи с этим он отмечает, что “каждая басня и популярная пословица - продукт общественного мнения”. Их происхождение зависит от условий проживания людей. “Мудрецы говорили: “Если хочешь узнать, кто тебя любит и кто ненавидит, кто твой враг и кого ты можешь считать другом,- спроси себя и загляни в свое сердце, ибо в нем, как в зеркале, отражается и вражда, и любовь” [5].

“Признание истины жизни исходит из самой жизни”,- говорят арабы. Это мудрое изречение не только для Востока, но и для Индия тоже [4]. “Быт людей меняется, но напоминание и правда жизни как завещание между людьми принимаются”, говорит Лакшман Нараян - индийский литературный критик басен и пословиц: И сердце сказало бы тебе, что речи доносчиков - злая ложь и наглый обман, ибо сердцу видны самые сокровенные помыслы, и оно проникает в неведомые глубины души.

Считается, что они основаны на истине; имеет значение в разговоре и речи. Он говорит: “Притчи и изречения - знание и кратко и лаконично выраженный опыт, накопленный людьми”, Если хочешь узнать, кто тебя любит и кто ненавидит, кто твой враг и кого ты можешь считать другом, - спроси себя и загляни в свое сердце, ибо в нем, как в зеркале, отражается и вражда, и любовь” [4].

Агрвал - индийский литературный критик, верящий басням и пословицам. Басни и пословицы короткие, ясные и основаны на человеческих знаниях, сильные слова человека и человеческий опыт.

Также Агрвал говорит, что если басни и пословицы в произведениях искусства Хинди использовать по назначению, то язык становится свободным и понятным: “Худшее, в чем можно признаться, - это обвинить себя в жестоком и необдуманном поступке”.

Басни и пословицы - эти народные жемчужины также можно найти в книгах. Басни и пословицы действительно делают речь говорящего плавной и красивой и производят большее впечатление на слушателя. В частности, в книге “Пословицы Северной Индии” в речи используется: “Пословица в речи - соль в пище”. [4]

Подводя итоги хотелось бы отметить изучения басен бесспорно считается считается, востребованной темой исследованием, а сопоставительно- сравнительное изучение удваивает необходимость.

Литература

1. “Наш народ - созидатель и творец всех наших успехов” - Шавкат Мирзиёев. Цитаты из выступления Президента Шавката Мирзиёева на торжествах, посвященных 26-летию независимости Узбекистана. 1 сентября 2017
2. Ожегов С. И. - известный и неизвестный // Словарь и культура русской речи. К 100-летию со дня рождения С. И. Ожегова. -М., 2001. С. 395—401.
3. “Калила и Димна” перевод Б.Шидфар: -Москва, “Художественная литература”, 1986.
4. Комплекс по литературе для студентов академических лицеев. –Ташкент, 2010.
5. Ибн аль-мукаффа КАЛИЛА И ДИМНА Редактор М. Малышев Художественный редактор С. Гераскевич Технические редакторы Л. Коротеева, Л. Зайцева Корректоры Г. Гананольская, И. Гришина

Машхура ЮЛДАШЕВА

Бухарский государственный университет
учитель кафедры методики
начального обучения

РАЗВИТИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ИСТОРИИ ВОСТОЧНОЙ КУЛЬТУРЫ

В статье отмечается, что народы Центральной Азии и Ближнего Востока имеют давнюю историю толерантности, что наши предки с раннего возраста были терпимы к другим религиям и национальностям, внушали им такие качества, как уважение к культуре, языку и традициям других народов. В то же время было сказано, что воспитание терпимости также передается будущим поколениям.

Ключевые слова: толерантность, национально-духовная ценность, великие личности, гармония, духовно-религиозная чистота, человечность, братство, взаимопонимание, терпение, дискриминация, домогательство.

The article notes that the peoples of Central Asia and the Middle East have a long history of tolerance, that our ancestors from an early age were tolerant to other religions and nationalities. Such precious qualities as respect for the culture, language and traditions of other peoples were instilled in them from the birth or early years of childhood. At the same time, it was said that the education of tolerance was also passed on to future generations namely to upcoming young generation of students.

Keywords: tolerance, national-spiritual value, great figures, harmony, spiritual-religious purity, humanity, brotherhood, mutual understanding, patience, discrimination, harassment.

Мақолада Марказий Осиё ва Яқин Шарқ халқлари узоқ йиллик бағрикенглик тарихига ега еканлиги, ота-боболаримизнинг ёшлигидан бошқа дин ва елатларга нисбатан бағрикенг еканлиги, уларда бошқа халқларнинг маданияти, тили ва анъаналарига ҳурмат каби фазилятларни тараннум этгани қайд этилган. Шу билан бирга, толерантлик тарбияси келажак авлодларга ҳам ўтиши айтилган.

Калим сўзлар: бағрикенглик, миллий ва маънавий қадрият, буюк шахслар, тотувлик, маънавий ва диний поклик, инсонийлик, қардошлик, ўзаро тушуниш, сабр-тоқат, камситиш, тазйиқ.

Сегодня одно из духовных и просветительских наследий наших предков в формировании таких духовно-нравственных качеств, как человечность, терпимость, гармония, солидарность, доброта, трудолюбие, честность на основе идей толерантности в процессе воспитания всесторонне зрелого, гармонично развитого поколения в нем несравненно.

Толерантность издавна была характерной чертой узбекского народа, но многие ее аспекты сейчас упускаются из виду исследователями. Важными задачами в этой области являются: прежде всего, определить систему учебных материалов, которые будут служить для формирования у студентов концепции толерантности. Вместе с тем, особое внимание целесообразно уделить деятельности великих деятелей и просветительским материалам, информирующим об историческом опыте нашего народа.

Народные легенды, сказки и былины воспевают легендарную любовь и дружбу между людьми разных религий и национальностей. В частности, произведения “Чор Дарвеш”, “Фарход и Ширин”, а также Фирдавси, Джалалиддина Руми, Ибн Сино, Беруни, Навои, Бабура пропагандировали межрелигиозную и межэтническую терпимость.

В Авесто, пропагандирующем единобожие, большое внимание уделяется поощрению терпимости. Как известно, в нашем регионе зародилась одна из древнейших цивилизаций мира. Природный климат региона, его географически и стратегически важное положение на протяжении тысячелетий приводили к миграции различных коренных племен. Это привело к сосуществованию племен разных религий.

В этом процессе можно заметить, что их культура, обычаи, ценности и традиции также слились. Это, в свою очередь, побуждало различные народы, племена и кланы, проживающие в определенной местности, жить на принципах мирного соседства, дружбы и братства и, естественно, устанавливать и развивать взаимные экономические и культурные связи. Идея жить в гармонии и работать на развитие общества и человечества также является основным содержанием духовных и религиозных ценностей. Известно, что в первом тысячелетии до нашей эры зороастризм зародился на территории, населенной народами Мовароуннахра и Хорасана. В основе религии лежит идея монотеизма, поклонения абсолютным богам, идея межрелигиозной и межэтнической терпимости,

вечной борьбы между добром и злом, постоянного добра другим, пробуждения добродетелей. Основные принципы зороастризма, имеющие национальное и универсальное значение, подробно описаны в Авесте, который считается священной книгой.

Авесто- бесценный письменный источник для изучения многовековой истории, социально-экономической жизни, культуры, духовности, моральных, философских, правовых, этнических взглядов наших предков. Основа нравственного воспитания в Авесто - это воспитание чистых, честных и чистых сердцем людей, независимо от цвета кожи, языка или места жительства. «Какая великая удача в судьбе и жизни людей - родиться чистыми и непорочными, вступить в невинный мир. Надо стремиться к порядочности мира, к миру мира, чтобы сохранить его и вывести на свет[1]. То есть человек рождается невиновным в глазах зороастрийцев, и люди любой расы равны перед абсолютным богом.

Авесто осуждает бесполезные кровавые войны, массовые убийства, военные конфликты и агрессию и поощряет благотворную, мирную, безмятежную жизнь. В связи с этим он сказал: “Я не буду обижен на действия тех, кто хочет причинить вред людям в мире. Зло этих враждебных действий вернется к самим врагам” [1].

Характеристики терпимости, такие как человечность, братство, взаимопонимание, гармония, терпение, восхваляются в Авесто как “почитание убежища, руководства, бдительности и бдительности” [1].

В частности, Авесто говорит, что нужно заботиться обо всех людях: это проявляется в желании жить в мире и братстве [1]. Или “Ашаван Зороастр надеется, что друг примет друга, что дружба будет опорой для дружбы” [1] мы видим прославление идей толерантности.

В том числе, в “Шахнаме” Фирдоуси, царь Хосров больше интересовался вопросами веры и межрелигиозной терпимости, чем другие цари. Хотя Хусрав терпимо относился к другим религиям, он оставался стойким в своей религии. Зороастрийские храмы, в том числе храм Атура Гушнаспа, регулярно посещались и неизменно выполняли все условия веры. Хусрав взшел на престол при поддержке и содействии византийского императора Маврикия. Чтобы укрепить взаимный союз, он женится на византийской королеве, дочери императора Маврикия, мудрой, умной, красивой Марии. Влияние Марии на Хусрова было сильным, и король построил христианские церкви для королевы и прислушивался к ее советам по религиозным вопросам. Но он всегда останется верным зороастризму.

В Коране проявление щедрости, открытости, терпимости, доброты и щедрости считается признаком высокого просветления. Кто не скрывает своей щедрости и доброты от людей и не закрывает дверь щедрости, прежде всего, тот получит от этого большую пользу, он будет духовно удовлетворен, и его дух поднимется. Хадисы осуждают межэтнические конфликты, кровавые столкновения и различные формы этнического разделения. Представителям разных национальностей рекомендуется знать и уважать язык, историю, культуру, национальные обычаи и ценности друг друга и жить в гармонии, даже если их религии и религиозные убеждения различны.

Говорят, что угнетать и осуждать людей других религий - это великий грех: “Кто оскорбляет человека другой религии, живущего в мусульманской стране, в Судный день будет избит огненным кнутом”. “Подружитесь с чернокожими, потому что трое из них будут величайшими из людей Рая: Лукмани Хаким, Наджаши, Муаззин Билал Хабаши” [2].

В учении ислама, который является универсальной светской ценностью, говорится, что самый благородный и благородный поступок - это терпеливо обучать и направлять не только людей других религий, но также угнетателей и извращенцев.

Пословицы в хадисе, такие как “Делай добро для себя и другим”, “Накорми голодных, навещай больных и удовлетворяй нужды нуждающихся”, применимы ко всем народам, нациям мира, как универсальные моральные ценности. “Аль-Джами ас-Сахих”, шедевр Абу Исы ат-Тирмизи, подчеркивает, что доброта и братство являются важными признаками духовной зрелости человека. Это близко к Аллаху, Раю и людям, и далеко от Ада [3].

Великий ученый Востока Абу Наср аль-Фараби пишет: “Между некоторыми людьми нет естественной или добровольной связи. Другие думают, что пойдут на компромисс в случае поражения. Поступая так, они вынуждены прийти к соглашению друг с другом под давлением внешней силы, и если эта сила будет потеряна, соглашение будет потеряно. Снова происходит отчуждение, и они расходятся. Одно из животных верований человечества - это заблуждение и обманчивая вера” [4].

Из этих мыслей Фароби ясно, что он выступает за устранение различных конфликтов в результате необходимости людей жить вместе, добровольно, в солидарности. Особенно это касается узбекского народа. Действительно, не все люди сознательно подчиняются качествам,

характеризующим толерантность, но некоторые из них делают это, подражая большинству, даже без адекватного понимания сути проблемы. Потому что такое настроение отражено в природе узбекского народа, в его природе. Узбекский народ обладает рядом качеств, лежащих в основе национальных ценностей, являющихся проявлением толерантности. Например, скромность, скромность, целомудрие, уважение к взрослым, уважение к малышам, гостеприимство, почитание родителей, отказ от собственных интересов, терпимость к действиям других и так далее.

Эти идеи следует эффективно использовать в воспитании учащихся в духе терпимости. Благодаря дружбе, солидарности и сотрудничеству сближение человека с людьми, народов с народами, наций с народами, дружеские отношения, социально-экономическое, культурное и духовное развитие может стать основой универсальной ценности учения великого ученого Абу Али ибн Сины (5). Информирование учеников о взглядах Ибн Сины на толерантность во время учебных часов имеет важное практическое значение. Исторические и философские взгляды Ибн Сины толерантны, они понятны людям разных рас и религий. Ибн Сина осуждает любое насилие по расовым мотивам, подчеркивая, что человечество имеет то же происхождение. Это также показывает, что национальная и религиозная дискриминация, ограничения подрывают мирные дружеские отношения между народами, социальными группами и отдельными людьми. В ходе своих исследований великий мыслитель развивает идею о том, что люди равны только перед Аллахом, независимо от их религии или расы. Ибн Сина осуждает войны между народами и государствами. Ибн Сина, который бежал из города в город в погоне за сокровищами Шаха Махмуда, критиковал его оккупационную деятельность, считая, что бедствия, постигшие людей разных религий и национальностей, разрушение городов и распространение различных болезней на основе голода. Кроме того, в то время, когда религиозный фанатизм был на подъеме, Ибн Сина лечил евреев, христиан и людей других вероисповеданий и заботился о них, основываясь на убеждении, что все люди равны. Это свидетельствует о том, что в нем воплощены такие качества, как терпимость, благородство, отвага, человечность. Ибн Сина показывает, что услуги древнегреческих мыслителей Сократа, Аристотеля, Зенона, Галена были неопределимы в возникновении и развитии философии, математики, медицины, астрономии, литературы, художественной критики и ряда других наук. Он оставлял несколько рецензии на их работы. В этих комментариях говорится, что религия, раса, социальное происхождение и регион проживания человека не влияют на его или ее вклад в развитие общества. Отсюда следует, что только тогда, когда все народы будут жить в гармонии, гармонии, солидарности и братстве, человеческий прогресс будет развиваться и вести к совершенству. Идеи Ибн Сины об использовании качеств толерантности среди высших человеческих качеств при формировании зрелого сообщества и воспитании гармонично развитого человека актуальны и сегодня.

Изучив определенные концепции толерантности, человек формирует однородную систему аналогичных отношений к объективной жизни. Также определяются этические нормы социального поведения. Интерес студента к требованиям общественной жизни формируется за счет понимания этических направлений. Это особенно важно для учеников начальной школы, которые только начинают принимать кодекс поведения. Элементы устойчивого отношения к членам общества формируются независимо от их вероисповедания. Со дня поступления в школу ребенок осознает материальное и духовное существование в определенной последовательности. Он начинает понимать это все глубже и глубже. Он начинает по-новому смотреть на окружающую среду. Они начинают понимать мир, применяя полученные знания. С этого периода начинается процесс формирования навыков оценки поведения себя и других. Они привыкают оценивать успехи и недостатки себя и своих сверстников. Это служит уникальным поводом для его дальнейшей жизни, которую он потратит на терпимость.

Литература

1. Авесто - исторический и литературный памятник. А. Махкам перевод. -Ташкент: "Шарк", 2001. 382 с.
2. Аль Бухари Абу Абдулла Мухаммад ибн Исмаил. Хадис; Аль-Джами как Сахих (Надежная коллекция); 4 тома. -Ташкент: "Общее издание энциклопедий", 1991. 560 б.; 1996. 622 б; 1994. 559 б; 1992 527 с.
3. Абу Иса ат-Термизи. Аль Джами ас-Сахих (Сахих ат-Термизи).
4. Абу Наср Фараби. Город знатных людей. Ташкент: Народное наследие, 1993. 222 с.
5. Абу Али ибн Сино. Законы медицины, Книга 1. -Ташкент, 1959. 293 с.

Maxbuba SHARIPOVABuxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim
kafedrası o'qituvchisi**O'LMAS AN'ANA VA MAROSIMLAR-MA'NAVİYATIMIZNING NODIR XAZINASI
("Alpomish" dostoni misolida)**

Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo'lgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtayi nazaridan o'rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

В статье обсуждается, ритуальные и эпические отношения, художественные выражения ритуалов, художественное эстетическое и поэтическое мышление этого лирического наследия служит достойным источником для более глубокого понимания национальной культуры образа жизни и традиции.

Ключевые слова: народный эпос, фольклор, фольклор ведение, любовь, национальная культура, церемония, отношении церемония и эпос.

In article is reflected on the ceremony and poem, express artistic of ceremony, national culture, the lifestyle and customs of our people, to study the artistic language og lyrical heritage is being an artistic-aesthetic and poetic thinking from the point of view.

Keywords: the folk poem, folklore, folklore, love, national culture, eremony, relations ceremony and poem.

Milliy epik dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular ma'naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanalanadi. Xalq dostonlari nafaqat og'zaki ijod bilan bog'liq badiiy an'alarimizni, balki milliy maishiy an'alarimizni, betakror va go'zal urf-odatlarimizni avloddan-avlodga yetkazishda alohida e'tiborga loyiqdir. Shu sabab ularni o'rganish milliy an'alarimiz tarixini, olis madaniyatimiz kuch-qudratini chuqur idrok etishga katta yordam beradi. Eng muhimi, xalq dostonlari milliy an'alarimizni yoshlar ongiga chuqur singdirish, har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Marosimlarga aloqador urf-odat va an'analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, ikkinchidan, doston kuylashning marosimlar bilan bog'liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak. Eng muhimi shundaki, ko'pgina dostonlarga diqqat qaratilsa, ularda ma'lum bir marosim bilan bog'liq tasavvur-tushunchalarning izlari saqlanib qolganligini yoki muayyan bir marosimning o'tkazilishi tasvirlab berilganligini kuzatish mumkin bo'ladi. Shuni inobatga olib, dostonlarda marosimlarning badiiy ifoda etilishini alohida kuzatishga to'g'ri keladi. Binobarin, "Alpomish" dostonida ham buning yorqin guvohini ko'rish mumkin.

Rus folklorshunosi B.Putilov "Epos va marosim" masalasiga alohida e'tibor qaratar ekan, ularning bir-biriga bog'liqligini alohida ta'kidlaydi [1]. Darhaqiqat, dostonlar syujetiga nazar tashlansa, B.Putilovning haq ekani ko'rinadi. Bunda garchi olim o'z ilmiy xulosasini, asosan, rus eposchiligi nuqtayi nazaridan ilgari surgan bo'lsa-da, uning bu fikrini hatto o'zbek dostonchiligi ham tasdiqlay oladi. Chunki qaysi bir o'zbek xalq dostoniga e'tibor qaratmaylik, unda, albatta, biror-bir oilaviy-maishiy marosim badiiy ifoda etilganligining, ya'ni tasvirlanganligining guvohi bo'lish mumkin. Ana shundan kelib chiqqan holda folklorshunos J.Eshonqulov: "Shuni aytib o'tish kerakki, eposning, ayniqsa, qahramonlik dostonlarining bevosita marosim bilan bog'liq jihatlari hali yetarli darajada o'rganilgan emas. Arxaik eposda, jumladan, "Alpomish" dostonida ham marosimlarning muhim o'rin tutishi va ustuvor qonuniyat kasb etishi kuzatiladi. Biroq qahramonlik eposi birgina marosimlardan kelib chiqadi yoki tug'iladi deb xulosalash masalani o'ta jo'n hal etish bo'ladi", – deb yozadi [2].

Darhaqiqat, "Alpomish" dostoni garchi qahramonlik dostoni bo'lsa-da, unda xalqimizning madaniy-maishiy turmush tarzi, o'ziga xos oilaviy marosimlari, urf-odat va an'analari tasviri muhim o'rin egallaydi. Ularni o'rganish orqali "Alpomish" dostoni ajdodlarimizning eng qadimiy va hayotbaxsh an'alarini o'zida mujassam etgan betakror badiiy durdona asar ekanini his etish hamda shu orqali "epos va marosim"ning uzviy bog'liqligini anglash mumkin.

J.Eshonqulov yana arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishini asoslab, buni “Alpomish” dostoni tahlili misolida quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi: “Shomonning shajarasi. Uning tanlanishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, “Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, etti yillik zindon, ya‘ni ramziy o‘liklik holatidan so‘ng qayta tirilib chiqib, Qultoy qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz”, – deya qayd etadi [3].

Hatto dostonida tush ta‘biriga bag‘ishlangan qadimgi marosimlar ham keltirilganligini taniqli folklorshunos J.Eshonqulov ta‘kidlab o‘tadi [2].

“Alpomish” dostonida shunday motivlar borki, ularni hozirgi hayotda mavjud bo‘lgan yoki bugungi kunda unutilib, o‘tkazilmaydigan bo‘lib qolgan ayrim oilaviy-maishiy marosimlar bilan qiyoslab o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Aks holda ularning asl mazmun-mohiyatini anglab bo‘lmaydi. Zero, folklorshunos J.Eshonqulov “Alpomish” dostoni haqida shunday deydi: “Ta‘bir joiz bo‘lsa, xalqimizning ko‘hna marosimlar, urf-odatlar, irim-sirim, tabularning “qomusi” deb atash mumkin. Chunki hech bir eposda xalqimizning maishiy hayoti bunchalik keng ko‘lamda badiiy ifodasini topmagan” [2]. Darhaqiqat, bu dostoniga e‘tibor berilsa, unda ma‘lum bir marosimlar bilan bog‘liq tasavvur-tushunchalarning izlari, o‘tkazilish tarzi haqidagi ma‘lumotlar yoxud ularga aloqador qaysi bir poetik aytimning saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, dostonida oilaviy-maishiy marosimlar tasviri muhim o‘rin egallaydi. Shuni inobatga olib, dostonida oilaviy-maishiy marosimlarning badiiy ifoda etilishini alohida kuzatishga to‘g‘ri keladi. Binobarin, “Alpomish” dostonida oilada farzand tug‘ilishi, uni tarbiyalab o‘stirish, nikoh to‘yi bilan bog‘liq qator urf-odatlarining o‘ziga xos talqini uchraydi. Eng muhimi, ana shular dostonning syujet voqealarini vujudga keltirgan.

Marosim bilan bog‘liq poetik aytimlarning hayot voqeligi bilan bog‘liqligini ta‘kidlash, ularning avloddan-avlodga o‘tishini ta‘minlash maqsadida asta-sekin eposlar yaratilgan. Eposlarning marosim bilan bog‘liqligini dalillovchi ikki muhim jihat bor. Birinchisi – marosimlarning eposda aks etishi, ya‘ni badiiy ifoda etilishi bo‘lsa, ikkinchisi – eposning marosimdagi o‘rni va vazifasi. Folklorshunos J.Eshonqulov eposning marosimdagi o‘rni va vazifasi xususida bugungi kunda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida davom etayotgan qadimiy an‘ana – to‘y-u tomosha va boshqa marosimlarning baxshilar ishtirokida o‘tkazilishini eslatib o‘tadi [2].

Ayni paytda, marosimlar ham eposda aks etadi. Shuning uchun hatto ayrim dostonlar orqali unutilib ketgan yoki unutilib borayotgan marosimlarimiz haqida ma‘lumot olish mumkin. Jumladan, folklorshunos B.Sarimsoqov tarixan qarg‘ishning marosim bilan bog‘liq bo‘lganligini ma‘lum qiladi [4]. “Alpomish” dostonidan olingan quyidagi qarg‘ishda esa xuddi magik marosimlarga xos vositalar tilga olingani seziladi:

Erisin, tog‘larning qori erisin,

Yer ostida dushman tani chirisin,

G‘anqillamay sening dovshing qurisin [5].

Qadimgi insonlar tog‘ni ruhlar makoni deb hisoblagan. Shuning uchun tog‘ muqaddas joy sifatida qaralib, unda magik marosimlar o‘tkazilgan. Ayniqsa, baland tog‘ cho‘qqilarida qishin-yozin saqlanib turadigan qor yanada muqaddaslashtirilgan va undan yomonlikka va yomonlarga qarshi vosita sifatida foydalanilgan. Qarg‘ish marosimida tog‘dan keltirilgan qorni (yoki biror jonivorning yog‘ini, ko‘pincha qo‘chqorning quyrug‘ini) eritish orqali kishiga o‘lim tilangan.

Yuqoridagi qarg‘ish “Alpomish” dostonida Hakimbek topib olib davolagan g‘ozga bir kampirning qarg‘ishidir. Chunki shu g‘ozni otib o‘ldira olmagan yigit, nomusga qatlanib kasal bo‘ladi va to‘shakka mixlanib qoladi. Shuning uchun kampir bu g‘ozga o‘lim tilab, qarg‘aydi.

Mana shu misolning o‘zi qarg‘ishning dastlab maxsus marosim tarkibida vujudga kelib, marosim tarkibida ijro etilganini anglashga yordam beradi. Qolaversa, yana u ba‘zi magik marosimlarning eposlar syujetida qisqa satrlarda aytilib o‘tishini ham anglatadi.

“Eposda marosim hech qachon batafsil tasvirlanmaydi, balki uning muhim nuqtalari o‘zining badiiy aksini topgan bo‘ladi. Eng e‘tiborli jihati, marosim epos tizimida syujetni yuzaga keltirib, epik xarakter kasb etadi”, – deb yozadi J.Eshonqulov. Darhaqiqat, “Alpomish” dostonida bola tug‘ilishi, beshik to‘yi o‘tkazilishi, unga ism qo‘yilishi, ikkinchi ism berilishi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi kabi bir qator marosimlar tasvirlanganiki, ulardan birortasini doston syujetidan qirqib olib qo‘yib bo‘lmaydi. Ulardan qaysi biridir olib tashlansa, doston mazmuniga jiddiy putur yetadi. Negaki, bu marosimlarning har biri inson kamolotining ma‘lum bir bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, hayotda ulardan birortasi o‘tkazilmay qolmaydi.

O‘zbek xalq dostonlari syujetini to‘liq anglash uchun o‘zbek xalq marosimlarini ham yaxshi bilish talab etiladi. Aks holda, doston mazmunini to‘liq tushunib yetish qiyin kechadi. Masalan, “Alpomish”

dostonida sovchilikka kelgan Surxayil bilan Barchinning onasi yoqalashib, urushib qolishadi. Holbuki, sovchi ham mehmonday kutilishi lozim. O'zbeklar esa azaldan mehmondo'st hisoblanadi. Shunday ekan, nega mezbon mehmonni xafa qildi? Barchinoyning onasi andishasiz edimi? Unday bo'lsa, o'zbekning "Onasini ko'r – qizini ol, arqog'ini ko'r – bo'zini ol" degan hikmati qayda qoldi? Nahotki, biz maqtaydigan, havas qiladigan Barchinning onasi shunday ayol bo'lsa? degan savollar tug'iladi.

Aslida sovchilikda agar qiz tomon sovchilardan juda norozi bo'lsa, ularni ranjituvchi biror ish qilgan. Masalan, minib kelgan ulovining arqonini yechib yuborgan yoki otining yolini kesgan va hokazo. Shu azaliy udumga binoan "Alpomish" dostonida ham Barchinning onasi Surxayl sovchiligidan norozi bo'lganini bildirish uchun andishasiz sovchiga andishasizlik qiladi. Dostonda shu holat birmuncha bo'rttirilib, ayollarning o'zaro mushtlashishi ko'rinishida tasvirlangan:

O'zing ayyor, bir imonsiz, o'lasan,	Boybichaman kampir ancha o'rlashdi,
Nosoqi so'z bunda aytib turasan,	Bir-birman tura kelib ushlashdi,
Bu mazgilda Kashmir nima qilasan?!	Ikkovi tura keb shunday tirashdi,
Bu so'zlarni aytdi unga boybicha,	To'qqiz kampir turib oraga tushdi.
Quloq sob eshitib Barchin oyimcha,	Kampirlar bularni ayirib qo'ydi [5].
O'rlashma deb ora tushdi bir necha.	

"Alpomish" dostonida ayrim unutilib ketgan yoki unutilib borayotgan marosimlar haqida ham ma'lumot olish mumkin. Masalan, qadimda o'zaro do'stlashish marosimi ham o'tkazilgan. Chunki bu marosim ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Qadimgi zamonlarda aka-uka, do'st tutinish o'sha oilaga a'zo bo'lishni bildirar va oila orqali urug'ga qabul qilinar edi. Dostonda Alpomish va Qorajon do'stligi orqali uzoq kechmishdagi ana shu turmush haqiqatining poetiklashgan holatini ko'ramiz.

Do'stlashish marosimi shartiga ko'ra, odatda, ikki kishi bosh yoki ko'rsatkich barmog'ini kesib, chiqqan qonni bir-biriga yalatadi.

Alpomish bilan Qorajon esa do'stlashish uchun qattiq quchoqlashib ko'rishishadi. Shundan so'ng Alpomish Qorajonnikida mehmon bo'ladi. Qorajon Alpomish sharafiga ziyofat uyushtirib, yugirib yelganча do'stiga xizmat qiladi. Bu vaziyatni ko'rgan enasiga Qorajon shunday izoh beradi:

Xudoni o'rtağa solib do'st bo'ldim,
Kelgan mehmon sening o'g'ling bo'ladi,
Unday desang, ena, ko'nglim qoladi,
Xudoga urdirib osi bo'ladi [5].

Ma'lumki, ko'pgina marosimlarimiz ikki qismdan tashkil topadi. Birinchi qismi – ritual, ikkinchi qismi – ziyofat bo'ladi. Demak, dostonda Alpomish bilan Qorajonning do'stlashish uchun avval qattiq quchoqlashib ko'rishishi marosimning ritual qismini anglatga, keyin Qorajonning Alpomish sharafiga ziyofat tashkil etishi marosimning ikkinchi qismini bildiradi.

"Alpomish" dostonida marosimlarga xos aziz avliyolardan madad tilash motivi ham uchraydi. Binobarin, biror-bir marosimni tashkil etishdan oldin avval xudodan, so'ngra aziz avliyolardan, nimaga sig'inilayotgan bo'lsa, o'sha sohaning pirlaridan madad tilanadi.

"Alpomish" dostonida Boboxon tog'ida yolg'iz qolib, Boychibor bilan boylovli qolgan Qorajon har ikkalasiga madad tilar ekan, avliyolarni shafe keltirib, iltijo qiladi. U o'z yo'qlorida barcha insonlarning otasi sanalgan hazrati Odam, Makka muazzamni barpo etgan payg'ambar Ibrohim, uning o'g'li Ismoil, dinlarning chirog'i Imomi A'zam, Shayx Ahmad, Zinda pil, Imomi shafi, er Sulaymon, Toshkant mulkidan er bobo Zangi, saxiyning sardori Sayd Vaqqos, G'avs bilan G'iyos, haqning xaznachisi Xidiri Ilyos, Xo'ja Hofiz Sherozi, hazrati Hyp, G'avsul A'zam vali, Xo'ja Dobil, Akbar, Shohi Zzinda, Erdoniyor, Xo'jayi Zumrati, Xo'jayi Ahror, Erxo'ja mozor kabi ulug'larning nomini tilga oladi va deydi:

Avvali oblodan, duyumi pirdan,	Kam bandang maqsadin tilar mug'oyib.
Miskin umid qilar Aliday sherdan.	Oting rahmon, qaytar shayton yo'lidan.
Lochinning qanoti bo'lmasin mayib,	Xoliqsan, karimsan, qahrindan qutqar,
Baloga sabr etgan hazrati Ayub,	Gunohkor bandaman, maqsadga etkar [5].
Uch yuz oltmish o'ttan mardoni g'oyib,	

Aslida bunday yo'qlovlar shomon marosimlarining birinchi bosqichida kuylangan. Chunki turkiy xalqlar qadimdan ruhlarning mavjudligiga, ularning abadiyligiga, ezgu ruhlarning insonga homiylik ko'rsatishiga ishonganlar. Shunday e'tiqodiy qarashlar ular bilan muloqotda bo'lishga qaratilgan marosimlarning shakllanishiga turtki bo'lgan. "Alpomish" qadimiy turkiy xalqlarning mushtarak eposi sifatida ana shunday e'tiqodiy qarashlarni o'z bag'rida saqlab kelmoqda.

O.Qayumovning qayd etishicha: "Avliyolar yoki marhum bo'lgan qarindoshlari, ajdodlari ruhini yod olish, ularning nomini zikr etish, ulardan madad kutish shomon yo'qlovlarining xarakterli jihatlaridan sanaladi [6].

Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” – mumtoz epos [7]. Unda qo‘llangan har bir detal o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Doston va marosim munosabatlarini o‘rganish-milliy madaniyatimizga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat va ehtiromimiz namunasi. Dostonda ifodalangan marosim va urf-odat, o‘lmas an’analar xalqimiz ma’naviyatining nodir hazinasidir.

Adabiyotlar

1. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: “Наука”, 1974. – С.76.
2. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – Б.93-94
3. Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: “Фан”, 2006. – Б.5.
4. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: “Фан”, 1988. – Б. 144-145.
5. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: “Шарқ”, 1998. – 400 б.
6. Қаюмов О. Шомон йўқловларининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 1-китоб. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2006. – Б.64-68.
7. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том.–Т.: “Фан”, 1988.–Б.144-145.
8. “Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари” мавзуидаги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – 220 б.
9. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: “Фан”, 2004. – 120 б.

Машхура ЮЛДАШЕВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси

ШАРҚ МАДАНИЯТИ ТАРИХИДА БАҒРИКЕНГЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Мақолада Марказий Осиё ва Яқин Шарқ халқларида бағрикенглик тарбияси узоқ тарихга эга эканлиги, ота-боболаримиз фарзандларига жуда ёшлиқдан бошлаб бошқа дин ва миллатларнинг вакилларига нисбатан сабр-бардошли бўлиб, ўзга халқларнинг маданияти, тили, урф-одатларини ҳурмат қилиш каби фазилатларни сингдириб келганлиги, шу билан бирга, бағрикенглик тарбиясини келгуси авлодларга ҳам тарғиб қилинганлиги ҳақида айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: бағрикенглик, миллий-маънавий қадрият, буюк сиймолар, тотувлик, маънавий-диний поклик, инсонпарварлик, биродарлик, ўзаро ҳамжиҳатлик, сабрлилик, камситиш, раҳна.

В статье отмечается, что народы Центральной Азии и Ближнего Востока имеют давнюю историю толерантности, что наши предки с раннего возраста были терпимы к другим религиям и народностям, внушали им такие качества, как уважение к культуре, языку и традициям других народов. В то же время было сказано, что воспитание терпимости также передается будущим поколениям.

Ключевые слова: толерантность, национально-духовная ценность, великие личности, гармония, духовно-религиозная чистота, человечность, братство, взаимопонимание, терпение, дискриминация, домогательство.

The article notes that the peoples of Central Asia and the Middle East have a long history of tolerance, that our ancestors from an early age were tolerant to other religions and nationalities. Such precious qualities as respect for the culture, language and traditions of other peoples were instilled in them from the birth or early years of childhood. At the same time, it was said that the education of tolerance was also passed on to future generations namely to upcoming young generation of students.

Key words: tolerance, national-spiritual value, great figures, harmony, spiritual-religious purity, humanity, brotherhood, mutual understanding, patience, discrimination, harassment.

Узоқ вақтлар мобайнида бағрикенглик ўзбек халқининг табиатига хос хусусият бўлиб келган бўлсада, унинг кўпгина қирралари бугунги кунда тадқиқотчилар назаридан четда қолмоқда. Бу соҳадаги муҳим вазифалар: биринчи навбатда талабаларда бағрикенглик тушунчасини шакллантиришга хизмат қиладиган ўқув материаллари тизимини белгилаб беришдан иборат. Бунда буюк сиймолар фаолияти ҳамда халқимизнинг тарихий тажрибасидан хабардор қилувчи ўқув-материалларига алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Халқ афсоналари, эртақ ва дostonларида турли дин ҳамда миллатга мансуб кишилар орасидаги афсонавий муҳаббат, дўстлик мадҳ этилган. Жумладан, “Чор Дарвеш”, “Фарҳод ва Ширин”, шунингдек, Фирдавсий, Жалолиддин Румий, Ибн Сино, Беруний, Навоий, Бобур асарларида динлар ва миллатлараро бағрикенглик тарғиб қилинган. Буюк саркарда ва шоҳ Бобурнинг ўзи том маънодаги толерант шахс бўлган.

Якка худоликни тарғиб қилувчи “Авесто”да бағрикенглик тарғиботига катта ўрин берилган.

Маълумки, дунёдаги энг қадимги цивилизациялардан бири бизнинг минтақамизда пайдо бўлган. Минтақанинг табиий иқлимга мос шарт-шароити, жуғрофий ва стратегик жихатдан муҳим жойлашув ҳолати, минглаб йиллар давомида турли аҳоли қабилаларининг кўчиб келишига сабаб бўлган. Бу ҳол эса турли динга мансуб қабилаларнинг бир маконда қўшилиб яшашига олиб келган.

Ушбу жараёнда уларнинг маданияти, урф-одатлари, қадрият ва анъаналарининг ҳам бирлашиб кетганлигини кузатиш мумкин. Бу эса, ўз навбатида, маълум бир ҳудудда яшаётган турли хил халқ, қабил ва уруғларнинг тинч қўшничилик, дўстлик, биродарлик тамойилларига асосланган ҳолда яшашга табиий равишда эса ўзаро иқтисодий, маданий алоқаларни ўрнатиш ва ривожлантиришга ундаган. Тотувликда яшаб, жамият, инсоният тараққиёти учун фаолият кўрсатиш ғоялари маънавий-диний йўналишдаги қадриятларнинг ҳам асосий мазмунини ташкил этган.

Маълумки, эраמידан олдинги биринчи минг йилликда Мовароуннаҳр ва Хуросон халқлари яшаган ҳудудда зардуштийлик дини вужудга келди. Диннинг асосини якка худолик, мутлақ илоҳга сиғиниш ғояси, динлар ва миллатлараро бағрикенглик ғояси, яхшилик ва ёмонлик ўртасидаги азалий кураш, бировларга доимо яхшилик қилиш, эзгулик хислатларини уйғотиш каби тасаввурлар ташкил этади. Зардуштийлик динининг миллий ва умумбашарий ахамиятга эга бўлган асосий қоидалари муқаддас китоб ҳисобланган “Авесто”да батафсил баён этилган.

Авесто - аждодларимизнинг узок тарихи, ижтимоий-иқтисодий ҳаёти, маданияти, маънавияти, ахлоқий, фалсафий, ҳуқуқий, этник қарашларининг қарор топиши ва ривожланишига хос тарихни ўрганиш учун бебаҳо ёзма манбадир. “Авесто”даги ахлоқий тарбиянинг асосини терисининг ранги, тили ва яшаш манзилидан қатъий назар пок зийнат, ҳалол, қалбан соф инсонларни тарбиялаш масаласи ташкил этади. “Пок ва беайб туғилмоқ, ёзиксиз дунёга қадам қўймоқ одамлар тақдири ва тириклигида нечоғли улуғ толеъдир. Оламнинг одоблиги, жаҳоннинг осойишталиги учун жону жаҳд қилмоқ, уни асрамоқ ва ёруғликка томон элтмоқ керак” дейилиши фикримизнинг далилидир [1]. Яъни инсон зардуштийлар наздида ҳеч қандай айбсиз туғилади ва ҳар қандай ирққа мансуб кишилар мутлақ илоҳ олдида баробардир.

“Авесто”да беҳуда қон тўқувчи урушлар, қирғинлар, ҳарбий тўқнашувлар, босқинчилик ҳужумлари қораланиб, ўтроқ, тинч, осуда, осойишта ҳаёт кечиришга ҳам даъват этилади. Бу хусусда: “Жаҳон аҳлига озор етказмоқчи бўлганларнинг кирдикоридан менга ҳеч ранж етмагайдир. Бу душманона хатти-ҳаракатларнинг касри душманларнинг ўзига қайтгайдир” деб алоҳида таъкидланади [1].

Инсонпарварлик, биродарлик, ўзаро ҳамжиҳатлик, тотувлик, сабрлилик каби бағрикенглик хусусиятлари “Авесто”да “паноҳбахшлик, сардорлик, нигоҳбонлик ва нигоҳдорликни шарафлаймиз” деб мадҳ этилади [1].

“Авесто”да ғаразғўйлик, ҳасад, манманлик, фитна-фасод, ўғрилиқ, талончилик, бегоналарнинг мол-дунёсига кўз олайтириш, хиёнат, бевурдлик каби иллатлар қаттиқ қораланган бўлса, ваъдага вафо қилиш, самимият, садоқат, холислик, ўзаро иззат-икром каби хислат ва фазилатлар, маънавий-ахлоқий кадриятлар эса улуғланган.

Айниқса, барча инсонларга ғамхўр бўлиш лозимлиги тўғрисида “Авесто”да “Илоҳий қонунга бўйсунадиган яхши киши, яқин одамга меҳрибон бўлиш, муҳтожлик ва хавф-хатар остида қолганда кўмаклашишга шайлик, кишилар бахт-саодати учун ёвузликка қарши фаол курашга тайёр бўлиш, ҳамма билан аҳил ва тотувликда, биродарликда яшашга интилишда намоён бўлади” [1]. Ёки “Ашаван Зардушт умид қиладики, дўст дўстга паноҳ берсин, порсолик порсоликка, дўстлик дўстликка имдод-тиргак бўлсин” [1] тарзидаги бағрикенглик ғояларининг улуғланганлигини кўрамай.

Ҳозирги кунда ҳар томонлама етук, баркамол авлодни тарбиялаб вояга етказиш жараёнида бағрикенглик ғоялари асосида инсонпарварлик, бағрикенглик, аҳиллик, ҳамжиҳатлик, меҳр-оқибат, меҳнатсеварлик, ҳалоллик каби маънавий-ахлоқий хислат ва фазилатларни шакллантиришда аждодларимизнинг буюк маънавий-маърифий меросларидан бири ҳисобланган “Авесто”, ундаги ўғитлар, панд-насихатлар ўрни бекиёсдир.

Шу ўринда Зардуштийлик динида динлараро бағрикенгликка қанчалик катта аҳамият берилганлиги ҳақидаги қуйидаги ибратомуз мисолни келтириш мумкин. Фирдавсий “Шоҳнома”сида тавсифланишича, шоҳ Хусравни эътиқод, динлараро бағрикенглик масалалари бошқа подшолардан кўра кўпроқ қизиқтирарди. Хусрав бошқа динларга нисбатан бағрикенглик нуқтаи назаридан қараган бўлса-да, у ўз динига собит қолаверади. Зардуштийлик ибодатхоналари, жумладан, Атур Гушнасп ибодатхонасига доимий равишда ташриф буюриб, эътиқоднинг барча шартларини изчил бажариб борарди.

Хусрав Византия императори Маврикийнинг қўллаб-қувватлаши ва ёрдами билан тахтга ўтиради. Ўзаро иттифокни мустаҳкамлаш мақсадида у император Маврикийнинг қизи Византия маликаси, ақлли, доно, гўзал Марямга уйланади. Хусравга Марямнинг таъсири кучли бўлиб, шоҳ малика учун христиан черковлари қурдиради ва диний масалаларда унинг маслаҳатларига кулоқ солади. Лекин ҳар доим зардуштийлик динига содиқ қолади.

Қуръонда эҳсонли, қўли очик, бағрикенг, мурувватли, кенг феълли бўлиш юксак маърифат белгиси, деб қаралади. Кимда ким одамлардан ҳиммати, мурувватини аямаса, саховат эшигини бекитмаса, бундан, энг аввало, унинг ўзи катта наф кўради, маънавий қониқиш ҳосил қилади, руҳи кўтарилади.

Ҳадисларда миллатлараро можаролар, қонли тўқнашувлар, миллат ажратишнинг ҳар хил кўринишлари қораланган. Ҳар хил миллат вакиллари, гарчи динлари ва диний эътиқодлари ўзаро фарқ қилса-да, бир-бирларининг тили, тарихи, маданияти, миллий урф-одатлари ва кадриятларини билиш ва ҳурматлашга, ўзаро тотув бўлиб яшашга даъват этилган.

Бошқа динларга мансуб бўлган кишиларга тазйиқ ўтказиш, қоралаш катта гуноҳ экани айтилган: “Кимки мусулмон мамлакатига яшовчи бошқа динга мансуб кишини ҳақорат қилса, қиёмат кунини ўтдан ясалган қамчи билан саваланади”, “Кимки сулҳ битими билан яшаётган ғайридинни ўлдирса, у жаннатнинг бўйини ҳам ҳидламайди”, “Қора танли халқларни ҳам дўст тутаверинлар, зеро, улардан учтаси жаннат аҳлининг улуғларидан бўлурлар: Лукмони Ҳаким, Нажоший, Муаззин Билол Ҳабаший” [2].

Умуминсоний, дунёвий қадрият бўлган ислом таълимотида бошқа динларга, мазҳабларга мансуб кишиларнигина эмас, ҳатто золимларни, бузуқларни ҳам сабр-тоқат билан тарбиялаб, тўғри йўлга солиш энг савобли, энг эзгу иш деб уқтирилган.

Ҳадиси шарифдаги “Ўзингга раво кўрганни бошқаларга ҳам раво кўр”, “Очларга овқат беринг, беморларни бориб кўринг ва ҳожатманднинг ҳожатини чиқаринг” каби ҳикматлар умумбашарий ахлоқий қадрият сифатида жаҳондаги жамики халқлар, элатлар ҳамда миллатларга тааллуқлидир.

Абу Исо Термизийнинг шоҳ асари бўлмиш “Ал жомий ас-саҳиҳ”да эзгулик ва қардошлик инсон маънавий етуқлигининг муҳим белгиларидан бири эканлиги алоҳида таъкидланиб: “Бир-бирингизнинг орангизни бузманг, бир-бирингизни ёмон кўрманг, бир-бирингизга ҳасад қилманг”, “Саҳий киши Оллоҳга, жаннатга ва одамларга яқиндур ва дўзахдан узокдур” деб уқтирилган [3].

Шарқнинг буюк алломаси Абу Наср Форобий шундай ёзади: “Баъзи одамлар ўртасида табиий ёки ихтиёрий боғланишлар йўқ, ҳар бир одам ўз манфаати учун зарар етказиш, бири бошқасига бегона бўлиши зарур, мабодо улар бирлашмасалар ҳам зарурат, мажбурият туфайли бирлашадилар, ўзаро мурасага келишсалар ҳам фақат бири ғолиб чиқади. Бошқалар мағлуб бўлганда мурасага келадилар деб ўйлайдилар. Бунда улар ташқаридан таъсир этувчи бир куч тазйиқидан ўзаро келишувга мажбур бўладилар, агар ана шу куч йўқолса келишув ҳам йўқолади. Яна бегоналашув пайдо бўлади ва улар тарқалиб кетадилар. Инсониятга хос ҳайвоний акидалардан бири мана шу нотўғри тасаввур ва алдамчи ақидадир”[4].

Форобийнинг бу фикрларидан кўрииб турибдики, у инсонларнинг биргаликда ўзаро, ихтиёрий равишда биргалашиб, ҳамкорликда яшашлари зарурлиги натижасида турли низолар бартараф этилишини уқтиради. Бу, айниқса, ўзбек миллатига хос тушунчадир. Ҳақиқатдан ҳам, бағрикенгликни ифодаловчи хусусиятларга кишиларнинг ҳаммаси ҳам онгли равишда бўйсунавермайди, балки уларнинг бир қисми кўпчиликка тақлиддан, масала моҳиятини етарли ҳис этмасдан туриб ҳам амал қилаверадилар. Чунки бу руҳий ҳолат ўзбек халқи хусусиятида, унинг табиатида ўз ифодасини топган.

Миллий қадриятлар негизини ифодаловчи ўзбек халқининг қатор фазилатлари борки, улар бағрикенгликнинг намоён бўлиш омили ҳисобланади. Масалан, ибодат, ҳаё, ифқат, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат, меҳмондўстлик, ота-онани улуғлаш, ўз манфаатини устун қўймаслик, ўзгалар ҳаракатига тоқат ва бошқалар.

Ушбу фикрлардан талабаларни бағрикенглик руҳида тарбиялашда самарали фойдаланиш лозим.

Дўстлик, ҳамжихатлик, ҳамкорлик туфайли инсон инсон билан, халқлар халқлар билан, миллатлар миллатлар билан яқинлашиши, дўстона муносабатлар ўрнатиши, ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий тараққиётга эришиши буюк аллома Абу Али ибн Сино таълимотининг умуминсоний, умумбашарий қадриятига асос бўла олади [5].

Тарбиявий соатларда Ибн Синонинг бағрикенгликка оид қарашларини талабаларга етказиш муҳим амалий қимматга эга.

Ибн Синонинг тарихий-фалсафий фикрлари, қарашларининг бағрикенглик хусусияти шундаки, улар турли хил ирк, динга мансуб халқлар учун тушунарлидир.

Ибн Сино инсониятнинг келиб чиқиши бир эканлигини таъкидлаб ирқий мотивларга асосланган ҳар қандай зўравонликни қоралайди. Шунингдек, миллий ва диний камситишлар, чегаралашлар, халқлар, ижтимоий гуруҳлар, алоҳида одамлар орасидаги ўзаро тинч, дўстона муносабатга раҳна солишини кўрсатади. Ўз изланишлари жараёнида буюк мутафаккир инсонлар қайси динга ва ирққа мансублигидан қатъий назар ягона Оллоҳ олдида тенгдирлар деган ғояни янада ривожлантиради.

Ибн Сино халқлар, давлатлар ўртасидаги низолар урушларни қоралайди. Шоҳ Маҳмуд ғазнавий таъқибидан шаҳардан-шаҳарга қочиб юрган Ибн Сино унинг истилочилик фаолиятини танқид остига олиб, турли дин ва миллат вакиллари бошига тушган кулфат, шаҳарларнинг бузилиши, камал қилиниши натижасида очлик асосида ҳар хил касалликлар тарқалиши тўғрисида фикр юритади.

Шунингдек, диний мутаасиблик авж олган вақтда Ибн Сино барча инсонлар тенг деган ақидага асосланган ҳолда, яҳудийлар, христианлар ва бошқа динга мансуб инсонларни даволаб, парвариш қилиб, касалликлардан фориғ қилади. Бу унда бағрикенглик, олийжаноблик, мардлик, инсонпарварлик каби хусусиятлар олий даражада мужассамлашганлигини кўрсатади.

Ибн Сино фалсафа, математика, тиббиёт, астрономия, адабиёт, санъатшунослик ва бошқа бир қатор фанларнинг юзага келиши ва ривожланишида қадимги грек мутафаккирлари Сукрот, Арасту, Зенон, Галенларнинг хизматлари беқиёс эканлигини кўрсатади. Уларнинг асарларига шарҳлар ёзади. Мазкур шарҳларда инсоннинг дини, ирқи, ижтимоий келиб чиқиши, қайси ҳудудда яшаши унинг жамият тараққиётига қўшган ҳиссасига таъсир кўрсатмайди, дейди. Шундан келиб чиқадики, барча

халқлар ўзаро ахил, тотув, ҳамжиҳатлик ва биродарликда яшагандагина инсоният тараққиёти ривожланади, камолотга йўл тутди. Ибн Синонинг етук жамоани шакллантириш ва баркамол инсонни тарбиялашда юксак инсоний фазилатлар қаторида бағрикенглик хусусиятларидан фойдаланиш ҳақидаги фикрлари ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас.

Бағрикенглик тарбиясида Абу Райҳон Беруний маънавий-илмий меросидан ҳам самарали фойдаланиш мумкин.

Берунийнинг маънавий-маърифий таълимотида миллатлар, халқлар, элатлар тенглиги, биродарлиги умумбашарий қадрият сифатида улуғланади. У бирон-бир халқни ёки этнокодни сабабсиз улуғлаб, бошқасини қолоқликда айбламаган.

Дунёдаги барча халқларга ҳурмат билан қараш, уларнинг тарихи, маданияти, турмуш тарзи, ҳаёти, одоб-ахлоқи, тили, миллий урф-одатлари ва қадриятларини эъзозлаш юксак маънавият, ҳозирги таъбир билан айтсак бағрикенгликдир. Олим ўзининг “Ҳиндистон” асарида халқларни дўст, иноқ, иттифоқ бўлиб яшаши, маданий-маърифий ҳамкорлиги ва ҳамжиҳатлигига халакит берадиган урушларни афсусланиб тилга олади. У халқлар ўртасида тўғри муносабатларни ўрнатишда миллий ва диний чегараланишни бартараф қилиш лозим, деган ғояни илгари сурди. Беруний хиндларнинг айрим миллатчилик, маҳаллийчилик қарашларини кескин қоралайди. “Ахмоқлик, даъвоси йўқ бир касалликдир, шундайки, уларнинг эътиқодича, - дейди аллома, - дунёда ўз ерларидан бошқа ер йўқ, жинсларидан бошқа халқ йўқ, ўз бошлиқларидан бошқа подшоҳлар йўқ, ўзларидан бошқа илм йўқ ва динларидан бошқа дин йўқдир. Ўзларини юқори тутиб, бемаъни ҳаракат қиладилар ва кибрланиб, билимсиз қоладилар. Ўрганган нарсаларига бахиллик қилиб, ўз жинсларидан бўлса ҳам, ноаҳил ўзга кишига ўргатмайдилар”. [6]

Беруний ирқий баҳоналарга асосланган ҳар қандай зўравонликни рад этади, одамларнинг умумий келиб чиқишини тасдиқлайди.

Мутафаккир жамиятнинг одамлар ўртасида келишувига асосланган ҳолда вужудга келишини таъкидлаб, ушбу жамият ўзининг раҳбарларига зўравонликка қарши чора кўриш ҳуқуқини топширганини кўрсатади. Шунинг учун у раҳбарлар ҳам жамият номидан зўравонликка қарши кураш олиб боришлари лозимлигини ўз асарларида қайта-қайта уқтириб ўтган.

Алломанинг ҳикматли сўзлари инсонларни тўғри йўлдан юришга, одил ва билимдон, меҳр-оқибатли, вафодор бўлишга, хиёнат қилмасликка, миллат ажратмасликка, юртни, халқни, ватанни севишга, илм ва меҳнатни қадрлашга, инсофли-тавфиқли бўлишга даъват этади.

Буюк бобокалонимиз Юсуф Хос Ҳожиб [7] қаламига мансуб XI аср туркий халқларининг ноёб ёзма ёдгорлиги – “Қутадғу билиг”да илм маърифат, одоб-ахлоқ, давлатни бошқариш йўл-йўриқлари, миллий-маънавий қадриятлар ҳақидаги кенг қамровли қарашлар ва таълимотлар ўз аксини топган.

Асарда таъкидланганидек, инсон бу ёруғ дунёда фақат еб-ичиш, мол-дунё тўплаш, бойлик орттириш учун яшамайди. Шахсий фойдасини кўзлаб, бошқаларга хайрихоҳ бўлмаслик, меҳр-мурувват, саховат кўрсатмаслик, нафс бандаси бўлиб қолиш инсоний фазилат эмас, балки энг катта қусурдир, деб уқтирилган. Шу билан бирга, миллати, жинси, диний эътиқоди, дунёқарashi ва мансаби, жамиятдаги мавқеи, касб-коридан қатъи назар одамзод ўз ҳаёти ва умрининг ҳар бир лаҳзасини ғанимат билиб, элим деб, юртим деб, куйиб-ёниб яшаши; халқи, ватани, жамияти, жамоаси, оиласи, қариндош-уруғ ва дўстларига эзгулик қилиши, хоҳ кўп, хоҳ оз бўлса-да, фойда етказиши лозимлиги айтиб ўтилган.

«Қутадғу билиг»да одамгарчилик, чин инсонийлик, ростгўйлик, софлик, меҳр-муҳаббат, вафо, шафқат, мурувват, инсоф, адолат, ишонч, садоқат, хушфеелик, хушмуомалалик, ширинсўзлик, мулоимлик, тавозе, тақаллуф, ҳурмат-эҳтиром, тadbиркорлик, ақл-заковат, ҳалоллик, эзгулик каби ҳислат ва фазилатларни ғайриинсонийлик, ёлғончилик, эгрилик, ноинсофлик, фисқу-фасод, бемеҳрлик, бевафолик, бешафқатлик, мурувватсизлик, адолатсизлик, ёмонлик каби салбий хусусиятлар билан муқояса қилинади ва шу яхши ҳислат, фазилатлардан келиб чиқадиган эзгу ишларни, салбий хусусиятлар туфайли содир бўладиган оқибатларни ҳаётини мисоллар, ишончли далиллар билан исботланади.

Марказий Осиёдаги буюк алломалардан яна бири Абдуллоҳиқ Гиждувонийдир. У бағрикенглик - хилма-хиллик ва ранг-барангликни қабул этиш, уларга умумий гўзалликнинг бир жабҳаси сифатида қараб, эъзозлаб, улар билан уйғун бўлиб яшашдир деб ҳисоблайди. Абдуллоҳиқ Гиждувоний таълимотининг асл моҳияти бағрикенгликдир. Абдуллоҳиқ Гиждувоний асослаган хожагон тариқати йўли ҳам, асарлари – “Мақсад ас соликин”, “Маслак ал орифин”, “Рисолаи сохибия”, “Васиятнома”лардаги ғоялари ҳам бағрикенгликка чорлайди. Буларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, Абдуллоҳиқ Гиждувоний бағрикенгликни жуда кенг маънода тушунган ва уни умуминсоний қадрият сифатида эъзозлаган.

Фалсафа фанлари доктори Г.Наврўзова [8] ўз илмий тадқиқотида Абдулхолиқ Гиждувоний асарлари асосида бағрикенгликни қайси ўринларда намоён бўлиши лозимлигини назарда тутиб, қуйидагича гуруҳлайди:

Инсоний бағрикенглик - инсоннинг бутун борлиққа муҳаббати ва уйғун ҳаракати.

Оилавий бағрикенглик - оила эшигининг ва оила аҳли қалбининг очиқлиги, меҳмоннавозлик, меҳрибон ва ғамхўр бўлиш.

Маҳаллий бағрикенглик - қавм-қариндош, қўни-қўшни, турли дин ва миллат вакилларининг ҳамжиҳатлик ва ҳамкорликда ўзаро ёрдам қўлини чўзиб яшаши.

Эл-юрт бағрикенглиги - мамлакат аҳли бир-бирининг урф-одат, эътиқод, ғояларни тан олиб, ҳамкор ва ҳамжиҳат бўлиб яшаши.

Халқлар ва давлатлараро бағрикенглик - миллати, ирки, жинси даражаси, яшаш жойидан қатъий назар бирлик ва дўстликда умр кечиришдир.

Абдулхолиқ Гиждувоний таълимотидаги бағрикенглик турига қараб қуйидаги йўналишларни ўз ичига олган:

Этно-психологик бағрикенглик - ҳар бир халқ, қабиланинг урф-одати, кадрияти руҳий ўзига хослигини тан олиш, кадрлаш, ҳурмат этиш, қабул қилиш.

Миллий бағрикенглик - турли миллатларнинг ёнма-ён тенглик ва дўстлик асосида яшаши.

Ирқий бағрикенглик - турли ирқларнинг тенг ҳуқуқлигини тан олиб улар билан баҳамжиҳат умр кечириш.

Жинсий бағрикенглик - жинслар ўртасидаги тенгликни тан олиш, аёлларни эъзозлаш, кадрлаш.

Диний бағрикенглик - турли хил диний эътиқодга эга бўлган кишиларнинг бир манзил-маконда эзгу ниятлар билан ҳамкорлик ва муросада яшаши.

Иқтисодий бағрикенглик - иқтисодий ёрдам, тенг муносабатга асосланган ҳамкорлик.

Ижтимоий-сиёсий бағрикенглик - жамиятдаги мол-мулки, нуфузи, сиёсий қарашларидан қатъий назар ўзаро тенг ҳуқуқли инсонлар сифатида тан олиш ва улар билан мулоқотда бўлиш.

Умуминсоний бағрикенглик - барча инсонларни эъзозлаш, кадрлаш ва тенг муносабатда бўлиш.

Бу ғояларни амалга ошириш ирқ, элат, миллат, аҳоли қатлами, динлар, жинслар ҳамда ҳимоясизларга нисбатан ҳар қандай зўравонлик сиёсатини қоралайди ва улғувор сифатларни эгаллашга, эзгу амаллар қилишга ундайди. Гиждувоний одамларга тенглик, ҳамкорлик, ҳамжиҳатлик, ўзаро ҳурмат билан қараш, бир-бирини кадрлаш, имконият ва салоҳиятларининг униб ўсишига имкон бериш, эъзозлаш, севиш, меҳр-муҳаббатли бўлишга чорлайди.

Гиждувоний ғояларига асосланган бағрикенглик қуйидаги инсоний сифатларда намоён бўлади: ўз-ўзини англаш, ўз нафсини тийиш ва уни идора этиш; ўз-ўзини ҳурматлаш ва кадрлаш; муроса; ўзаро ҳурмат; бир-бирини кадрлаш; сабр-тоқатлилик; чидамлилик; каноат; шукр; кечиримли бўлиш; ҳолислик; саховатпешалик; озор бермаслик; раҳмдиллик.

Хулоса. Бағрикенгликка оид муайян тушунчаларни ўргангандан кейин талабада объектив ҳаётга бўлган бир хилдаги ўхшаш муносабатлар тизими шаклланади. Шунингдек, ижтимоий хулқ-атворнинг ахлоқий меъёрлари қарор топади. Талабада ижтимоий ҳаёт талабларига нисбатан қизиқувчанлик ахлоқий йўналишларни англаб бориш шаклланади. Бу эндигина хулқ-атвор меъёрларини эгаллаётган бошланғич аудитория талабалари учун жуда муҳимдир. Жамият аъзоларига нисбатан улар қайси динга мансуб бўлишидан қатъий назар барқарор муносабат элементлари шаклланади. Бола мактабга келган кунидан бошлаб моддий ва маънавий борлиқни муайян изчилликда англаб боради. Уни тобора чуқурроқ идрок этишга киришади. Атроф-муҳитга янгича назар билан қарай бошлайди. Эгаллаган билимларини тадбиқ қилган ҳолда оламни идрок этишга киришади. Шу даврдан бошлаб ўзи ва ўзгаларнинг хатти-ҳаракатларини баҳолаш кўникмаларини шакллантириш жараёни бошланади. Ўзи ҳамда ўртоқларининг ютуқ ва камчиликларини баҳолашга одатланиб борадилар. Бу унинг кейинги ҳаётининг толерантликка асосланиб ўтказилиши учун ўзига хос замин бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Авесто - тарихий-адабий ёдгорлик. А.Маҳкам таржимаси. –Т: “Шарқ”, 2001. –382 б.
2. Ал Бухорий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис; Ал Жомий ас Саҳиҳ (Ишонарли тўплам); 4 жилдлик. –Т.: “Қомуслар”, 1991. – 560 б; 1996 – 622 б; 1994 – 559 б; 1992 – 527 б.
3. Абу Исо ат-Термизий. Ал жомий ас-Саҳиҳ (Саҳиҳ ат-Термизий).
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.-Т.: “Халқ мероси”, 1993. 222 б.
5. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари, 1-китоб -Т., 1959. 293-б.
6. Абу Райҳон Беруний. Ҳиндистон. -Т.: “Фан”, 1996.
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. -Т.: “Фан”, 1972.
8. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Дис.авт. 09.00.03.-фалсафа тарихи фалсафа фанлари доктори. -Т., 2002. 46 б.

Лайло ОЧИЛОВА

Бухоро давлат университети
бошланғич таълим назарияси
кафедраси ўқитувчиси

Н. РАЗЗОҚОВА

Бухоро давлат университети
мактабгача ва бошланғич таълим
факультети талабаси

КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДАГИ МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА Фойдаланиш

Ушбу мақолада компьютер технологияларидан бошланғич синф математика дарсларида фойдаланишни илмий асослари ва усуллари ёритилган. Компьютер технологияси асосида ўқувчиларнинг фанга қизиқишларини ошириш, уларнинг билиш кўникмаларини ривожлантириш ҳақида маълумот берилди.

Таянч сўзлар: компьютер, замонавий дарс, технология, ахборот технологияси, Microsoft Power Point, машғулот, масала, мотивлаштириш

В статье описаны научные основы и методы использования компьютерных технологий на уроках элементарной математики. Приведена информация о повышении интереса студентов к науке на основе компьютерных технологий, развитии их познавательных способностей.

Ключевые слова: компьютер, современный курс, технологии, информационные технологии, Microsoft Power Point, кейс, обучение, мотивация

This article discusses the scientific basis and methods of using computer technology in elementary mathematics lessons. Information on the development of students' interest in science, the development of their cognitive skills on the basis of computer technology.

Key words: computer, modern course, technology, information technology, Microsoft Power Point, case, training, motivation

Маълумки, барча таълим муассасаларида, шу жумладан бошланғич мактабларда ҳам сифат, яъни ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаси биринчи ўринда туради. Компьютер технологияларидан эса ўқувчиларнинг билишга бўлган қизиқишларини ривожлантирувчи восита сифатида фойдаланиш мумкин.

Бошланғич синф ўқитувчилари болаларни ўқишга ўргатиши, уларнинг билишга бўлган қобилиятлари, эҳтиёжлари ва қизиқишларини шакллантириши ва ривожлантириши ҳамда таълим жараёни ва фан асосларини чуқур ўзлаштириши учун зарур бўлган таълим воситалари билан таъминлаши лозим. Унинг асосий вазифаларидан бири – болаларнинг билишга бўлган ҳаракатларини кучайтиришдан иборат.

Замонавий дарслар фақат фан ўқитувчиси ва ўқувчи билан чегараланиб қолмаслиги лозим. Умумтаълим фанларининг ихтиёрий бири бўйича машғулотларнинг турли босқичларида компьютер технологияларидан фан бўйича қўшимча маълумотлар манбаи сифатида фойдаланиш мумкин. Бунда ўқув материалларини узатиш тезлиги ва сифати ортади.

Компьютер технологияларидан фойдаланиб бошланғич синф ўқувчиларининг математикани билишга бўлган қизиқишларини орттириш учун уларнинг математика фани билан қизиқтириш ҳам муҳим ҳисобланади.

Жамиятни ахборотлашуви замонавий дарсларда албатта компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланишни талаб қилади. Бу эса ўз-ўзидан ўқувчиларнинг компьютер саводхонлиги ва маданиятини ривожлантиришга олиб келади.

Ўқитувчи машғулот учун ўз олдига қўйган мақсадларга мувофиқ равишда замонавий ахборот технологияларидан қуйидаги мақсадларда фойдаланиш мумкин:

- ўқитувчи компютери ва видеопроектор ёрдамида кўрсатиш учун мўлжалланган намойиш килувчи дастурлар;
- ўқувчиларнинг билим даражаларини аниқлаш учун тренажёрлар;
- масалаларни ечиш бўйича ўқувчилар кўникма ва малакаларини ошириш учун тренажёрлар;
- математика тарихи ҳамда ўрганилаётган мавзу, ечилаётган масалалар бўйича ахборот кидирув ёки маълумотнома дастурлари.

Компьютерлардан фойдаланиш режалаштирилган машғулотлар одатий машғулотлар каби олиб борилади. Уларда компьютерлардан дарс мавзусига оид хусусий масалаларни ечишда фойдаланиш мумкин. Бунда ўқувчи томонидан жорий мавзуни чуқур ўзлаштирилишига, ижодий мулоҳаза юритишига эришиш мумкин.

Компьютерли машғулотларни бошлашдан аввал ўқувчиларни албатта техника хавфсизлиги қоидалари билан таништириш лозим. Ундан кейин ўқувчилар компьютерлар билан ишлаш учун бошланғич кўникмаларга эга бўлишлари керак. Машғулотларда бошланғич синф ўқувчилари компьютерлар билан битта машғулот мобайнида 15 минут, кун давомида эса 30-40 минутдан ортиқ ишламасликларини назорат қилиш лозим. Шу муносабат билан ўқув жараёнини тўлалигича ахборотлаштирилмайди, фақат унинг алоҳида олинган элементларини аънавий усулдаги дарслар таркибига киритиш тавсия этилади.

Бугунги кунда компьютер таълими учун бир қатор амалий дастурлар мавжуд. Улардан бошланғич синф ўқитувчилари машғулот самарасини орттириш учун эҳтиёжга кўра турли мақсадларда фойдаланишлари мумкин. Намойиш этиш учун мўлжалланган дастурлан бири фойдаланувчилар ўртасида кенг тарқалган *Microsoft PowerPoint* дастури ҳисобланади. Унинг ёрдамида мультимедиа презентацияларни ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш мумкин. Бундай презентациялар ўқув материалларини ранг-баранг, бўёқларга бой, динамик тарзда ифодалашда ўқитувчига катта ёрдам бера олади.

Яхши ўқийдиган ўқувчиларнинг ёмон ўқийдиган ўқувчилардан асосий фарқи уларнинг қобилиятларида эмас, балки уларнинг фаоллигидадир. Компьютер ўқувчиларга хато қилишга имкон беради ва шу заҳотиёқ бу хатоликни тузатишга ўқувчиларда иштиёқни пайдо қилади. Компьютер худди ўқитувчи сингари ўқувчининг хатти-харакатини баҳолай олади. Аммо, унинг хулосаси яқуний ва ўзгармас ҳисобланмайди. Демак, компьютер ва замонавий ахборот технологиялари таълим жараёни самарадорлигини оширишга имкон берувчи воситалардан ҳисобланади.

Компьютер ўқув материалларини ифодалаш ва ўқувчиларга узатиш усуллари етарлича даражада кенгайтирди. Ранг, графика, товуш, видео ва бошқа бир қатор эффектларни таълим жараёнида қўллаш эвазига турли муҳит ва вазиятларни юзага келтириш мумкин бўлиб қолди.

Ўқувчилар таъриф, теорема, исбот, қоида ва формулаларни эслаб қолишларига тўғри келади. Мантиқан бир-бирига боғланган математик билимлар занжирини эслаб қолишга ўргатиб, ўқитувчилар уларнинг фикрлаш қобилиятларини ривожланишига йўл очадилар, бунда қуйидагича топшириқлардан фойдаланиш мумкин:

- *икки хонали сонларни эслаб қолинг;*
- *математик терминларни ёдланг;*
- *сўзлар занжирини ёдланг;*
- *хотирадаги маълумотлар бўйича расм чизинг;*
- *расмларни эслаб қолинг ва қайта чизинг;*
- *кўриш орқали рақамларни ёддан ёзинг;*
- *эшитиш орқали математик диктантлар ёзинг.*

Математика дарсларида билиш имкониятлари ва қобилиятларини ривожлантиришга қаратилган махсус масала ва машқлардан мунтазам равишда фойдаланиб, кичик ёшдаги ўқувчиларнинг математик дунёқарашини шакллантиради ва ривожлантиради, математик маданиятини шакллантиради, математик тайёргарлик даражасини юқорига кўтаради, болаларга уларни ўраб турган оламдаги энг содда қонуниятларни англаб олишга ва ўзларига бу оламда дадил йўл топишларига, мактабда олган математик билимларидан кундалик ҳаётдаги турли масалаларда фаол қўллашни ўрганадилар.

Ўқитувчининг таълим жараёнида ўқувчиларнинг билишга бўлган қизиқишларини уйғотиш, ривожлантириш, орттириш ва мустақамлаш, шунингдек фаолиятларини ижодий ва маҳсулдор қилиш бўйича маҳорати ўз фани бўйича машғулотларни бой, ранг-баранг, қизиқарли қилиб ўтказишига боғлиқ.

Компьютер ва замонавий ахборот технологиялари ўқувчиларни мотивлашни кучайтириш имконини бера олади. Хаттоки, оддий компьютерда ишлашнинг ўзи ҳам ўқишга бўлган қизиқишни орттиришга сабаб бўла олади. Бундан ташқари, компьютерлар ўқув масалаларини мураккаблик даражаларига кўра таклиф этади ва бу жараёни тўла бошқара олади, тўғри ечимларни рағбатлантириши эса мотивлаштиришда ижобий роль ўйнайди.

Бундан ташқари, компьютер ўқишга бўлган битта ёмон муносабатни, яъни тушунмаслик ҳамда билимларда бўлган бўшлиқлар оқибатида юзага келадиган ўзлаштирмасликни бартараф этишга ёрдам беради. Компьютерда ишлар экан, ўқувчи зарур ёрдамларни олган ҳолда масалани охиригача

ҳал қилишга ҳаракат қилади. Мотивлаштириш манбаларидан бири – бу қизиқарлиликдир. Бу ўринда компьютернинг имкониятлари чексиз. Бу ерда асосий эътиборни қизиқарлиликка қаратиб, ўқув мақсадларидан четга чиқиб кетмасликка ҳаракат қилиш зарур.

Ўқувчилар учун мўлжалланган масалаларнинг типлари ҳам ўзгаради ва моделлаштириш, алгоритмлар қуриш, дастурлаш каби ҳолатлар тез-тез учрайдиган бўлиб қолади.

Компьютер ўқувчилар фаолиятини назорат қилишни сифат жиҳатидан юқори даражага кўтара олади ва таълим жараёнини мослашувчан қила олади. Компьютер ҳамма ўқувчиларнинг барча жавобларини назорат қилади, аксари ҳолларда нафақат уларнинг хатоларини қайд қилади, балки хатоликнинг турини етарлича даражада аниқлайди. Бу эса ўқувчига йўл қўйилган хатоликни тезда бартараф этишга имкон беради. Агар компьютер ўқувчиларга паст баҳо қўйса, улар бу хатоликларни бартараф этишга зудлик билан киришадилар. Бу ерда ўқитувчининг ўқувчиларни тартибга чақиришига ҳам эҳтиёж қолмайди. Чунки, ўқувчи агар ишдан чалғиса, вақти тугаб қолишини ва 10-15 секунддан кейин навбатдаги янги масала тақлиф қилинишини ҳис қилади ва бутун диққат-эътиборини ўзи ишлаётган масалага қаратади.

Кўриниб турибдики, бошланғич синфлардаги математика фани бўйича машғулотларда компьютер ва замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш машғулотларни ҳақиқатдан ҳам замонавий даражада ташкил қилинишига олиб келади, таълим жараёнини индивидуаллаштиради, натижаларни назорат қилиш ва уларнинг ҳаққоний ҳамда ўз вақтида бўлишига имкон беради.

Адабиётлар

1. Абдуллаева Ҳ.А., Бикбоева Н.У. ва бошқалар. Бошланғич таълим концепцияси. – Т.: “Бошланғич таълим”, 1998.
2. Ғаффорова Т. Бошланғич таълимда замонавий педагогик технологиялар. - Т.: “Тафаккур”, 2011.
3. Ахмедова Н., Иноятова М., Матназарова К. Бошланғич таълимдаги муаммоларни бартараф этиш йўллари. Методик тавсиялар. – Т.: library.ziyonet.uz/ru/book/download/16233, 2015.

Мохира ТУРДИЕВА

Бухоро давлат университети
мактабгача таълим
кафедраси ўқитувчиси

ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ҲАМДА ИХТИСОСЛИК ФАНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Мазкур мақолада техник олий таълим муассасаларида ўқитиладиган педагогик-психологик ва ихтисослик фанларини ўзаро интегратив ёндашув асосида ўқитиш, фанлар интеграцияси тушунчасининг моҳияти, фанлар интеграциясини таъминлаш асосларига таъсир этувчи омиллар, педагогик-психологик ва ихтисослик фанлар интеграциясини таъминлаш жараёнига қўйиладиган талаблар ҳақида фикр юритилган.

Таянч сўзлар: *олий таълим, ихтисослик фанлари, педагогика, интеграция, интегратив ёндашув, интеграцияни таъминлаш, педагогик-психологик фанлар, ўқитиш жараёни.*

В данной статье рассматривается обучение педагогически-психологических и специальных дисциплин в высших технических учебных заведениях на основе интегративного подхода, сущность понятия интеграции дисциплин, факторы влияющие к основам обеспечения интеграции дисциплин, процесс обеспечения интеграции педагогически-психологических и специальных предметов.

Ключевые слова: *высшее образование, специальные дисциплины, педагогика, интеграция, интегративный подход, обеспечение интеграции, педагогически-психологические дисциплины, процесс обучения.*

This article discusses teaching pedagogical-psychological and special disciplines in higher technical educational institutions on the basis of an integrative approach, the essence of the concept of integration of disciplines, factors influencing the basics of ensuring the integration of disciplines, the process of ensuring the integration of pedagogical-psychological and special subjects.

Key words: *higher education, special disciplines, pedagogy, integration, integrative approach, ensuring integration, pedagogical and psychological disciplines, the learning process.*

Иқтисодий қайта қуриш шароитларида меҳнат бозорида маълум касблар ва мутахассисликларга бўлган эҳтиёж доимо ўзгариб туради. Касбий таълим тизими бу ўзгаришларга тезда мослашиши керак. Бунинг учун олий таълимнинг йўналишлари мутахассисликлари классификаторида икки, уч турдош соҳалардан иборат бўлган касблар бўйича ўқитиш кўзда тутилган. Бу ёшларнинг меҳнат бозоридаги касбий ҳаракатчанлигини ва янгиланаётган ишлаб чиқариш шароитларида тезда мослашувини таъминлайди.

Ш.М.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришишига бағишланган тантанали маросимда, яъни Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқида “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” - деб таъкидлаганлари бежиз эмас Олий таълимнинг вазифаси – етук шахс, малакали мутахассисни шакллантиришдир. Олий таълим битирувчиси учун асосий мезонлардан бири – узлуксиз таълим олиш учун зарур бўлган асосий тушунчаларни ўз ичига олган юқори даражадаги билим, кўникма ва малакага эга бўлишдир. Олий таълим муассасалари битирувчиларининг ушбу талабларга жавоб беришлари учун талабалар ихтисослик ва мутахассислик фанлари атрофида содир бўлган жараёнларни ўрганишда яхлит ёндашувга асосланишлари керак.

Республикамиз олий таълим муассасаларида касбий-педагогик таълим узвийлиги ҳамда узлуксизлиги, педагогик-психологик фанлар ва ихтисослик фанлари интеграциясини таъминлаш каби ўз ечимини кутаётган долзарб муаммолар мавжуд бўлиб, бугунги узлуксиз таълим талабларидан келиб чиқиб, мазкур масалалар юзасидан йиғилган фикр-мулоҳазаларга илмий-амалий асосланган аниқликлар киритиш ҳамда касбий-педагогик ва техник таълим интеграциясини таъминлашни амалга ошириш фурсати етиб келди.

Шу нуқтаи назардан ўқув фанлари орасида ўзаро интеграцияни таъминлаш муаммоси ҳам ҳозирги кундаги долзарб вазифалардан ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, ҳозирги пайтда фан ва таълимнинг интеграциясини ривожлантириш муаммоси анча долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Қатор педагог олимлар ва тадқиқотчиларнинг фикрларига кўра, фанларни интеграциялаш – мавзуларнинг такрорланмаслиги, вақтни тежаш, яъни кам вақт сарфлаб катта ҳажмдаги материални ўзлаштириш имконини беради ва ўзида ташкилотчилик вазифасини ҳам ифодалайди. Юқорида кўрсатилганлар ҳисобга олинганда, ўқитишнинг рентабеллиги ҳам ошади. Интеграциялаш асосларига таъсир этувчи бир қанча қуйидаги асосий омиллар мавжуд:

- фанлар ривожланишининг объектив қонуниятлари;
- илм-фан тараққиётини ҳисобга олган ҳолда таълим мазмунини белгилаш;
- давлат таълим стандартлари ва малака талаблари;
- таълим вазифалари;
- билимлар синтези;
- таълим жараёни ва мазмуни бирлиги;
- ўқув режа ва дастурларининг бир-бирини ўзаро белгилаши;
- моддий техник база;
- педагогик, инновацион ва ахборот технологиялари.

Ўзбекистон Республикасининг таълимга оид қатор ҳужжатларида таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий тамойилларидан бири сифатида эътироф этилган. Бевосита шу тамойилга боғлаб олиб борилаётган педагогик тадқиқотларда “изчиллик”, “узвийлик” каби тушунчалар ишлатилиб, улар турлича талқин қилинмоқда.

Шу ўринда “интеграция” сўзи ҳам бирлаштириш деган маънони билдиради. Педагог-психологлар ва олимлар томонидан техник олий таълим муассасаларида таълим жараёнида узвийлик ва фанлараро алоқадорликни таъминлашнинг моҳияти хусусида бир қатор фикрлар айтилган. Жумладан, талабаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда фанлараро алоқанинг аҳамияти масаласида тўхталиб, қуйидаги фикрлар билдирилган: “Олий таълим муассасалари талабаларини маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг муҳим омилларидан бири фанлараро алоқадир. Педагогик тажриба шуни кўрсатмоқдаки, техник олий таълим муассасаларида ижтимоий фанларнинг ўқитилиш жараёнида мавзулараро, бўлимлараро боғланиш натижасида талабаларда мустақил фикрлаш, ташаббускорлик, билимларни пухта ва онгли ўзлаштириш кўникмалари шаклланади, ўспирин маънавий-ахлоқий ҳодисаларни кузатади, хотирада сақлайди, исбот қилади, қийслайди. Натижада уларда боғланишли нутқ, ижодий тафаккур ривожланади. Талаба-ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда фанлараро ёхуд ўқув предметлариаро боғланишни амалга ошириш жамият ва ўқув муассасалари талабаларини бажаришга ёрдам бериб, таълим-тарбия бирлиги (яхлитлиги)ни таъминлайди”.

Интеграция нафақат субъектлараро муносабатлар нуктаи назаридан, балки технологиялар, усуллар ва таълим шакллариининг интеграцияси сифатида ҳам эътиборга олиниши керак.

Шунинг учун, мавжуд бўлган таълим фаолиятининг турли хил усулларини бирлаштириш, уларнинг тўғри бирлашиши муҳим аҳамиятга эга. Бу эса муваффақиятга ва тажрибаларнинг натижаларига боғлиқ.

Ўқув предметлариаро боғланишнинг педагоглар томонидан тўғри ташкил қилинмаслиги талаба-ёшларни чуқур маълумотли қилиш, эгалланган билим ва тушунчалар асосида ўспиринларда маънавий-ахлоқий дунёқарашни шакллантириш жараёнини мураккаблаштиради.

Узлуксиз таълим тизимининг асосий босқичлари бўлган мактабгача таълим, умумий ўрта таълим ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг янги тизими ташкил этилди ва улар учун ўқитувчилар, муҳандис-педагог кадрлар тайёрлаш мазмуни, шакли ва тартибларининг самарадорлиги ошириб борилмоқда.

Юқоридагилардан кўринадики, фан ўқитувчиси биринчи навбатда:

- фан бўйича давлат таълим стандарт (малака талаб)лари ва ўқув дастурларини мукамал билиши;
- талабалар ўзлаштирган билим ва кўникмаларини амалиётда мустақил қўллашга ўргатиши;
- гуруҳда ва дарсдан ташқари таълим, яъни фан тўғаракларида талабанинг қизиқишига кўра машғулотлар олиб бориши;
- талабаларни маънавий – ахлоқий тарбиялай олиши, уларнинг ҳуқуқларига оид қонунчилик талаблари тўғрисида маълумот бера олиши;
- талабаларни касбга йўллай олиши керак.

Техник олий таълим муассасалари ва ишлаб чиқариш корхоналарида талабалар ўқув фаолияти ва инженер-педагоглар (стажировкаси) таълими учун ўқитувчиларни тайёрлашда узвийликни жорий қилиш фанлар дастурларининг дидактик мослигини ўрнатиш учун асос бўладиган қоидаларни излаб топиш, касбий ўқитишни ташкил этишда узвийликнинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб

хисобланади. Шу билан бир каторда, ўқитиш жараёнида ёндош фанлар орасидаги алоқаларни амалга оширишнинг шакллари, усуллари ва услубларини ишлаб чиқиш талаб этилади.

Асосий муаммолардан бири, техник соҳага оид касб-ҳунар таълимида фаолият турлари ва фанлар орасидаги узвийлик тўлиқ таъминланиши орқали, талабаларда касбий билим ва кўникмаларни тармоқ таълим стандартлари ва малака талаблари даражасида тўлиқ ўзлаштиришнинг илмий асосланган тизимини яратишдан иборат.

Касбий фанларнинг хусусий мақсадлари таълим стандартининг умумий мақсадларини амалга оширишга йўналтирилган бўлиши ва назарий, амалий дарслар ҳамда ишлаб чиқариш амалиёти орасидаги интеграция таъминланиши, таълим олувчиларнинг касбий фаолият турларини мукамал ўзлаштиришда кенг имкониятлар яратади.

Тадқиқотчилар фан ва таълимдаги янгиликларни ўзлаштириш, педагогик-психологик ва ихтисослик фанлар интеграциясини таъминлаш жараёнида куйидаги талабларга эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлайдилар:

- жараёнларнинг ўзаро боғлиқлиги – тизимлилик, яъни ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ва олий таълим тизимларида таълим босқичлари алоқадорлиги;

- фанлар блокларидан узвийлик – умумтаълим фанлар, умумкасбий ва махсус фанларнинг ўзаро узвийлик ва интеграция жараёнлари;

- фанлар блоклари ичидаги узвийлик, яъни таълим жараёнида фанлар мазмуни, ўқитиш методлари ва шакллари, технологияси ва ўқитиш воситаларининг ўзаро боғлиқлиги.

Демак, таълим интеграцияси дейилганда, нафақат билимларни предметлараро боғланиши, балки ўқитиш технологиялари, усул ва шакллари интеграцияси ҳам тушунилади. Ўқув жараёнида самарадорликка эришиш учун интеграциянинг турли даражаларидан фойдаланиш мумкин. Масалан, ўқув дастурларидаги интеграция (мавзулараро уйғунлик); модуллашган интеграция (турдош ўқув фанларига оид билим ва тушунчаларни тизимлаштирган ҳолда тақдим этиш); интегротив дастурлар (дастурларда бир неча ўқув предмети ёки ўқув фанларига оид мавзуларни уйғунлаштирган ҳолда тақдим этиш); мавзулараро интеграция (айни бир курс доирасида бериладиган ўқув материалларини бошқа бир курс ўқув материали билан уйғунлаштириш); мавзуларни кетма-кет баён этиш асосидаги интеграция (ўқув материални баён этишдаги концентризм тамойили, яъни олдинги ўқув материалининг кейингисини мазмунан тўлдириши); ахборот технологиялари асосидаги интеграция (ўқув фанларини компьютер технологиялари асосида ўқитиш).

Ушбу таҳлиллар шундан далolat берадики, техник олий таълим муассасаларида педагогик-психологик ва ихтисослик фанларнинг интеграциясини таъминлаш таълим жараёнининг устувор йўналишларидан биридир. Фанлараро интеграция ўқув-билиш жараёни мазмуни, методлари ва шаклини ўзгартириб, таълим олувчиларда билим, кўникма ва малакаларнинг ўзаро боғлиқ ҳолда шаклланишига хизмат қилади.

Фанлараро алоқалар ва интеграция муаммосининг услубий моҳиятида ўқув жараёни шундай ташкил этиладигани, унда бошқа фанларни ўрганиш учун бир фанни ўрганишда эгалланган билим, кўникма ва малакаларнинг фойдаланилиши ўз ўрнига эга бўлади. Демак, фанлараро интеграциянинг асосий масаласи бўлиб, мумкин бўлган алоқаларининг асосий оқимларини аниқловчи таснифи хисобланади, яъни ўқитиладиган материаллар, баъзи кўникмалар, илмий усуллар мазмунининг умумийлаштирилганлиги тушунилади.

Фанлараро интеграциянинг имкониятларини, шунингдек, уларни жорий қилиш шакллари тўлиқ, ҳар томонлама аниқлаш учун бир вақтнинг ўзида уларнинг турли хил жиҳатларини қамраб олиш лозим.

Ошанин объектнинг яхлитлик тузилмаси тушунчасини объектнинг барча элементлари ўртасида мавжуд бўлган ва объектни тизим сифатида тавсифловчи алоқаларнинг тўплами сифатида аниқлаб беради. Бир даражали - горизонтал ва кўп даражали - вертикал тузилмалар тушунчасини киритиб, вертикал тузилма деганда, кўргазмалиликнинг турли даражаларида бўлган объектнинг тавсифларини бирлаштирувчи функционал алоқалар тизими тушунилади.

Демак, вертикал узвийлик ва вертикал тузилмаларнинг пайдо бўлиши ўртасида, горизонтал узвийлик ва бир даражали тузилмалар ўртасида ўхшашлик борлиги кузатилади.

Ривожланишнинг қонунияти сифатида узвийлик олдинги босқичларнинг баъзи вазиятларини олий поғонада такрорлашни, юқори даражада бўлмасида, эскига ўзига хос қайтишни тавсифлайди. Г.А.Клековкиннинг фикрича, биринчидан, тизимнинг келажакдаги ривожланишини етарли даражадаги ишонч билан олдиндан айтиши ва башорат қилиши мумкин. Иккинчидан, тизимнинг ҳозирги ҳолатини таҳлил қилишда изланишни унинг пайдо бўлиш тарихи ва олдингисини ўрганишга йўналтиради. Ва ниҳоят, учинчидан, аксинча, тизимнинг ўтмишдаги ҳолатини таҳлил қилишда, унга

ривожланишнинг ҳозирги даражасини билган ҳолда ёндашиш зарурлигини кўрсатади. Мазмунни лойиҳалаш, ўқитишнинг мақбул моделларини танлаш ва ўқувчиларнинг ўқиб - ўрганиш фаолиятини самарали бошқаришда айтиб ўтилганларни ўқитишнинг узвийлиги тамойилида яхлитлаштириш мумкин деб ҳисоблайди.

Б.Абдуллаева таъкидлашча, фанлараро алоқадорлик ижтимоий жараён бўлиб, фанларни боғловчи субъектларни уларнинг табиий, ижтимоий ва шахсий мавжудликлар қонуний боғлиқликлари ва амалий омилларига янада чуқурроқ когнитив кириб бориш “доимий” жараёндир.

Ўқув жараёнида фанлараро алоқадорликнинг имкониятларини тўғри идрок этишнинг ўзига хослиги шундаки, ўқувчилар ушбу объектларнинг бир-бирига мазмунан боғланишини, бири иккинчисини тўлдиришини, уларни бир-биридан ажратиб ўрганиш мумкин эмаслигини тушунадилар.

Фанлараро алоқадорлик хусусиятларини ўрганишда педагогик ёндашув: ўқитувчи ўқувчиларнинг қайси фанларга кўпроқ қизиқиши, ўқув муассасаси ва ота-оналар орасидаги ўзаро алоқалар, мактаб ва ишлаб чиқариш корхоналари ўртасидаги муносабатларнинг баъзи жиҳатлари педагогик истиқболлар, анъаналар самарадорлиги билан танишади.

Фанлараро алоқадорлик асосида: дидактик идрок этиш жараёнлари асосида ўқитувчи ўрганилаётган ўқув предметининг мақсад ва вазифалари, тузилиши, бошқа ўқув предметлари билан алоқадорлиги, улар ўртасидаги боғланиш воситалари, муносабатлар, коммуникацион дидактик воситалар самарадорлиги билан танишади.

Фанлараро алоқалар муаммосини ҳал этиш ўқув жараёни мазмуни, методлари ва ташкил этишни белгилашда муҳим аҳамиятга эга. Фанлараро алоқалар билишга диалектик ёндашув асосида тадбиқ қилишдир. Қуйида фанлараро алоқалар бевосита ўқув жараёнида аввало янги билимларни баён қилишда қандай амалга оширилиши ҳақида сўз боради, бу эса ўқитувчилар ўқув жараёнида амалга оширадиган фанлараро алоқаларнинг субъектив жиҳатидир. Ўқувчилар ўрганадиган фанлар сони кўп бўлиб, асосан турлича малака ва кўникмалар шакллантирилади. Буларнинг барчасини улар яхлит ўзаро боғлиқ комплекс сифатида идрок этиши керак.

Фанлараро алоқани режалаштиришда биринчи навбатда ёндош фанлар бўйича дастурларда акс эттирилган масалалар кўзда тутилади. Бунда фанлараро алоқалар синхрон, истиқболли ва ретроспектив бўлиши мумкин. Бироқ, фанлараро алоқалар дастурларда ҳамма вақт акс эттирилмаган бўлиши мумкин ва билимлар тизимини ўзлаштириш ва илмий дунёқарашни шакллантириш мақсадларида уларни қайта ишлаш ва ўқитишда махсус киритиш лозим.

Фанлараро алоқаларни амалга оширишнинг услубий усуллари таснифи, услубларни тақсимлашнинг қуйидагиларни ташкил қилувчи умумий тамойилига бўйсунди: фанлараро изланиб ўрганиш фаолиятини; бошқа фанларнинг билимларни қайта ишлаш ва фанлараро муаммоларни ечишга қўмаклашишни; ёрдамчи жараёнларни.

Б.С.Абдуллаеванинг фикрига кўра, фанлараро алоқадорликнинг педагогик вазифаси ҳақидаги фикрларнинг турли хиллиги уларнинг ўқув жараёнида кўп қиррали намоён бўлиши сабабдир. Бундан ташқари, бунга педагогиканинг бошқа фанлар билан алоқадорлигини етарлича ҳисобга олмаслик таъсир кўрсатади. Энди фанлараро алоқадорликнинг турларини кўриб чиқайлик, чунки тўғри турларга ажратиш тушунчаларнинг ривожланиш қонуниятларини акс эттириб, улар орасидаги алоқадорликни очиб беради, бу эса алоқадорликларни ўқув жараёнида амалга ошириш учун илмий-амалий шарт-шароитлар яратишга ёрдам беради.

Б.С.Абдуллаева предметнинг ички тузилиши шакл бўлганлиги боис алоқадорлик шакллари куйидагича ифодалайди:

1. Таркиби бўйича.
2. Ҳаракатлар бўйича.
3. Йўналтирувчи элементларнинг ўзаро алоқалари усули бўйича.

Фанлараро алоқадорликнинг турларини эса:

- 1) мазмуни;
- 2) операция;
- 3) методик;
- 4) ташкилий кабиларга ажратади.

Демак, таълимда узвийлик ва узлуксизлик, интеграция муаммосини тўла ҳал этиш учун нафақат фанлараро, алоқадор таълим босқичлари ва курслараро узвийлик ва узлуксизликка эътибор бериш, фан ва ишлаб чиқариш орасидаги интеграцияни ўрнатиш, ўқитишнинг шакл ва методларида ҳам узвийликни таъминлаш муҳимдир.


Юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики, узвийлик ва интеграция кўп қиррали тушуналар бўлиб, таълим ва тарбия жараёнини тадқиқот қилиш ва бошқаришни таъминлайди ҳамда фаннинг мақсадини рўёбга чиқаришга имконият яратади.

Таълимнинг “интеграция” тамойилини ҳам фанлар интеграцияси каби бир неча хил кўринишда кўриб чиқиш мумкин: таълим турлариаро, босқичлараро, фанлараро ва мавзулараро интеграция. Бунда интеграциянинг охириги кўринишларида фанларни ўқитиш услуги, яъни уларнинг мазмунини баён этилиш методига таянган ҳолда турдош фанлар мазмунидан фойдалана билиш, мустақил ишлашга ҳаракат қилиш, шунингдек, услубият ва мазмунан кузатиладиган ўхшашликни қўллашда кузатилади.

Хулоса қиладиган бўлсак, интеграция – бу таълим турлари орасида, фанлараро ва мавзулараро ўзаро боғлиқлик ва муносабатларни тўғри ўрнатилишини таъминлашдан иборат бўлиб, таълим-тарбия жараёнининг сифатига таъсир кўрсатувчи муҳим тушунча сифатида таълимнинг маълум босқичи, фан ёки мавзуларининг муайян кетма-кетлик ва изчиллигини таъминлаш орқали талабалар билимини чуқурлаштириш ва ривожлантиришга хизмат қиладди. Демак, педагогик-психологик ва ихтисослик фанларининг интеграциясини таъминлаш жараёни кўп қиррали масала бўлиб, таълим ва тарбия жараёнини тадқиқот қилиш ва бошқаришни таъминлайди ҳамда фаннинг мақсадини рўёбга чиқаришга имконият яратади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли қарори
2. Тўхтаева З.Ш., Қаноатова Д. Внедрение в практику интеграционных связей между техническими предметами. Учёный XXI века. Международный научный журнал № 6-3 (41), июнь 2018. – С. 41-42.
3. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликда дидактик жараённинг когнитив тузилиши. №1. Педагогик таълим. -Тошкент, 2006. - 34-37 б.
4. Клековкин Г.А. Преемственность в обучении. В поисках теоретических оснований. – Самара, 2000. - С. 328.
5. Тўхтаева З.Ш. Касб-ҳунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси. П.ф.н. ... диссертацияси. Тошкент, 2012. - 156 б.
6. Ошанин Д.А. Предметное действие и оперативный образ. – М.: Московский психолого-социальный институт // Воронеж: НПО МОДЭК, 1999, - С. 52.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

2340200000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2020-yil maxsus son</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas‘uldir.</p> <p>Nashr uchun mas‘ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: Gulchehra Cho‘lliyeva</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 15.12.2020 Bosmaxonaga topshirish vaqti 16.12.2020 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 19,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 225 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	--